

IKKINCHI NASHR, 2011-yil

# BUTUNJAHON MEROSI NOMZODLARINI TAYYORLASH

Resurs qo`llanma

Butunjahon merosi



Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (7, place de Fontenoy, 75352 Parij 07 SP, Frantsiya)  
va  
YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi (Ergashev ko'chasi, 9-uy, 100084, Toshkent, O'zbekiston)  
tomonidan 2022-yilda chop etilgan,

© UNESCO / ICCROM / ICOMOS / IUCN, 2023

ISBN 978-92-3-000188-9



Ushbu nashrdan Attribution-NonCommercial-ShareAlike 3.0 IGO (CC-BY-NC-SA 3.0 IGO) litsensiyasi asosida erkin foydalanish mumkin (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc-sa/3.0/igo/>). Ushbu nashr mazmunidan foydalanish orqali, foydalanuvchilar YUNESKOning foydalanishi ruxsat etilgan ma'lumotlar arxividan foydalanish shartlariga rozilik beradi ([www.unesco.org/open-access/terms-use-ccbysa-en](http://www.unesco.org/open-access/terms-use-ccbysa-en)).

Asl sarlavha "Preparing World Heritage Nominations" (Second edition, 2011)  
2011-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Madaniy boyliklarni saqlash va tiklashni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz (ICCROM), Yodgorliklar va tarixiy obidalar bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS) va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) tomonidan nashr etilgan.

Ushbu nashrda foydalanilgan belgilar va materiallarning taqdimoti YUNESKO, Madaniy boyliklarni saqlash va tiklashni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz (ICCROM), Yodgorliklar va tarixiy obidalar bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS) va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) tomonidan biron bir davlat, hudud, shahar yoki tumanning, uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi yoki chegaralarini delimitatsiya qilish to'g'risida hech qanday fikr bildirishni anglatmaydi.

Ushbu qo'llanmaning ingliz tilidagi asl nusxasidan tarjimasidagi har qanday xato va kamchiliklar yoki tushirib qoldirilgan ma'lumotlar YUNESKO ning Butunjahon Merosi Markazi, Madaniy boyliklarni saqlash va tiklashni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz (ICCROM), Yodgorliklar va tarixiy obidalar bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS) va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) va boshqa ishtrokchi tashkilotlar tomonidan rad etilsin.

Ushbu qo'llanma ikkinchi nashrdir. 2010 yilgi birinchi nashrda Jahon merosi konventsiyasini (2008y) amalga oshirish bo'yicha Operatsion ko'rsatmalardan ma'lumotnoma sifatida foydalanilgan. Ushbu qo'llanma Operatsion ko'rsatmalarning (2011y) yangi versiyasiga asoslangan

Tarjima: IB Translation MCHJ

Tahrirlash: IB Translation MCHJ

Muqova fotosurati: Maloti Drakensberg xiyoboni, Janubiy Afrika

© OUR PLACE - The World Heritage Collection

Asl grafik dizayn: Recto-Verso

O'zbek tilida maket: IB Translation MCHJ

Mazkur loyihani amalga oshirishda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlari Sanjarbek Allayarov, Zulfiya Narbayeva va Tatyana Trudolyubovaga ko'maklari uchun alohida samimiy minnatdorchilik izhor etamiz.

## Butunjahon merosi manbalari bo'yicha qo'llanmalar turkumi haqida

1972-yilda Butunjahon merosi Konvensiyasi qabul qilingandan beri, uning Butunjahon merosi ro'yxati doimiy ravishda shakllanib va kengayib bormoqda. Ushbu rivojlanish munosabati bilan Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Ishtirokchi-davlatlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish bo'yicha qo'llanmaga nisbatan jiddiy ehtiyoj paydo bo'ldi. Ekspertlarning turli uchrashuvlari va davriy hisobotlar natijalari, Ishtirokchi-davlatlar va Butunjahon merosi obyektlari boshqaruvchilarini ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan muayyan sohalarda maqsadli o'qitish va salohiyatini oshirish zaruriyatini aniqladilar. Butunjahon merosi manbalari bo'yicha qo'llanmalar turkumining ishlab chiqilishi ushbu ehtiyojga javobidir.

Ushbu turkumning chop etilishi Butunjahon merosi Konvensiyasining uchta maslahat organi (ICCROM, ICOMOS va IUCN) va Konvensiya kotibiyati sifatida faoliyat yuritadigan YUNESKO Butunjahon merosi markazining qo'shma loyihasi hisoblanadi. Butunjahon merosi Qo'mitasi o'zining 30-sessiyasida (Vilnyus, Litva, 2006-yil, iyul) ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatladi va maslahatchi organlarni hamda Butunjahon merosi markaziga bir qator tematik manba qo'llanmalarini tayyorlash va chop etishni davom ettirish to'g'risida topshiriq berdi. Qo'mitaning 31-(2007) va 32-(2008) sessiyalarida nashr etilish rejasi qabul qilindi va mavzular ro'yxati belgilandi.

Uchta maslahatchi organ va Butunjahon merosi markazi a'zolaridan tashkil topgan Tahririyat kengashi tahririy va turli-tuman masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun muntazam ravishda yig'iladilar. Har bir qo'llanma uchun, mavzusiga qarab, maslahatchi organlardan biri yoki Butunjahon merosi markazi yetakchi muvofiqlashtiruvchi muassasa vazifasini bajaradi, yakuniy ishlab chiqarish esa Butunjahon merosi markazi tomonidan ta'minlanadi.

Foydalanuvchi uchun qo'llanmalar Ishtirokchi-davlatlar, merosni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat organlari, obyekt uchun mas'ul rahbarlari va Butunjahon merosi obyektlari bilan bog'liq mahalliy hamjamiyatlarga, shuningdek, obyektlarni aniqlash va saqlab qolish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa manfaatdor tomonlarga Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ko'rsatmalar berish uchun mo'ljallangan.

Ular bilim berishni va yaxshi himoyalangan hamda samarali boshqariladigan obyektlardan iborat aniq va ishonchli Butunjahon merosi ro'yxatini yaratishga yordam berishni maqsad qilgan.

Qo'llanmalar Butunjahon merosi Konvensiyasi bo'yicha salohiyatni kuchaytirish, xabardorlikni oshirish uchun foydalanuvchilarga qulay vosita sifatida ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, ular Konvensiya matnini va *Operatsion qo'llanmani* tushunish uchun asosiy qoidalarni to'ldirishi kerak.

Ushbu to'plamdagi mavzular bepul yuklab olinadigan onlayn PDF hujjatlar sifatida ishlab chiqiladi.

# Muqaddima

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha mashaqqat va qiyinchiliklar kundalik ravishda paydo bo'layotgan bir paytda, uzluksiz o'zgarib borayotgan dunyoda moslashuvchanlik salohiyati Butunjahon merosini muhofaza qilish Konvensiyasining asosiy ustunliklaridan biridir. Konvensiya matni mohiyatan o'zgarmagan bo'lsa-da, uning amaliy yo'riqnomalari, Konvensiya tamoyillari tatbiq qilinadigan chora-tadbirlar, yangicha qarash va jarayonlarni uyg'unlashtirish va shakllantirishga zamin yaratadi. Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha *Operatsion qo'llanmaning* so'nggi tahrir soni (2011-yil avgust) ushbu yangi g'oyalar haqida so'z yuritibgina qolmay, o'sib borayotgan umumiy tajribamizni ham aks ettiradi.

1990-yillarning yakunida olib borilgan Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan barcha nomzodlar hujjat ma'lumotlarining batafsil tahlili, Konvensiyaga bo'lgan ishonchga putur yetkazishi mumkin bo'lgan holatni aniqladi. Ro'yxatga kiritilgan obyektning chegaralari kabi muhim tarkibiy ma'lumotlari ko'p hollarda noaniq yoki noma'lum qilib belgilangan edi. Nomzodlar haqidagi ma'lumotlar juda umumiy va bir necha betdan iborat bo'lgan yuzaki axborot holida taqdim etilgan. Bu darajada cheklangan hujjatlar bilan ro'yxatga kiritilgan ob'ektlarning nafaqat himoyaga olinishi, balki boshqarilish jarayoniga ham putur yetishi mumkin edi.

Ushbu kamchiliklar, yanada takomillashtirilgan nomzodlik jarayonini yaratishni taqozo qildi. Nomzodlikka da'vogar obyektlar hujjatlarini to'liq tekshiruvdan o'tkazish 1999-yilda joriy etildi. Shu vaqtga qadar nomzodlar hujjatlari, Kotibiyat tomonidan tekshirilmasdan, to'g'ridan to'g'ri Maslahatchi organga jo'natilar edi. Oqibatda 1978—1998-yillar orasida ro'yxatga olingan nomzodlik hujjatlarining kattalagina qismi talabga javob bermaydi, deb topildi.

2005-yilda Konvensiya bo'yicha *Operatsion qo'llanmaning* qayta ko'rib chiqilgan talqini kuchga kiringanda, nomzodlik hujjatlarini to'liqligini tekshirish ro'yxati va yangi, yanada batafsil va izohli nominatsiya formati Butunjahon merosi Qo'mitasi tomonidan rasman ma'qullandi. 1999-yildan buyon nomzodlar bo'yicha ma'lumotlar sifati va darajasining umumiy yaxshilanishi, Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirdi. Bundan tashqari, u ro'yxatga olingan ob'ektlarning saqlanish holatini tekshirish jarayonini kuchaytirish va osonlashtirish orqali Konvensiyani amalga oshirishni kuchaytirishga yordam berdi.

Keng qamrovli tus olib borayotgan talablar bilan bir qatorda, nomzodlarni tayyorlash muhim va shu bilan birga puxta o'rganilishini taqozo etadigan murakkab jarayonga aylandi. Nomzodlarni taklif qilish jarayonida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki, Butunjahon merosi obyektini saqlash bo'yicha ularning Ishtirokchi-davlat bilan birga merosni saqlash uchun mas'ul bo'lishida muhimdir va bu rag'batlantirilishi lozim.

Nomzodlik taklifi Maslahat organlari baholashi bilan bir qatorda, Qo'mita ob'ektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun bosh asos hisoblanadi. Mazkur hujjatni manfaatdor Ishtirokchi-davlat va xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi kelishuvga qiyoslash

mumkin, bunda birinchi tomon o'z hududida ma'lum bir obyektning muhofaza qilish va boshqarish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, ikkinchi tomon esa qo'llab-quvvatlash va yordam berishga va'da beradi. Har qanday kelishuv kabi nomzodlik taklifi aniq va to'liq ma'lumotlarni o'zida qamrashi lozim. Aks holda, manfaatdor Ishtirokchi-davlat va xalqaro hokimiyat o'rtasidagi kelishuv ijrosini ta'minlash hamda Butunjahon merosi Konvensiyasining samarali tatbiq etilishi ancha murakkablashadi. Aynan shu sababdan Ishtirokchi-davlatlarga nomzodlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanma, jarayonning turli bosqichlarini to'liq yorituvchi va foydalanuvchi uchun qulay ko'rinishda taqdim etilishi muhim.

Butunjahon merosiga ko'rsatilgan e'tibor va e'tirof natijasida obyektlarning Butunjahon Merosi ro'yxatiga kiritilishiga bo'lgan qiziqish va xohish ortib bormoqda. Shu asnoda, "Dastlabki ishlov berish" jarayonlari kabi yangi tartib-qoidalarning maqsadga muvofiqligi sinovdan o'tkazilayotgan bo'lsa-da, ushbu qo'llanmaning ahamiyati, Ishtirokchi-davlatlarning Buyuk Butunjahon muslsiz qiymati uchun yangi asoslarini taqdim etadigan nomzodliklarni ishlab chiqishga qiziqishini ortib borishi va nomzodlarni qo'llab-quvvatlash uchun yangi mavzularning paydo bo'lishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, obyektlarning nomzodlikka qo'yish qonun-qoidalarining murakkablashib borayotganligini hisobga olgan holda ma'lumot beruvchi eslatmalari va amaliy ko'rsatmalar zarurdir, bu esa, xususan, millatlararo obyektlar turkumi, jumladan ba'zi qit'alararo xususiyatga ega bo'lgan obyektlar uchun nomzodlar sonining ortib borayotganidan ham ma'lumdir.

Ushbu qo'llanma Maslahatchi organlar va shu sohadagi bir qator mutaxassislarining qimmatli yordami natijasida, yuqoridagi zaruriyatlarga asoslangan holda ishlab chiqildi. Umid qilamizki, mazkur qo'llanma Butunjahon merosini himoya qilishni ta'minlashga yordam berish uchun muvaffaqiyatli nomzodlarni tayyorlashda Konvensiya bo'yicha *Operatsion qo'llanma* matnini to'ldirish uchun samarali vosita bo'ladi.

**Kishore Rao,**

*YUNESKO Butunjahon merosi markazi direktori (2011 – 2015)*

# Ishtirokchilar

## Muvofiqlashtiruvchi muallif

Duncan Marshall

## UICN mualliflari

Tim Badman  
Bastian Bomhard  
Pedro Rosabal  
Paul Dingvall

## ICOMOS mualliflari

Duncan Marshall  
Susan Denyer

## Taqrizchilar / boshqa ishtirokchilar

Alessandro Balsamo  
Gvenael Bourdin  
Kristal Bakli  
Angel Kabeza  
Klodin Deom  
Regina Durigello  
Fillis Ellin  
Nikolas Faucher  
Jan Guo

Tilman Jaeger  
Luba Janikova  
Qiong Lu  
Zhou Lv  
Webber Ndoro  
Christophe Rivet  
Michael Turner  
Gamini Wijesuriya

Ushbu birlashtirilgan qo'llanma uchun asos bo'lgan tabiiy va madaniy merosga nomzodliklari bo'yicha avvalgi foydalanuvchi uchun qo'llanmalar loyihasi bilan bog'liq boshqa ishtirokchilar quyidagilardir:

## Tabiiy meros nomzodlari

### Taqrizchilar:

Alessandro Balsamo, Butunjahon merosi markazi  
Gay Debonnet, Butunjahon merosi markazi Mark  
Patri, Butunjahon merosi markazi Kishore Rao,  
Butunjahon merosi markazi Mechtild Rossler,  
Butunjahon merosi markazi Peter Stott, sobiq  
Butunjahon merosi markazi

Joe King, ICCROM  
Gamini Wijesuriya, ICCROM

Tarek Abdulhawa, IUCN  
Delwyn Dupuis, IUCN  
Elery Hamilton-Smith, IUCN  
Kari Lahti, IUCN  
Josephine Langley, IUCN  
Georgina Peard, IUCN  
Pedro Rosabal, IUCN  
David Sheppard, IUCN  
Kumiko Yoneda, IUCN

Jim Barborak, WCPA  
Stephanie Eissing, WCPA  
Vinod Mathur, WCPA

## YUNESKO Butunjahon merosi markazini muvofiqlashtirish

Vesna Vujichic Lugassy  
Laura Frank

## Madaniy meros nomzodligi

### Go'ya

Benedicte Selfslagh, ICOMOS

### Ishtirokchilar

Gwenaëlle Bourdin, ICOMOS  
Mishel Kotte, ICOMOS  
Regina Durigello, ICOMOS  
Jukka Jokilehto, ICOMOS

### Taqrizchilar:

Alessandro Balsamo, Butunjahon merosi markazi  
Mechtild Rossler, Butunjahon merosi markazi  
Anne Lemaistre, Butunjahon merosi markazi

Kristal Bakli, ICOMOS  
Alfredo Conti, ICOMOS  
Syuzan Denyer, ICOMOS  
Nobuko Inaba, ICOMOS  
Jukka Jokilehto, ICOMOS  
Edvard Matenga, ICOMOS  
Benedicte Selfslagh, ICOMOS

# M u n d a r i j a

■	Kishore Rao, YUNESKO Butunjahon merosi markazi direktori so'zboshi	2
■	<b>Ishtirokchilar</b>	4
■	<b>ICOMOS va IUCN kirish so'zi</b>	6
■	<b>Muqaddima</b> Resurs qo'llanma mazmuni va u haqida umumiy ma'lumot Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi hamkorlik Resurs qo'llanma kim uchun mo'ljallangan	8
<b>1</b>	<b>Butunjahon merosi tarixi</b> 1.1. Ma'lumot olish 1.2. Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun takliflarni berish jarayonining sharhi 1.3 Butunjahon merosi konsepsiyalari illyustratsiyalari	10
<b>2</b>	<b>Tayyorgarlik</b> 2.1. Obyekt to'g'risida mavjud ma'lumot 2.2. Jamoa tuzish 2.3. Mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtiroki 2.4. Nomzodni tayyorlash bosqichi va tavsiya etilgan asosiy bosqichlar	54
<b>3</b>	<b>Obyekt ta'rifi va tushunchasi</b> 3.1. Bo'lajak Butunjahon mislsiz qiymatlar, atributlar va chegaralar 3.2. Qo'shimcha maslahatlar	59
<b>4</b>	<b>Nomzodlik hujjatini yozish va tayyorlash</b> 4.1. Umumiy maslahatlar 4.2. Nomzodlik hujjati formati 4.3. Qo'shimcha maslahatlar	99
<b>5</b>	<b>Baholash jarayoni</b> 5.1. Umumiy tushunchalar 5.2. IUCN tomonidan baholash jarayoni 5.3. ICOMOS tomonidan baholash jarayoni	136
	<b>Adabiyotlar ro'yxati</b>	141
	<b>Bog'lanish uchun ma'lumot</b>	146

# Muqaddima

*Butunjahon merosi nomzodlarini* tayyorlash ICOMOS va IUCN tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tabiiy, madaniy meros va aralash diqqatga sazovor obyektlar uchun Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzodlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar beradi.

Qo'llanma 2011-yil avgustdagi Butunjahon merosi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanmaning talqiniga asoslanadi va uni to'ldirish uchun ishlab chiqilgan. Butunjahon merosi nomzodligiga ariza topshirish istagidagi har bir kishi Operatsion qo'llanmaning so'nggi talqini nusxasini olishi va uning mazmuni bilan tanishishi kerak.

Xususan, qo'llanma Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiyani amalga oshirishda Ishtirokchi-davlatlarni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek Butunjahon mislsiz qiymatini yaxshi boshqara oladigan ishonchli Butunjahon merosi ro'yxatini yaratishga yordam beradigan ko'rsatmalar va bilim berishga qaratilgan. Butunjahon merosi qo'mitasi va Ishtirokchi-davlatlar iltimosiga binoan, bu tadqiqot jarayonining istalgan dastlabki bosqichida – rasmiy baholash uchun nomzodni taqdim etishgacha – Ishtirokchi-davlatlarni qo'llab-quvvatlashga urinishdir, bunda nomzodlarni baholovchi Maslahat organlari ICOMOS va IUCN, muayyan nomzodlarni tayyorlash ustida to'g'ridan to'g'ri ishlay olmaydi. Shu bilan birga, qo'llanma Ishtirokchi-davlatlarga Butunjahon merosiga nomzodlarni taklif etishning oqibatlarini diqqat bilan ko'rib chiqishga va bu sa'y-harakatlarning obyektini muhofaza qilish uchun ham, mahalliy hamjamiyatlarning va boshqa mahalliy manfaatdor tomonlarning farovonligi uchun ham foydali bo'lishini ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqtning yetishmasligi, nomzodlarni muvaffaqiyatli taqdim etishning eng katta dushmani hisoblanadi. Juda qisqa muddat ichida haddan ziyod ko'p nomzodlar tayyorlanadi. Tegishli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rnatish va ma'lumot to'plash uchun kamida bir yil, nomzodlik matnini yozish va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish uchun yana bir yil kerak bo'ladi. Tadqiqot o'tkazish kerak bo'lganda, yangi boshqaruv tizimlarini himoya qilish, joriy etish, ularni hujjatlashtirish lozim, shuning uchun bu jarayonga ancha uzoq vaqt ketishi mumkin. Agarda maqsad – obyektini Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi va obyektini uzoq muddatli muhofaza qilish va uning taqdimotiga olib keluvchi muvaffaqiyatli nomzodlik bo'lsa, buning uchun real muddatlar belgilanishi kerak. Aksariyat hollarda yetarli tayyorgarlik uchun vaqtining yo'qligi nomzodlikka qo'yishning kechiktirilishi yoki qayta ko'rib chiqishga berilishiga olib keladi, bu esa Ishtirokchi-davlatlar, Butunjahon merosi qo'mitasi va Maslahat organlarining umidlarini puchga chiqaradi. Ba'zan nomzodni tayyorlash uchun noreal muddatlarni belgilaydigan siyosiy majburiyatlar olinadi, bu natijada nomuvofiq va baholashga tayyor bo'lmagan nomzodliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ushbu qo'llanma Ishtirokchi-davlatlarga obyektlar uchun nomzodlar ro'yxatini tuzishda yordam berish uchun zamonaviy bilim va mavjud ma'lumotlarni birlashtiradi. U Konvensiya bo'yicha Operatsion qo'llanmaning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun nomzodliklarga tegishli bo'lgan qismlarini to'g'ridan to'g'ri yoritishga va tushuntirishga qaratilgan. Bundan tashqari, obyektini nomzod qilib ko'rsatish to'g'risida



qaror qabul qilishdan oldin zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlari va nomzodlik hujjatlariga muhim elementlarning kiritilishi bo'yicha nomzodlarni tayyorlashda umumiy yondashuv bo'yicha aniq ko'rsatmalar beriladi. Biroq, qo'llanma ma'lumotlarning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. U Maslahat organlari tajribasiga ko'ra aksariyat hollarda nomzodliklarda har tomonlama tayyorlanilmaydigan jihatlarni qamrab oladi.

Nashr Butunjahon merosi jamg'armasi va Irlandiyaning Atruf-muhitni muhofaza qilish, madaniy meros va mahalliy boshqaruv bo'limi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Biz ICOMOS, IUCN va ularning tarmoqlari tomonidan moliyalashtirish va ixtiyoriy yordami uchun minnatdorchilik bildiramiz.

ICOMOS va IUCN ushbu qo'llanmadagi maslahatlarning foydali bo'lishiga umid qiladi va uni takomillashtirish bo'yicha taklif va fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

## **ICOMOS va IUCN**

# Kirish

## Resurs qo'llanmasining mazmuni va sharhi

Qo'llanmaning maqsadi Ishtirokchi-davlatlarga Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishiga taklif etiladigan nomzodliklarni yuqori sifatda tayyorlashda yordam ko'rsatishdan iborat.

Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya va Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyani bajarish bo'yicha *Operatsion qo'llanma* (so'nggi talqini 2011-avgustda berilgan) asosiy hujjatlar bo'lib, ularni Butunjahon merosi markazi veb-saytida topish mumkin. *Operatsion qo'llanma* Butunjahon merosini muhofaza qilish bo'yicha Konvensiyaning amal qilish tamoyillarini o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qo'llanmani Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan muntazam qayta ko'rib chiqiladigan *Operatsion qo'llanmaning* so'nggi talqini kontekstida o'rganish lozim. *Operatsion qo'llanma* mazkur qo'llanmadan oldin o'qilishi kerak va undagi ko'rsatmalarni nomzodliklarni tayyorlashning butun jarayoni davomida diqqat bilan o'rganib borish kerak.

Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya nizomlari va talablari bo'yicha aniq tavsiyalar Konvensiyaning o'zida va *Operatsion qo'llanmada* keltirilgan. Bunda mazkur qo'llanma Konvensiya bo'yicha *Operatsion qo'llanmaning* o'rnini bosmaydi, balki unga qo'shimcha ko'rsatmalar beradi. Barcha holatlarda Konvensiya va *Operatsion qo'llanma* asosiy axborot manbalari hisoblanadi. Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiyaning matnini (ingliz, arab, ispan, xitoy, ivrit, portugal, rus va fransuz tillarida) va *Operatsion qo'llanmani* (ingliz va fransuz tillarida) YUNESKO Butunjahon merosi markazi veb-saytida topish mumkin (<http://whc.unesco.org/>).

Nomzodlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uchun tayyorlashning turli usullari mavjud. Ularda albatta ma'muriy tuzilma va madaniyatlarning turli-tumanligi aks ettirilishi lozim. Takliflarni tayyorlash uchun biror-bir «retsept» yoki afzalroq ish uslubini tavsiya qilib bo'lmaydi. Buning uchun ko'plab samarali vositalar mavjud. Shunga qaramay, maslahat organlarining fikricha, eng munosib obyektlar nomzodlikka taklif qilinishini, obyektlar nomzodliklarda imkon qadar samarali taqdim etilishini, hamda nomzodlarni ko'rsatish jarayonining o'zi tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va samarali boshqarishga hissa qo'shishini ta'minlash uchun barcha yaxshi nominatsiyalar negizini tashkil etadigan bir nechta asosiy tamoyillar mavjud.

Obyektni Madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish bo'yicha takliflar va Tabiiy meros obyektlari ro'yxatiga kiritish bo'yicha nomzodlarni tayyorlash o'rtasida o'xshashliklar ko'p, ammo, shu bilan birga, jiddiy tafovutlar ham mavjud. Shuning uchun ushbu qo'llanmaning ba'zi bo'limlari aynan madaniy yoki tabiiy meros obyektlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ta'kidlash jo'izki, madaniy va tabiiy meros mezonlari o'rtasidagi avval mavjud bo'lgan tafovutlar endi yo'q.

Butunjahon merosini muhofaza qilish Konvensiyasining asosida «Butunjahon mislsiz qiymati» Konsepsiyasi yotadi. Bu Ro'yxatga kiritilayotgan barcha obyektlar uchun mezondir. Nomzodlikka taklifning asosiy maqsadi – obyekt nimadan iboratligi, nima uchun u potensial mislsiz qiymatga ega va bu qiymat qay tarzda qo'llab-quvvatlanadi, muhofaza etiladi, saqlanadi, boshqariladi, nazorat qilinadi va ommalashtiriladi – ana shular to'g'risida so'zlab berishdan iborat.

Mazkur qo'llanmaning maqsadi:

- Obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilish tizimini tushunishning ahamiyatini ta'kidlash;
- Butunjahon merosining asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatish va tushunarli tarzda izohlash;
- Nomzodliklarni tayyorlashda jamoaning muhimligini qayd etish;

## ASOSIY XABAR

Birinchi navbatda  
Amaliy qo'llanma  
bilan tanishib  
chiqing.

- Nomzodliklarni tayyorlashda ish hajmi to'g'risida yanada aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini berish;
- Obyekt bilan tanishish bo'yicha axborot va tavsiyalarni taqdim etish; va
- Operatsion qo'llanma mazmunini tushuntirish maqsadida nomzodlik dosyesini tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berish.

Qo'llanmada, shuningdek, mavjud Butunjahon merosi obyektini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash bo'yicha ba'zi ko'rsatmalar keltirilgan, chunki obyektning sezilarli kengayishi, uni yangi nomzod sifatida ko'rilishiga olib keladi.

#### **Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi hamkorlik**

Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya maqsadlariga erishishga keng ko'lamlı xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzodlarni tayyorlash jarayoni bunday hamkorlik uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi, jumladan:

- Bitta Ishtirokchi-davlat tomonidan ikkinchisiga taqdim etiladigan texnikaviy va moliyaviy yordam;
- Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun transchegaraviy/transmilliy takliflarni ishlab chiqish;
- Ishonchli qiyosiy tahlil ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish; va
- Nomzodlarni rasmiy taqdim etishdan oldin xalqaro ekspertizadan o'tkazishda ko'maklashish.

Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga nomzodlarni taklif etish Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi raqobatchilar kurashi sifatida ko'rilmasligi kerak, chunki bu Butunjahon merosining ruhiga zid.

#### **Resurs qo'llanma kim uchun mo'ljallangan**

Ushbu qo'llanma, birinchi navbatda, obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzodlarni ishlab chiqishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun mo'ljallangan. U, shuningdek, obyektlarning Dastlabki Ro'yxatlarini tuzishda va meros ro'yxatiga oid boshqa tadbirlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, qo'llanma quyidagilar uchun foydali bo'lishi mumkin:

- Ishtirokchi-davlatlar, jumladan federal va milliy darajalarda;
- madaniy meros obyektlarini himoya qilish /qo'riqlanadigan tabiiy obyektlarni himoya qilish masalalari bo'yicha muassasalar;
- Nodavlat tashkilotlari (NDT);
- Mahalliy hokimiyat;
- Mahalliy hamjamiyat;
- Muassasalar;
- Obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha nomzodlarni tayyorlash bo'yicha o'quv seminarlari va treninglarini tashkil etuvchi shaxslar; va
- Manfaatdor shaxslar.

Mazkur qo'llanma:

- Mustaqil ravishda bilim olish;
- O'quv seminarlari kontekstida o'rganish; va
- Yo'riqnoma berish va o'qitish vositasidir.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## ASOSIY XABAR

Nomzodni ishlab chiqish uchun yaxshi tayyorlaning va tartibli bo'ling.

### 1.1. Ma'lumot olish

#### Kirish

Obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha nomzodlarni tayyorlash barcha ishtirokchilar uchun qoniqarli va foydali tajribalardan biri bo'lishi mumkin. Bunday taklifni tayyorlash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Obyektni tushunish va uni xalqaro hamjamiyatga taqdim etish;
- Obyektning tabiat tarixi, insoniyat tarixi, madaniyat va rivojlanish tarixining keng kontekstidagi o'rnini aniqlash uchun uning ma'lum qadriyatlarini tanqidiy o'rganish hamda uning global tabiiy va madaniy mavzular bilan aloqasini baholash;
- Obyektni xalqaro miqyosda boshqa potensial o'xshash obyektlar bilan taqqoslash;
- Obyektni muhofaza qilish, saqlash va boshqarishning, shu jumladan uning atrof-muhitini muhofaza qilishning muvofiqligini tekshirish, e'tiroz bildirish va yaxshilash;
- Obyektni muhofaza qilish, saqlash va boshqarishda jamoalar va manfaatdor tomonlarni jalb qilish va qo'llab-quvvatlash; va
- Ba'zan bir-biriga zid manfaatlarni o'z ichiga oladigan ko'chmas mulk obyektiga nisbatan qiziqishlar doirasini aniqlash va turli manfaatlarni qondirish yo'llarini izlash.

Butunjahon merosi obyektini maqomining ba'zi mumkin bo'lgan afzalliklari quyidagilar:

- Ishtirokchi-davlat va mahalliy hamjamiyatga bu obyektini yer yuzidagi eng muhim tabiiy va madaniy joylardan biri sifatida belgilash imkoniyatini berish;
- obyekt ko'pincha muhofaza etiladigan hududlar/obyektlar milliy tizimining flagmani bo'lib qoladi, shu jumladan jamiyat hayotida merosni yanada chuqurroq anglanishi va samarali himoya qilinishi;
- jahon merosiga bo'lgan xalqaro qiziqish, ko'pincha obyektini muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha xalqaro hamkorlik va birgalikdagi sa'y-harakatlar uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi;
- moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashni jalb qilish uchun imkoniyatlarni taqdim etish, jumladan donorlar va Butunjahon merosi obyektlari Jamg'armasi tomonidan; va
- milliy va mahalliy meros obyektlariga qo'llash mumkin bo'lgan muhofaza qilish va boshqarish usullari va amaliyotini ta'minlash.

Butunjahon merosi obyektlari Ro'yxatiga nomzodlarni tayyorlash vaqt va sa'y-harakatlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Taklifni tayyorlash uchun odatda kamida 2 yil, ba'zan undan ham ko'proq vaqt ketadi. Taklifni tayyorlashda puxta tayyorgarlik va uyushqoqlik vaqtini tejab, ortiqcha harakatlarni kamaytiradi. Birlamchi tayyorgarlikning yo'qligi, aksincha ortiqcha vaqt sarflanishiga olib keladi.

E'lon qilingan obyektning xarakteri taklifni tayyorlashga sarflanadigan vaqt va talab qilinadigan ish hajmi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, yaxshi o'rganilgan madaniy yodgorlik yoki diqqatga sazovor joy nomzodini tayyorlashga, yirik ko'p funksiyali tabiat obyektini, tarixiy shahar, madaniy landshaft yoki madaniy yo'nalishlar nomzodini tayyorlasgga qaraganda kamroq vaqt va harakatlarni talab qilinadi. Ikkinchi holatda manfaatdor shaxslar doirasi ham odatda kengroq bo'ladi, bu esa yanada murakkab tizim yoki boshqaruv rejasi tuzilishini taqozo qiladi. Ba'zan, tegishli mavzuga oid tadqiqotlar hali o'tkazilmagan bo'lsa, mavzuga oid kontekstni yaratish uchun ham vaqt talab qilinishi mumkin.

**Taklifni tayyorlash muddatlari**

Janubiy kanal (Canal du Midi) (Fransiya)  
- Obyekt arizasi ikki yil davomida tayyorlangan va 1996-yilda ro'yxatga kiritilgan. Uchastka maydonining kattaligi (360 km) va jalb qilingan ko'p sonli jamoalarning jalb qilinishi e'tiborga olgan holda, bunday qisqa muddatlar katta omad hisoblanadi. Nisbatan qisqa muddatlarda ro'yxatga kiritishga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- tez muddatlarda samarali boshqaruv qo'mitasi va ilmiy qo'mitani tashkil etish;
- qo'mita a'zolarining nomzodlikni ishlab chiqishga intellektual va amaliy jihatdan tayyorligi;
- turli hamjamiyatlar nomzodlikni qo'llab quvvatlashi;
- taklifni tayyorlash jarayoni tezkor sur'atlarda moliyalashtirilishi;
- vazirlikning mahalliy bo'linmalari to'liq va samarali hissa qo'shishi;
- tajribali koordinator tayinlanishi va uning nomzodi ko'plab manfaatdor taraflar tomonidan tasdiqlanishi;
- jarayon boshida asosiy ma'lumotlar tayyor bo'lganligi;
- taklifni jamoaviy tarzda tayyorlash jarayoniga hujjat shaklini to'ldirish bo'yicha byurokratik vazifa sifatida emas, balki benuqsonlikga erishishga qaratilgan intellektual masala sifatida yondashilishi; va
- taklifni tayyorlashda turli davlat organlari o'zaro harakat qilishi va samarali ish olib borishi.



© YUNESKO

Obyektlarni Butunjahon merosi Ro'yxatiga kiritish takliflari asosan obyektlarning potensial Butunjahon mislsiz qiymatiga bog'liq. Ularni tayyorlash jarayoni taxminiy iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari bilan shartlanmagan bo'lishi kerak.

Obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha taklif – bu obyektning asrash jarayonining barcha darajalarida takomillashtirishga tomon uzoq yo'lning faqat boshlanishi, xolos. Obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga olinganidan so'ng ishtirokchi-davlat zimmasiga butun vaqt davomida obyektning muhofazasi, saqlanishi va boshqarilishini ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

**Butunjahon merosini o'rganish – muhim materiallar**

Taklifni talab darajasida tayyorlanishini ta'minlashda birinchi qadam, bu Butunjahon merosi tizimi, nomzodi taklif qilinayotgan obyektga bevosita aloqador bo'lgan jarayonlar va boshqa axborot to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishdir.

Quyida tanishib chiqish tavsiya etilgan hujjatlari ro'yxati keltirilgan. Ularning aksariyati Internetda mavjud yoki bosma shaklda tegishli tashkilotlarda saqlanadi. Aloqa uchun ma'lumotlar qo'llanmaning oxirida keltirilgan.

**ASOSIY XABAR**

Tavsiya etilgan hujjatlarni taklifni tayyorlashdan oldin o'rganib chiqing.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

Butunjahon merosi obyektlari bo'yicha muhim hujjatlar	Izohlar
<b>Umumiy ma'lumotlar</b>	
Butunjahon merosi to'g'risida Konvensiya (rasman Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya, 1972 y.)	<p>Konvensiya Butunjahon merosi obyektlarini muhofaza qilish uchun fundamental asosni ta'minlaydi. Hujjatda asosiy ta'riflar, kontsepsiyalar, tashkiliy tuzilmalar va jarayonlar, shuningdek, Ro'yxatga kiritish uchun ob'yektlarni taklif qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar keltirilgan.</p> <p>Arab, xitoy, ingliz, fransuz, ivrit, portugal, rus va ispan tillarida berilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/conventiontext/">http://whc.unesco.org/en/conventiontext/</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/fr/conventiontexte/">http://whc.unesco.org/fr/conventiontexte/</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>
<i>Butunjahon merosi to'g'risidaagi Konvensiyaga rioya qilish bo'yicha Operatsion qo'llanma (WHC.11/01, avgust 2011y.)</i>	<p>Butunjahon merosi to'g'risidaagi Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha asosiy yo'riqнома Operatsion qo'llanmada bayon etilgan bo'lib, unda Butunjahon merosi jarayonlarining qator asosiy tartib-taomillari shu jumladan, takliflarni tayyorlash jarayonlari ham batafsil bayon etilgan.</p> <p>Bundan tashqari, Operatsion qo'llanmaning bibliografiyasida tanishish uchun tavsiya etilgan hujjatlar ro'yxati keltirilgan. Ularni ham diqqat bilan o'rganish lozim, chunki ba'zi hujjatlar muayyan nomzodliklarga tegishli bo'ladi.</p> <p>Amaliy qo'llanmaning so'nggi va undan oldingi talqinlari quyidagi veb-saytlarda berilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/guidelines/">http://whc.unesco.org/en/guidelines/</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/fr/">http://whc.unesco.org/fr/</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>
Butunjahon merosi Qo'mitasining so'nggi yig'ilishlarining qarorlari va ular to'g'risidagi hisobotlar	<p>Butunjahon merosi Qo'mitasining yondashuvlari to'g'risidagi ma'lumotlarning muhim manbasi – Qo'mitaning so'nggi yig'ilishlaridagi qarorlar va ular to'g'risidagi qisqa hisobotlardir.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/sessions/">http://whc.unesco.org/en/sessions/</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/fr/sessions/">http://whc.unesco.org/fr/sessions/</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>
Butunjahon merosi obyektlari ro'yxati	<p>Butunjahon merosi obyektlari ro'yxati, Butunjahon merosi Qo'mitasi tomonidan Butunjahon mislsiz qiymati uchun unga kiritilgan obyektlarni o'z ichiga oladi. Ro'yxat o'zida muhim resursni ham aks ettiradi, chunki unda Ro'yxatga kiritish uchun o'rganilayotgan obyektga o'xshash bo'lgan boshqa davlatlardagi obyektlar ko'rsatilgan bo'lishi, taqqoslanishi mumkin. Bu holda u nomzodlik hujjatlar to'plamini, qiyosiy baholash nuqtai nazaridan o'rganish uchun foydali bo'lgan axborotni o'zida aks ettiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/list/">http://whc.unesco.org/en/list/</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/fr/list/">http://whc.unesco.org/fr/list/</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>
Boshqa Ishtirokchi-davlatlarning dastlabki ro'yxatlari	<p>Bu Butunjahon merosi uchun qimmatli bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar ro'yxatlaridir. Dastlabki ro'yxat juda muhim, chunki unda nomzodlik uchun o'rganilayotgan obyektga o'xshash bo'lgan boshqa mamlakatlardagi ko'chmas mulk obyektlari ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu holda u nomzodlik hujjatlar to'plamini qiyosiy baholash nuqtai nazaridan o'rganish uchun foydali bo'lgan axborotni o'zida aks ettiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/tentativelists/">http://whc.unesco.org/en/tentativelists/</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/fr/listesindicatives/">http://whc.unesco.org/fr/listesindicatives/</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>

Butunjahon merosi obyektlari bo'yicha muhim hujjatlar	Izohlar
Amaliy tadqiqot	<p>Mavzuga oid tadqiqotlar (mavjud bo'lgan taqdirda), obyektning Ro'yxatga kiritishga taklif qilishga ko'mak beruvchi juda muhim axborot resursi hisoblanadi. Agar ro'yxatga kiritish uchun taklif qilinayotgan obyektga taalluqli bo'lgan biror bir mavzuga oid tadqiqot mavjud bo'lsa, bu tadqiqot nomzodlik hujjatlar to'plamini qiyosiy baholash qismini tayyorlashga yordam beradi.</p> <p>Ba'zi holatlarda Ishtirokchi-davlatlar nomzodlik hujjatlar to'plamini tayyorlash jarayoni doirasida mavzuga oid alohida tahlillar tayyorlaydilar.</p> <p>ICOMOSning madaniy meros obyektlari bo'yicha tematik tadqiqotlarni <a href="http://www.icomos.org/studies/">www.icomos.org/studies/</a> veb-saytidan olish mumkin.</p> <p>IUCNning tabiiy meros obyektlari bo'yicha tematik tadqiqotlarni <a href="http://www.iucn.org/">www.iucn.org/</a> veb-saytidan olish mumkin.</p>
<p>Tabiiy va madaniy meros sohasida Butunjahon merosining Global strategiyasi ekspertlari majlisi to'g'risida hisobot, 1998-yil, 25-2-mart, Amsterdam, Niderlandiya (YUNESKO Butunjahon merosi markazi/ Niderlandiya hukumati, 1998)</p> <p><b>Tabiiy obyektlarga havolalar</b></p>	<p>Bundan tashqari, boshqa tematik tadqiqotlar mavjud bo'lishi mumkin va nominatsiyaga taqdim etilayotgan obyektga aloqador bo'lgan barcha tadqiqotlarni aniqlash uchun izlanish o'tkazilishi zarur.</p> <p>Mazkur hisobotda Butunjahon mislsiz qiymatga tegishli bo'lgan foydali ma'lumotlar, shuningdek, xulosa va tavsiyalar mavjud.</p> <p><a href="http://whc.unesco.org/archive/amsterdam98.pdf">http://whc.unesco.org/archive/amsterdam98.pdf</a></p>
<p><i>Butunjahon mislsiz qiymati – Butunjahon tabiiy merosi obyektlari uchun standartlar, Tabiiy obyektlarni Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun standartlar to'plami (IUCN, 2008b)</i></p> <p><b>Madaniy meros obyektlariga havolalar</b></p>	<p>IUCN tayyorlagan mazkur hisobotda Butunjahon merosi qo'mitasining tabiiy obyektlarni Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi avvalgi qarorlari ko'rib chiqilgan. Bu Umumjahon merosi ro'yxatiga nomzodlik nuqtayi nazaridan obyektlarning Butunjahon mislsiz qiymat haqidagi munozaralarni qanday izohlash va qo'llash bo'yicha aniq pretsedentlarni taqdim etuvchi qo'llanmada tuzilgan tegishli materiallar va qarorlar to'plamidir.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li><a href="http://data.iucn.org/dbtw-wpd/edocs/2008-036.pdf">http://data.iucn.org/dbtw-wpd/edocs/2008-036.pdf</a></li> </ul>
<p><i>Butunjahon merosi obyektlari ro'yxati: Muammolarni bartaraf etish – istiqbolga mo'ljallangan harakatlar rejasi (ICOMOS, 2005a)</i></p>	<p>ICOMOS tomonidan Jahon merosi ro'yxati va dastlabki ro'yxatlariga kiritilgan madaniy obyektlarning ushbu tahlili, ishonchli va asoslangan Butunjahon merosi ro'yxatini yaratish bo'yicha Global strategiyani yanada rivojlantirishga qo'shilgan hissadir.</p> <p>Tahlil ICOMOS tomonidan ishlab chiqilmoqda va ro'yxatlarda keltirilgan tipologik, hududiy, xronologik va tematik jihatlarni ko'rib chiqadi. Asosiy maqsad – Butunjahon merosi ro'yxatida yetarli darajada taqdim etilmagan obyekt toifalarni aniqlashdan iborat.</p> <p>Ushbu tadqiqot bilan tanishish nominatsiya bo'yicha qiyosiy tahlilni ishlab chiqishda yordam beradi. Umuman olganda, yetarli darajada taqdim etilmagan toifalar, yaxshi yoki haddan ortiq taqdim etilgan toifalarga nisbatan muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli yuqoriroq.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li><a href="http://www.international.icomos.org/world_heritage/gaps.pdf">http://www.international.icomos.org/world_heritage/gaps.pdf</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li><a href="http://www.international.icomos.org/world_heritage_fre/whlgaps.htm">http://www.international.icomos.org/world_heritage_fre/whlgaps.htm</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>

# 1 Butunjahon merosi tarixi

Butunjahon merosi obyektlari bo'yicha muhim ma'lumotnoma hujjatlar	Izohlar
<p><i>Obyektlarni Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun Standartlar to'plami (ICOMOS, 2008)</i></p>	<p>ICOMOS tomonidan tayyorlangan mazkur hisobotda Butunjahon merosi qo'mitasining madaniy obyektlarni Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi avvalgi qarorlari o'rganilgan. U Umumjahon merosi ro'yxatiga va xavf ostida bo'lgan Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzodlar nuqtayi nazaridan Butunjahon mislsiz qiymat muhokamalarini qanday izohlash va qo'llash bo'yicha aniq pretsedentlarni taqdim qiluvchi metodik qo'llanmada birlashtirilgan tegishli materiallar va qarorlar to'plamidir.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://whc.unesco.org/en/sessions/32COM/documents/">http://whc.unesco.org/en/sessions/32COM/documents/</a> (qarang WHC.08 /32.COM /9)</li> </ul>
<p>ICOMOS hujjatlar markazi tomonidan tayyorlangan tematik va hududiy bibliografik ko'rsatkichlar</p>	<p>Ushbu materiallarning aksariyat qismi madaniy qadriyatlarga tegishli bo'lib, ularga quyidagi nashrlar ham kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatidagi madaniy merosning zamonaviy obyektlari (XIX-XX asr)</li> <li>• Butunjahon merosi qoyatoshlardagi san'at obyektlari</li> <li>• Butunjahon merosining madaniy landshaftlari</li> <li>• Butunjahon merosining shahar obyektlari</li> <li>• Butunjahon merosining Gominidlar obektlari</li> <li>• Afrikadagi Butunjahon merosi obyektlari</li> <li>• Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi Butunjahon merosi obyektlari</li> <li>• Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi mamlakatlardagi Butunjahon merosi obyektlari</li> <li>• Arab mamlakatlaridagi Butunjahon merosi obyektlari</li> <li>• Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatidagi sanoat-texnika obyektlari</li> <li>• <a href="http://www.international.icomos.org/centre_documentation/bib/index.html">http://www.international.icomos.org/centre_documentation/bib/index.html</a></li> </ul>
<p>Yodgorliklar va e'tiborga sazovor joylarni saqlash bo'yicha Xalqaro xartiya (1964-yil Venetsiya xartiyasi) (ICOMOS, 1965)</p>	<p>Bu Xartiya madaniy meros obyektlarini saqlash bo'yicha asosiy yoriqnoma hujjatlardan biri hisoblanadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://www.international.icomos.org/charters.htm">http://www.international.icomos.org/charters.htm</a> (ingliz tilida veb-sahifa)</li> <li>• <a href="http://www.international.icomos.org/chartes.htm">http://www.international.icomos.org/chartes.htm</a> (fransuz tilida veb-sahifa)</li> </ul>

## Butunjahon merosi obyektlarini o'rganish – Butunjahon merosi qo'mitasi faoliyati.

Butunjahon merosi qo'mitasining faoliyati to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish muhim. Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya va Operatsion qo'llanmani chuqur tushunib yetish orqali bunga qisman erishish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, Butunjahon merosi qo'mitasining qarorlari va so'nggi yig'ilishlari hisobotlarini o'rganish ham foyda beradi.

Bundan tashqari, agar takliflarni tayyorlashda qatnashgan guruh vakili Butunjahon merosi yig'ilishlariga yuboriladigan milliy delegatsiya tarkibiga kiritilsa, bu ham foydali bo'ladi. Qo'mita yig'ilishlarini kuzatish ularning ishini, ayniqsa, nomzodlar va saqlanilganlik holat bilan bog'liq masalalari bag'ishlangan muhokamalar haqida muhim tushuncha beradi.

## ASOSIY XABAR

Takliflarni tuzish bo'yicha guruh vakilini Butunjahon merosi qo'mitasi yig'ilishlariga yuboring.



### **Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya qisqacha tavsifi**

*Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zo davlatlari o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnoma hisoblanadi. Uning maqsadi – Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, himoya qilish, saqlash, taqdim etish va kelgusi avlodlarga yetkazishdir. Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritiladigan obyektlarni aniqlash uchun Konvensiyaning Operatsion qo'llanmasida talqin etilgan muayyan mezon va shartlardan foydalaniladi.*

*Konvensiyada potensial obyektlarni aniqlashda Ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlari va ularning shu obyektlarni muhofaza qilish va saqlashdagi roli belgilangan. Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan har bir Ishtirokchi-davlat o'z hududida joylashgan Butunjahon merosi obyektlarini nafaqat saqlash, balki ularni milliy meros sifatida muhofaza qilish majburiyatini oladi. Ishtirokchi-davlatlarga madaniy va tabiiy meros obyektlari muhofazasini hududiy rejalashtirish dasturlariga kiritish, o'z obyektlarida xodimlar guruhi va xizmatlarni tashkil etish, merosni saqlash bo'yicha ilmiy-texnik tadqiqotlar o'tkazish va shunday obyektlar jamiyatning kundalik hayotida ishlatilishini ta'minlash tavsiya etiladi.*

*Unda Butunjahon merosi jamg'armasidan foydalanish va uni boshqarish tartibi, shuningdek, xalqaro moliyaviy yordam taqdim etiladigan shartlar bo'yicha tushuncha berilgan. Konvensiya Ishtirokchi-davlatlarning, Butunjahon merosi qo'mitasiga o'zining Butunjahon merosi obyektlarining saqlanish holati to'g'risidagi muntazam hisobotlarni taqdim etish bo'yicha majburiyatlarini izohlaydi. Bu hisobotlar Qo'mita ishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ular obyektlarning holatini baholash, dasturning muayyan talablari to'g'risida qaror qabul qilish va davriy ravishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish imkonini beradi.*

*Shuningdek, Konvensiya Ishtirokchi-davlatlarni Butunjahon merosi obyektlarining jamoatchilik tomonidan e'tirof qilinishini oshirishga va ta'lim hamda axborot dasturlari yordamida ularni muhofaza qilishni kuchaytirishga chaqiradi.*

*Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya asosida madaniy va tabiiy meros obyektlari nafaqat har bir davlat uchun, balki butun insoniyat uchun bebaho va betakror boyliklar ekanligi e'tirofi yotadi. Ushbu eng noyob obyektlardan har qaysi birini holatining yomonlashgani yoki yo'q bo'lib ketishi butun dunyo xalqlari merosining qashshosqlanishini anglatadi. Bu merosning ba'zi qismi o'zining noyob sifatleri tufayli mislsiz Butunjahon qiymatiga ega (ko'pincha MBQ deb ataladi) deb hisoblanishi mumkin va shuning uchun ular tobora ortib borayotgan xavf-xatarlardan himoyalaniishi lozim.*

*Butunjahon merosining imkoni boricha tegishli tarzda aniqlanishi, saqlanishi va taqdim etilishini ta'minlash uchun YUNESKO Ishtirokchi-davlatlari 1972-yilda Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya nomi bilan mashhur bo'lgan Butunjahon madaniy va tabiiy merosi obyektlarini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi.*

*Konvensiyaga muvofiq 1976-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Butunjahon merosi qo'mitasi va Butunjahon merosi jamg'armasi tashkil etildi. Butunjahon merosi qo'mitasi Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha rasmiy qo'llanma bo'lgan va zaruratga qarab qo'mita tomonidan qayta ko'rib chiqiladigan Butunjahon merosi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanmani ishlab chiqdi. Konvensiyaning Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, saqlash, muhofaza qilish, taqdim etish va kelgusi avlodlarga yetkazish bo'yicha Konvensiya missiyasini bajarish uchun Butunjahon merosi qo'mitasi Konvensiya talablariga javob beradigan, «Butunjahon merosi obyektlari ro'yxati», deb nomlangan obyektlar ro'yxatini boshqaradi.*

Obyektlarni baholash va Ishtirokchi-davlatlarga ularni himoya qilish va boshqarish bo'yicha tavsiyalar berish uchun obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritishning mezonlari va shartlari ishlab chiqildi. Obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uchun Butunjahon merosi qo'mitasi uni Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lgan obyekt, deb tan olishi kerak.

Nomzodlik hujjati Umumjahon merosi qo'mitasiga obyekt Konvensiya talablariga mos kelish-kelmasligi, u butunjahon mislsiz qiymatga ega yoki ega emasligini baholash uchun asos beradi. Operatsion qo'llanmada Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan obyekt mislsiz qiymatga ega yoki ega emasligi to'g'risidagi qaror qabul qilish uchun qo'llaniladigan asosiy mezonlar ko'rsatilgan:

- Qo'mita, obyekt Butunjahon merosi mezonlarining bir yoki bir nechtasiga muvofiq bo'lsa, u mislsiz qiymatga ega, deb hisoblaydi (Operatsion qo'llanma, 77-paragraf);
- Obyektni Butunjahon mislsiz qiymat, deb tan olinishi uchun u yaxlitlik va/yoki asllik shartlariga javob berishi hamda uning saqlanishini ta'minlash uchun munosib himoya va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi kerak (78-paragraf).

Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyekt jiddiy va muayyan xavf ostida bo'lgan taqdirda Qo'mita uni yo'qolib ketish xavfi ostidagi Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi. Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun asos bo'lib xizmat qilgan obyektning Butunjahon mislsiz qiymati yo'qotilganda Qo'mita obyektning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatidan chiqarish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi. Butunjahon merosi obyektlarining dolzarb ro'yxati va yo'qolib ketish xavfi ostidagi Butunjahon merosi obyektlari ro'yxati YUNESKOning Butunjahon merosi saytida berilgan ([whc.unesco.org](http://whc.unesco.org)).

Konvensiya nomzodi taklif qilinayotgan obyektning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun ma'sul bo'lgan Butunjahon merosi qo'mitasi talablariga bo'ysunadi.

Butunjahon merosi qo'mitasi ishini Kotibiyat, YUNESKO Butunjahon merosi markazi, shuningdek, jahon miqyosida tan olingan uchta maslahat organi — ICCROM (Madaniy boyliklarni saqlash va tiklash masalalarini o'rganish bo'yicha xalqaro markaz), ICOMOS (Yodgorlik va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro kengash) va IUCN (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro birlashmasi).

IUCN – tabiiy qiymati nuqtayi nazaridan taklif qilingan obyektlarni baholash uchun javob beradigan maslahat organi bo'lsa, ICOMOS madaniy qiymati nuqtayi nazaridan ilgari surilgan obyektlarni baholash uchun javob beradigan maslahat organidir.

## **Butunjahon merosi va muhofaza qilishning boshqa vositalari**


Konvensiyaning Operatsion yo'riqnoma tamoyillari asoslangan, vakolatli va ishonchli Butunjahon merosi ro'yxatini tuzishni talab qilsa-da, hech qachon ro'yxat Yer kurrasidagi barcha ko'p sonli ekotizimlar va yashash joylari yoki Butunjahon madaniy merosini to'liq ifodalashni ta'minlashi kerak, deb nazarda tutilmagan. Bu muhofaza qilinadigan hududlar/obyektlar bo'yicha milliy, hududiy va boshqa xalqaro tizimlar va vositalarning vazifasi hisoblanadi.

Bu kontekstda Butunjahon merosi obyektlarini boshqa turdagi muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlar bilan bog'liq holda baholash muhimdir. Mazkur bog'liqlik tabiiy meros obyektlari uchun UNEP-WCMC va IUCN tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi diagrammada ifodalangan. U Butunjahon merosi obyektlarining qo'riqlanadigan hududlarning boshqa turlari va tizimlari bilan aloqasini nisbiy global raqamlar va qaysi qo'riqlanadigan hududlar Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi kerakligini baholash uchun asosiy ko'rsatkich sifatida butunjahon mislsiz qiymatini qo'llash nuqtayi nazaridan ko'rsatadi.

Diagramma shuningdek, Yerning tabiiy xususiyatlarini to'liq ifodalash maqsadida, ekotizimlar, landshaftlar va biologik turlarni saqlash uchun, barcha qo'riqlanadigan hududlar muhimligini ajratib ko'rsatadi.

Diagrammada ko'rsatilganidek, qator muhofaza qilinadigan hududlarning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator hukumatlararo (Ramsar yaylovlari, biosfera qo'riqxonalari, geoparklar) va mintaqaviy tavsiflar mavjud, ammo Butunjahon merosi obyektining maqomi Operatsion qo'llanmada ko'rsatilganidek, Butunjahon mislsiz qiymat mezoniga javob bera oladigan obyektlardagina taqdim etilishi lozim. Butunjahon merosi salohiyatini ko'rib chiqishning dastlabki bosqichlarida Ishtirokchi-davlatlar uchun asosiy masala muqobil variantlarni ko'rib chiqish, eng maqbul holatda esa ularning muhofaza qilinadigan hududlari va milliy merosini tan olinishi, himoya qilinishi va saqlanishi uchun qo'llash mumkin bo'lgan xalqaro, hududiy va milliy vositalarning butun bir spektridan foydalanishga o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

Madaniy boyliklarni saqlash bo'yicha xalqaro va hududiy hujjatlar ko'lamini cheklangan bo'lishi mumkin, shunga qaramay, unda ifodalangan tamoyillar umuman olganda bir xil.



Manba: "Magin" va "Chape" (2004) dan moslashtirilgan


## 1.2 Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun takliflarni berish jarayonining sharhi

Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga nomzodlarni taklif qilish va kiritish jarayoni Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya negizida berilgan va u Ishtirokchi-davlatlarining eng muhim majburiyati hisoblanadi. Bu majburiyatlar uchta asosiy sohani qamrab oladi:

- dastlabki ro'yxatlarni tuzish;
- nomzodlarni tayyorlash; va
- ro'yxatga kiritilgan obyektlarni ularning Butunjahon mislsiz qiymatini himoya qilish, saqlash va boshqarish maqsadida samarali boshqarish.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

Ishtirokchi-davlat va Butunjahon merosi qo'mitasining turli majburiyatlari bilan bir qatorda, ro'yxatga kiritish jarayoni quyidagi diagrammada qisqa shaklda keltirilgan.



Butunjahon merosi ro'yxatiga obyektlarni kiritish bo'yicha takliflarni faqatgina Butunjahon merosi Konvensiyasini imzolagan Ishtirokchi-davlatlar berishi mumkin. Potensial obyektlarni taklif qilish jarayonining asosiy elementlari quyida umumlashtirilgan.

## Dastlabki ro'yxat

Mamlakat amalga oshirishi kerak bo'lgan birinchi qadam, shu mamlakat hududi chegaralarida joylashgan, Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lgan va binobarin, Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish uchun munosib bo'lgan madaniy va/yoki tabiiy meros hisoblanadigan muhim obyektlarning inventarizatsiyasini o'tkazishdan iborat (Operatsion qo'llanmaning II C-paragrafini qarang). Bu ro'yxat «Dastlabki ro'yxat» nomi bilan yuritiladi va u Ishtirokchi-davlat keyingi 5—10 yil davomida Ro'yxatga kiritishga qaror qilishi mumkin bo'lgan obyektlarni o'z ichiga oladi. Bu dastlabki ro'yxatlar barcha mumkin bo'lgan obyektlarni o'z ichiga olmaydi. Ularni istalgan vaqtda yangilab turish mumkin. Ishtirokchi-davlatlar kamida 10 yilda bir marta o'zining Dastlabki ro'yxatini qayta ko'rib chiqishi va qayta taqdim etishi mumkin.

Dastlabki ro'yxatlarni taqdim etish formatlari Operatsion qo'llanmada ko'rsatilgan, shu jumladan, u yerda seriyali transmilliy va transchegaraviy obyektlar uchun maxsus format ham keltirilgan.

Ishtirokchi-davlatlar har qanday nomzodni taqdim etishdan kamida bir yil oldin Butunjahon merosi Dastlabki ro'yxatlarini taqdim etishlari kerak.

**Nima uchun dastlabki ro'yxatlar muhim hisoblanadi?**

Agar obyekt Ishtirokchi-davlatning dastlabki ro'yxatiga kiritilmagan bo'lsa, Butunjahon merosi qo'mitasi obyektning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqa olmaydi.

- Ular potensial ravishda Butunjahon merosi obyektlari maqomini olish imkoniyatiga ega bo'lgan obyektlar bo'yicha tegishli manfaatdor tomonlar, shu jumladan, federal, milliy, shtat va mahalliy hokimiyat organlari, obyektlar egalari va/yoki boshqaruvchilari, mahalliy hamjamiyatlilar, xususiy sektor va mahalliy qo'mitalar / ICOMOS va IUCN vakillari o'rtasida dastlabki maslahatlar o'tkazish hamkorlik va kelishuvlar imkonini beradi. Ushbu jarayon foydali bo'lishi mumkin bo'lgan tadqiqot yoki manfaatdor tomonlar ishtirokidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- Ular Ishtirokchi-davlatlarga potensial global ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy va madaniy meros obyektlarini aniqlash uchun dastlabki tadqiqotlar o'tkazishga yordam beradi.
- Ular Ishtirokchi-davlatlarga boshqarishdagi ehtiyojlar va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni aniqlashga yordam berib, zaruriyat tug'ilganda tabiiy va madaniy meros bo'yicha ekspertlar ishini ta'minlaydi.
- Ular Ishtirokchi-davlatlar, Butunjahon merosi qo'mitasi, Butunjahon merosi markazi va maslahat organlari uchun obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun nomzodlarni belgilash maqsadida rejalashtirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.
- Ular nomzodlikni tayyorlash doirasida qiyosiy tahlil o'tkazish uchun foydali resurs hisoblanadi.

**Nomzodlik dosyesi**

Dastlabki ro'yxatni tayyorlab va shu ro'yxatdan obyektlarni tanlab olib, Ishtirokchi-davlat muayyan bir obyekt bo'yicha nomzodlik dosyesini taqdim etish sanasini rejalashtirishi mumkin. Butunjahon merosi markazi Ishtirokchi-davlatga to'liq va o'z ichiga zarur hujjatlar va xaritalarni olgan bunday dosyeni tayyorlashga o'zining maslahatlari va ko'magini tavsiya etadi. Taklif Butunjahon merosi markaziga uning to'liqligini tekshirish uchun taqdim etiladi. Nomzodlik hujjatlar to'plami tayyor bo'lgandan keyin Butunjahon merosi markazi uni baholash uchun tegishli maslahat organ(lar)iga yuboradi.

**Tanlov mezonlari**

Obyektlar Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uchun ular Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lishi va 10 ta mezondan kamida bittasiga, shu jumladan, yaxlitlik va asllik shartlariga hamda muhofaza qilish va boshqarish talablariga javob berishi kerak. Butunjahon merosi mezonlari Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanmada ta'riflangan. U Konvensiya matnididan tashqari, Butunjahon merosi bo'yicha asosiy ishchi vosita hisoblanadi. Mezonlar, shuningdek, mazkur qo'llanmaning 34-44-betlarida batafsilroq ko'rib chiqilgan.

Jahon merosi konsepsiyasining evolyutsiyasini aks ettirish maqsadida mezonlar Qo'mita tomonidan muntazam ravishda ko'rib chiqiladi.

**Taqdim etiladigan va baholanadigan nomzodlar soniga qo'yiladigan cheklov**

Ishtirokchi-davlatlar Butunjahon merosi qo'mitasi qabul qilgan, taqdim etiladigan takliflar sonini, shuningdek, Qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan obyektlarni taklif

## 1 Butunjahon merosi tarixi

qilish bo'yicha arizalar sonini cheklovchi qarorlarini yodda tutishlari kerak. Ishtirokchi davlatlar Umumjahon merosi qo'mitasi tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan nomzodlar sonini cheklovchi hamda Qo'mita majlisida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan nomzodlar sonini cheklovchi qarorlardan xabardor bo'lishi kerak.

Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan madaniy va tabiiy meros obyektlari soni o'rtasida oqilona muvozanatga erishish Qo'mitaning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

### Kalendar rejasi

*Operatsion qo'llanmalar* tarkibida nomzodlarni taqdim etish va baholash jadvali mavjud bo'lib, u Ishtirokchi-davlatlar va maslahat organlari uchun majburiy hisoblanadi (168-paragraf). Asosiy muddatlar qat'iy hisoblanadi va muhokama qilinmaydi.

### Maslahat organlari

Nomzodlikka taklif qilinayotgan obyekt Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya tomonidan vakolatlangan bir yoki ikkala: ICOMOS (Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni saqlash bo'yicha xalqaro kengash) va IUCN (Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasi) maslahat organlari tomonidan mustaqil baholanishi mumkin. Uchinchi maslahat organi ICCROM (Madaniy boyliklarni saqlash va tiklash masalalarini o'rganish bo'yicha xalqaro markaz) bo'lib, u Qo'mitaga madaniy obyektlarni saqlash va monitoring qilish, shuningdek, kadrlar tayyorlash va salohiyatni oshirish bo'yicha ekspert maslahatlari bilan ta'minlaydi.

### Butunjahon merosi Qo'mitasi

Obyekt nomzodlikka taklif qilinib, u baholangandan keyin Butunjahon merosi hukumatlararo qo'mitasi uni Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladi. Qo'mita bir yilda bir marta yig'ilish o'tkazib, unda Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritiladigan obyektlar bo'yicha qaror qabul qiladi. Obyektni ro'yxatga kiritilishi yoki ro'yxatga kiritmasligi to'g'risidagi qaror qabul qilishdan tashqari, Qo'mita taklifni chetga surishi yoki boshqa vaqtga ko'chirishi hamda tegishli Ishtirokchi-davlatdan obyekt to'g'risida qo'shimcha ma'lumot talab qilishi mumkin.

### Butunjahon merosi markazi

Butunjahon merosi markazi (BMM) Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya Kotibiyati, shuningdek, Butunjahon merosiga taalluqli bo'lgan barcha masalalar bo'yicha YUNESKO doirasidagi mas'ul va muvofiqlashtiruvchi markaz hisoblanadi. BMM takliflarni tayyorlashda Ishtirokchi-davlatlarga turli usullar bilan ko'mak beradi, xususan, u muvaffaqiyatli takliflar, boshqaruv va qonunchilik nizomlaridan misollar keltiradi, tegishli xaritalarni belgilashda yordam beradi, madaniy landshaftlar, shaharlar, kanallar va yo'nalishlar kabi turli tipdagi obyektlarni yoki seriyali va transchegaraviy obyektlarni taklif qilish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar beradi. BMMning Maslahat organlari va boshqa muasasalari bilan hamkorlikda takliflarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etadi. Shuningdek, Markaz Ishtirokchi-davlatlar Kotibiyatga nomzodlar bo'yicha dastlabki takliflarni taqdim etgan hollarda izoh va tavsiyalar beradi. Markaz Butunjahon merosi ro'yxati va ma'lumotlar bazasini yangilaydi. BMM nomzodlikka rasmiy ariza berilgandan keyin hujjatlar to'plamining yaxlit to'liqligi bo'yicha tekshiradi va agar nomzodlik arizasi to'liq deb tan olinsa, Markaz hujjatlar to'plamini tegishli maslahat organiga beradi, agarda ariza to'liq emas, deb topilsa, Markaz Ishtirokchi-davlatga uni to'ldirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

### 1.3. Butunjahon merosi tushunchalarining ta'riflanishi

Bu bo'limda Butunjahon merosining ba'zi asosiy tushunchalari, shu jumladan, ta'riflari, mezonlari va obyektlarning turli tiplari berilgan.

#### Ta'riflar – madaniy va tabiiy meros, obyektlarning aralash turlari

##### MADANIY MEROS

Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya madaniy meros obyektlarini quyidagi tarzda aniqlaydi:

- Yodgorliklar: tarix, san'at yoki ilm-fan sohasida Butunjahon mislsiz qiymatining elementlari yoki alomatlariga ega bo'lgan me'morchilik, monumental haykaltaroshlik yoki badiiy san'at asarlari, arxeologik xususiyatga yoki inshootlar, yozuvlar, g'orlardagi turar joylar;
- Binolar guruhleri: arxitekturasi, bir tipliligi yoki landshaftda egallagan o'rni bilan o'zida tarix, san'at yoki ilm-fan sohasida Butunjahon mislsiz qiymatini aks ettirgan alohida yoki o'zaro bir-biri bilan bog'langan binolar guruhleri;
- Obyektlar: tarixiy, estetik, etnologik yoki antropologik nuqtayi nazardan Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lgan inson ijod mahsuli yoki tabiat va insonning birgalikdagi ijod mahsuli, shuningdek, hududlar, shu jumladan, me'moriy yodgorliklar (1-modda).

Ba'zi obyektlar shu ta'riflarning bittadan ko'prog'iga javob berishi mumkin (masalan, bir vaqtning o'zida ham yodgorlik, ham binolar guruhi bo'lishi mumkin).

Bu ta'rif 1972-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, undan buyon madaniy meros konsepsiyalari kengaygan. Shunga qaramay, bu tushuncha madaniy merosning barcha qirralarini qamrab olgan o'ta keng ma'noga ega.

Operatsion qo'llanmada madaniy landshaftlar, tarixiy shaharlar va shahar markazlari, kanallar va tarixiy yo'nalishlarga qo'shimcha ta'rif berilgan (3-ilova). Madaniy landshaftlar keyingi bo'limda ham ko'rib chiqilgan.

Quyida sanab o'tilgan obyektlarning ba'zi namunalari madaniy meros ko'lamlari to'g'risida tushuncha beradi (ushbu ta'riflarga matn va tasvirlar YUNESKO Butunjahon merosi saytidan olingan).

#### **Jom minorasi va me'moriy qoldiqlari** (Afg'oniston)

Me'moriy obida va arxeologik obyekt. Balandligi 65 m bo'lgan Jom minorasi – nafis, go'yo parvoz qilayotgandek. Bu inshoot XII asrda bunyod etilgan. Murakkab naqshdagi g'isht bilan qoplangan, tepa qismida ko'k rangli plitkada yozuvlar bitilgan, arxitekturasi va bezaklari sifati bilan ajralib turadigan, shu mintaqaning me'moriy va badiiy an'alarining ajoyib namunasi hisoblanadi. U Gur viloyatining qoq markazidagi baland tog'lar orasidagi chuqur daryo vodiysida joylashgani uchun yanada joziba kasb etadi.



© YUNESKO / Mario Santana

ASOSIY  
X A B A R

Nomzodi taklif  
qilinayotgan madaniy  
meros obyekti qaysi  
toifaga tegishli  
ekanligini aniqlab  
oling.

## 1 Butunjahon merosi tarixi

### ***Sukur madaniy landshafti (Nigeriya)***

Pastlikdagi qishloqlar, dala maydonlari va ularning muqaddas ramzlari, shuningdek, o'tmishda gullab-yashnagan temir-po'lat sanoatining ulkan qoldiqlari uzra qad ko'tarib turgan Xidi saroyi (mahalliy dohiyning turargohi) joylashgan Sukur madaniy landshafti jamiyat va uning ma'naviy va moddiy madaniyatining hayratlanarli, qo'l yetmagan milliy namunasini o'zida aks ettirgan.



© YUNESKO

### ***Eski shahar Liszyan (Xitoy)***

Binolar guruhi. Bu asosiy tijorat va strategik obyektning notekis topografiyasiga ideal ravishda mos tushgan Liszyan eski shahri o'zining tarixiy qiyofasini va aslligini saqlab qolgan. Uning me'moriy tuzilishi ko'p asrlar davomida birlashib ketgan bir nechta madaniyatlarning uyg'unligi bilan e'tiborni jalb qiladi. Liszyan shuningdek, shu bugungi kunda ham samarali ishlab turgan, anchagina murakkab va original tuzilishdagi suv ta'minoti tizimiga ega.



© Fiona Starr

### ***Essendagi Germaniya bo'xona ittifoqi ko'mir shaxtasi sanoat majmuasi (Germaniya)***

Binolar guruhi va sanoat arxeologiya maydoni. Shimoliy Reyn-Vestfaliyadagi Germaniya bo'xona ittifoqining sanoat majmuasi tarixiy ko'mir konlarida qurilgan infratuzilma obyektlari, shuningdek, mislsiz me'moriy fazilatlariga ega bo'lgan, XX asrda qurilgan bir nechta binolardan iborat. U o'zida evolyutsiyaning ajoyib moddiy namunasi va so'nggi 150 yil ichida sanoatning yuksalishi va qulashi haqida muhim dalillarni taqdim etadi.



© Heike Oevermann

### ***Kueva-de-las-Manos, Rio Pinturas (Argentina)***

Yodgorlik / monumental badiiy asar va diqqatga sazovor maskan. Kueva-de-las-Manos, Rio Pinturas, 13000 va 9 500 yillar avval yaratilgan qoyatoshlardagi yozuvlarning ajoyib to'plamini o'zida aks ettirgan. Uning nomi («Qo'llar g'ori») g'ordagi inson qo'llari izlari tufayli berilgan bo'lib, bu yerda shuningdek, hayvonlarning, guanako (Lama guanicoe) tasviri bo'lib, bu hayvonlar hozirgi kunda ham uchraydi. Ov lavhalari ham saqlangan. Bu tasvirlarni yaratgan insonlarning avlodlari XIX asrda yevropalik ko'chmanchilar tomonidan kashf etilgan Patagoniyaning tarixiy ovchi-yig'uvchi jamoalarining ajdodlari bo'lishi mumkin.



© YUNESKO



**Xirosimadagi Tinchlik xotira majmuasi (Gembaku gumbazi) (Yaponiya)**

Xirosima Tinchlik xotira majmuasi (Gembaku gumbazi) – 1945-yil 6-avgust kuni birinchi atom bombasi tushib portlagan joyda qolgan yagona inshoot. Hozirgi vaqtda ko'plab insonlar, shu jumladan, Xirosima shahri aholisining sa'y-harakatlari bilan bombardimon qilingandan keyin qanday bo'lsa, shu holatda saqlangan. U insoniyat tomonidan qachondir yaratilgan vayron qiluvchi kuchning qudratli va beshahqat ramzi hisoblanibgina qolmay, balki butun dunyoda tinchlik va yadro qurollarining barchasini butunlay yo'q qilinishiga umid ramzi hamdir.



© YUNESKO

**Botanika bog'i (Orto Botanico), Paduya (Italiya)**

Obyekt / Inson qo'l mehnati asari. Jahonda ilk botanika bog'i 1545-yil Paduyada yaratilgan. U hozirgacha o'zining ilk ko'rinishini yo'qotmagan — ya'ni, olamni anglatadigan, suvli halqa bilan o'ralgan aylana markazli maydon. Keyinroq ba'zi me'moriy (dekorativ kirish qismlari va balyustradalar), ba'zi amaliy (nasos qurilmalari va issiqxonalar) ahamiyatga ega boshqa elementlar qo'shildi. U ilmiy tadqiqotlar markazi sifatidagi o'zining dastlabki maqsadiga xizmat qilishda davom etmoqda.



© YUNESKO

**TABIY MEROS**

Butunjahon merosi haqidagi Konvensiya tabiiy meros obyektlarini quyidagicha aniqlab beradi:

- estetik yoki ilmiy nuqtayi nazardan burunjahon mislsiz qadriyatga ega bo'lgan fizik va biologik mahsullari yoki mahsullarning guruhlaridan iborat tabiiy obyektlar;
- fan yoki tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan o'ziga xos butunjahon mislsiz qiymatga ega, yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o'simliklar yashovchi muhitni tashkil etuvchi geologik va fizik-geografik mahsullar va aniq belgilangan hududlar;
- fan, tabiatni muhofaza qilish yoki tabiiy go'zallik nuqtayi nazaridan o'ziga xos butunjahon mislsiz qiymatga ega tabiiy obyektlar yoki aniq belgilangan tabiiy hududlar (2-paragraf).

Quyida sanab o'tilgan obyektlarning bir nechta misollaridan tabiiy merosning ko'lami haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

**Sagarmatxa milliy bog'i (Nepal)**

Sagarmatxa — bu ulkan tog'lar, muzliklar va chuqur vodiylari bor ajoyib hudud bo'lib, tepasida jahondagi eng baland cho'qqi (8848 m) — Everest tog'i qad rostlagan. Parkda qor qoplari va mitti panda kabi bir qator noyob turlar uchraydi. O'zgacha madaniyatli sherlarning borligi bu joyga qo'shimcha ko'rk bag'ishlaydi.



© YUNESKO/J.M.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## ***Ilulissat Isfjord (Daniya)***

Grenlandiyaning g'arbiy sohilida, Qutb doirasidan shimolga qarab 250 km masofada joylashgan Ilulissat Isfjord Sermek Kuallekning dengiz quyilish joyi bo'lib, u Grenlandiya muz qoplami dengizga chiqadigan kam sonli muzliklardan biri sanaladi. Sermek Kuyallek — jahondagi eng tez (kuniga 19 m) va eng faol muzliklardan biri. Yiliga 35 km kub muz muzlikdan ajraladi, bu Grenlandiyadagi suzib yuruvchi muzlarning umumiy hajmidan 10 foizini tashkil qiladi va Antarktidadan tashqaridagi har qanday boshqa muzlikning hosil bo'lish hajmiga mos keladi. Bu holat 250 yildan ortiq vaqt davomida o'rganilgan bo'lib, natijalar iqlim o'zgarishlari va muzlik qoplamasi glyasiologiyasini tushunishga yordam berdi. Ulkan muz qatlami va tez harakatlanuvchi muz oqimining aysberg bilan qoplangan fyordga urilishidan chiqayotgan tovushlar birlashib, g'oyatda ajoyib va g'aroyib tabiat hodisasini yaratadi.



© M&G Therin-Weise

## ***Toshga aylangan Jogginz qoyalari (Kanada)***

Toshga aylangan Jogginz qoyalari, Yangi Shotlandiya (sharqiy Kanada) sohilidagi 689 gektar hajmdagi paleontologik hudud maydoni toshko'mir davri (354—290 million yil oldin) toshga aylangan qoldiqlar ko'pligi bois "Galapagos ko'mir asri" deb atalgan. Bu hududning tosh-



© N.S. Turizm, madaniyat va meros departamenti/ Uolli Xeys

jinslari Yer tarixidagi ushbu davr uchun noyob sanaladi. O'z davrining turmush tarziga tegishli taniqli eng to'liq tosh kolleksiyasiga ega Pensilvaniya qatlamlarining qalinligi jahonda eng kenglaridan sanaladi (318 dan 303 million yilgacha). Ularga erta davrlarda yashagan hayvonlar qoldiqlari, ular izlari hamda ular yashagan, tabiiy holda saqlangan tropik o'rmonlar kiradi. O'zining 14,7 km uzunlikdagi dengiz qoyalari, past qoyalar, tosh platformalari va plyajlari bilan, obyekt guruhlar uchta ekotizimning qoldiqlari: estuar ko'rfazi, tropik o'rmonlar va chuchuk suv havzalari bilan yong'inga moyil o'rmonli allyuvial tekislikni birlashtiradi. Bu yerda qazilmalarning 97 turi va 148 xilini va toshga aylangan qoldiqlarning 20 ta guruhini o'z ichiga oluvchi ushbu uchta ekotizimda qazilma hayotning eng boy to'plamisini taqdim etgan. Ushbu obyekt Yer tarixining asosiy bosqichlarini aks ettiruvchi o'ziga xos namunalar ro'yxatiga kiradi.

## ***Malpelo qo'riqxonasi fauna va florasi (Kolumbiya)***

Kolumbiya qirg'og'idan taxminan 500 km masofada joylashgan obyekt Malpelo oroli (350 ga) va atrofdagi dengiz hududini (857 150 ga) o'z ichiga oladi. Tinch okeanining tropik hududi sharqiy qismidagi baliqchilik sohasining eng katta hududi—ushbu ulkan dengiz bog'i xalqaro miqyosda tahdid ostida bo'lgan dengiz hayvonlarining eng muhim yashash joyidir va suvdagi bioxilma-xillikning katta miqdorda to'planishiga olib keluvchi ozuqaviy moddalarning asosiy manbasi sanaladi. Bu joy, asosan, akulalar, yirik gruper va zirhli cho'rta baliq uchun "rezervuar" va o'tkir tishli, qisqa tumshuqli, chuqur suv

ostida yashaydigan akulaning paydo bo'lishi bilan mashhur, jahondagi kam uchraydigan makonlardan biri. O'zgacha fusunga ega tik devorlari va g'orlari tufayli, mazkur joy dunyodagi dayving (sho'g'in) uchun eng yaxshi joylardan biri sifatida mashhur. Bu joyning suvlari katta yirtqichlar va chuqur suv ostida yashovchi organizmlar populyatsiyasi uchun (masalan, 200 dan ortiq bolg'abosh akula va 1000 dan ortiq ipaksimon akula, kit akula va tunets) ular tabiiy xulq-atvor modellarini saqlaydigan tabiiy sharoitlarda yashash imkonini beradi.



© YUNESKO/iv Lefevr

### ***Katta to'siqli rif (Avstraliya)***

Katta to'siqli qoyalar — bu Avstraliyaning shimoli - sharqiy sohillaridagi turli-tumanligi va go'zalligi bo'yicha g'aroyib joy. Bu yerda marjon qoyalarining jahondagi eng katta kolleksiyasi joylashgan: 400 turdagi marjon, 1500 baliq turi va 4000 chig'anoq turi. Bu joy, shuningdek, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan dyugon («dengiz sigiri») va katta yashil toshbaqa kabi turlarning yashash joyi sifatida ham jiddiy ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.



© YUNESKO/ian Redmond

### ***Virunga milliy bog'i (Kongo Demokratik Respublikasi)***

Virunga milliy bog'i (maydoni 790000 ga) botqoqlik va cho'llardan tortib, 5000 m dan ortiq balandlikdagi Rvenzori qorli maydonlarigacha, lava tekisliklaridan tortib vulqon qoyalaridagi lava savannalarigacha bo'lgan turli-tuman yashash muhitlarini o'z ichiga oladi. Parkda tog' gorillalari istiqomat qiladi, daryolarda 20000 tacha atrofida begemot yashaydi, Sibir qushlari esa aynan shu yerda qishlaydi.



© B. Doucin/Lalaitte

### **ARALASH TURDAGI OBYEKTLAR**

Operatsion qo'llanmada aralash turdagi obyektlar deganda, Konvensiyaning 1- va 2-bo'limlarida (46-paragraf) berilgan madaniy va tabiiy meros ta'riflariga qisman yoki to'liq mos keladigan obyektlar tushuniladi.

Quyida aralash turdagi obyektlar keltirilgan.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## *Tikal milliy bog'i (Gvatemala)*

Chakalakzorlarning qoq markazida, serhasham o'simliklar qurshovida miloddan avvalgi VI-asrdan milodiy X-asrgacha mavjud bo'lgan mayya sivilizatsiyasining asosiy yodgorliklaridan biri joylashgan. Diniy marosimlar majmuasi markazida katta ibodatxona va saroylar, shuningdek panduslar orqali yuriladigan jamoat maydonlari joylashgan. Yon-atrofdan to'liq turarjoy qoldiqlari bor.



© B. Doucin/Lalaitte

## *Tasili N'ajje (Jazoir)*

Katta geologik qiziqish uyg'otuvchi o'ziga xos tabiiy landshaftda joylashgan bu joy jahondagi tarixdan oldingi g'or san'ati bo'yicha eng muhim ekspozitsiyalardan birini taqdim etadi. 15000 dan ortiq tasvirlar va o'yma rasmlar miloddan avvalgi 6000 yillikdan milodning birinchi asrlarigacha bo'lgan Sahroyi Kabir chegarasidagi iqlim o'zgarishlari, hayvonlarning migratsiyasi va inson hayoti evolyutsiyasini aks ettiradi. Eroziyalangan "toshlar havozasi"ni hosil qiladigan qumtoshli geologik xushmanzara formatsiyalar odamni jalb etadi.



© YUNESKO/Bousquet

## Madaniy meros ta'riflari

### YODGORLIKLAR

Konvensiyadagi rasmiy tavsif yuqoridagi "Madaniy meros" bo'limida keltirilgan. Quyida madaniy merosga kiritilgan me'morchilik yodgorliklari sanaluvchi obyektlarga ayrim misollar keltirilgan.

## *Ozodlik haykali (AQSH)*

Monumental haykaltaroshlik asari. Parijda fransuz haykaltaroshi Bartoldining Gyustav Eyfel (po'lat sinch uchun mas'ul bo'lgan) bilan birgalikda yaratgan ushbu buyuk Ozodlik haykali Fransiya tomonidan 1886-yil Amerika mustaqilligining yuz yilligi sharafiga sovg'a qilingan. Nyu-York ko'rfaziga kirishda joylashgan Ozodlik haykali shundan buyon Qo'shma Shtatlarga millionlab muhojirlarni qabul qilgan.



© YUNESKO / Graciela Gonsales

**Toj Mahal (Hindiston)**

Me'morchilik asari. Toji-Mahal — oq marmardan ishlangan katta maqbara, 1631 va 1648-yillar orasida Agrada Boburiy shoh Shohjahon buyrug'i bilan uning sevimli rafiqasi xotirasiga qurilgan, Hindistonda islom san'ati gavhari va Butunjahon merosining dunyoda tan olingan durdonalaridan biri sanaladi.



© E. de Gracia Camara

**BINOLAR GURUHLARI**

Konvensiyadagi rasmiy tavsif yuqoridagi “Madaniy meros” bo'limida keltirilgan. Operatsion qo'llanmada tarixiy shaharlar va shahar markazlari kontekstida shahar binolari guruhlarining tavsifi keltirilgan (3-ilova). Quyida shahar binolari guruhlarini sanalgan, ro'yxatga kiritilgan obyektlarga ayrim misollar keltirilgan.

**Ksar Ayt-Ben-Xaddu (Marokash)**

Baland devorlar bilan o'ralgan, somonli loydan qurilgan binolar guruhi — Ksar Sahroyi Kabirdan oldingi davrda yashash uchun an'anaviy joy sanaladi. Uylar mudofaa devorlari chegarasida bir-biriga zich joylashgan. Mudofaa devorlar, o'z navbatida, minoralar bilan mustahkamlangan. Uarzasat provinsiyasida joylashgan Ayt-Ben-Xaddu janubiy Marokash arxitekturasining yaqqol namunasidir.



© YUNESKO / Mario Santana

**Maltiy megalitik ibodatxonalari (Malta)**

Malta va Gotso orollarida yettita megalitik ibodatxona joylashgan bo'lib, ulardan har biri alohida tarixiy taraqqiyot davomida paydo bo'lgan. Gotso orolidagi ikkita Jgantiya ibodatxonasi o'zining bronza davriga oid ulkan inshootlari bilan ajralib turadi. Malta orolida Xadjar-Kim, Mnaydra va Tarshin ibodatxonalari, shu davrdagi ijodkorlarda bor manbalarning cheklanganligini hisobga olsak, noyob arxitektura durdonalaridir. Ta'Xadjrat va Skorba — ibodatxonalar qurish an'anasi avloddan avlodga qanday o'tib kelganligini yaqqol ko'rsatuvchidi majmualar



© YUNESKO / Margarita Gonsales

**DIQQATGA SAZOVOR JOYLAR**

Konvensiyadagi rasmiy tavsif yuqoridagi «Madaniy meros» bo'limida keltirilgan. Operatsion qo'llanmada obyektlarning ayrim turlariga nisbatan ko'rsatmalar ham berilgan (3-ilova). Quyida madaniy merosga kiritilgan va diqqatga sazovor joylar sanaluvchi obyektlarga ayrim misollar keltirilgan.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## *Palmira obidasi (Suriya Arab Respublikasi)*

Arxeologik obyekt. Palmirada, Suriya dashtliklari vohasida Damashqdan shimoliy sharqqa qarab, ko'hna dunyoning eng muhim madaniy markazlaridan biri bo'lgan buyuk shaharning monumental xarobalari joylashgan. I asrdan II asrgacha bir nechta sivilizatsiya kesishgan Palmira san'ati va arxitekturasida yunon-rim uslublari mahalliy an'analar va fors uslubi bilan uyg'unlashgan.



© E. de Gracia Camara

## *Taksila (Pokiston)*

Arxeologik obyekt. Neolit davriga oid Saraykel qo'rg'onidan tortib, Sirkapa mudofaa tuproqdevorlari (mil.avv. II asr) va Sirsux shahrigacha (milodning I asri) Taksila navbatmanavbat Fors davlati, Yunoniston va Markaziy Osiyo ta'siri ostida bo'lgan va mil.avv. V asrdan milodiy II asrgacha muhim buddaviylik markazi sanalgan Hindiston shaharning turli rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi.



© YUNESKO / F. Bandarin

## MADANIY LANDSHAFTLAR

Operatsion qo'llanmada madaniy landshaftlar madaniy qadriyatlar sifatida tavsiflanib, u Konvensiyaning 1-bo'limida ta'riflangani kabi, tabiat va insonning birgalikdagi ijodidir (47-paragraf).

Madaniy landshaftlar uchun Butunjahon merosining yagona mezonini yo'q va madaniy landshaftning o'ziga xos butunjahon mislsiz qiymatini asoslash uchun madaniy mezonlardan istalgan birini qo'llash mumkin.

Madaniy landshaftning uchta asosiy turi mavjud:

- odamlar tomonidan maxsus loyihalangan va yaratilgan landshaftlar;
- organik evolyutsiyaga uchrovchi landshaftlar;
- assotsiativ landshaftlar (Operatsion qo'llanma, 3-ilova).

Ko'plab obyektlarda ushbu turlarning birdan ortig'i namoyon bo'ladi va ular kesishishi mumkin.

Bu Konvensiyaning dinamik jihati bo'lib, boshqaruv yondashuvlari kabi tushunchalar tobora ko'proq ishlab chiqilmoqda.

Bu Konvensiyaning dinamik jihati bo'lib, boshqaruv bo'yicha yondashuvlar bilan bir qatorda, boshqa konsepsiyalar tobora ko'proq ishlab chiqilmoqda.

ICOMOS quyidagi saytda mavjud Butunjahon merosining madaniy landshaftlari haqida mavzuga doir bibliografik ma'lumot tayyorlagan: [http://www.international.icomos.org/centre\\_documentation/bib/index](http://www.international.icomos.org/centre_documentation/bib/index).

Quyida madaniy landshaftning uchta turiga misollar keltirilgan.

**Lohiyalangan landshaft: Vat-Pxu va unga tegishli bo'lgan Champasak madaniy landshaftidagi qadimiy obidalar** (Laos Xalq demokratik Respublikasi)

Champasak madaniy landshafti, jumladan Vat-Pxu ibodatxona majmuasi, yoshi 1000 yildan oshgan, ajoyib saqlangan loyihalangan landshaft sanaladi. U taxminan 10 km ga cho'zilgan ibodatxonalar, ziyoratgohlar va suv inshootlarining geometrik naqshlarini joylashtirish maqsadida tog'ning tepasidan daryo qirg'og'igacha, eksa yordamida, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni induizm nuqtayi nazaridan aks ettiradigan qilib loyihalangan. Mekong daryosi qirg'og'ida rejalashtirilgan ikki shahar, shuningdek Pxu-Kao tog'i ham hududning bir qismi sanaladi. Majmua X-asrdan XV-asrgacha bo'lgan, asosan Kxmer imperiyasi bilan bog'liq rivojlanish davrini aks ettiradi.



© YUNESKO / R. Engelhardt

**Uzviy rivojlanuvchi landshaft: Fillippin Kordelyeralarining sholi yo'lakchalari** (Filippin orollari)

2000 yil davomida Ifugao sholi dalalari tog'larning ko'rinishini aks ettirgan. Avloddan avlodga o'tib, to'plangan bilimlar samarasi, muqaddas an'analar va ijtimoiy muvozanatni aks ettiruvchisi sifatida ular inson va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'unlikni aks ettiruvchi nihoyatda go'zal landshaft yaratishda yordam berdi.



© YUNESKO / Feng Jing

**Assotsiativ landshaft: Uluru-Kata-Tyuta milliy bog'i** (Avstraliya)

Ilgari Uluru (Ayers-Rok — Olga tog'i) milliy bog'i deb atalgan ushbu parkda Markaziy Avstraliyaning bepoyon qizil qumli tekisliklarini egallagan chiroyli geologik mahsullar joylashgan. Uluru, ulkan monolit va Kata-Tyuta, Uluru g'arbida joylashgan qoya gumbazlari dunyodagi eng qadimgi insoniyat jamiyatlaridan birining an'anaviy e'tiqod tizimining bir qismidir. Anangu qabilasi aborigenlari Uluru-Kata-Tyutaning an'anaviy davomchilaridir.



© Emmanuel Pivard

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## «Tabiiy meros» tushunchasi tavsiflari

### FIZIK VA BIOLOGIK MAHSULLAR YOKI SHUNDAY MAHSULLAR GURUHLARIDAN IBORAT TABIIY OBYEKTLAR

Konvensiyadagi rasmiy tavsif yuqoridagi «Tabiiy meros» bo'limida keltirilgan. Quyida sanab o'tilgan obyektlarga bir qator misollar keltirilgan.

#### *Janubiy Xitoy karsti (Xitoy)*

Janubiy Xitoy karst mintaqasi yarim million kv.km maydonga cho'zilgan va asosan Yunnan, Guychjou va Guansi provinsiyalarida joylashgan. U nam tropik va subtropik karst landshaftlarining jahonda eng ajoyib namunalari biridir.



© YUNESKO / Jim Thorsell

Shilin toshli o'rmonlari ajoyib tabiat hodisasi va cho'qqili boshqa karst landshaftlariga qaraganda kengroq cho'qqi shakllariga, shuningdek, turli xil shakllar va o'zgaruvchan ranglarga ega bo'lgan dunyo namunasi hisoblanadi. Karstning shu turdagi namunasi sanaladigan konusli va minorali Libo karstlari o'ziga xos va go'zal landshaft hosil qiladi. Vulong karsti ulkan vohalari (karst voronka), shuningdek tabiiy ko'priklar va g'orlari bois ro'yxatga kiritilgan.

#### *Kamchatka vulqonlari (Rossiya Federatsiyasi)*

Bu faol vulqonlarning yuqori zichligi, turli xil turlari va ular bilan bog'liq xususiyatlarga ega dunyodagi eng mashhur vulqon mintaqalaridan biridir. Turkumga kiritilgan oltita hudud Kamchatka yarimoroli vulqon hosilalarining katta qismini o'z ichiga oladi.

Faol vulqonlar va muzliklarning o'zaro ta'siri taqqoslab bo'lmay go'zal dinamik landshaft hosil qilgan. Bu joylarda turlarning nihoyatda turli-tumanligi, jumladan jahon miqyosida losos baliqlarining eng ko'p turlari va suv quduzi, qo'ng'ir ayiq va oq yelkali dengiz burgutining noyob turlari uchraydi.



© YUNESKO / Guy Debonnet

### GEOLOGIK VA FIZIOGRAFIK MAHSULLAR VA YO'QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI HAYVONLAR VA O'SIMLIKLARNING YASHASH MUHITINI TASHKIL ETUVCHI ANIQ CHEGARALANGAN HUDUDLAR

Konvensiyadagi rasmiy tavsif yuqoridagi «Tabiiy meros» bo'limida keltirilgan. Quyida sanab o'tilgan obyektlarga bir qator misollar keltirilgan.



### **Okapi yovvoyi tabiat qo'riqxonasi** (Kongo Demokratik Respublikasi)

Okapi yovvoyi tabiat qo'riqxonasi Kongo Demokratik Respublikasining shimoli-sharqidagi Ituri o'rmonining taxminan beshdan bir qismini tashkil etadi. Bir qismi qo'riqxonaga va o'rmon bo'lgan Kongo daryosi havzasi Afrikadagi eng katta drenaj tizimlaridan biri sanaladi. Qo'riqxonaga hududida primatlar va qushlarning yo'qolib borayotgan turlari, shuningdek yovvoyi tabiatda saqlanib qolgan taxminan 30000 ta okapidan 5000 tacha yashaydi. Bundan tashqari, u g'aroyib manzaralari, jumladan Ituri va Epulu daryolaridagi sharsharalari bilan ajralib turadi. Qo'riqxonada an'anaviy ko'chmanchi mbuti va efe ovchilari vakillari istiqomat qiladi.



© Eric Lodde

### **Yangi Kaledoniya lagunlari: Rif xilma-xilligi va yondosh ekotizimlar** (Fransiya)

Ushbu turkumli obyekt oltita suvli guruhdan iborat bo'lib, Tinch okeanidagi Fransiyaning Yangi Kaledoniya arxipelagida marjon riflari hamda u bilan bog'liq ekotizimlarni va jahondagi uchta eng keng rif tizimlaridan birini taqdim etadi.

Ushbu lagunlar tabiati nihoyatda go'zalligi bilan ajralib turadi. Ular marjonlar hamda baliqlar turlarining ko'pligi va mangrovlardan dengiz o'tlarigacha yashash joylarining uzluksizligi va dunyodagi rif tuzilmalarining eng xilma-xil konsentratsiyasi bilan ajralib turadi. Yangi Kaledoniya qo'ltiqlari yirik yirtqichlar, ko'p sonli va turli-tuman katta baliqlarning sog'lom populyatsiyasiga ega tabiiy saqlangan ekotizimlarni namoyon qiladi. Ular populyatsiyasi kattaligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turuvchi toshbaqa, kitlar yoki dyugonlar kabi noyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan bir qator turlar uchun yashash muhiti bo'lib xizmat qiladi.



© Emmanuel Legros

### **TABIY OBYEKTLAR YOKI FAN, TABIATNI MUHOFAZA QILISH, YOKI TABIIY GO'ZALLIK NUQTAYI NAZARIDAN BUTUNJAHON MISLSIZ QIYMATGA EGA ANIQ CHEGARALANGAN TABIIY HUDUDLAR**

Konvensiyadagi rasmiy ta'rif yuqorida Tabiiy meros atamasi ostida keltirilgan. Ro'yxatga olingan obyektlarga ba'zi misollar quyida keltirilgan.

### **Grand-Kanyon milliy bog'i** (Qo'shma Shtatlar)

Kolorado daryosi kesib o'tgan Grand-Kanyon (chuqurligi deyarli 1500 m) jahonda eng g'aroyib dara sanaladi. U Arizona shtatida joylashgan va Grand-Kanyon milliy bog'ini kesib o'tadi. Uning gorizontal qatlamlari so'nggi 2 milliard yillik tarixni kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, insonning nihoyatda og'ir muhitga moslashishiga oid tarixdan oldingi davr izlari ham mavjud.



© David Geldhof

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## *Xalong qo'ltig'i (Vyetnam)*

Tonkin ko'rfazidagi Xalong qo'ltig'i 1600 ta orol va orolchalardan iborat bo'lib, ohaktosh ustunlardan ajoyib dengiz manzarasini hosil qilgan. Qoyatoshli muhit bois, orollarning aksar qismida yashab bo'lmaydi va shu boisdan inson omili ta'sir qilmagan. Bu joyning o'ziga xos go'zalligini unga bo'lgan ilmiy qiziqish ham kuchaytiradi.



© B. Doucin/L. Lajatié

## Asosiy tushunchalar lug'ati

### BUTUNJAHON MISLSIZ QIYMATI (BMQ)

Butunjahon merosi haqidagi Konvensiya butun insoniyat merosining bir qismi sanaladigan, muhofaza qilinishi va kelajak avlodga yetkazilishi joiz bo'lgan, shuningdek butun insoniyat uchun muhim "butunjahon mislsiz qiymatga ega obyektlari"ni tan olish uchun ta'sis etilgan.

Ushbu *Operatsion qo'llanma* Butunjahon mislsiz qiymat milliy chegaralardan chiqib ketadigan, insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlari uchun umuminsoniy qadriyatga ega favqulodda madaniy va/yoki tabiiy mulk sifatida ta'rif beriladi (49-paragraf).

Ushbu tavsif Butunjahon merosi ro'yxatiga obyektlarni kiritish mezonlari orqali qabul qilinadi. Mezonlar quyida ko'rib chiqilgan.

Obyekt butunjahon mislsiz qiymatga ega obyekt deb tan olinishi uchun u yaxlitlik va/yoki asllik shartlariga javob berishi va uning saqlanishini ta'minlovchi tegishli muhofaza va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi kerak (*Operatsion qo'llanma*, 78-paragraf, II.E bo'limidagi yaxlitlik va asllik haqidagi bo'limlarni ko'ring Butunjahon mislsiz qiymati bu:

- takliflarning asosiy mag'zi;
- baholanadigan jihat;
- obyektning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilish sababi;
- himoya, konservatsiya va boshqaruv orqali nimalar qo'llab-quvvatlanishi kerak

2007-yildan beri Butunjahon merosi Qo'mitasi Butunjahon merosi ro'yxatiga obyektни kiritish paytida butunjahon mislsiz qiymat haqidagi bayonot qabul qildi va ushbu amaliyot boshlangunga qadar kiritilgan obyektlar ko'pchiligi uchun shunday nizomlarni yaratish bo'yicha jarayonlar mavjud. Ushbu bayonotlar Qo'mita ishida asosiy o'rin tutadi va ularda ro'yxatga kiritilgan har bir obyekt nima uchun o'ziga butunjahon mislsiz qiymatga ega obyekt deb sanalishi, u asllik, yaxlitlik va boshqaruv bo'yicha talablar va mezonlarga qanday mos kelishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Butunjahon mislsiz qiymat bayonoti (BMQM) mulkning butun umrini qamrab oladi. Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan qabul qilingach, BMQB quyidagilar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda:

- Ishtirokchi-davlat va obyektни boshqaruvchisi tomonidan monitoring qilish;
- hisobotlarni doimiy taqdim etish;

- faol monitoring va saqlanganlik haqida hisobotlarni taqdim etish;
- yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish;
- obyektning Butunjahon merosi ro'yxatidan chiqarilishi mumkinligi.

Mavzular va tematik asoslar butunjahon mislsiz qiymatni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

**Qarang:** Tabiiy va madaniy meros sohasida Butunjahon merosi global strategiysi bo'yicha ekspertlar kengashi hisoboti (YUNESKO Butunjahon merosi markazi / Niderlandiya hukumati, 1998) va Butunjahon merosi ro'yxati: Muammolarni hal qilish — Kelajak uchun harakatlar rejasi (ICOMOS, 2005a).

Yuqorida ta'kidlanganidek, Butunjahon mislsiz qiymat — bu madaniy va/yoki tabiiy ahamiyatga ega alohida toifa. Mahalliy yoki milliy meros qiymati, meros qiymatining boshqa darajalari ham mavjud. Ushbu qo'llanmada «qiymat» yoki «ahamiyat» atamalaridan foydalanishni tegishli kontekstda tushunilishi lozim: ko'pincha bu Butunjahon mislsiz qiymat bo'ladi, lekin ba'zida ular milliy yoki mahalliy meros kabi boshqa darajalarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

## ATRIBUTLAR YOKI XUSUSIYATLAR

Atributlar — bu Butunjahon mislsiz qiymat atamasi bilan bog'liq yoki uni ifodalaydigan obyektning jihatlaridir. Atributlar moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Operatsion qo'llanma Butunjahon mislsiz qiymatni aks ettirishi mumkin bo'lgan atributlarning bir qator toifalari keltiriladi, jumladan:

- shakl va dizayn;
- material va tarkibiy qismlar;
- qo'llanilishi va funksiyalari;
- an'analar, usullar va boshqaruv tizimlari;
- joylashuv va atrof-muhit;
- til va nomoddiy merosning boshqa shakllari; va
- ruhiyat va hissiyot (82-paragraf).

Bu ro'yxat tanishish uchun berilgan. Obyekt uchun o'rnatilgan atributlar Butunjahon mislsiz qiymat bayonotidan va mezon asoslaridan kelib chiqishi muhimdir.

Atributlar identifikatsiyalanishi kerak, chunki ular asllik va o'ziga yaxlitlik tushunish uchun o'ta muhim, shuningdek muhofaza, saqlash va nazorat predmeti sanaladi.

Tabiiy xususiyatlarga nisbatan, ko'pincha “xos belgilar” so'zi ishlatilsa ham, “atributlar” deb aytish qabul qilingan. Tabiiy obyektlar uchun atributlarga misollar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- vizual va estetik ahamiyat;
- fizik yoki tabiiy yashash muhiti xususiyatlari darajasi ko'lami;
- fizik yoki ekologik jarayonlarning yaxlitligi;
- tabiiy tizimlarning tabiiyligi va yaxlitligi;
- noyob turlar populatsiyalarining yashovchanligi; va
- noyoblik.

## 1 Butunjahon merosi tarixi

### ■ BUFER HUDUDI

Bufér hududlari — bu Butunjahon merosi obyektì chegarasidan tashqarida va unga tutash aniq belgilangan hududlar bo'lib, ular obyektning butunjahon mislsiz qiymatini muhofaza qilish, saqlash, boshqarish, yaxliligi, haqiqiyliigi va barqarorligiga hissa qo'shadi.

Bufér hududlari ro'yxatga kiritilgan obyekt qismi sifatida ko'rilmasa ham, uning chegaralari va tegishli boshqaruv yondashuvlari ishtirokchi-davlat tomonidan taklif qilingan paytda baholanishi, tasdiqlanishi va rasman qayd etilishi kerak.

Bufér zonalari aniqlangan taqdirda, ular ishtirokchi - davlatning Butunjahon merosi obyektlarini muhofaza qilish, saqlash va boshqarish bo'yicha majburiyatlarining ajralmas qismi sifatida ko'rilishi lozim. Bufér hududi funksiyalari Butunjahon merosi obyektining Butunjahon mislsiz qiymatini ta'minlovchi atributlarini himoya qilish uchun zarur muhofaza, saqlash va boshqaruv turlari va darajalarini aks ettirishi kerak.

82-85-betlarda bufer hududlariga bir qancha misollar keltirilgan bo'lib, unda bunday hududlarni belgilash talablari ko'rib chiqiladi. "Butunjahon merosi va bufer hududlari", Butunjahon merosi va bufer hududlari bo'yicha xalqaro ekspertlik uchrashuvi, Davos, Shveysariya, 11-14-mart, 2008-yil (Martin and Piatti, 2009) — bufer zonalari bo'yicha foydali qo'llanmadir.

### ■ QIYOSIY TAHLIL

Qiyosiy tahlil ham milliy, ham xalqaro miqyosda taklif etilayotgan obyektning ahamiyatini yoritib beradi. Buning uchun Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va kiritilmagan o'xshash obyektlar bilan obyektning qiyoslash kerak bo'ladi. Qiyosiy tahlilda taklif etilayotgan obyektning boshqa obyektlarga o'xshashliklari va boshqasidan ajralib turish sabablari ko'rsatilishi lozim.

Batafsil qiyosiy tahlil 67-73-betlarda ko'rib chiqilgan.

### ■ OBYEKT

Obyekt — bu Butunjahon mislsiz qiymatga ega yerning quruqlik yoki dengiz qismidir.

Oldin bu obyektning ta'riflash uchun maxsus «asosiy hudud» atamasi qo'llanilgan. Biroq ayni paytda bu atama eskirdi va ishlatilmasligi kerak. Barcha havolalar «obyekt»ga yangilanishi kerak.

### ■ ATROF-MUHIT

Agar atrof-muhit obyektning Butunjahon mislsiz qiymatining bir qismi yoki ajralmas qismi bo'lsa, unda ro'yxatga kiritilgan obyektning bir qismi, yoki, ba'zi hollarda, masalan, keng manzaralar, bufer hududining bir qismi bo'lishi kerak. Agar atrof-muhit Butunjahon mislsiz qiymatining baholanishiga yordam bersa, ammo Butunjahon mislsiz qiymatiga hissa qo'shmasa, unda u bufer hududga kiritilishi yoki boshqa tarzda himoya qilingani ma'qulroq.

*ICOMOS-ning meros obyektlari sanaluvchi inshootlar, joylar va hududlarni saqlash haqidagi Sian deklaratsiyasida (2005b) ta'kidlanishicha,*

“Obyektning atrof-muhiti, maydoni yoki hududi uning ahamiyatining va ajralib turuvchi xususiyatining bir qismi sanaladigan yoki unga hissa qo’shadigan bevosita yoki kengaytirilgan atrof-muhiti sifatida belgilanadi.


Fizik va vizual jihatlardan tashqari, atrof-muhit tabiiy muhit bilan o’zaro ta’sirni; oldingi yoki hozirgi ijtimoiy yoki ma’naviy amaliyotlar, odatlar, an’anaviy bilimlar, foydalanish yoki faoliyat, makonni yaratgan va shakllantirayotgan nomoddiy madaniy merosning boshqa shakllarini, shuningdek joriy va dinamik madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstni o’z ichiga oladi”.

Konsepsiya va atrof-muhit bilan bog’liq talablar 85-86-betlarda ko’rib chiqiladi.

### Tabiiy, madaniy va aralash obyektlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik va madaniy landshaftlarning alohida holatlari

Aralash turdagi obyektlar va madaniy landshaftlarni chalkashtirmaslik lozim. Aralash turdagi obyektlar (i)-(vi) mezonlardan kamida bittasiga, shuningdek (vii)-(x) mezonlardan kamida bittasi sifatida ro’yxatga olinadi, chunki ular bir-biridan mustaqil ravishda ikkala mezon talabiga ham javob beradi. Madaniy landshaftlarning Butunjahon mislsiz qiymati ularning mustaqil baholanadigan madaniy yoki tabiiy sifatlaridan emas, balki madaniyat va tabiat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikdan kelib chiqadi. Madaniy landshaftlar madaniy mezonlarga muvofiq aniqlanadi. Ko’pincha bunday obyektlar tabiiy qadriyatga ega, ammo tabiiy mezonlar bo’yicha ularni ro’yxatga kirita oladigan darajada emas. Shunday holat ro’y berganda obyekt aralash turdagi obyektlar va madaniy landshaftlar sifatida ro’yxatga kiritiladi. Ushbu o’zaro bog’liqlikning to’plami nazariy izohi quyidagi diagrammada ko’rsatilgan.

Ayrim aralash turdagi obyektlar uchun tabiiy va madaniy qiymatlar birlashtirilgan va o’zaro bog’liq. Boshqa holatlarda qiymatlar o’zaro bir - biriga bog’liq bo’lmasligi, shunchaki umumiy geografik joylashuvga ega bo’lishi mumkin.



## ASOSIY XABAR

Butunjahon mirlsiz qiymatni ko'rsatuvchi tegishli mezonlarnigina tanlang.

### Butunjahon merosi mezonlari

Obyektlarning Butunjahon merosiga kiritilishi uchun *Operatsion qo'llanmada* (77-paragraf) belgilab berilgan o'nta mezon mavjud. (i) dan (vi) gacha bo'lgan mezonlar madaniy obyektlarga tegishli va shu boisdan ularni ICOMOS baholaydi va qolgan (vii)-(x) mezonlari tabiiy obyektlarga tegishli bo'lib, ularni IUCN baholaydi. Ko'plab obyektlar faqat tabiiy yoki madaniy mezonlarga mos kelsa, aralash turdagi obyektlar ham tabiiy, ham madaniy mezonlarga mos keladi. Aralash turdagi obyektlarning nomzodlikka takliflarini IUCN hamda ICOMOS baholaydi.

Mezonlarga mos obyektlarga misollar quyida keltirilgan (ushbu misollar uchun matn va tasvirlar YUNESKO Butunjahon merosi veb-saytidan olingan).

#### **(i) mezon: inson ijodiy mahoratining shoh asarlarini taqdim etadi**

Boshqacha aytganda, ushbu mezon quyidagilarni o'zida jamlagan madaniyat doirasida shakllangan uslubning ajoyib namunasi (ehtimol cho'qqi yoki diqqatga sazovor tomoni) ga tegishli:

- yuqori intellektual yoki ramziy iqtidor;
- yuqori darajadagi badiiy, texnik yoki texnologik ko'nikmalar;
- noyoblik, o'z-o'zidan, merosga kirish uchun yetarlicha asos bo'la olmaydi. Obyekt keng madaniy-tarixiy jihatlar bo'yicha ko'rib chiqilishi va uning qiymati shu jihatlariga nisbatan baholanishi kerak.

Butunjahon merosi ro'yxati odamlarning emas, balki obyektlarning ro'yxatidir. Masalan, (i) mezonga ko'ra, inson ijodiy qobiliyatining shoh asarlari talab etiladi. Butunjahon merosi ro'yxatida iste'dodlar emas, balki ular yaratgan shoh asarlar keltiriladi. Xuddi shunday, ular iste'dodlarning merosi emas, balki Butunjahon mirlsiz qiymatini aks ettiradigan durdona asarini yoki yaxlit tarzda shunday qiymatga shunday shoh asarlar turkumi o'z ichiga kiritishi mumkin.

Barcha shoh asarlarning ham taniqli me'morlari yoki dizaynerlari yo'q. Masalan, ayrim tarixdan oldingi davr inshootlari shu davr xalqi uchun ijodkorlik va texnik mukammallik ramziga aylangan; boshqa holatlarda hamjamiyatning jamoaviy ishlari yaratilganda ko'proq amaliy maqsad ko'zlangan bo'lsa ham, ularni shoh asar maqomiga erishgan, deb hisoblash mumkin. Ayrim sanoat inshootlari ijodkorlikni daho darajasiga ko'tarish uchun o'zining amaliylik va foydalanishlik jihatidan yuksak mahorat nuqtasiga erishgan, deb qaraladi. Boshqa hollarda, jamoaning jamoaviy ishlari, ular yaratilganda, ular funktsionallikdan ko'ra ko'proq bo'lishi nazarda tutilmagan bo'lsa-da, durdona maqomiga erishgan, deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, ba'zi sanoat tuzilmalari ijodkorlikni daho darajasiga ko'tarish uchun funktsional va utilitar darajadan yuqoriga ko'tarilgan.

#### **Sidney opera teatri (Avstraliya)**

1973-yil ochilgan Sidney Opera teatri me'moriy shakl va dizayndagi ko'plab ijodkorlik va innovatsiyaning bir nechta yo'nalishini o'zida birlashtirgan XX-asrning buyuk me'morchilik asaridir. Ajoyib suvli muhitda, Sidney bandargohiga chiquvchi, yarimorolning ajoyib suv manzarasi orasida joylashgan buyuk shahar haykaltaroshlik asari, bino



© Emmanuel Pivard

me'morchilikka kuchli ta'sir o'tkazgan. Sidney Opera teatri ikkita asosiy konsert zali va restoranni qamrab olgan uchta o'zaro bog'langan gumbazsimon «qobiq» guruhidan iborat. Ushbu qobiqsimon tuzilmalar keng platformaga o'rnatilgan va piyodalar yo'laklari sifatida xizmat qiluvchi ayvon maydonlari bilan o'ralgan. 1957-yilda Sidney Opera teatri loyihasi uchun xalqaro hakamlar tomonidan Daniyalik arxitektor Yorn Utsonni mukofotlanishi inshoot qurilishiga tubdan yangi yondashuvni kashf etdi.

**(ii) mezon: Arxitektura yoki texnologiya, monumental san'at, shaharsozlik yoki landshaft dizaynidagi yutuqlarga nisbatan ma'lum bir vaqt oralig'ida yoki jahon madaniy sohasi doirasida, insoniy qadriyatlarining muhim almashinuvini namoyish etadi**

Bu mezondagi asosiy ibora – «insoniy qadriyatlarining o'zaro almashinuvi». ICOMOS arxitektura, texnologiya, haykaltaroshlik san'ati, shaharsozlik yoki landshaft dizayni doirasida obyektning moddiy qadriyatlari g'oyalarning o'zaro almashinuviga aloqadorligini baholaydi va bu turlicha talqin qilinishi mumkin:

- obyekt boshqa mintaqa yoki hududdan o'zlashtirilgan va kelib chiqish mintaqasi, retsipiyent-mintaqa yoki boshqadan o'zgartirilgan g'oya yoki konsepsiyaning timsoli bo'lishi mumkin;
- muqobil ravishda, obyekt boshqa sohalarga ta'sir qilgan ilhomlantiruvchi g'oyalar orqali insoniy qadriyatlarining o'zaro almashinuvini yetaklashi mumkin; va
- uchinchidan, ikki tomonlama g'oyalar oqimi bo'lishi mumkin, ushbu holatda obyekt
- o'ziga xos madaniy uyg'unlik yoki mahalliy sharoitga moslashishni ko'rsatadi, bu ma'lum darajada ramziy ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Barcha holatlarda insoniyat g'oyalari yoki ta'sirlarining o'zaro almashinuvi u o'sha paytda va/yoki keyinchalik shaxslar yoki jamiyatga ko'rsatgan ta'siri jihatidan ajoyib deb atash mumkin bo'lgan javob uyg'otishi kerak.

Ko'plab obyektlarda o'zaro ta'sirlar yoki almashinuvlar g'oyalarning san'at tarixi, arxitektura yoki shahar dizayni yoki texnologiya tarixi uchun muhim bo'lgan va obyektning atributlarida mujassamlangan aniq tarqalishini anglatadi.

Insoniyat jamiyatlari va madaniyatlarida o'zaro almashinuv odatiy hodisa bo'lganligi bois, ushbu mezon o'zaro almashinuv va qadriyatlar/ta'sir qabul qiluvchi madaniyatga o'zining ta'sirida sezilarli va muhim bo'lishini talab qiladi. Kichik madaniy jihatlar yoki kichik ta'sirga ega bo'lgan qiymatni o'tkazish yetarli emas.

Bundan tashqari, o'zaro almashingan qiymat yoki ta'sir, obyektning atributlarida mujassamlangan holda, taklif etilayotgan obyektida qandaydir tarzda namoyon bo'lishi kerak. Insoniy qadriyatlar yoki ta'sirlarning obyektida namoyon bo'lmagan holda o'zaro almashinuvi merosga kirish uchun yaxshi dalil sifatida xizmat qilmaydi.

Biror-bir obyektning yaxshi saqlanganligini asoslash uchun bu mezondan foydalanish odatda o'rinsizdir va uni boshqa mezonlar yordamida asoslagan ma'qulroq.

#### MISOL

**Samarqand — madaniyatlar chorrahasi (O'zbekiston)**

Qadimiy Samarqand shahri—jahon madaniyatlarining chorrahasi va qizg'in o'chog'idir. Miloddan avvalgi VII-asrda Afrosiyob sifatida asos solingan Samarqand XIV-asrdan XV-asrgacha bo'lgan Temuriylar davrida rivojlanish cho'qqisini boshdan kechirdi.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

Samarqanddagi Bibi Xonim masjidi va Registon maydoni kabi majmualar O'rta Yer dengizidan Hind subkontinentigacha bo'lgan butun boshli mintaqada Islom me'morchiligining rivojlanishida asosiy rol o'ynagan. (I) va (IV) mezonlar bo'yicha ro'yxatga kiritilgan.



© M & G Therin-Weise

**(III) mezon: mavjud yoki yo'q bo'lib ketgan madaniy an'ana yoki sivilizatsiyaning noyob yoki hech bo'lmaganda istisno dalillariga ega bo'lishi.**

(ii) mezondan farqli ravishda, bu mezon uzoq vaqt davomida geomadaniy mintaqada turmush tarzi yoki sivilizatsiyani belgilaydigan jarayon — madaniy an'analarni ko'rib chiqadi. Bunday an'analari hali ham mavjud va amal qilinayotgan, yoki butunlay yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin, ushbu holatda ularning yodgorliklari dalillar sanaladi. An'analarga qurilish usullari, shahar tuzilishi yoki namunalari kirishi mumkin. Boshqa tomondan, an'analari nomoddiy bo'lishi mumkin, ammo aniq moddiy natijalarga ega bo'lishi mumkin, masalan, tosh rasmlari, madaniy an'analarning g'oyalari yoki jihatlarini aks ettirishi mumkin.

Asosiy ibora— “maxsus dalil”. Dalil madaniy an'ana yoki sivilizatsiyaning tasdig'idir va taklif etilayotgan obyektida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy an'ana yoki sivilizatsiya Butunjahon mislsiz qiymat nuqtayi nazaridan tushunilishi kerak. Ular butun insoniyatning madaniyatlari uchun umumiy yoki ularga ta'sir qiluvchi universal xarakterdagi muammolarni ifodalashi kerak (Butunjahon merosi ekspertlari uchrashuvi, Amsterdam, 1998). Ya'ni, madaniy an'ana yoki sivilizatsiya faqat ma'lum bir madaniyat uchun muhim bo'lgan masalalargagina tegishli bo'la olmaydi.

Sivilizatsiya ancha vaqt davomida mavjud bo'lgan, uyushgan xarakterga yoki birlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lgan va odamlarning nisbatan kattaroq guruhini o'z ichiga oladi. Nisbatan qisqaroq muddat yashagan jamiyatlar, tashkiliy xususiyati yoki birlashganlik sifatleri yo'q guruhlar, yoki juda kichik guruhlar sivilizatsiya deb sanalmaydi.

## MISOL

### **Makao tarixiy markazi** (Xitoy)

Makao G'arb va Xitoy o'rtasida birinchi va eng uzoq davom etgan to'qnashuvning noyob dalilidir. XVI-asrdan XX-asrgacha, u savdogar va missionerlarning, shuningdek turli bilim sohaslarining markazi bo'lgan. Ushbu to'qnashuvning ta'sirini Makaoning tarixiy o'zagini ifodalovchi turli madaniyatlarning qo'shilish ketganligiga ko'rish mumkin.



© Serge Dos Santos

(ii), (iv) va (vi) mezonlarga asosanib ro'yxatga kiritilgan.



**(IV) mezon: insoniyat tarixida sezilarli bosqich(lar)ni aks ettiradigan bino turi, arxitektura yoki texnologik majmua yoki landshaftning o'ziga xos misoli bo'lishi.**

Ushbu mezon tarixda bir yoki bir nechta muhim bosqichlarni aks ettiruvchi ma'lum bir tipologiya nuqtayi nazaridan taklif etilgan obyekt tipologiyasining o'ziga xos xususiyatiga aloqador.

Mazkur mezonning mohiyati shundan iboratki, obyekt insoniyat tarixidagi burilish davri yoki davrlari, yoki muhim bosqichlar bilan bog'langanini ma'lum bir tarzda namoyon qilishi kerak. Obyekt shu davr ta'siriga uchragan yoki uning ta'sirini aks ettirishi mumkin. Tarixiy lahzani, shuningdek, uning oqibatlarini o'ta muhim deb e'tirof etish kerak. Bosqichlar siyosiy yoki iqtisodiy tarixga, shuningdek keng qamrovli oqibatlarga olib kelgan badiiy yoki ilmiy tarixga tegishli bo'lishi mumkin.

Obyekt insoniyat tarixida muhim bosqichni o'ziga xos tarzda aks ettirishi kerak. Bunday bosqichni mintaqaviy va global miqyosda baholash talab etiladi va shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi kerak. Sezilarli darajada mintaqaviy yoki global ta'siri yo'q ekan, bitta davlat tarixidagi muhim bosqich yetarli emas. Bosqichga nisbatan vaqt o'lchovi ham bor. Bosqich madaniy tarix va davomiylik modellari hamda ushbu tarixdagi o'zgarishlar nuqtayi nazaridan aniqlanishi lozim. Sun'iy vaqt davrlari (masalan, XVIII-asr), o'z-o'zidan ma'lumki, qoniqarli izoh emas. Ahamiyatli vaqt davri madaniy kontekst doirasida muhim va tan olingan muayyan belgilangan davr bo'lishi kerak.

Shunday qilib, mezon obyektning ma'lum bir turini sezilarli "prototiplari" yoki kuchli ifodalangan namunalariga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu mezon, umumbashariy namuna bo'lgan har qanday turdagi bino, majmua yoki landshaftning merosga kiritilishini anglatmaydi.

ICOMOS temir yo'llar, kanallar, qoyatosh rasmlari yoki ko'priklar kabi obyekt turlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar ishlab chiqqan bo'lib, bundan maqsad taklif etilayotgan obyektlarning ma'lum bir turlariga obyektiv baho berishdir (<http://www.icomos.org/studies/> veb-manziliga qarang). Bundan tashqari, ICOMOS hujjatlashtirish markazi tuzib chiqqan tematik va mintaqaviy foydali bibliografiyalarini internetda topsa bo'ladi ([http://www.international.icomos.org/centre\\_documentation/bib/index.html](http://www.international.icomos.org/centre_documentation/bib/index.html)).

**MISOL**

**Rido kanali** (Kanada)

Rido kanali keng, yaxshi saqlangan va ahamiyatli kanal misoli bo'lib, undan insoniyat tarixining muhim bosqichi – Amerika qit'asining shimolini nazorat qilish uchun kurashlar bilan bog'liq harbiy maqsadlarda foydalanilgan.



© YUNESKO/Khaled Hamada

Taklif etilayotgan obyekt ochiq suv oqimlari, to'g'onlar, ko'priklar, istehkomlar, shlyuzli stansiyalar va tegishli arxeologik manbalar shaklidagi aloqador keyingi o'zgartirishlar bilan birga asl kanalning barcha asosiy elementlarini o'z ichiga oladi. Kanalning birlamchi rejasi va daryo yo'llarining shakli o'zgartirilmagan. Rido kanali qurilganidan beri uzluksiz tarzda amaliy suv yo'li sifatidagi o'zining asl dinamik funksiyasini bajarib kelmoqda. Uning shlyuzlari aksar qismi hali ham qo'lda boshqariladigan chig'irlar bilan ishlaydi.

(i) mezonga asoslanib ro'yxatga kiritilgan.

**(V) mezon: madaniyat (yoki madaniyatlarning) yoki insonning muqarrar o'zgarishlarning ta'siriga uchragan atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini ifodalovchi an'anaviy aholi yashash manzilgohlari yerdan foydalanish yoki dengizdan foydalanishning ajoyib namunasi bo'lishi.**

An'anaviy aholi yashash manzilgohlari shahar yoki qishloq tipida bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, yerdan foydalanish tartibi faqatgina qishloq aholisi mashg'ulotlariga taalluqli emas. Ushbu mezonning asosiy jihati shundaki, obyekt ma'lum bir madaniyat yoki madaniyatlarni aks ettirishi va bunday aks ettirish qaysidir ma'noda o'ziga xos mislsiz bo'lishi kerak. Ba'zida ushbu mezonda asosiy urg'u muqarrar o'zgarishlar ta'siriga qaratilgan, deb taxmin qilinadi — muqarrar o'zgarishlar ta'siriga moyil bo'lgan obyekt Butunjahon mislsiz qiymatiga ega. Masalaning boshqa tomoni ham bor. Ilgari ko'p bo'lgan, lekin ma'lum vaqt o'tib tashqi omillar natijasida u kamayib, noyob bo'lib qolgan, shu qolgan qismi aholi yashash manzilgohi yoki yerdan foydalanishning yagona saqlanib qolgan namunasi bo'lishi mumkin. Bu tashqi o'zgarishlar ta'sirida zaiflik va sezuvchanlikni anglatishi mumkin.

Asosiy ibora — «yerdan foydalanish». Aholi yashash manzilgohi yoki yerdan foydalanish an'anaviy deb hisoblanishi uchun ko'chish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yetarlicha uzoq vaqt bo'lishi kerak.

Turar joy manzilgohi yoki yerdan foydalanish ham madaniyatning ajoyib ifodasi yoki insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri bo'lishi kerak. Ya'ni, manzilgoh yoki yerdan foydalanish tartibi madaniy hayotda muhim bo'lishi yoki insoniy o'zaro munosabatlar umumahamiyatga ega bo'lishi kerak.

ICOMOS uzumzor landshaftlar kabi bir qator tematik global tadqiqotlar, yoki mintaqaviy tadqiqotlar ishlab chiqqan bo'lib, bundan maqsad manzilgohlar yoki landshaftning ayrim turlarini baholash yuzasidan obyektiv qo'llab-quvvatlashni ta'minlash (<http://www.icomos.org/studies/> saytini ko'ring).

## MISOL

### **Agava landshafti va Tekilaning qadimiy sanoat obyektlari (Meksika)**

Tekila vulqon tog'lari etagi va Rio Grande daryosi vohasi orasida joylashgan 34,658 gektar maydon moviy agavaning bepoyon landshaftining bir qismi bo'lib, bu joy XVI-asrdan buyon tekila spirti va kamida 2000 yildan beri fermentli ichimliklar va matolar ishlab chiqarish uchun foydalanilgan o'simlik madaniyati sifatida shakllangan. Landshaft doirasida XIX- va XX-asrlarda tekila iste'molining xalqaro miqyosda oshishini aks ettiruvchi spirt ishlab chiqaruvchi korxonalar bor. Hozirda, agava madaniyati milliy o'ziga xoslikning bir qismi sifatida qaraladi. Hudud ko'm-ko'k agava dalalarining jonli, qizg'in landshafti va agava an'anasi fermentlangan va distillangan yirik spirt ishlab chiqaruvchi korxonalari bor Tekila, Arenal va Amatitan kabi shahar joylarni o'z ichiga oladi. Obyekt Teuchitlan madaniyatlarining dalili ham sanalib, bu madaniyat Tekila hududida miloddan avvalgi 200-900-yillardan boshlab aynan



qishloq ahli uchun yo'llar, turar-joylar, butxonalar, marosim uchun qo'rg'onlar va to'pli o'yinlar uchun maydonchalar yaratilishi orqali shakllandi.

Dalalar, spirt ishlab chiqaruvchi korxonalar, yer-mulklar va shaharchalarning umumiy landshafti Tekilada rivojlangan xos madaniyatni ifodalovchi an'anaviy aholi yashovchi manzilgohlari va yerdan foydalanish tartibining ajoyib namunasi.

(ii), (iv) va (vi) mezonlarga muvofiq ro'yxatga kiritilgan.

***(VI) mezon: jahon miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar yoki turmush tarzi, g'oyalar yoki e'tiqodlar, san'at yoki badiiy asarlar bilan bevosita yoki sezilarli ravishda bog'langan bo'lishi. (Qo'mita ushbu mezonni boshqa mezonlar bilan birgalikda qo'llashni tavsiya qiladi.)***

Boshqa mezonlarning aksariyati tarixiy voqealar, siyosiy yo'l boshchilar, urush va nizolar, shaharni rejalashtirish g'oyalari yoki tuzilmaviy innovatsiyalar kabi u yoki bu turdagi nomoddiy assotsiatsiyalar bilan bog'liq, ammo ular ushbu assotsiatsiyalar moddiy ta'sirlariga taalluqli. Aksincha, bu mezon obyektga sezilarli ta'sir qila olmaydigan assotsiatsiyalarga taalluqli, ammo, shunga qaramay, aniq va bevosita ko'rsatib berilishi mumkin. Masalan, tog' yoki landshaft muqaddas yoki ilhom beruvchi bo'lishi mumkin; obyekt rassomlar, san'atkorlar yoki musiqachilarni ilhomlantirgan bo'lishi mumkin; yoki obyekt o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi biror-bir hodisa bilan bog'langan bo'lishi mumkin.

Bu mezonni asoslashning boshlang'ich nuqtasi voqealar, an'analar, g'oyalar, e'tiqodlar yoki san'at yoxud badiiy asarlar umumbashariy ahamiyatga ega ekanligi bo'lishi kerak. Shundan so'ng, ushbu voqealar, an'analar, g'oyalar, e'tiqodlar yoki san'at yoxud badiiy asarlar obyektida qanday qilib bevosita yoki moddiy ravishda namoyon bo'lishini ko'rsatib berishi kerak.

Butunjahon merosi konvensiyasi obyektga taalluqli ekanligini hisobga olgan holda, bu mezon faqat obyektning fizik jihatlari Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lsa, u boshqa kamida bitta mezonga mos kelganda qo'llanishi mumkin va Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalovchi kelishilgan atributlar uchun muhofaza qilinishi mumkin.

Butunjahon merosi ro'yxatiga voqealar, an'analar, g'oyalar, e'tiqodlar va san'at yoki badiiy asarlar o'z-o'zidan kiritilmaydi, ammo ular bilan bevosita yoki moddiy ravishda bog'langan obyektlar kiritilishi mumkin. Masalan, din yoki harakat umumbashariy ahamiyatga ega bo'lsa va u obyektida bevosita yoki moddiy ravishda aks ettirilgan bo'lsa, bu merosga kirish uchun yaxshi sabab bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ro'yxatga dunyo dinlarining barcha butxonalari, qadamjolari yoki cherkovlarini kiritib bo'lmaydi. Obyekt bevosita yoki moddiy assotsiatsiyalarning o'ziga xos namunasi bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ma'lum bir e'tiqodni muayyam kontekstda targ'ib qilish uchun foydalanilgan joylarga qaraganda, shu din paydo bo'lgan joyi bilan bog'liq assotsiatsiyalarga ko'proq e'tibor berilgan.

Qayd etish joizki, bir nechta istisno holatlar mavjud bo'lsa ham, Operatsion qo'llanmada bu mezon yolg'iz o'zi qo'llanganidan ko'ra boshqa mezonlar bilan birgalikda qo'llanilishi lozimligi aniq ko'rsatilgan.

# 1 Butunjahon merosi tarixi

## MISOL

**Struve geodezik yoyi** (Belarus, Estoniya, Finlandiya, Latviya, Litva, Moldova Respublikasi, Norvegiya, Rossiya Federatsiyasi, Shvetsiya va Ukraina)

Yoyni o'lchash va uning natijalari sayyoraning shakli va o'lchami bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan bevosita bog'liq. Bu Isaak Nyutonning Yer aniq sfera shaklida emasligi haqidagi nazariyasi bilan bog'liq.

(i) va (iv) mezonlariga muvofiq ro'yxatga kirgan.

**(VII) mezonni: g'aroyib tabiiy hodisa yoki nodir tabiiy go'zallik va estetik ahamiyatli hududlarni o'z ichiga olish**



© YUNESKO / Vesna Vujicic-Lugassy

Bu mezonda ikki xil g'oya mujassamlashtirilgan. Birinchisi – «g'aroyib tabiiy hodisa» ko'pincha obyektiv tarzda o'lchanishi va baholanishi kerak (masalan, eng chuqur dara, eng baland tog', eng katta g'or, eng baland sharshara va b.).

Ikkinchisi – «nodir tabiiy go'zallik va estetik ahamiyati»ni baholash murakkabroq. Bu mezon nodir tabiiy go'zal va estetik ahamiyatli tabiiy obyektlarga nisbatan tatbiq etiladi. Tabiiy hududlarning go'zalligi va estetikasi konseptsiyasiga nisbatan ko'plab intellektual yondashuvlar mavjud. Birorta ham yondashuv tavsiya etilmaganda, bir yoki undan ortiq tan olingan yondashuvlarni qabul qilish muhimdir. Ishonchli tasdiqlovchi dalillarsiz bu sifatlarni shunchaki tasdiqlash yetarli emas. Bu mezonni qo'llash hozirgi vaqtda madaniy mezonlardan foydalanish orqali ifodalanayotgan madaniy obyektlar va landshaftlarning estetikasini tan olish bilan chalkashtirilmasligi kerak.

Bundan tashqari, ushbu mezonning xususiyati shundaki, merosga kiritilish uchun taklif etilgan obyekt turlari mintaqaviy emas, balki butun dunyo bo'ylab taqsimlangan qiyosiy makonlarga ega, shuning uchun mazkur mezonga ko'ra qo'llaniladigan standartlar tasdiqlarning global standartiga mos kelishi kutiladi. Bu fakt madaniy landshaftlarni ko'rib chiqish uchun tegishli bo'lgan omillardan ushbu mezonning estetik elementini qo'llashni farqlaydi. Ushbu jihat bo'yicha baholash mazkur mezon bo'yicha Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan oldin ro'yxatga kiritilgan obyektlar bilan taqqoslashga asoslanadi va iloji boricha tasviriy qiymatning o'lchanadigan ko'rsatkichlarini taqqoslashni ham o'z ichiga oladi. Ushbu mezon bo'yicha sanab o'tilgan obyektlar bilan taqqoslash, shuningdek, Butunjahon merosi qo'mitasi va IUCNning undan foydalanishdagi o'tmishdagi amaliyoti ham uni qo'llashning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishda muhim elementlardir.

IUCN 2012-yil Butunjahon merosi qo'mitasiga taqdim etish uchun ushbu mezonni qo'llash bo'yicha keyingi tematik tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilgan. IUCN, shuningdek, (vii) mezonni qo'llash ham kamida bitta tabiiylik mezonni bilan birgalikda ko'rib chiqilishini ta'kidlab o'tgan.

## MISOL

**Monarx kapalaklar biosfera qo'riqxonasi** (Meksika)

56259 gektar maydonli biosfera qo'riqxonasi Mexiko shahrining shimoli - g'arbidan

taxminan 100 km masofadagi qalin o'rmon qoplagan tog'larda joylashgan. Har yili kuzda, Shimoliy Amerikaning keng hududlaridan millionlab, balki milliardlab kapalaklar bu maskanga qaytishadi va daraxtlarni sarg'ish tusga burkab, ularning shoxlarini tom ma'noda qayirib, kichik hududlarda to'planishadi.



© Expediente de proyección de inscripción / Carlos Gottfried

Bahorda bu kapalaklar sakkiz oylik migratsiyani amalga oshiradi. Bu vaqt mobaynida ular Sharqiy Kanadaga borib qaytishadi, kapalaklar to'rt avlodi almashinadi. Qishlash uchun ular ortga qanday yo'l topishlari jumboq bo'lib qolmoqda.

**(VIII) mezon: Olam tarixining muhim bosqichlari, jumladan hayot tarixi, relyef shakllarining rivojlanishida davom etayotgan muhim geologik jarayonlar, yoki muhim geomorfik yoki fiziografik xususiyatlarni aks ettiruvchi olamshumul misollar bo'lishi**

Ushbu mezon bo'yicha baholash tizimi global ahamiyatga ega bo'lib, u Yer tarixi haqida 4,6 milliard yillik tasavvurni qamrab olish va Yerdagi hayot evolyutsiyasini, shuningdek, sayyora geografiyasidagi o'zgarishlarini ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan geomorfologik xususiyatlarning global taqsimlanishini va butun dunyo istiqbolini aks ettiruvchi tor profili va yuqori darajada ixtisoslashgan xususiyatlar emas, balki kashf etilishi Yer tarixi va global jarayonlar bo'yicha tushunchamizni tubdan o'zgartirgan obyektlar ko'rib chiqiladi. Ayrim geologik nomzodlikka takliflarning xos tabiatini hisobga olgan holda, IUNC geologik ekspertlardan maslahat oladi. Ushbu mezon geologiya va geomorfologiya faniga tegishli bo'lgan to'rtta alohida, bir-biriga yaqin bo'lgan tabiiy elementlarni o'z ichiga oladi, xususan:

- **Yer tarixi:** Geologik obyektlarning ushbu kichik guruhiga sayyoramizning o'tmishdagi rivojlanishidagi muhim voqealarni qayd etadigan hodisalar, jumladan yer qobig'ining dinamikasi, tog'lar genezisi va rivojlanishi, plitalar siljishi, materiklarning harakati va rif vodiylarining rivojlanishi, meteoritlarning ta'siri va geologik o'tmishdagi iqlim o'zgarishlari kiradi. Ushbu toifada Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan obyektlar birinchi navbatda, toshga aylangan qoldiqlar emas, balki tog' jinslarining ketma-ketlik yoki assotsiatsiyalar yordamida aniqlangan Yerning jarayonlari va shakllari haqida umumiy tushunchamizga olib kelgan yirik kashfiyotlari bilan bog'liq.
- **Hayot tarixi:** Ushbu kichik guruhga paleontologik (qazib olinadigan) obyektlar kiradi. Bunday nomzodlikka takliflarni baholash uchun IUCN ro'yxat ishlab chiqqan (42-betdagi ilovani ko'ring).
- **Relyef shakllarining rivojlanishida davom etayotgan ahamiyatli geologik jarayonlar:** Geomorfologik obyektlar joriy geologik jarayonlarni va ularning relyef shakllari va landshaftlar bilan o'zaro aloqasini (fiziografiya) qayd qiladi. (viii) mezon xususiyatlarning ushbu qism guruhi muzliklar, tog'lar, cho'llar, faol vulqonlar, daryolar va deltalar, orollar va qirg'oqlar bilan bog'liq faol geomorfologik jarayonlarni tasvirlaydi.
- **Muhim geomorf yoki fizik-geografik xususiyatlar:** Ushbu qism faol jarayonlarning mahsullari sanalgan relyef shakllarini o'z ichiga oladi va yuqorida sanab o'tilgan jarayonlarni ko'rib chiqish bilan chambarchas bog'liq. Bu guruhga relyefning relik muzlik shakllari, so'ngan vulqon tizimlari va karst mahsullari kabi ancha erta yoki uzoq davom etgan faoliyat

# 1 Butunjahon merosi tarixi

davrlari natijasida yuzaga kelgan xususiyatlar ham kiradi. Ushbu xususiyatlarni baʼzan relyefning ayrim tomoshabop shakllarining estetik sifati jihatidan (viii) mezonni qoʻllashga nisbatan ham koʻrib chiqish mumkin.

## ***IUCN qazilma hududlarni baholash uchun nazorat roʻyxati***

1. *Qazish ishlari joyida geologik vaqtning uzoq muddatini qamrab oluvchi organik qoldiqlar bormi: yaʼni, geologik oyna qanchalik keng?*
2. *Qazish ishlari joyida cheklangan sondagi turlarning namunalari yoki toʻliq biotik guruhi bormi: yaʼni hududda turlar xilma-xilligi qanchalik keng?*
3. *Geologik yoshning maʼlum bir davri uchun qazib olinadigan namunalardan boʻyicha joy qanchalar noyob: yaʼni, bu oʻrganish uchun “odatiy joymi” yoki uning oʻxshash muqobillari bormi?*
4. *Boshqa joylarda vaqt/makonda ushbu davrning umumiy “tarixi”ni tushunishga hissa qoʻshgan qiyoslanuvchi qazilma hududlari bormi: yaʼni, bitta obyektning nomzodlikka taklifi yetarlimi yoki turkumli nomzodlikka takliflar koʻrib chiqilishi lozimmi?*
5. *Bu makon Yerdagi hayotni tushunishga ulkan hissa qoʻshgan katta ilmiy kashfiyotlar qilingan yagona asosiy joymi?*
6. *Ushbu makonda davomiy kashfiyotlarning istiqbollari qanday?*
7. *Makonga xalqaro miqyosda qiziqish darajasi qanday?*
8. *Makon bilan bogʻliq boshqa tabiiylik xususiyatlari bormi (masalan, manzara, relyef shakllari, oʻsimliklar): yaʼni, qazilma manbaga aloqador yon hududda zamonaviy geologik yoki biologik jarayonlar mavjudmi?*
9. *Makondan topilgan qazilma qoldiqlarining saqlanganlik holati qanday?*
10. *Topilgan qazilma qoldiqlari hozirgi taksonlar va/yoki jamiyatlarning saqlanganlik holatini tushunish imkonini beradimi: yaʼni, maʼlum vaqtlar oʻtib, bosqichli oʻzgarishlarning hozirgi biotaga taʼsirlarini hujjatlashirishda bu makonning oʻrni qanday?*

*Manba: Wells (1996).*

UCN geologik Butunjahon merosi boʻyicha mavzuga doir global tadqiqot oʻtkazdi (Dingwall et al., 2005). Tadqiqot ushbu mezon boʻyicha keyingi yoʻriqnomalarni taqdim etadi va geologik obyektlarning oʻn uchta turli tematik guruhiga nisbatan Butunjahon merosi roʻyxatining qamrovini koʻrib chiqish imkonini beradi.

## MISOL

**Vadi Al-Hitan (Kitlar vodiysi) (Misr)**

Misrning g'arbiy sahrosida Vadi Al-Hitan — Kitlar vodiysi eng erta davrlarga tegishli va hozirda yo'q bo'lib ketgan kitlarning kenja turi— arxeotsetlarning bebaho qazilma qoldiqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qazilma qoldiqlari evolyutsiyaning asosiy davrlaridan biri — quruqlikda yashovchi hayvon sifatidagi oldingi hayotidan suvda yashovchi sut emizuvchi sifatidagi kitning paydo bo'lish tarixini ko'rsatadi. Bu evolyutsiyaning ushbu bosqichini ko'rsatish uchun dunyodagi eng muhim makon sanaladi. Unda kitlarning o'tish davridagi shakli va hayoti yaqqol namoyon etilgan. Bu yerda shunday qazilma qoldiqlari soni to'planganligi va sifati noyob holat bo'lib, u manzarali va muhofaza qilinadigan landshaftda joylashganligi bilan ajralib turadi. Al-Hitan qazilma qoldiqlari orqa oyoqlarni yo'qotishning so'nggi bosqichida bo'lgan eng yosh arxeotsetlarni ko'rsatadi. Bu makondagi boshqa qazilma qoldiqlari shu davrdagi atrof-muhit va ekologik sharoitlarni qayta yaratish imkonini beradi.



© YUNESKO / Véronique Dauge

**(IX) mezon: quruqlik, chuchuk suv, qirg'oq bo'yi va dengiz ekotizimlari va o'simliklar hamda hayvonlar senozlarining evolyutsiyasi va rivojlanishida davom etayotgan muhim ekologik va biologik jarayonlarni aks ettiruvchi o'ziga xos misollar bo'lishi kerak.**

Ushbu mezonni baholash Yer ekotizimlari va ularning dinamikasi bilan bog'liq ekologik va biologik jarayonlarni ilmiy jihatdan bilish va tushunishga bog'liq. Bu mezonni obyektiv baholash uchun IUCN va hamkorlar o'rmonlar, botqoqliklar, dengiz va qirg'oq bo'yi hududlari, tog'lar, kichik orol ekotizimlari va boreal o'rmonlar kabi mavzuga doir bir qator global tadqiqotlar ishlab chiqishdi. Bular mezonni baholash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu tadqiqotlar bilan [http://www.iucn.org/about/work/programmes/wcpa\\_worldheritage/](http://www.iucn.org/about/work/programmes/wcpa_worldheritage/) havolasi orqali tanishish mumkin.

## MISOL

**Atsinanana tropik o'rmonlari (Madagaskar)**

Atsinanana tropik o'rmonlari orolning sharqiy qismi bo'ylab taqsimlangan oltita milliy xiyobondan iborat. Ushbu relik o'rmonlar orolning geologik tarixini aks ettiruvchi Madagaskarning noyob bioxilma-xilligini saqlab qolishda muhim sanalgan joriy ekologik jarayonlar davom etishi uchun o'ta muhim sanaladi. 60 million yildan ko'proq vaqt davomida quruqlikdan to'liq ajralib qolgan Madagaskarning o'simlik va hayvonot olami yakkalangan holda rivojlandi. Tropik o'rmonlar o'zlarining ekologik va biologik jarayonlar uchun muhimligi, shuningdek bioxilma-xilligi va ularda yashovchi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlari uchun ro'yxatga kiritilgan. Ko'plab turlar, ayniqsa primatlar hamda lemurlar kam uchraydi va xavf ostida.



© Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish jamiyati / Rassel Torstron

(x) mezonga muvofiq ro'yxatga kiritilgan.

## 1 Butunjahon merosi tarixi

**(X) mezon: biologik xilma-xillikni, shu jumladan yo'qolib ketish xavfi ostidagi fan yoki saqlash nuqtayi nazaridan Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lgan turlarni tabiiy sharoitlarda saqlab qolish uchun eng muhim va ahamiyatli tabiiy yashash muhitini o'z ichiga olishi**

Bu mezonni baholashning bir nechta vositalari mavjud. IUCN Qizil kitobi, O'simliklar xilma-xilligi markazlari, Jahonning endemik qushlari hududlari, Xalqaro tabiat bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha muammoli hududlar va Yerda hayotni saqlash uchun 200 ta WWF global ekohududlari shular jumlasidan. Bu qo'llanmaning bibliografiyasida shu masalalar bo'yicha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu global tasniflash tizimlarini qo'llash haqida qo'shimcha ma'lumotni Butunjahon merosi Konvensiyasi maxsus ekspertlar uchrashuvi uchun ma'lumot hujjati: Butunjahon mislsiz qiymati konsepsiyasida (Kamerun, 2005) topish mumkin.

### MISOL

#### **Sokotra arxipelagi (Yaman)**

Hind okeani shimoli - g'arbidagi Adan ko'rfazi yaqinida joylashgan Sokotra arxipelagi uzunligi 250 km bo'lib, uum to'rtta orol va Afrika shoxining davomi bo'lgan ikkita qoyatoshli orolchadan iborat. Boy hamda turli-tuman o'simlik va hayvonot olamini o'zida jamlagan bioxilma-xilligi bois bu joy umumbashariy ahamiyatga ega: Sokotradagi 825 turdagi o'simliklardan 37 foizi, reptiliyalarning 90 foizi va chig'anoqlarning 95 foizi dunyoning boshqa joyida uchramaydi. Bu yerda global ahamiyatga ega quruqlik va dengiz qushlari populyatsiyalari (192 ta tur, shundan 44 tasi orolda in quradi, qolgan 85 ta turi doimiy migrant qushlar), jumladan bir qator yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar ham uchraydi. Sokotraning dengiz hayoti ham juda turfa xil: marjon riflarining 253 ta turi, qirg'oqbo'yi baliqlarining 730 ta turi va krab, omar va mayda qisqichbaqalarning 300 ta turi uchraydi.



© Nomzodlikka taklif fayli/ Mairo Karuso

### Turkumli va transchegaraviy obyektlar

Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlar odatda bitta davlat-ishtirokchi chegaralari doirasida joylashgan yagona yer hududlari. Obyekt Laos Xalq Demokratik Respublikasidagi Champasak madaniy landshaftidagi Vat Pxou va u bilan bog'liq qadimiy manzilgohlar kabi ba'zi landshaftlarda bo'lgani kabi katta bo'lishi mumkin (39000 ga). Boshqa tomondan, obyekt juda kichik bo'lishi ham mumkin, masalan, Yaponiyadagi Xirosima tinchlik yodgorligi (Genbaku gumbazi) (0,4 ga). Obyektlar tabiiy, madaniy va aralash turda ham bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, obyektlarning bir qator maxsus turlari bor:

- transchegaraviy obyektlar;
- turkumli obyektlar;
- davlatlararo turkumli obyektlar (Operatsion qo'llanma, 134–39-paragraflar).

ASOSIY  
X A B A R

Taklif etilayotgan  
obyekt turini aniq  
belgilang .



Obyektlarning ushbu maxsus turlari quyida ko'rib chiqilgan. Barcha holatlarda, taklif etilayotgan obyektga komponentlarni tanlashning mantiqiy asoslari aniq tushunilishi va tushuntirilishi kerak (76-79-betlarga qarang). Turkumli obyektlar bo'yicha foydali manba — Nomzodlikka takliflar va Butunjahon merosi turkumli tabiiy obyektlarini boshqarish — Joriy vaziyat, muammolar va imkoniyatlar (Engels et al., 2009).

### ■ TRANSCHEGARAVIY OBYEKT

Ushbu obyektlar uzluksiz cho'zilgan quruqlik yoki dengiz hududlari bo'lib, ikki yoki undan ortiq qo'shni ishtirokchi-davlat chegarasidan o'tadi.

Transchegaraviy obyektlarning afzalliklari hozirgi siyosiy chegaralardan qat'i nazar, Butunjahon mislsiz qiymatni aks ettiruvchi, butun hudud va atributlarni bitta obyektga birlashtirish qobiliyatiga egaligidir. Bunday obyektlar davlatlarning umumiy meros bo'yicha davlatlararo va do'stona hamkorligini ifodalashda va kuchaytirishda yordam berishi mumkin.

Nomzodlikka takliflar tayyorlash, shuningdek doimiy muhofaza va boshqaruv turli davlatlarning tashkiliy tuzilmalari o'rtasidagi muvofiqlik va hamkorlikka zaruriyat bois qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab qilishi mumkin. Har bir davlatda muhofaza va boshqaruv mexanizmlari, shuningdek obyektlarni boshqarish, taqdim etish va saqlash uchun manbalarning mavjudligi farq qilishi mumkin. Bunday masalalarni hal qilish uchun, Operatsion qo'llanmada obyektning boshqarish masalalari bo'yicha maslahat uchun qo'shma boshqaruv qo'mitasi yoki shunga o'xshash organ yaratish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, chegaraning har ikki tomonida saqlanganlik holati komponentlari farq qilishi mumkin, bu kelajakda obyektning boshqarish muammolarga olib keladi.

### MISOLLAR


#### **Muskauer bog'i/ Muzakovskiy bog'i** (Germaniya va Polsha)

Polsha va Germaniya chegarasida, Neys daryosi qirg'og'ida joylashgan 559,9 gektar maydonli landshaft bog'i Knyaz Herman fon Pukler-Muskau tomonidan 1815—1844-yillarda yaratilgan. Shu atrofdagi qishloq xo'jaligi yerlari bilan uyg'unlashib ketgan park landshaftlarni loyihalashda yangi yondashuvlar uchun asos bo'lib xizmat qildi hamda Yevropa va Amerikada landshaft arxitekturasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. «O'simlikli surat» sifatida loyihalaniib, unda klassik manzaralar, jannat yoki boshqa mukammallikni aks ettirishga urinilmagan, aksincha, mahalliy o'simliklardan foydalanilib, mavjud landshaftga xos joziba kuchaytirilgan. Ushbu uyg'un landshaft yashil yo'lakchalar bilan Muskau shaharchasigacha yoyilib boradi. Ular o'z o'rnida rivojlanish uchun maydonlarni belgilovchi shahar xiyobonlarini hosil qilgan. Shu tariqa, shahar utopik landshaftning dizayni komponentiga aylangan. Ushbu parkda qasr, ko'priklar va dendrariy ham mavjud.



© Jaroslaw Wnorowski

# 1 Butunjahon merosi tarixi



Manba: Nomzodlikka taklif fayli

## Mosi-oa-Tunya/ Viktoriya sharsharalari (Zambiya va Zimbabve)

Bu dunyodagi eng g'aroyib sharsharalardan biri. Bu nuqtada kengligi 2 km dan ortiq bo'lgan Zambezi daryosi bir qator bazalt daralarga uriladi va 20 km dan ortiq masofadan ko'rish mumkin bo'lgan kamalak tumanini hosil qiladi.



© UNESCO / Nana Thiam

## TURKUMLI OBYEKT

Turkumli obyektlar — bu bitta chegarada bo'lmagan bir qator alohida yoki diskret komponentlar / hududlardir. Komponentlar ancha yaqin yoki geografik jihatdan bir-biridan ajratilgan bo'lishi mumkin, ammo barcha komponentlar bitta davlat doirasida bo'ladi. Davlatlararo turkumli obyektlar quyida ko'rib chiqilgan.

Turkumli obyektlar aniq belgilangan aloqalar bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq komponentlarni o'z ichiga oladi:

- Komponentlar ma'lum vaqt o'tib landshaftga oid, ekologik, evolyutsion yoki hududiy bog'liqlikni zarur joyda ta'minlaydigan madaniy, ijtimoiy yoki vazifaviy aloqalarni aks ettirishi lozim.
- Har bir komponent obyektning Butunjahon mislsiz qiymatiga ilmiy, oson aniqlanadigan va farqli hissa qo'shishi kerak va shu bilan birga, u nomoddiy xususiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Natijada, Butunjahon mislsiz qiymat oson tushunilishi va

yetkazilishi kerak.

- c. Shundan kelib chiqib va komponentlarning ortiqcha bo'linib ketishining oldini olish maqsadida, obyekt nomzodini taklif qilish jarayoni, jumladan komponentlarni tanlash jarayonida obyektning umumiy boshqarilishi va muvofiqligi hisobga olinishi lozim.

Obyektning alohida qismlari emas, balki uning o'zi yaxlitligicha Butunjahon mislsiz qiymatni namoyon qilishi lozim (Operatsion qo'llanma, 137-paragraf).

Ayrim holatlarda diskret komponentlar/hududlar yagona bufer hududi doirasida bo'lishi mumkin.

Turkumli obyektida barcha komponentlarni qamrab oluvchi va shu bilan birga Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lmagan katta hududlarni o'z ichiga oluvchi yagona chegarani yaratishga urinishdan o'zini tiya oladi.

Bir qator alohida hududlarni kiritish zarurligi sababli, bunday yondashuv nomzodlikka taklifni qiyinlashtirishi, chunki ularning har biri nomzodlik faylida ko'rib chiqilishi kerak. Bundan tashqari, muhofaza, saqlash va boshqaruv ancha murakkab bo'lishi mumkin, bunga sabab, bitta davlat doirasida bo'lsa ham, chunki turli mexanizmlar turli individual komponentlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Operatsion qo'llanmada shunday masalalarni hal qilish uchun, alohida komponentlarning muvofiqlashtirilgan nazorati zarurligi ta'kidlangan.

Ayrim holatlarda o'ta cheklovchi bo'lgan komponentlarning chegaralarini asossiz belgilash uchun turkumli mulk yondashuvi noto'g'ri qabul qilinishi mumkin. Ta'kidlab o'tilganidek, qadriyatlar, aslilylik va yaxlitlik tegishli chegaralarni va turkumli yondashuv qo'llanilishini belgilab berishi lozim.

#### MISOLLAR


##### ***Filippin barokko cherkovlari (Filippin)***

Birinchisi XVI-asr oxirlarida ispanlar tomonidan qurilgan ushbu to'rtta cherkov (yodgorlik) Manila, Santa Maria, Paoaye va Miagaoda joylashgan. Ularning o'ziga xos me'morchilik uslubi Yevropa Barokko uslubining xitoylik va filippinlik ustalar tomonidan qayta talqinidir.



© OUR PLACE – The World Heritage Collection

# 1 Butunjahon merosi tarixi




Manba: ArtPostAsia  
Pte Ltd  
© 2005, E'londan  
xarita: Jonli landshaftlar  
va madaniy diqqatga  
sazovor joylar -  
Filippindagi Butunjahon  
merosi  
Obyektlari.  
Philippines.

## Avstraliya sutemizuvchilar qazilma makonlari (Avstraliya)


Sharqiy Avstraliyaning shimol va janubida joylashgan Riversli va Narakorti jahonning o'nta eng buyuk qazilma makonlaridan biridir. Ular Yer tarixining muhim bosqichlarini aks ettiruvchi o'ziga xos misollar bo'lib, asosan Avstraliyadagi sutemizuvchilarning o'rta va so'nggi uchinchi davrdagi hayoti tarixi (Riversli) va so'nggi 170 000 yilni qamrab oluvchi quruqlikda yashovchi umurtqalilarning hayot tarixi (Narakorti), shuningdek davom etayotgan muhim geologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.



© YUNESKO



Manba: Atrof-muhit, suv resurslari, meros va san'at vazirligi. Avstraliya hukumati.



### TURKUMLI OBYEKT / DAVLATLARARO

Turkumli obyekt/davlatlararo obyekt turkumli obyektning boshqa bir turi, ammo bu holatda komponentlar birdan ortiq davlatda joylashgan bo'ladi.

Bunday obyektning afzalliklari va muammolari transc chegaraviy obyektlar va turkumli obyektlardagiga o'xshash.

### MISOLLAR

#### Senegambiya tosh aylanalari (Gambiya va Senegal)


Makon tosh aylanalarning to'rtta katta guruhidan tarkib topgan bo'lib, unda Gambiya daryosi bo'ylab 350 km masofada 100 km kenglikda 1000 dan ortiq yodgorliklar noodatiy tarzda to'plangan. To'rtta guruh — Sine Ngaen, Vanar, Vassu va Kerbatch to'qson uchta

# 1 Butunjahon merosi tarixi

tosh aylana va ko'plab qo'rg'onlar, qabristonlarni qamrab oladi. Ulardan ayrimlari miloddan avvalgi III va milodiy XVI-asrlarga taalluqli ekanligini aniqlash uchun qazib olingan. Laterit ustunlarning tosh aylanalari va ularga aloqador qo'rg'onlar 1500 yildan ortiq vaqt mobaynida yaratilgan umumiy an'anaviy landshaftni taqdim etadi. U ravnaqli, tashkiliy jihatdan yuqori darajada bo'lgan va uzoq davom etgan jamiyatni aks ettiradi.



© OUR PLACE – The World Heritage Collection




Manba: Nomzodlikka taklif fayli

## Uvs Nuur havzasi (Mo'g'uliston va Rossiya Federatsiyasi)

Uvs Nuur havzasi (1068853 ga) Markaziy Osiyoning yopiq havzalaridan eng shimoldagisi. Bu nom unga katta, sayoz va suvi juda sho'r, ko'chib yuruvchi, suvda va dengizda yashovchi qushlar migratsiyasi uchun muhim Uvs Nuur ko'lidan berilgan. Bu joy sharqiy Yevroosiyoning asosiy biomlarini taqdim etuvchi qo'riqlanadigan o'n ikkita hududdan iborat. Dasht ekotizimida qushlar turi ko'p, cho'l esa kam uchraydigan qumsichqon, qo'shoyoq va sassiqqo'zonlarning vatanidir. Tog'lar yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan qor qoplari, tog' qo'yi (argali) va osiyo tog' echkisi uchun muhim boshpana sanaladi.







© M. Khulan



Manba: Nomzodlikka taklif fayli

Quyidagi rasmda obyektning har xil turlari o'rtasidagi nazariy farqlar ko'rsatilgan.

	Milliy obyektlar – bitta davlat (A)	Transchegaraviy / davlatlararo obyektlar – ikki yoki undan ortiq davlat (A, B va C)
Bitta hudud	<p>Milliy obyektlar</p> 	<p>Transchegaraviy obyektlar</p> 
Birdan ortiq hudud: turkumli obyektlar	<p>Turkumli milliy obyektlar</p> 	<p>Turkumli davlatlararo obyekt (ayrim ehtimoliy talablar)</p>  <p>Komponentlarning bog'langan turkumlari, har biri to'liq bitta davlatda.</p> <p>Komponentlarning bog'langan turkumlari, ayrimlari birdan ortiq davlatga kiradi.</p> <p>Turkumli obyektlar umumiy chegarasi bo'lmagan davlatlardagi komponentlarni o'z ichiga oladi, ammo bunday misol noodatiy va hozirda faqat madaniy obyektlarda uchraydi (masalan, Struve geodezik san'ati, Rim Imperiyasi Butunjahon merosi obyektlari). Yuqorida keltirilgan turkumlar misoli B va C davlatdagi tarkibiy qismlarga ega, ammo A davlatida emas.</p>

## 2 Tayyorgarlik

Butunjahon merosiga nomzodlik taklifi muvaffaqiyatli chiqishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. 2-qism quyidagilar bo'yicha maslahatlarni o'z ichiga oladi:

- Obyekt haqida nomzodlikka taklifda yordam beradigan mavjud ma'lumotlar va kelgusida qanday tadqiqotlar qilinishi;
- nomzodlik bo'yicha ishlash jamoasini yaratish va uni zarur manbalar bilan ta'minlash;
- nomzodlikka taklif tayyorlash jarayonini bosqichlarga ajratish va asosiy bosqichlarni belgilab olish.

Ushbu qo'llanmaga kirishda eslatib o'tilganidek, nomzodlikka taklif tayyorlashning juda ko'p turli xil usullari bor va «retseptlar»ni taklif qilish yoki ma'qul ishlash usulini tavsiya qilish maqsadga muvofiq emas. Nomzodlikka taklif tayyorlashning turlicha yaxshi usullari mavjud. Shunday bo'lsa-da, bu yerda keltirilgan tavsiyalar ishtirokchi-davlatlarga o'zlarining ish uslubini yaratishda yordam berish uchun asosiy tamoyillar va ko'rsatmalar taklifi uchun mo'ljallangan.

### 2.1. Obyekt to'g'risida mavjud ma'lumot

Nomzodlikka taklifini tayyorlashda yordam beradigan obyekt haqida qanday tegishli ma'lumotlar borligini ko'rib chiqish muhimdir.

Deyarli har bir obyekt uchun, ko'pincha turli joylarda tarqalgan barcha materiallarni bir joyga to'plash ustida ishlash kerak bo'ladi — madaniy obyektlarga kelsak, bu og'zaki tarix, chop etilgan arxeologik dalillar, saqlash tarixi, turizm ma'lumotlari, rejalashtirish qoidalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Aksariyat obyektlar uchun ma'lum bir darajada tadqiqot o'tkazish kerak bo'ladi, hech qanday ma'lumot yo'qligi yoki qilingan ishni to'ldirish yoki yangilash bunga sabab bo'lishi mumkin.

Nomzodlikka taklifning dastlabki bosqichi sifatida ma'lum holatlar haqida axborot to'plash va qo'shimcha ish talab etilish-etilmasligini aniqlash foyda beradi:

- *tadqiqot* – mavjud tadqiqot nomzodlik taklifiga mosmi yoki qadriyatlarini aniq ifodalash va obyektning tarixi va atributlar global va madaniy tomondan tushunish uchun yetarli?
- *ro'yxatlar* – obyektning hujjatlashtiruvchi qanday ro'yxatlar mavjud va ularni tugallash yoki yangilash talab etiladimi?
- *hujjatlashtirish* – nomzodlikka taklif shaklida talab etiladigan ko'plab ma'lumot toifalariga havola qilish - nomzodlikka taklifni yakunlash uchun nimalar mavjud va yana nimalar kerak bo'lishi mumkin?
- *manfaatdor tomon tahlili* – nomzodlikka taklif tayyorlashga kimlar jalb qilinishi zarur, obyektida kim yashaydi yoki kim bevosita unga aloqador? Obyektning hozirda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holati qanday?

Butunjahon merosi qo'mitasi nomzodlik taklifiga kerak bo'ladigan tadqiqot yetarli bo'lmagani uchun ishlarni qayta ko'rishga bergan yoki keyinga qoldirgan holatlar ham uchragan.

### 2.2. Jamoa tuzish

#### Nomzodlikka taklifni tayyorlash jamoasi

Butunjahon merosiga nomzodlikka takliflarni tayyorlash vazifaning murakkabligi, asosiy manfaatdor tomonlar va talab etilgan ekspertlar doirasi bois, odatda jamoaviy yondashuvni talab qiladi.

## ASOSIY XABAR

Mavjud tegishli ma'lumotlarni to'plab, ko'zdan kechiring va har qanday yetishmovchiliklarni aniqlang.



Muhim ma'lumotlar va tavsiyalar taklif etilayotgan obyekt bilan bog'liq manfaatdor tomonlarda bo'ladi. Jamoa tuzishning birinchi bosqichi sifatida asosiy manfaatdor tomonlarning ro'yxatini tuzish, odatda, foydadan xoli emas. Bular yer egasi/menejeri, Ishtirokchi-davlat, milliy meros agentliklari, mahalliy hokimiyat, mahalliy hamjamiyatlar, tub aholi, universitetlar, tadqiqotchilar va akademiklar, mahalliy korxonalar, turizm operatorlari, NDTlar va foydalanuvchilar guruhlari (masalan, baliqchilar, o'rmondan foydalanuvchilar, rekreatsion foydalanuvchilar, tadqiqotchilar)ni o'z ichiga olishi mumkin. ICOMOS Milliy qo'mitalari ham madaniy nomzodlikka takliflar uchun foydali manba bo'lishi mumkin. Ishtirokchilar diapazoni taklif etilgan obyektning qiymati diapazonni aks ettirishi kerak va xalqaro darajada obyektning tushunadigan ekspertlarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu manfaatdor tomonlar va ekspertlar nomzodlikka taklif jamoasining bir qismi bo'lishi yoki kamida jamoa ishiga bevosita hissa qo'shadigan bo'lishi kerak. Jamoa tarkibi yangi manfaatlarning paydo bo'lish imkoniyatini hisobga olish uchun ma'lum bir moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Nomzodlikka taklif jarayonida mahalliy aholining ishtiroki shuning uchun zarurki, ular shu tariqa Ishtirokchi-davlatlar bilan obyektga qarov borasida majburiyatlarni taqsimlay olishadi va mahalliy tajribadan professional tarzda foydalanilishini kafolatlaydi, shuningdek, resurslardan foydalanish kabi masalalarda mahalliy vaziyatni tushunishga yordam beradi.

Odatda, nomzodlikka taklif bo'yicha jarayonni to'liq boshqarish va yakuniy hujjatni taqdim etish uchun mas'ul loyihaning yagona rahbarini belgilab olish muhimdir.

Jamoa ko'p jihatdan, jumladan nomzodlikka taklif va obyektning uzoq muddatli himoya qilish, saqlash va boshqarish uchun mahalliy, milliy va xalqaro darajalarda qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ayrim holatlarda nomzodlikka taklif ustida ishlash uchun kichikroq asosiy jamoa va ishga yordam beradigan kattaroq yordamchi guruhni bo'lishi qo'l kelishi mumkin. Jamoalar yaxshi boshqarilsa, tarkibi to'g'ri tanlansa, vazifadan chalg'ishmasa va boshqichlar bo'yicha aniq va real ish rejasiga ega bo'lishsa yaxshi ishlaydi. Jamoaning alohida a'zolariga aniq tushunilishi lozim bo'lgan maxsus rollar berilishi mumkin (masalan, ma'lum bir sohada ekspert, jamoatchilik vakili, tahrirchi va h.k.).

Nomzodlikka taklif jamoasi doirasida Butunjahon mislsiz qiymati bayonotini ishlab chiqish uchun maxsus texnik yoki ilmiy guruh tuzish foydadan xoli bo'lmaydi. Shunday guruh misoli 69-70-betlarda ko'rib chiqilgan.

Ko'plab obyektlarda nomzodlikka taklif kiritish jarayoni shunday a'zolarga guruh sifatida hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bu teng darajada tabiiy va madaniy obyektlar doirasi — jumladan milliy xiyobonlar, shahar hududlari, madaniy landshaftlar, arxeologik meros yoki yodgorliklarga tegishli. Nomzodlikka taklif kiritish jarayoni obyektning fan, tarix, arxeologiya, landshaft, saqlanish, boshqaruv, ijtimoiy tuzilmalar, turizm, rejalashtirish, biznes, taraqqiyot va tartib-qoidalar kabi turli tomonlama ko'rib chiqilishini talab qiladi.

Agar ushbu o'lchovlar nomzodlikka taklifga, va so'ngra obyektning muhofaza, saqlash va boshqaruv jarayonlariga yaxshi integratsiyalangan bo'lsa, u mazkur jihatlarni taqdim etuvchi turli tomonlar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi.

## ASOSIY XABAR

*Jamoa manfaatdor tomonlar va ekspertlarni jalb qiling.*

## ASOSIY XABAR

*Yaxshi, maqsadi aniq va resurslari yetarli jamoa nomzodlikka taklifda katta yordam berishi mumkin.*

Muvaffaqiyatli nomzodlikka taklif yaratish uchun ideal jamoa tuzilishi yoki usuli yo'q. Shunday bo'lsa-da, ko'rib chiqishga tavsiya qilinadigan ko'plab yaxshi misollar bor.

Umuman olganda, jamoa tuzish uchun asosiy maslahatlar quyidagilar:

- asosiy qo'llab-quvvatlovchilar yoki manfaatdor tomonlar ro'yxatini tuzish (masalan, obyekt egasi/menejeri, Ishtirokchi-davlat, milliy meros agentliklari, mahalliy hokimiyatlar, turizm operatorlari, universitetlar va ekspertlar);
- jamoadagi bilim va tajribalar ko'lamini qadriyatlar ko'lamini aks ettirishi, ideal holda xalqaro kontekstda obyekt haqida tushunchaga ega bo'lish va kengroq maslahat olish uchun foydali aloqalarga ega bo'lishni tekshirish;
- doimiy muharrir bilan ishlash ma'qul bo'lsa-da, yangi manfaatlarning paydo bo'lish ehtimolini hisobga olish uchun jamoa tarkibiga nisbatan moslashuvchan bo'lish;
- nomzodlikka taklif ustida ishlash uchun kichikroq asosiy jamoa va ishga yordam beradigan kattaroq yordamchi guruh yaratish imkoniyatini ko'rib chiqish;
- jamoa aniq boshqarilishi, a'zolari to'g'ri tanlanganligi va asosiy bosqichlar ko'rsatilgan aniq vazifa va real ish rejasiga egaligini ta'minlash.

Asosiy e'tiborni realistik ish rejasiga qaratish muhim. Shoshilinch ravishda qilingan nomzodlikka taklif qoniqarli bo'lmasligi va uni baholash vaqtida muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

### **Nazorat ro'yxati: Jamoa nomzodlikka taklif bo'yicha ishlaganda hisobga olishi lozim bo'lgan ayrim muhim ko'nikmalar**

- *Butunjahon merosi konvensiyasi va Operatsion qo'llanmani tushunish va uning doirasida ma'lumotlarni talqin qila olish qobiliyati.*
- *Taqqoslash mumkin bo'lgan qiymatga ega Butunjahon merosi ro'yxatiga kirgan boshqa obyektlar haqidagi ma'lumotlarni tadqiq qila olish va tushunish, Butunjahon merosi qo'mitasi va uning Maslahat organlarini oldingi hisobotlari va qarorlarini tushuna olish va baholash qobiliyati.*
- *Jumladan:*
  - *taklif etilayotgan obyekt va uning qiymati haqidagi ma'lumotlar, shuningdek ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirish va tushuna olish;*
  - *olimlar, ekspertlar va mahalliy manfaatdor tomonlar taqdim etgan materiallar bilan ishlay olish;*
  - *global miqyosda taqqoslash mumkin bo'lgan qiymatga ega boshqa obyektning qiymatini o'rganish, tushunish va baholay olish;*
  - *obyektning eng muhim qiymatini belgilab olishda muhim va muhim bo'lmagan faktlarni farqlay olish;*
  - *natijalarni aniq tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan qisqa va aniq shaklda hujjatlashtirish;*
  - *berilgan bayonotlar to'g'ri va asosli ekanligini kafolatlash uchun obyektga tegishli talqinlar va qadriyatlarni munozara orqali asoslash.*
- *Konvensiyaning ishchi tillari mavjudligi bois, nomzodlikka takliflarni tarjima qilish va ma'lumot hamda dalillarning sifati va to'g'riligini ta'minlash uchun texnik tomonlama malakali tarjimon kerak bo'lishi mumkin.*
- *Nomzodlikni obyektga boshqarish bilan bog'lash va nomzodlikning bir qismiga aylanadigan reja yoki boshqaruv tizimini aks ettirish uchun boshqaruvni rejalashtirish, amalga oshirish va taqdimot ko'nikmalari asosiy jamoaning bir qismi bo'lishi kerak.*

## Manbalar

Nomzodni taqdim etuvchi jamoa va jarayon ishni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli resurslar va mablag' zarur bo'ladi. Jarayonning boshida resurslar va mablag'lar darajasi taxmin qilinib, ushbu ko'makni ta'minlash uchun manbalar aniqlanishi va tasdiqlanishi kerak.

Eng muhim moliyalashtirish manbalari Ishtirokchi-davlat doirasida taqdim etilishi mumkin, ammo, mezonlarga javob beruvchi obyektlar va mamlakatlar uchun Butunjahon merosi jamg'armasidan yordam so'rashning imkoni mavjud ([whc.unesco.org/en/funding](http://whc.unesco.org/en/funding) yoki [whc.unesco.org/fr/fonds](http://whc.unesco.org/fr/fonds) veb-manzillariga qarang). Mintaqaviy masalalarga diqqat qaratilgan tashkilotlar soni ham ko'paymoqda, masalan, Afrika Butunjahon merosi jamg'armasi ([www.awhf.net](http://www.awhf.net)) va Tinch okeani Butunjahon merosi jamg'armasi (ayni paytda joriy qilinmoqda) kabilar shular jumlasidan. Afrika Butunjahon merosi jamg'armasi nomzodlikka takliflarni tayyorlashda moliyaviy yordam berishi, shuningdek axborot va texnik tomonlama qo'llab-quvvatlashi mumkin. Yordamni ma'lum bir manfaatdor tomonlardan, hattoki homiylardan ham so'rash mumkin.

Ayrim nomzodlikka takliflarda NNTlarning roli ham moliyalashtirish, ham talab qilinadigan ko'nikmalar nuqtayi nazaridan muhim bo'lishi mumkin.

Nomzodlikka taklif ishlab chiqishda hal etilishi lozim bo'lgan yana bir muhim masala – obyektning barqaror muhofaza qilish, saqlash va boshqarish uchun manbalarning doimiy ravishda mavjudligidir.

## Merosga kiritilgach, jamoaning roli

Nomzodlik taklifini berish va merosga kiritilish bilan jarayon tugamaydi. Ushbu qo'llanma obyektlarni nomzodlikka taklif qilishga qaratilgan bo'lsa ham, nomzodlikka taklifni tayyorlash uchun to'plangan jamoaning uzoq muddatli istiqbolda obyektning muhofaza qilish, saqlash, boshqarish va monitoring qilishda qanday rol o'ynashi mumkinligini hisobga olish kerak. Nomzodlik bo'yicha ishlagan jamoa, ehtimol tarkibida ayrim o'zgarishlar bilan, obyekt meros ro'yxatiga kiritilganidan so'ng ham muhim va davomiy rol o'ynashi mumkin.

Butunjahon merosi obyektlari samarali tarzda qo'llab-quvvatlangan hamda ijtimoiy va davlat tuzilmalariga integratsiya qilinsa, uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Nomzodlikka taklif berish jarayoni — bu qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini (agar ular ilgari mavjud bo'lmasa) aniqlash va amalga oshirish vaqtidir. Bunday mexanizmlardan biri himoya qilish, saqlash va boshqarish bo'yicha doimiy jamoaviy yondashuv bo'lishi mumkin.

## 2.3. Mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtiroki

*Operatsion qo'llanma* bir nechta paragraflarda mahalliy aholining va boshqa manfaatdor tomonlarning umumjahon merosida ishtirokini rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi, nomzodlikka taklif holatida bunday ishtirok bo'yicha aniq ma'lumotlar mavjud. Bu obyekt egalari, ularning boshqaruvchilari, mahalliy va hududiy boshqaruv organlari, mahalliy jamoat tashkilotlari, NTTlar va boshqa manfaatdor tomonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu yondashuv uchun sabablar ko'p, ammo ular taklif etilayotgan obyektning umumiy tushunchasi va uning istiqboli uchun umumiy javobgarlikni ishlab chiqish zaruriyatini

### ASOSIY XABAR

Taklifni tayyorlash  
jarayoni bosqichlarini  
ko'rib chiqing.

o'z ichiga oladi. Manfaatdor tomonlar jalb qilinmasa va jarayonda qatnashmasa, integratsiyalashgan boshqaruv muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli kam.

Bunday ishtirok jarayon boshlanishidan tortib, nomzodlikka taklif ishlab chiqish davomida asosiy o'rinda turishi kerak. Ishtirok obyektini joriy boshqaruv qismi sifatida nomzodlikka taklif berilgandan so'ng ham davom etishi lozim.

#### 2.4. Nomzodni tayyorlash bosqichi va tavsiya etilgan asosiy bosqichlar

Ko'plab obyektlar uchun nomzodlikka Dastlabki ro'yxat tuzilganidan keyin ma'lum vaqt o'tganidan so'ng amal qilinadigan kamida ikki bosqichli jarayon sifatida qarash juda foydali bo'lishi mumkin. Birinchi bosqichda:

- Obyektning potensial Butunjahon mislsiz qiymati aniqlanadi;
- qiyosiy tahlil orqali asoslanishi tekshiriladi;
- tegishli muhofaza, saqlash va boshqaruv ta'minlanganligiga ishonch hosil qilinadi.

Birinchi bosqichda nomzodlikka taklif jamoasi tuzilib, ushbu qo'llanmaning 3-qismida tavsiflangan barcha ishlar bajariladi.

Mazkur bosqichdan o'tilgach, ikkinchi bosqichda nomzodlik hujjatlar to'plamini yozishni boshlash mumkin. Ikkinchi bosqich 4-qismda tasvirlangan ishlarni o'z ichiga oladi.

Ish bitta loyiha doirasida amalga oshirilsa ham, ko'pincha uni ikki bosqichda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Potensial Butunjahon mislsiz qiymat aniqlanmasidan oldin nomzodlikka taklifni yozishga urinish tavsif va tarixga haddan tashqari e'tibor qaratishga va nomzodlikka taklifning asosiy qismi – obyekt nima uchun Butunjahon mislsiz qiymatga egaligi va uni qanday saqlash zarurligiga yetarlicha diqqat qaratilmasligiga olib kelishi mumkin.

Nomzodlikka taklif jarayonini bosqichlarga bo'lishning ham afzal tomonlari bor — bunda kerakli moliyaviy mablag'larni ikki bosqichga taqsimlash mumkin.

# 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

Muvaffaqiyatli nomzodlikka taklif ishlab chiqish uchun obyektning to'liq tushunish o'ta muhim. 3-qismda nomzodlikka taklif uchun asosiy sanalgan, obyektning asosan muhim jihatlari tegishli u haqdagi tushunchalarni shakllantirish haqida maslahatlar berilgan.

## 3.1. Potensial Butunjahon mislsiz qiymatlar, atributlar va chegaralar


### Obyekt haqidagi bilim

2.1-bo'limda eslatib o'tilganidek, nomzodlikni taklif qilishdan oldin mavjud ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash va quyidagilar bo'yicha qo'shimcha ishlash talab etilish-etilmasligini aniqlash foydali:

- *tadqiqot* – nomzodlikka taklif yuzasidan mavjud tadqiqot yetarli yoki qo'shimcha tadqiqot o'tkazish kerakmi?
- *ro'yxatlar* – obyektning hujjatlashtiruvchi qanday ro'yxatlar mavjud va ularni to'ldirish yoki yangilash talab etiladimi?
- *hujjatlashtirish* – nomzodlikka taklif shaklida talab etiladigan ko'plab ma'lumot toifalariga havola qilish – nomzodlikka taklifni yakunlash uchun nimalar mavjud va yana nimalar kerak bo'lishi mumkin?
- *manfaatdor tomon tahlili* – nomzodlik taklifiga kimlar jalb qilinishi zarur, obyektida kim yashaydi yoki kim bevosita unga aloqador? Obyektning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy realliklari qanday?

### Butunjahon mislsiz qiymatni aniqlash va izohlash

Nomzodlik faylining asosiy qismi obyekt nima uchun mislsiz qiymatga ega, deb hisoblanishi kerakligini ko'rsatishdir. Ideal holda, bu narsa obyekt dastlabki ro'yxatga kiritilganda belgilanadi (*Operatsion qo'llanmaga* qarang, II.C). Biroq, batafsilroq ish ko'pincha nomzodlikka takliflarni ishlab chiqishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi.



Butunjahon mislsiz qiymat – bu obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishini asoslaydigan yetarlicha muhim sabab. Mislsiz qiymat Butunjahon merosi konvensiyasining asosini tashkil qiladi.

Butunjahon mislsiz qiymat – bu Jahon merosi qo'mitasi tomonidan muvofiqlashtirilgan qiymat bo'lib, obyekt nima uchun milliy yoki mahalliy qiymat emas, balki xalqaro ahamiyatga ega, deb hisoblanishini aks ettiradi.

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

#### ASOSIY XABAR

Butunjahon mislsiz qiymatni aniq tushunish o'ta muhim.

Obyekt va uning holatini yaxshi bilish va tushunish uning mislsiz qiymatini va ushbu qiymatni namoyon qiluvchi atributlarni aniqlash uchun muhim sanaladi.

Aslida, mislsiz qiymat aniqlanib, asoslanmaguncha, nomzodlikka taklifning quyidagi boshqa jihatlarni rivojlantirishning iloji yo'q:

- potensial Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalaydigan atributlarni aks ettirish uchun o'tkazilgan chegaralarni belgilab olish;
- potensial Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalovchi atributlarning himoya qilinishi, saqlanishi, boshqarilishi va taqdimoti/targ'ibotida aniqlik.

Qadriyatlarini aniqlash va izohlash bilim va metodologiya uyg'unligidir. Odatda, bu jarayonni obyektning imkon qadar barcha qadriyatlarini dastlab aniqlab olish, ulardan qaysilari Butunjahon merosi ro'yxatiga kirish uchun asos bo'lishini belgilab olish orqali boshlagan ma'qulroq.

Qadriyatlarining ushbu izohi oxir-oqibat nomzodlikka taklif uchun Butunjahon mislsiz qiymati bayonotining bir qismiga aylanadigan nisbatan qisqa matnda ifodalanishi kerak (bayonot quyida alohida izohlanadi). Ushbu matn quyidagilar izohlanadigan alohida bo'limlardan tarkib topishi shart bo'lmagan, o'zida qisqacha xulosani aks ettirishi lozim:

- obyekt taqdimoti va nimalardan iboratligi — uni bilmaydiganlar uchun og'zaki ta'rifi, uning xususiyatlari, madaniy qiymati, ma'nosi va u bilan bo'g'liq «hikoyalar»;
- obyekt Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lgan obyekt sanalishi sababi;
- obyektning mislsiz qiymatlarini ochib beruvchi xususiyatlar haqida xulosa.

Shu tariqa, unda nomzodlikka va merosga kiritilishi uchun barcha asoslar mavjud.

#### ASOSIY XABAR

Faktlar yaxshi dalillar o'rnini bosa olmaydi.

Nomzodlikka taklif kiritish jarayoni yakunida ushbu qisqacha band, agar obyekt ro'yxatga foydalanuvchilarga uni kiritilish sababi va ahamiyati haqida aniq ma'lumot beradigan tavsif sifatida kiritilsa, YUNESKO tomonidan Butunjahon merosi markazining veb-saytida ishlatilishi mumkin.

Obyektning qiymatini tushunish uchun turli tadqiqot dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Potensial foydali madaniy dasturlar tematik, xronologik-mintaqaviy va tipologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, jumladan Butunjahon merosi ro'yxati: Kamchiliklarni bartaraf etish — *Kelajak uchun harakat rejasi (ICOMOS, 2005a) nashrida topilganlarni shakllantiradi*. Tabiiy obyektlar haqida so'z ketganda, quyidagi manbaga qarang: Butunjahon merosi ro'yxati: *Butunjahon mislsiz qiymatga ega tabiiy merosni aniqlab olish uchun yo'riqnoma va istiqboldagi ustuvorliklar (IUCN, 2006)*. Masalan, agar muayyan mavzuni o'rganish uning umumqadriyatga egaligini ko'rsatsa, obyekt esa bu mavzu bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, unda tadqiqot obyekt qadriyatlarini ochishda foydali bo'lishi mumkin.

Madaniy obyektning mazmuni va nisbiy qiymatini aniqlab olish mavzularni aniqlashtirishdan boshlanishi kerak, so'ngra mintaqaviy-xronologik baholashga o'tilishi, va nihoyat, xoh yodgorlik, xoh binolar guruhi yoki makon bo'lsin, taklif etilgan tipologiyani aniqlash kerak bo'ladi.

Madaniy qadriyatlarini baholash bilan birga, Butunjahon mislsiz qiymat yaxlitlik va asllikka, himoya va boshqarishga aloqador testlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu boshqa omillar quyida alohida ko'rib chiqilgan.

Butunjahon mislsiz qiymatni ishonchli tarzda asoslab bera olmaslik nomzodlik takliflarini rad etishning asosiy sabablaridan biridir. Ayrim umumiy muammolar quyidagilar:

- Obyekt muhimlik ta'rifida muvozanatni saqlay olmaslik (yoki madaniy meros haqida gapirilganda, uning «hikoyasi» yoki «ta'rifi»), ya'ni obyekt muhimligini aniq belgilash uchun izoh juda keng (masalan, mustaqillik yoki xotira tarixi) yoki juda tor (kasalxona yoki qasrning ma'lum bir turi, geologik hodisa turi, yoki ma'lum bir tur uchun qadriyat) bo'lmasligi kerak;
- Hech qanday umumiy ahamiyatini izohlamasdan turib, obyekt o'zida birlashtirgan sifatlar ro'yxati sifatida Butunjahon mislsiz qiymatni tasdiqlash tendensiyasi;
- Taklif etilayotgan obyektni ro'yxatga kiritishni faqat milliy yoki mintaqaviy manfaatlar nuqtayi nazaridan asoslash (va masala u bilan bog'liq bo'lgan ma'no va belgilar);
- obyektga nisbatan "madaniyatlar chorrahasi", "noyob makon" kabi umumiy ta'riflarni obyekt Butunjahon merosi mezonlarining bir yoki bir nechtasiga nima uchun mos kelishini batafsil asoslamasdan, ilgari surish. O'ziga xoslik avtomatik ravishda Butunjahon mislsiz qiymatga tenglashmaydi;
- Tosh davridan bugungi kunga qadar barcha davrlarga tegishli dalillarni keltirish madaniy obyekt Butunjahon mislsiz qiymatini namoyon qiladi, degan g'oya;
- tegishli global, geomadaniy konsepsiyaga nisbatan joriy qilingan qiyosiy tahlilning yo'qligi.



Nomzodlik taklifida asosiy e'tibor potensial Butunjahon mislsiz qiymatga qaratilishi kerak bo'lsa-da, obyektlar doim mahalliy va milliy qadriyatlarga ega bo'ladi. Qadriyatning ushbu boshqa darajalarini ham anglash lozim. Ushbu boshqa qadriyatlar obyektning tabiiy va madaniy boyligining bir qismidir va barcha qadriyatlarni uyg'un ravishda muhofaza qilish, saqlash va boshqarish oqilona saqlanish amaliyotining maqsadidir. Mahalliy qadriyatlarni tushunish bu mahalliy, asosan tub aholi bilan maslahatlashishdir. Mahalliy aholi mahalliy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun dastlabki manbadir. Mahalliy va umumqadriyatlarni bog'lash: Butunjahon merosining barqaror istiqboli (de Merode et al., 2004) foydali manbadir.

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

#### Madaniy qadriyatlarining qatlamlari

##### Robben oroli (Janubiy Afrika)

Robben oroli quyidagi sabablarga ko'ra Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

(iii) mezon: Robben orolidagi binolar uning qayg'uli tarixining yaqqol dalilidir.

(vi) mezon: Robben oroli va uning qamoqxona binolari insoniyatning ruhi, erkinligi va demokratiya zulmdan ustun kelganligi ramzidir.

Orol rahbariyati oldida ma'lum vaqt o'tishi bilan oroldan foydalanishning o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan ko'p qatlamli qadriyatlar murakkabligi muammosini hal qilish vazifasi turibdi. Orol bajargan vazifalar:

- Golland dengizchilari uchun ovqatlanish joyi;
- XIX asrda moxov va surunkali bemorlar uchun sihatgoh/karantin hududi;
- chegara / bosqinchilik urushlari davomida ayrim kolonial yo'l boshchilar uchun qamoqxona;
- Ikkinchi Jahon urushida harbiy obyekt;
- 1960-yillardan boshlab aparteid qamoqxonasi.



© YUNESKO / F. Bandarin

#### Atributlar va xususiyatlarni aniqlash

Butunjahon merosi obyektlari — bu Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalovchi joylar.

Madaniy qadriyat ham vaqt, ham makonda, ijtimoiy tuzilma, iqtisodiy ehtiyojlar va siyosiy kontekst kabi nomoddiy sifatlarga taalluqli bo'lishi mumkin. Bu mashhur voqealar, shaxslar yoki san'at, adabiyot, fan yoki musiqa asarlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ammo, Butunjahon merosi konvensiyasi obyektlarga asoslanangan konvensiyadir, ro'yxatga g'oyalari yoki odamlar emas (ularning global ta'siri qanchalik katta bo'lmasin), obyektlarning o'zi. Ro'yxatga kiritilgan obyektlar o'zining atributlari orqali Butunjahon mislsiz qiymatni ko'rsatib berishi talab etiladi.

Tabiiy yoki madaniy obyektning potensial Butunjahon mislsiz qiymatini hisobga olgan holda, mislsiz qiymatni ifodalovchi va ushbu qadriyatni tushunish imkonini beruvchi tabiiy obyektlarning ko'pincha xususiyatlar deb ataladigan atributlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu atributlar muhofaza va boshqaruv bo'yicha harakatlari hamda tashkiliy tadbirlarning diqqat markazida bo'ladi va ularning holati obyekt chegarasini belgilaydi.

Atributlar fizik xususiyatga ega yoki moddiy bo'lishi mumkin, lekin shu bilan birga, muayyan landshaftlarni shakllantirgan tabiiy yoki qishloq xo'jaligi jarayonlari, ijtimoiy tuzilmalar yoki madaniy amaliyotlar kabi fizik sifatlarga ta'sir etuvchi obyekt bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ham bo'lishi mumkin. Tabiiy obyektlar uchun ular o'ziga xos landshaft xususiyatlari, hududlari, atrof-muhit sifatiga aloqador jihatlar (masalan, tabiiy saqlanganlik, atrof-muhitning ilk ko'rinishdagi sifati), masshtab, yashash muhitining ko'lami tabiiyligi,



shuningdek, yovvoyi hayvonlar populyatsiyasining hajmi va yashovchanligi bo'lishi mumkin.

Obyektlar yoki murakkab obyektlar, xususan murakkab qatlamli atributlar to'plamiga ega madaniy obyektlar uchun foydali texnika – muhim atributlar va ular ifodalaydigan qiymatni xaritada tushirishdir. Xaritaga tushirish atributlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishda, shuningdek u nizolar yoki boshqaruv muammolarini yoritib berishda yordam beradi va bu, o'z navbatida, chegaralarni aniqlab olish uchun muhimdir.

### Potensial Butunjahon mislsiz qiymatlarning Butunjahon merosi mezonlariga mos kelishini tekshirish va tegishli mezonlarni belgilab olish

Butunjahon mislsiz qiymatni ko'rsatib berish jarayonining ajralmas qismi — bu Butunjahon merosi mezonlarining biri yoki bir nechtasini asoslab berishdir (ushbu qo'llanmaning 1.3-bo'limida ko'rsatilgan).

Butunjahon mislsiz qiymat bayonoti va mezonni tanlash o'rtasida aniq va mantiqiy bog'lanish bo'lishi kerak. Ushbu bog'lanish aniq bo'lmasa, unda bu mezon obyektga mos ravishda tanlanmaganligini bildiradi va qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Mezonlardan noto'g'ri foydalanish obyektning baholashga va uning ro'yxatga kiritilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uchun faqat bitta mezonga mos kelishi kerak (ammo **(vi) mezon** holatida Qo'mita uning boshqa mezonlar bilan birgalikda qo'llanilishi afzalroq, deb hisoblaydi). Agar muayyan qiymat va atributlar bo'yicha tadqiqotlar va hujjatlar bilan asoslanmasa, obyektning imkon qadar ko'proq mezonlarga ko'ra taklif qilishga zaruriyat yoki alohida afzallik yo'q. Zaif asoslangan mezonlarni kiritish nomzodlikka taklifda yordam bermaydi. Bundan tashqari, ko'plab mezonlardan foydalanish obyekt uchun talab etilgan tadqiqotlar soni, qiyosiy tahlillar, chegaralar va nomzodlikka taklifning boshqa jihatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Matn tanlangan mezonlar qoniqarli, degan shunchaki tasdiq bilan cheklanmasligi va obyekt har bir mezonga asosli tarzda muvofiqligi sabablarini izohlashi shart. Shuningdek, unda Butunjahon mislsiz qiymatini ifodalaydigan atributlar yoki xususiyatlari ko'rsatilishi lozim.

Masalan, **(ii) mezonida** obyekt insoniy qadriyatlarining almashinuvi ekanligi va uni atributlar orqali qanday idrok etish mumkinligini tushuntirmasdan, muhim almashinuvini namoyish etadi, deb aytishdan qoching.

Xuddi shu tariqa, **(iii) mezon** uchun, obyekt nima uchun yagona va noyobligini tasdiqlovchi sabablar batafsil keltirilishi va bu tasdiqni asoslovchi atributlar aniqlashtirilishi lozim.

Ushbu mezonlar uchun har qanday asoslash nafaqat g'oyalarning muhimligini (masalan, qiymat almashinuvi yoki istisno dalillar), balki obyektida ushbu g'oyalarni aks ettiradigan atributlarning mavjudligini, ma'lum bir tarzda g'oyalarni baholash yoki sinab ko'rish imkoniyatini izohlab berishi kerak.

**(vii) mezon** uchun, nodir tabiiy go'zallik va estetik ahamiyatlilik aniq dalillar va jiddiy intellektual tahlillar orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Obyekt noyob tabiiy go'zallikka ega ekanligini shunchaki tasdiqlash va jozibador fotosuratlar taqdim etishni o'zi yetarli emas.

ASOSIY XABAR

Tasdiqlangan mezonlardangina foydalaning

**(ix) mezon** «hozirgi muhim ekologik va biologik jarayonlarni aks ettiruvchi jahonshumul misollar»ni talab qiladi va bu global darajadagi ilmiy/tematik kontekstda ko'rsatib berilishi shart. Shundan kelib chiqib, kontekst aniq bo'lishi va ushbu kontekstda obyekt nima uchun jahonshumul misol ekanligi sabablari batafsil keltirilishi lozim.

Kengaytirishlarga kelsak, mezonlarni baholash dastlabki nomzodlik taklifini berishda foydalanilgan mezonlarga va ular taklif etilayotgan kengaytirishlarga qanday tatbiq etilishi mumkinligiga qarab amalga oshiriladi. Xuddi shu mezonlar dastlabki nomzodlik taklifi va taxminiy kengaytirish uchun asoslanishi lozim. Kichik kengaytirishlarda, taxminiy maydon dastlabki nomzodlikka taklifning ayrim atributlarini kuchaytirishi mumkin, ammo hammasi emas. Shunday bo'lsa-da, xulosa qilish mumkinki, xos atributlarning umumiy taqsimlanishi asoslash uchun hamon yetarli ekanligi bois dastlabki mezonlar o'z kuchida qoladi. Taklif etilayotgan kengaytirish doirasida boshqa yoki yangi atributlar ham aniqlashtirilishi mumkin, ammo ular bajarilmagan, deb e'lon qilingan atributlar bilan bir xil qiymatlarga ega bo'lishi kerak. Kengaytirish, odatda, dastlabki nomzodlikka yangi qiymatni qo'shmaydi. Biroq, davlat-ishtirokchi birlashtirilgan dastlabki obyekt va uning kengaytmasini yangi mezonlar bilan baholash uchun kengaytirish taklifini kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Ushbu holatda nomzodlikka taklif fayli butun obyektни qamrab olinishi va har qanday yangi mezonlar uchun asoslarni o'z ichiga olishi kerak.

#### Asllikni baholash

Operatsion qo'llanmada keltirilgan muhim talablardan yana ikkitasi taklif etilayotgan obyektning aslligi va yaxlitligi bilan bog'liq. Asllik faqat madaniy obyektlarga va "aralash" turdagi madaniy aspektlarga qo'llanadi.

Asllik – bu atributlar va Butunjahon mislsiz qiymat o'rtasidagi aloqa. Atributlar obyekt qiymatini to'liq ifodalay olishi uchun ushbu aloqa haqqoniy tasvirlanishi kerak.

1994-yil Naradagi uchrashuvda yo'l aniq belgilab olindi: «Ushbu qadriyatlarini tushuna olishimiz qobiliyati, qisman, ushbu qadriyatlar to'g'risida qanday ma'lumot manbalari ishonchli yoki haqqoniy deb hisoblanishi mumkinligiga bog'liq» (YUNESKO Butunjahon merosi markazi, 1994, 94-b.).

Operatsion qo'llanma «obyektlar ularning madaniy qadriyatlarini (nomzodlikka taklif mezonida tan olingani kabi) turli xususiyatlar orqali haqqoniy va ishonchli ifodalangan taqdirda tabiiylik shartlariga mos, deb tushunilishi mumkin» ekanligini tasdiqlaydi (82-paragraf).

Operatsion qo'llanma atributlarning quyidagi turlarini Butunjahon mislsiz qiymatini ifodalash yoki aks ettirish uchun ko'rib chiqilishi mumkinligini taklif qiladi:

- shakl va dizayn;
- materiallar va tarkib;
- foydalanilishi va funksiyalar;
- an'analar, usullar va boshqaruv tizimlari;
- joylashuv va muhit;
- til va nomoddiy merosning boshqa shakllari;
- ruhiyat va hissiyot.

### **Quyida Kasubidagi Buganda qirollarining sag'analariga tegishli atributlar misoli (Uganda) keltiriladi**

#### **Shakl va dizayn**

*Kasubi sag'analarining hududiy tashkil etilishi — Buganda saroyi/me'morchilik majmualarining saqlanib qolgan eng yaxshi namunalari.*



© YUNESKO / Lazare Ebouadou

#### **Materiallar va tarkib**

*Muzibu Azaala Mpanga doirasida to'rtta qirollik sag'anasi, asosiy bino, foydalanilgan materiallar — yog'och, qamish, somon, novda va loy.*

#### **Foydalanilishi va funksiyalar**

*Diniy foydalanilishi — Baganda uchun katta ma'naviy markaz, qirollikdagi eng faol diniy, jumladan madaniy/ diniy amaliyotlar va marosimlar o'tkaziladigan maskan.*

#### **An'analar, usullar va boshqaruv tizimlari**

*An'anaviy boshqaruv — maskanni an'anaviy tarzda, murakkab majburiyatlar tizimi orqali boshqarish davom etmoqda. An'analar — madaniy / diniy amaliyotlar va marosimlar.*

#### **Joylashuvi va muhiti**

*Dastlabki joylashgan o'rni va saqlanib qolgan qishloq muhiti — jumladan, an'anaviy usulda dala ishlari davom ettirilayotgan qishloq xo'jaligi qismi.*

#### **Til va nomoddiy merosning boshqa shakllari**

*Diniy foydalanilishi — Buganda uchun katta ma'naviy markaz, qirollikdagi eng faol diniy, jumladan Kabaka va uning vakillari Buganda madaniyatiga oid muhim marosimlarni o'tkazadigan joy. Bunday foydalanish madaniy / diniy amaliyotlar va marosimlarni o'z ichiga oladi.*

#### **Ruhiyat va hissiyot**

*Kasubi sag'analarining qurilgan va tabiiy elementlari tarixiy, an'anaviy va ruhiy qadriyatlar bilan to'yingan.*

*Bu binolar va loyihalar kabi jismoniy atributlar va madaniy jarayonlar kabi nomoddiy atributlarning kombinatsiyasidir. 2010-yilda 26 gektar maydonli, Kasubi sag'analaridan me'morchilik jihatdan eng muhimi sanalgan bitta binosiga o't ketdi. Shikastlangan binoni tiklash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'ridi.*

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

Har bir obyekt uchun potensial Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalovchi sifatida aniqlangan atributlar ushbu qiymatni qanchalik «haqqoniy» yetkazish yoki ifodalashi mumkinligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi kerak. Masalan, shahar hududi uchun ushbu obyektga yashaydigan va uning qiymatini ifodalash imkonini beradigan tuzilmalar, hududiy rejalar, shuningdek tirik jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tuzilmalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shu boisdan ham asllik — atributlarning potensial Butunjahon mislsiz qiymatni qanchalik yaxshi yetkazishining o'lchovidir. Agar atributlar zaif bo'lsa, asllik buzilishi mumkin — jamiyatlar gullab-yashnashi to'xtatiladi, binolar qulaydi, an'analar yo'qolib ketadi va hokazo.

Arxeologik yodgorliklarda asllik arxeologik qoldiqlarning o'z mazmunini qanchalik haqqoniy yetkazib bera olishiga qarab baholanadi. Ko'p holatlarda ko'zlangan qayta tiklash ushbu jarayonga xalal berishi va asllikni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Xuddi shu tariqa, ayrim hollarda bitmagan binolar va inshootlarni qayta tiklash asosli tarzda amalga oshirilsa ham, bu ularning mazmunini haqqoniy ifodalashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Asllik bayonoti obyektning atributlari uning qiymatini qay darajada haqqoniy (ishonchli, asliday) ifodalashi orqali uning potensial Butunjahon mislsiz qiymatini aks ettira olish qobiliyatini ko'rsatishi lozim (*Operatsion qo'llanma*, 79–86-paragraf).

Baholashda foydalanish mumkin bo'lgan savollarning ayrim misollari quyidagi jadvalda keltirilgan. Ushbu atributlar va savollar taklif etilayotgan obyektning Butunjahon mislsiz qiymati va atributlarini tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilinmasligi kerak. Bunda savollar ushbu baholashning tuzilishini aniqlashi kerak. Quyidagi jadvalni ko'r-ko'rona, shunchaki standart andoza sifatida qabul qilib olish nomzodlikka taklifda muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Xos belgi	Baholash savollariga misollar
Barcha atributlar uchun	<ul style="list-style-type: none"> <li>Asllik obyekt tegishli bo'lgan madaniy kontekstda baholanishini hisobga olsak, ushbu madaniy kontekst qanday?</li> <li>Atribut obyektning Butunjahon mislsiz qiymatlarini ishonchli va haqqoniy tarzda ochib bera oladimi?</li> <li>Atributlar qadriyatni ishonarli va xolis tarzda aks ettirganligi uchun obyektning potensial mislsiz qiymatini tushunish mumkinmi?</li> <li>Qadriyat atributlarda qay darajada mavjud yoki ular orqali ifodalanadi?</li> <li>Obyektning madaniy merosiga oid dastlabki xususiyatlar qanday bo'lgan va vaqtlar o'tib, ular qanchalik o'zgargan?</li> <li>Atributlardagi o'zgarishlar obyektning qadriyatini tushuna olishlik darajasini pasaytirdimi?</li> <li>Obyekt biror-bir darajada ta'mirlanganmi? Agar shunday bo'lsa, u to'liq va batafsil hujjatlarga asoslanganmi? Ta'mirlashda biror-bir konyunkturadan foydalanildimi? Ta'kidlash joizki, rekonstruksiya ba'zan qadriyatning bir qismi sanaladi.</li> </ul>
Shakl va dizayn	<ul style="list-style-type: none"> <li>Shakl va dizayn o'zgardimi, o'zgargan bo'lsa, qay darajada? Ta'kidlash joizki, o'zgartirish ba'zan qadriyatning bir qismi sanaladi.</li> <li>Shakl yoki dizayn har tomonlama aniqmi?</li> </ul>



Xos belgi	Baholash savollariga misollar
<b>Materiallar va tarkib</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Materiallar, tuzilish yoki tarkib o'zgardimi yoki almashtirildimi? Agar o'zgargan yoki almashilgan bo'lsa, qay darajada?</li> <li>• Ta'mirlash madaniyat uchun an'anaviy materiallardan foydalanib amalga oshirildimi?</li> </ul>
<b>Foydalanilish va funktsiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kim foydalanadi yoki ishlatadi?</li> <li>• Foydalanishda davom etilmoqdami yoki uning bu funksiyasi o'zgardimi, nima uchun?</li> <li>• Foydalanish yoki funktsiya o'zgardimi?</li> <li>• Foydalanishda tayaniladigan ijtimoiy mexanizmlar qanchalik ishonchli?</li> </ul>
<b>An'analar, metodlar va boshqaruv tizimlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• An'analar, metodlar yoki boshqaruv tizimlari kimga tegishli?</li> <li>• An'analar, metodlar yoki boshqaruv tizimlarini qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy mexanizmlar qanchalik ishonchli?</li> <li>• An'analar, metodlar yoki boshqaruv tizimlari o'zgardimi yoki o'zgarmoqdami va nima uchun?</li> <li>• An'analar, metodlar yoki boshqaruv tizimlarining mustahkamligi o'zgardimi va nima uchun?</li> <li>• Ta'mir madaniyat uchun an'anaviy metodlardan foydalanib amalga oshirildimi?</li> </ul>
<b>Joylashuv va muhit</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Joylashuv yoki muhit o'zgardimi, o'zgargan bo'lsa, nima uchun va qay darajada?</li> </ul> <p><b>Eslatma:</b> Ushbu atributlarni baholash uchun obyekt chegaralari va uning mos muhiti haqida aniq tushunchaga ega bo'lish kerak, aks holda bu chegaralarning aniqlanishiga bevosita ta'sir qiladi.</p>
<b>Til va nomoddiy merosning boshqa shakllari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tildan foydalanuvchilar yoki nomoddiy merosning davom ettiruvchilari/ amaliyotchilari kimlar?</li> <li>• Til yoki nomoddiy merosning boshqa shakllaridan foydalanishda davom etilmoqdami yoki ular o'zgardimi va nima uchun?</li> <li>• Til yoki nomoddiy merosning boshqa shaklidan foydalanish darajasi pasaydimi va nima uchun?</li> <li>• Til yoki nomoddiy merosning boshqa shaklini qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy mexanizmlar qanchalik ishonchli?</li> <li>• Til yoki nomoddiy merosning boshqa shaklidan foydalanadigan aholi qanchalik yashovchan? Ularning yashovchanligiga qaysi omillar ta'sir qiladi?</li> </ul>
<b>Ruhiyat va hissiyot</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ruhiyat va hissiyot kimda yashaydi?</li> <li>• Ruhiyat yoki hissiyot saqlanganmi yoki ular o'zgardimi, nima uchun?</li> <li>• Ruhiyat yoki hissiyotni tan olsih darajasi kamaydimi?</li> <li>• Ruhiyat yoki hissiyotni tan olishda tayaniladigan ijtimoiy mexanizmlar qanchalik ishonchli?</li> <li>• Ruhiyat yoki hissiyotni qadrlaydigan aholi guruhi qanchalik yashovchan?</li> </ul>

Nomzodlikka taklif doirasida mislsiz qiymatga taalluqli bo'lmagan atributlarni ko'rib chiqishga zaruriyat yo'q.

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

#### **Madaniy obyektlar uchun asllik va yaxlitlik**

##### **Aflaj Ummon irrigatsiya tizimi (Ummon)**

Ummonda Aflaj irrigatsiya tizimlari to'plami hali hamon ishlayotgan 3000 tacha tizimni o'z ichiga oladi. Qadimiy muhandislik texnologiyalari o'ta quruq cho'l hududlarida palma va boshqa o'simliklarni o'stirish uchun suv resurslaridan barqaror, uzoq muddat foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Bunday tizimlar jamiyatlar ilgari ushbu sug'orishga butkul qaram bo'lganini va umumiy qadriyatlar va o'zaro bog'liqlikka asoslangan vaqt sinovidan o'tgan suvni oqilona va samarali boshqarilishi va taqsimlanishini aks ettiradi.

Dastavval, har bir aflaj tizimining faqat bir qismi — tub quduqdan shariagacha bo'lgan qismi nomzodlikka taqdim etilgan. Keyinchalik ichimlik, ovqat pishirish, yuvish va dehqonchilik uchun suv bilan ta'minlash orqali jamiyatning ehtiyojlari yo'lida xizmat qiluvchi aholi punktlaridagi tizimning ushbu qismlari nomzodlik taklifiga qo'shilgan va hozirda obyekt aflaj tizimi sifatida yaxlitlikni aks ettiradi.

##### **Qadimiy Nara tarixiy yodgorliklari (Yaponiya)**

Obyektga kiradigan turli xususiyatlarning asllik darajasi yuqori. Yaponcha saqlash tamoyillari shikastlangan yoki eskirgan arxitektura elementlarining dastlabki quruvchilar foydalangan materiallar va usullar yordamida almashtirilishini ta'minladi.

Nara saroyi hududida ayrim ta'mirlash ishlari bajarilgan. Yaponiyada an'anaviy arxitektura merosi va arxeologik izlanishlardan olingan katta hajmli ma'lumotlar qayta tiklangan binolarda dizayn va materiallarning yuqori darajadagi aslligini ta'minladi.

Xuddi shunday baholash bog'larni qayta tiklashga ham qo'llaniladi. Taxmin qilingan elementlarning salmoqli qismini o'z ichiga olgan yagona rekonstruksiya — bu Suzaku (janubiy darvoza). Qurilish va dekorativ detallarning ko'p qismi arxeologik dalillarga va boshqa bir joylardagi o'sha davrga oid saqlanib qolgan binolarga bog'liq.



© YUNESKO / Véronique Dauge



© YUNESKO / G. Boccardi

## Yaxlitlikni baholash

Ham tabiiy, ham madaniy obyektlarda yaxlitlik talab etiladi.

Yaxlitlik – Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalaydigan butunlik yoki tegilmaganlik o'lchovidir. Shundan kelib chiqib, obyektning yaxlitligini ko'rib chiqishdan oldin, uning Butunjahon mislsiz qiymatini aniq tushunib olish talab etiladi.

Operatsion qo'llanmaning 88-paragrafida obyektning quyidagi holatlarida

uni baholash kerakligi ko'rsatilgan:

- Butunjahon mislsiz qiymatlarni ifodalashi uchun zarur barcha elementlar (atributlar)ni o'z ichiga oladi;
- obyektning ahamiyatini ifodalaydigan xususiyatlar va jarayonlarni to'liq taqdim etishga yetarli hajmga ega;
- rivojlanish va/yoki qarovsizlikning nojo'ya ta'sirlaridan zarar ko'rmoqda.

Asosiy so'zlar «butunlik», «tegilmaganlik» va «xavfning yo'qligi». Ularni quyidagicha tushuntirish mumkin:

- Butunlik: barcha kerakli atributlar obyekt doirasida.
- Tegilmaganlik: barcha kerakli atributlar hali ham mavjud — hech qaysi biri yo'qolmagan yoki sezilarli ravishda shikastlanmagan.
- Xavfning yo'qligi: taraqqiyot, eskirish yoki qarovsizlik hech bir atributga xavf solmaydi.

Operatsion qo'llanmada bilib olish muhim sanalgan Butunjahon merosining turli mezonlariga aloqador aniq ko'rsatmalar berilgan (89–95-paragraflar).

Yaxlitlik bayonotida potensial Butunjahon mislsiz qiymatlarni ifodalaydigan xususiyatlar, jarayonlar va/yoki atributlar yig'indisi chegarada qanday joylashganligi ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, bayonotda mulkning o'z qiymatini yo'qotgan yoki tegishli belgi yoki atributlarga ega bo'lmagan muhim qismlari yo'qligi, shuningdek, mulk qoniqarli konservatsiya holatida ekanligi va uning qiymatiga tahdid yo'qligi ko'rsatilishi kerak. Taklif etilayotgan hududni tanlash uchun doim mantiqiy va ilmiy asos bo'lishi kerak.

Butunjahon mislsiz qiymatga aloqador bo'lmagan obyekt jihatlarning saqlanganlik holatini baholash Butunjahon merosiga nomzodlik taklifida talab etilmaydi. Shuningdek, Butunjahon merosi yoki ko'rilyotgan qadriyatlarga aloqador bo'lmagan yaxlitlik tushunchalarini kiritish ham shart emas.

Yaxlitlikni baholashda beriladigan savollarga misollar:

- Mislsiz qiymatga ega obyektning asosiy xususiyatlari va atributlari yaxlitlikka oidmi yoki tegilmaganlikkani?
- Obyekt uning Butunjahon mislsiz qiymatini ifodalash uchun zarur barcha elementlarni o'z ichiga oladimi?
- Obyekt uning ahamiyatini ifodalaydigan xususiyatlar va jarayonlarni to'liq taqdim eta oladigan mos o'lchamdami?
- Obyektning asosiy xususiyatlari va atributlarining holati qanday va ular yaxshi saqlanganmi/ yaxshi holatdami?
- Madaniy landshaftlar, tarixiy shaharchalar yoki boshqa jonli madaniy obyektlarda ularning o'ziga xos xususiyati uchun zarur bo'lgan jarayonlar, o'zaro aloqalar va dinamik funksiyalar saqlanganmi va barqaror holatdami?
- Tabiiy obyektlarda fizik xususiyatlar (relyeflar, yashash muhiti) uchun zarur jarayonlar,

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

munosabatlar va dinamik funksiyalar barqaror holatda saqlanganmi va ularning ishlashiga mos keladigan miqyosda tan olinadimi?

- Obyekt taraqqiyot, qarovsizlik yoki boshqa salbiy jarayonlarning nojo'ya ta'sirlaridan zarar ko'radimi?
- Holatining yomonlashishiga olib keluvchi jarayonlar nazorat ostidami?

Ushbu savollardan ayrimlari obyekt chegaralariga tegishli. Agar zaruriy elementlar kiritilmasa, yoki obyekt mos o'lchamda bo'lmasa, unda masala yechimi uchun chegaralar qayta ko'rib chiqilishi kerak. Ma'muriy kelishuvlar yoki egalik huquqlari asosida chegaralarni aniqlab olish qulay bo'lsa ham, obyektning mislsiz qiymati uchun bu har doim ham mos kelmasligi mumkin. Ma'muriy foyda taklif etilayotgan obyektning chegaralarini belgilashda birinchi navbatda ko'rib chiqiladigan masala bo'lishi kerak emas.

## ASOSIY XABAR

Yaxlitlik va asllik obyekt Butunjahon mislsiz qiymatining turli jihatlaridir.

Yaxlitlik holati Kengroq landshaft, yashash muhiti, geologik tizim yoki madaniy tizimni ifodalovchi xususiyatga mos kelishini isbotlash mumkin. Ammo, chegaralar taklif etilayotgan obyektning kengroq hududdan ajratish uchun mantiqiy asosga ega ekanligini va obyekt kengroq hududga nisbatan olib qaralganda aniq potensial ajoyib Butunjahon mislsiz qiymatga ega ekanligini ko'rsatish muhim bo'ladi.

Murakkab landshaftlar, qadriyatlar yoki jarayonlarga ega bo'lgan ba'zi obyektlar uchun mantiqiy chegara qayerda bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun potensial mislsiz qiymatga ega bo'lgan atributlarni xaritalash imkoni bor. Bu, obyektning chegaralari uning barcha qadriyatlarini mos tarzda qamrab olishini ko'rsatish orqali yaxlitlikni isbotlashning muhim o'rin tutgan usulidir.

Tabiiy va madaniy obyektlariga nisbatan, inson tomonidan foydalanishi maqbul va Butunjahon merosi ro'yxatga kiritilishi muvofiq sanaladi, agar ushbu foydalanish barqaror va obyekt qadriyatlariga mos kelsa. Nomzodlikka taklik hujjatida obyekt holatini jiddiy baholash va unga insonning yoki boshqa omillarning ta'sir ko'rsatadigan har qanday sohalarni haqqoniy va ochiq izohlash muhimdir.

Ayrim holatlarda elementlar bir-biridan geografik jihatdan ajratilgan, uzoqlashgan va bitta katta chegarani hosil qilgan bo'lishi mumkin. Bu holatda turkumli nomzodlikka takliflar bilan ishlash ko'proq mos keladi.

### Qiyosiy tahlil

Qiyosiy tahlilning maqsadi, birinchidan, Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzodi ko'rsatilgan obyektning kiritish uchun imkoniyati mavjudligini aniqlash; ikkinchidan, bir xil geomadaniy hududda (madaniy obyektlar) o'xshash yoki kelajakda nomzodi qo'yilishi mumkin bo'lgan global (tabiiy obyektlar) jihatdan bir xil qiymatdagi boshqa obyekt yo'qligi ko'rsatilganligiga oydinlik kiritishdan iborat. Geomadaniy hududlar mavjud obyektlarning qiymatiga ko'ra farq qiladi va mintaqaviy darajada yoki butun dunyo bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Tahlilning boshlang'ich nuqtasi potensial Butunjahon mislsiz qiymati va tegishli xususiyat va atributlar yig'indisi taqqoslanayotganini aniqlash. Ya'ni, obyektning alohida ahamiyati nimada va u qanday namoyon bo'ladi?

Nomzodi ko'rsatilgan obyekt bilan bir xil qiymatni ifodalaydigan va aniqlangan geomadaniy hudud (madaniy obyektlar) yoki global (tabiiy obyektlar) obyektlar bilan taqqoslanishi kerak. Shuning uchun ushbu, qiymatlar aniq belgilanishi shart. Madaniy



obyektlarda esa geomadaniy tuzilma shu qiymatga muvofiq belgilanishi lozim. Ba'zi hollarda geomadaniy tuzilma global bo'lishi ham mumkin.

Tabiiy obyektlar bo'yicha qiyosiy tahlil nafaqat ushbu mintaqadagi, balki dunyoning boshqa mintaqalarida mavjud bo'lgan o'xshash obyektlar bilan nomzodi ko'rsatilayotgan obyektni taqqoslash uchun global miqyosda bo'lishi kerak. Misol uchun, Afrikaning cho'l iqlimi faqatgina Afrikaning qaysidir boshqa cho'l hududlari bilan emas, balki dunyodagi barcha cho'l mintaqalari bilan taqqoslanishi lozim.

Turkumli nomzodliklar uchun butun obyektning qiyosiy tahlili bitta komponentli obyekt uchun bo'lgani kabi bir xil tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Butun obyektning potensial Butunjahon mislsiz qiymati va u bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar va atributlarni, ya'ni seriyalarni, boshqa obyektlar bilan taqqoslanish kerak. Maqsad — birinchi navbatda, Butunjahon merosi ro'yxatida joy borligini va ikkinchidan, nomzod bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa shunga o'xshash obyektlar turkumi yo'qligini ko'rsatish. Biroq, komponentlarni tanlash bilan bog'liq turkumli obyektlar uchun qiyosiy tahlilning ikkinchi qismi mavjud. Nomzodlik komponentlarini boshqa shunga o'xshash komponentlar bilan taqqoslash nuqtayi nazardan tanlashning mantiqiy asosini va qilingan tanlov mantiqliyigini ko'rsatish kerak.

Birinchi vazifa — bu qiymatlar va atributlar kombinatsiyasi Butunjahon merosi ro'yxatida mavjudligini aniqlash. Bu esa nomzodi ko'rsatilgan obyektni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan boshqa bir o'xshash obyekt bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Vazifa so'nggida xulosa berilishi shart.

Ba'zida Butunjahon merosi ro'yxatiga ko'rsatilgan ob'yekt bilan taqqoslanadigan boshqa obyektlar yo'q bo'lishi mumkin. Holbuki, qiyosiy taqqoslash maqsadi obyektning noyob ekanligini ko'rsatish emas, balki uning ma'lum kontekstda Butunjahon mislsiz qiymatga da'vo qilish uchun g'oyat kuchli huquqqa ega ekanligini ko'rsatishdir.

#### **Butunjahon merosi mezonlaridagi o'zgarishlar**

*Mavjud Butunjahon merosi obyektlarini taqqoslaganda vaqt o'tishi bilan Butunjahon merosi mezonlarida o'zgarishlar kiritilganligini eslatib o'tish joiz. 2005-yilgacha mezonlar madaniy mezonlar (i-vi) va tabiiy mezonlarning (vii-x) ikkita alohida ro'yxati sifatida taqdim etilgan. 2005-yilda qayta ko'rib chiqilgan Butunjahon merosi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanma qabul qilinganidan keyin o'nta mezonni o'z ichiga olgan, hozirda mavjud bitta to'plam yuzaga keldi. Quyidagi jadvalda yangi va eski raqamlash tizimi o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan.*

	Madaniy mezonlar	Tabiiy mezonlar
2005-yilgacha Operatsion qo'llanma	(i) (ii) (iii) (iv) (v) (vi)	(i) (ii) (iii) (iv)
2005-yildan keyingi Operatsion qo'llanma	(i) (ii) (iii) (iv) (v) (vi)	(viii) (ix) (vii) (x)

*Shuni ta'kidlash kerakki, to'rtta eski tabiiy mezonlar nisbiy tartibi yangi ro'yxatda o'zgartirildi, va dastlabki tabiiy mezon (iii) hozirgi joriy Operatsion qo'llanmada endi boshqa avvalgi tabiiy mezonlardan (i,ii va iv) oldin keladi. Bundan tashqari, mezonlarning aniq matni vaqt o'tishi bilan o'zgardi, eng muhim tuzatishlar 1992 -yilda kiritilgan. Obyektlarni taqqoslashda ularning ro'yxatga kiritilgan vaqtini yodda tutish muhim.*

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

Navbatdagi vazifa – kelgusida ushbu geomadaniy hududdan yoki dunyoning boshqa qismlaridan ham shunga o'xshash boshqa obyektlar nomzodlikka da'vo qilishi mumkinligini ko'rib chiqish. Nomzodi ko'rsatilgan obyekt belgilangan qiymat va atributlarga asoslangan holda boshqa ma'lum namunalar bilan taqqoslanishi lozim. Va yana uning boshqa obyektlar bilan qanday bog'liqligi haqida xulosa chiqarish kerak. Agar boshqa shunga o'xshash obyekt mavjud bo'lsa, ko'rsatilgan obyekt eng munosib namuna yoki vakil sifatida ko'rib chiqishligi kerakligi, yoki kelajakda boshqa obyektlar turkum nomzod sifatida unga qo'shilishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish zarur.

Tipologiya bo'yicha taqqoslash yoki obyektning elementlarini boshqa obyektlarning elementlari bilan solishtirishda, ular e'lon qilingan qiymatga bevosita taalluqli bo'lmas ekan, bu taqqoslash o'rinsiz deb hisoblanadi.

Asllik va yaxlitlik qiyosiy tahlilning asosiy qismi hisoblanadi. Taqqoslanuvchi obyektlar orasida ba'zilar ko'proq, ba'zilar kamroq asllik va yaxlitlik xususiyatlariga ega bo'lishi va bu Butunjahon mislsiz qiymat istiqboliga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Qiyosiy tahlil so'nggida ko'rsatilgan obyektni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan ob'ektlarga nisbatan va ma'lum bir geomadaniy hudud (madaniy obyekt) yoki global hudud (tabiiy obyekt) doirasida o'xshash obyektlar yig'indisiga nisbatan joylashtirish imkoniyati yaratilishi kerak. Tahlil nomzodi ko'rsatilayotgan obyekt uchun Butunjahon merosi ro'yxatida o'rin borligini va nomzodi ko'rsatiladigan obyekt bilan o'xshash boshqa obyekt yo'qligini ko'rsatishi kerak.

Taqqoslanadigan obyektlar haqida ma'lumot manbalari:

- Butunjahon merosi ro'yxati;
- Nomzodlik fayllari, Maslahat Kengash (lar)i baholari va Butunjahon merosi ro'yxatidagi «O'xshash obyektlar bo'yicha Butunjahon merosi Qo'mitasi qarorlari»;
- Ro'yxatga kiritishga tavsiya etilmagan obyektlar haqida ma'lumot (chunki ular Butunjahon mislsiz qiymati istiqboliga javob berishi kutilayotgan muhimlik chegarasini yoki darajasini aniqlashga yordam beradi, chunki ular «Buyuk universal qiymat» bayonotiga javob berishi kutilayotgan muhimlik chegarasini yoki darajasini aniqlashga yordam beradi);
- Xuddi shu davlat yoki boshqa davlatlarning Dastlabki ro'yxatlari;
- *The World Heritage List: Filling the Gaps – An Action Plan for the Future* (ICOMOS, 2005a), madaniy obyektlar uchun;
- IUCN va ICOMOS tematik tadqiqotlari;
- Muhofazaga olingan hududlar bo'yicha Butunjahon ma'lumotlar bazasi ([www.wdpa.org](http://www.wdpa.org)), tabiiy obyektlar bo'yicha;
- Boshqa kuzatuvchi tashkilotlar (Dokomomo yoki TICCIH kabi) tomonidan tayyorlangan va boshqa tegishli xalqaro ekspertlar tomonidan ta'minlangan tadqiqot hisobotlari va adabiyotlar.

Ushbu manbalarning aksariyatiga onlayn havolalar ushbu qo'llanmaning 1.1-bo'limida keltirilgan.

Yana bir foydali ma'lumotlar manbasi — shu obyekt bo'yicha faoliyat olib boruvchi milliy va xalqaro ekspertlardir. Qiyosiy tahlilni ko'zdan kechirish yoki tayyorlashda eng salohiyatli milliy ekspertlar bilan birga xalqaro mutaxassislar ko'magidan foydalanish nomzodlikni rivojlantirishda yuqori qiymatga ega. Bunday tahlil qanchalik erta o'tkazilsa, shunchalik yaxshi bo'ladi va prinsipiial jihatdan bunday tahlil kelajakdagi nomzodlar uchun ustuvorliklarni belgilashga yordam berish uchun Konvensiyaga a'zo-davlatlarning Dastlabki ro'yxatiga kiritilgan obyektlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Qiyosiy tahlilni ishlab chiqish uchun ekspertlar guruhidan foydalanishga misol**

Ba'zi hollarda, ayniqsa tabiiy obyektlar uchun, qiyosiy tahlilni ishlab chiqish maqsadida ekspertlar guruhidan foydalanish, quyida izohlanganidek, samaraliroq hisoblanadi.

1. Yangi nomzodlikka tavsiya qilinishi mumkin bo'lgan obyekt quyidagilarga nisbatan aniq tasniflanishi kerak:
  - Ifodalayotgan mavzusi, geomadaniy holati va biogeografik hududlar. Ushbu tasniflash IUCN va ICOMOS tomonidan tayyorlangan Butunjahon merosi ro'yxati va Dastlabki ro'yxatlar tahlillarida taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanishi kerak (masalan, quruqlikdagi botqoqliklar, cho'llar, dengiz va qirg'oq hududlari, qoyatosh san'ati, ko'priklar, madaniy landshaftlar va h.k); va
  - Geo-madaniy (madaniy obyektlar) yoki global (tabiiy obyektlar) keyingi qiyosiy tahlil uchun asosni ta'minlashda qo'llaniladigan maxsus Butunjahon merosi mezonlari.
2. Nomzodi ko'rsatilgan obyekt qanday tasniflanishiga asoslanib, Ishtirokchi-davlat nomzodi ko'rsatilgan obyektning ifodalayotgan mavzusi, geomadaniy holati va biogeografik mintaqasi bo'yicha mutaxassislardan tashkil topgan guruh tuzadi. Yana bir shunday guruh milliy mutaxassislar tomonidan tuzilishi lozim va eng ma'qul keladigani bu guruh butun tahlil davomida global istiqbolni saqlashga yordam bera oladigan xalqaro mutaxassislardan iborat bo'lishi kerak. Maslahat Kengashlari, Ishtirokchi-davlatlarning iltimosiga binoan, xalqaro ekspertlar bo'yicha takliflar berishi mumkin. Bu guruh obyektga dastlabki aniqlikni kiritish va obyekt qiymati kelishuvi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislardan iborat bo'lishi lozim, lekin ideal holda, u tegishli mintaq va mamlakat tashqarisidan xalqaro nuqtayi nazarga ega bo'lgan mutaxassislarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bunday fikrlar yig'ilishlarda ishtirok etishning muqobili sifatida elektron pochta va yozishmalar orqali ham qabul qilinishi mumkin.
3. Ushbu ekspertlar guruhi qiyosiy tahlil uchun asos bo'ladigan obyektlarning to'liq ko'lamini aniqlashi kerak. Ushbu ro'yxatni tanlash uchun muhim ma'lumot manbalari yuqorida berilgan.
4. Shundan so'ng, nomzodi ko'rsatilgan obyektning taqqoslashda o'rni qandayligini baholash maqsadidagi qiyosiy tahlili uchun, ekspertlar guruhi tomonidan nomzod obyekt va o'xshash obyektlar bo'yicha — har ikkala miqdor va sifat jihatidan—iloji boricha ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Ma'lumot to'plash va qiyosiy tahlilning boshlang'ich nuqtasi — obyektning nomzod qilib ko'rsatilishi mumkin bo'lgan mezonlar mavjud bo'lishi. Qiyosiy tahlil, agar u tayanadigan ma'lumot manbalari aniq ko'rsatilgan bo'lsa, uzoq tavsiflovchi hujjat bo'lishi shart emas. Tahlil birlashtirilgan jadvalda aks ettirilishi mumkin. Operatsion qo'llanmalar turli obyektlarning nisbiy saqlanish holatini qiyosiy tahlil doirasida muhokama qilish zarurligini aniq ko'rsatib beradi. O'xshash ahamiyatga ega, ammo yomon holatda bo'lgan yoki samarali himoya va boshqaruvlariga ega bo'lmagan obyektlar yaxshi holatda va yuqori himoya darajasiga ega obyektga qaraganda Butunjahon mislsiz qiymati istiqboliga nisbatan zaifroq da'voga ega, deb hisoblanishi mumkin.
5. Ekspertlar guruhi nomzod obyekt haqidagi xulosalarni o'z ichiga olgan, o'tkazilgan tadqiqot va bahslarga asoslanib yakuniy qiyosiy tahlilni tayyorlashi kerak (quyida xulosa bo'yicha munozaralarni ko'ring).

Yuqorida ta'kidlanganidek, turli tadqiqot asoslari, obyektning qiymatini, jumladan tematik, xronologik, mintaqaviy va tipologik asoslarini tushunishga yordam beradi. Taqqoslanadigan xususiyatlar bunday tadqiqot asoslarining bir qismi bo'ladi.

Ba'zi holatlarda qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo'ladigan mavjud ma'lumot yoki tadqiqot bo'lmasligi yoki ma'lumotlar juda cheklangan bo'lishi mumkin. Variantlardan biri ushbu ma'lumotni taqdim etish uchun zarur bo'lgan tadqiqotni o'tkazish yoki boshqa nufuzli va tegishli mutaxassislar yoki tashkilotlarni ushbu ishni bajarishga undashdir. Agar bunday

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

## ASOSIY XABAR

Xalqaro ekspertlar tomonidan tekshirilgan tahlillar bilan ishlang

ekspert yoki tashkilotlar nomzodlikka bog'liq bo'lmagan, mustaqil bo'lsa va xalqaro ishonchga ega bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu esa qo'shimcha xarajatlarni talab qilishi mumkin.

Tillarning turililigi boshqa mamlakatlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilish uchun ma'lumotlardan foydalanishda muammo bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bu muammoni bartaraf etish lozim. Mana shu muammo sabab qiyosiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning asosiy qismi e'tiborsiz qoldirilishi intellektual yoki amaliy jihatdan nomaqbul holatdir.

Qiyosiy tahlil potensial Butunjahon mislsiz qiymatini o'rganishning muhim qismi hisoblanadi va ushbu qiymatni aniqlash jarayonida qo'llaniladi.

Qiyosiy tahlil xulosalar berishi shart. Puxta va xolis qiyosiy tahlillar nomzodlarning muvaffaqiyat qozonishiga katta yordam beradi. Qiyosiy tahlil uch xil natija berishi mumkin:

- Obyekt boshqa o'xshash obyektlar bilan solishtirganda yuqori o'rinni egallashi va Butunjahon merosi ro'yxatidagi muhim bo'shliqni to'ldirishi mumkin bo'lsa, Ishtirokchi-davlat o'z nomzodini ko'rsatish jarayonini davom ettirishi lozim;
- Obyekt boshqa o'xshash obyektlar bilan solishtirganda past baho olsa va Butunjahon merosi ro'yxatidagi bo'shliqni to'ldirmasa, Ishtirokchi-davlat obyekt nomzodligini qayta ko'rib chiqish istagini izhor etishi mumkin; yoki
- Obyekt boshqa o'xshash obyektlar bilan ahamiyati bo'yicha bir xil baholanishi mumkin. Bu, shuningdek, potensial Butunjahon mislsiz qiymati foydasiga argumentlar nisbatan kuchsiz yoki zaif chegaraviy holatda ekanligini ko'rsatishi mumkin. Agarda boshqa yuqori baholangan obyektlar soni oz bo'lsa, bu konsepsiyani turkumli va/yoki transmilliy nomzodlikdagi boshqa obyektlar bilan bog'lash yoki kengaytirish imkoniyatini ko'rsatishi mumkin.

Kengaytirishlarga kelganda, dastlabki nomzodlik faylga kiritilgan qiyosiy tahlilga alohida e'tibor qaratiladi – xususan, taklif etilayotgan kengaytirilish dastlabki nomzodlik bilan qanday solishtiriladi va taklif etilayotgan kengaytirilishda dastlabki nomzodlik qiymati qanday ifodalanadi?

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlilni tayyorlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi asosiy tamoyillar quyidagilar:

- Tahlil imkon qadar puxta va xolis bo'lishi hamda tahlilning obyektivligini buzishi mumkin bo'lgan milliy g'urur masalalarini chetga surib (masalan, «bu mamlakatdagi eng yaxshi meros mulki»), har doim keng qamrovli bo'lishi kerak;
- U milliy va xalqaro miqyosda mavjud bo'lgan eng yaxshi ilmiy ma'lumotlar bilan ta'minlanishi zarur. Agar nomzodlik faylida maqolalar va nashr qilingan adabiyotlar nusxasi ko'rsatilgan bo'lsa, nashr etilmagan hisobotlar va boshqaruv hujjatlari kabi "kul rang adabiyotlar" (an'anaviy tijorat yoki akademik kanallaridan tashqarida tashkilotlar tomonidan tayyorlangan nashlar) ham qo'llanilishi mumkin;
- To'liq tahlil qilish uchun boshlang'ich kontekst sifatida tematik tadqiqotlar mavjud bo'lgan hollarda ularga murojaat qilish kerak. Tegishli amaliy tadqiqotlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi;
- Tabiiy obyektlarni muhofaza qilish ustuvorliklari bo'yicha global baholashlar juda foydali va obyektning ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlarni berishi hamdam (Conservation International's Biodiversity Hotspots or WWF's 200 Ecoregions kabi) taqdim etishi mumkin. Biroq, ular potensial Butunjahon mislsiz qiymatining talablariga javoban maxsus tayyorlanmagan. Qiyosiy tahlilni tayyorlash maqsadida obyektning global darajada qanchalik noyob ekanligini aniqlashga yordam beradigan global baholashlardan foydalanishga ustuvor ahamiyat berish tavsiya etiladi; va

- Qiyosiy tahlilning birinchi loyihasi tugagach, uni qo'shimcha ma'lumot va izohlar olish maqsadida boshqa yetakchi milliy va xalqaro ekspertlarga yuborish tavsiya qilinadi. Maslahat Kengashlari Ishtirokchi-davlatlar talabiga ko'ra qo'shimcha ma'lumot va ekspertiza taqdim eta oladigan yetakchi mutaxassislar maslahati bilan ta'minlab beradi.

Qiyosiy tahlil ko'pincha nomzodlarning zaif tomoni bo'lib, nomzod muvaffaqiyatini xavf ostiga qo'yadi. Umumiy muammolarga quyidagilar kiradi:

- tahlilda xolislik yo 'qligi;
- bir xil geomadaniy hududdan (madaniy obyekt) yoki global miqyosda (tabiiy obyekt) qiyoslanadigan obyektlarni izlashga qat'iy harakat qilmaslik;
- taqqoslanadigan obyektlar haqida ma'lumot manbai sifatida faqat Butunjahon merosi ro'yxati va dastlabki ro'yxatlardan foydalanish;
- ko'rsatilgan obyektning yaqqol ko'rinib turadigan ahamiyatini oshirish uchun nomzod obyektini unchalik muhim bo'lmagan obyektlar bilan solishtirish;
- nomzodi ko'rsatilgan obyektini Butunjahon merosi ro'yxatidagi umuman boshqacha bo'lgan obyektlar bilan solishtirish; va
- tahlilni potensial Butunjahon mislsiz qiymati va tegishli sifatlariga emas, balki unchalik ahamiyatli bo'lmagan xususiyatlariga asoslash.

Agar tahlil mustahkam va ishonchli bo'lmasa, obyektini nomzod qilib taklif qilish maqsadi qayta ko'rib chiqilishi kerak.

### ***Ishtirokchi-davlat tomonidan batafsil tematik tahlilni tayyorlash:***

*Tematik tadqiqot qiyosiy tahlilga katta hissa qo'shadi. Tematik tadqiqotlar uchun adabiyotlar ro'yxati ushbu qo'llanmaning 1.1 - bo'limida berilgan.*

*ICOMOS tematik tadqiqotlar tayyorlayotgan bir paytda ishtirokchi-davlat ham ma'lum bir obyekt nomzodligi bo'yicha yordam berish maqsadida odatdagidan ko'ra keng ko'lamlil va batafsil tematik tahlil tayyorlashi mumkin. Bunga misollar:*

- *Fransiya tomonidan boshqa davlatlar ishtirokidagi seminarlardan keyin O'rta yer dengizi chorvachiligi bo'yicha tematik tadqiqot tayyorlandi;*
- *Piemont va Lombardiyalik Sakri Monti (Italiya) — keng qamrovli tematik tadqiqot uning ro'yxatga kiritilish paytida tayyorlandi;*
- *Liverpul – Dengiz savdo shahri (Birlashgan Qirollik) nomzodi aslida tematik tadqiqot bo'lgan qiyosiy tadqiqotni qamrab oldi (quyida ko'ring);*
- *Le Morne madaniy landshafti (Mavrikiy) nomzodi qullikka qarshilik ko'rsatish bo'yicha tematik tahlilni o'z ichiga oladi; va*
- *Muhofazaga olingan San-Migel shahri va Iso Nazareno de Atotonilko ziyoratgohi (Meksika) nomzodligi Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi mustamlaka shaharlarining amaliy tadqiqoti bo'lgan va mintaqaviy asosni taklif qilgan qiyosiy tahlilni o'z ichiga oladi.*



© YUNESKO / Jasmína Sopova

#### Qiyosiy tahlil

##### Liverpul – dengiz savdo shahri

(Buyuk Britaniya)

Bu obyekt qiyosiy tahlil uchun eng munosib namuna, chunki u:

- Britaniya imperiyasi porti, shuningdek, Yevropa emigratsiya porti kabi baholanishi kerak bo'lgan obyektlar ichidan eng muhimlarini tasvirlaydi;
- Buyuk Britaniyadagi boshqa portlarni solishtirishlar bilan boshlanadi va hajm, tonnaj, yuk tashish operatsiyalari va infratuzilmalarning tabiati va vaqti hamda mezbon shaharlar bilan iqtisodiy aloqalari kabi potensial Butunjahon mislsiz qiymati da'volariga tegishli atributlarni ko'rib chiqadi. Asllik va yaxlitlik masalalari ushbu taqqoslashlarning muhim qismidir;
- Liverpul da'volarini qo'llab-quvvatlash uchun Yevropadagi taqqoslanadigan va boshqa mashhur portlarni o'rganadi. Shuningdek, ushbu portlar o'zining tegishli potensial Butunjahon mislsiz qiymati, shuningdek, yaxlitlik va asllik masalalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi; va
- Butunjahon merosning mavjud obyektlarini, shu jumladan portlar sifatida ro'yxatiga kiritilgan va portlarni tasodifan o'z ichiga olgan obyektlarni Butunjahon mislsiz qiymatga aloqadorligiga ahamiyat bergan holda ko'rib chiqadi va tegishli

Nomzodlik faylining xulosasida shunday deyilgan:

«Xalqaro miqyosda boshqa hech bir yirik port Liverpul kabi faqatgina tijorat va savdo-sotiqqa diqqati qaratilmagan va boshqa hech bir port Britaniya imperiyasining boyligi, salohiyati va qudratini bu darajada yaqqol aks ettirmagan. Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan portlar ko'p holatlarda Liverpulga qaraganda qadimiyroq yoki uzoq yillik tarixga ega bo'lishi mumkin, ammo hozirgacha ularning hech biri Liverpul shahar landshaftida ifodalangan kabi qiymat va tarixiy ahamiyatga ega emas.

Garchi XVIII-, XIX-va XX-asr boshlarida bunyod etilgan bo'lsa-da, Liverpul hamon boshqa barcha o'xshash portlardan, ayniqsa, hozirgacha saqlanib qolgan port infratuzilmasi va tarixiy shaharsozlik landshafti bilan ajralib turadi».

##### Miguasha milliy bog'i (Kanada)

Geologik ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar nuqtayi nazaridan hozirgacha olib borilgan eng keng qamrovli qiyosiy tahlil Devon davridagi qazilma obyekti joylashgan Kanadadagi Miguasha bo'gi uchun qilingan. Qo'llanilayotgan innovatsion, dalillarga asoslangan metodologiya tabiiy obyektlarni baholash jarayonida keng tatbiq qilinish va moslashtirishga munosib namunaviy yondashuv sifatida IUCN tomonidan e'tirof etildi.

Bunda quyidagicha uch tomonlama uslub qo'llanilgan:

- Baholash mezonlarini belgilash: Qazilma obyektining paleontologik ahamiyatini baholashda IUCN tomonidan ishlab chiqilgan 10 ta talablari va qazilma obyektlarining Butunjahon merosi maqomiga ega ekanligini baholashda Uellsning (1996-yil) to'qqizta tavsiya etilgan mezonlariga tayanildi.
- Baholash uchun asosiy obyektlarni tanlash: Adabiyotlarga asoslangan tadqiqotlar va boshqa ekspertlar bilan maslahatlar natijasida butun dunyodan Devon davridagi umurtqali hayvonlar qoldiqlari topilgan jami oltmish bir qazilma obyektlari tanlab olindi. Bu ro'yxat, keyinchalik, qazilma konteksti nuqtayi nazardan beshta malakaviy standartlardan kamida bittasiga javob bermaydigan barcha obyektlarni olib tashlash hisobiga o'n beshta obyektga qisqartirildi.
- Ballarga asoslangan baholash jarayoni: tanlangan 15ta obyektning har biri qazilma elementlarning haqiqiy soniga ko'ra ixtiyoriy yoki mutlaq ball berish orqali baholandi.



© YUNESKO / Véronique Dauge



© Neumeier

## Butunjahon mislsiz qiymati bayonotini yozish

Butunjahon mislsiz qiymatining puxta va mukammal bayonotini nomzodlik dosyesini yozishga kirishishdan avval tayyorlash tavsiya etiladi. Nomzodlarning muvaffaqiyatli bo'lishi bunday bayonotni taqozo etadi. Agar aniq va asosli bayonot ishlab chiqilmasa, bu obyekt Butunjahon merosi ro'yxati uchun nomunosib (shubhali) nomzod bo'lishi mumkin va taklif qilingan nomzodlik hujjatlari qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.

Nomzodlikka taklif jarayonining yuqorida muhokama qilingan turli qismlari Butunjahon merosining tegishli mezonlarini tasdiqlash va Butunjahon mislsiz qiymati to'g'risidagi bayonnomani tayyorlay olish fursatiga yetishishga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Xulosa qilib aytganda:

- potensial Butunjahon mislsiz qiymati aniqlangan bo'lishi va uni ifodalovchi xususiyat va atributlar ta'riflangan bo'lishi kerak;
- Butunjahon mislsiz qiymati nuqtayi nazaridan tegishli Butunjahon merosi mezonlari tanlab olingan bo'lishi lozim;
- Agar kerak bo'lsa, obyekt turkum nominatsiya bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savolga javob berilishi va tarkibiy qismlarning tanlanishi potensial Butunjahon mislsiz qiymatiga asoslangan holda bo'lishi kerak;
- asllik va yaxlitlik baholanishi va tavsiflanishi kerak; va
- har tomonlama va xolis qiyosiy tahlil bajarilishi kerak.

Ushbu asosiy ma'lumotlardan foydalanishda obyekt uchun taklif qilingan mezonlar hali ham muvofiq ekanligi tekshirilishi kerak. Shuningdek, tanlangan mezonlar kuchli isbot va asosli dalillar bilan puxta ta'minlangan bo'lishiga ishonch hosil qilish zarur.

Ushbu ma'lumotlar Butunjahon mislsiz qiymati bayonotini yozishda ham qo'llanilishi lozim. Bayonot yozish qo'llanilishi kerak bo'lgan mezonlarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lishi mumkin. Buni nomzod dosyesini takomillashtirish jarayoni sifatida qabul qilish lozim.

### Butunjahon mislsiz qiymati bayonoti quyidagi o'Ichamlarda formatga muvofiq bo'lishi kerak ( ko'pi bilan A4 hajmdagi 2 sahifa, *Operatsion qo'llanmaning 10-ilovasiga qaralsin*):

- Qisqacha sintez:
  - Dalillarga asoslangan ma'lumotlarning qisqacha mazmuni (150 ta so'zdan oshmagan obyekt nimalardan iboratligi, geografik va tarixiy sharhi);
  - sifatlar haqida qisqacha ma'lumot ( qiymat, atributlar, ko'pi bilan 150 ta so'z);
- Mezonlarni asoslash (ularni ko'rsatadigan qiymatlari va atributlari hamda nima uchun obyekt har bir taklif qilingan mezonni oqlashi haqida, har bir mezon uchun ko'pi bilan 200 ta so'z);
- Loyiha tuzilish/ro'yxatga kiritilish sanasiga kelib (barcha obyektlar) yaxlitlik to'g'risida bayonoti (obyektning potensial Butunjahon mislsiz qiymatini bildiruvchi barcha atributlari yoki xususiyatlarning hammasi o'z o'rnida va obyekt chegaralarida deb aytilishi mumkin bo'lgan usul, ko'pi bilan 200 ta so'z);
- Asllik bayonoti (bayonot faqat (xi-vi) mezonlari bo'yicha ko'rsatilgan obyektlar uchun zarur) loyiha/ro'yxatga kiritish sanasida (potensial Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lgan atributlar qiymatni to'g'ri aks ettiradimi yoki yo'qmi, ko'pi bilan 200 ta so'z)
- Butunjahon mislsiz qiymatini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan muhofaza qilish va boshqarish uchun qo'yiladigan talablar (Himoya va nazorat mexanizmlari, tizimlar va rejalar, mulkning potensial Butunjahon mislsiz qiymatni saqlab qolish uchun himoyalanganligi va boshqarilishini ta'minlash uchun yetarlicha mustahkamligi) (muhofaza qilish va boshqarish 82–91-sahifalarda muhokama qilinadi):
  - Umumiy fikr (ko'pi bilan 200 ta so'z);
  - Maxsus uzoq muddatli taxminlar — uzoq muddatli e'tibor talab qiladigan asosiy masalalar (masalan, asosiy tahdidlardan himoya qilish, imkoniyat va mablag'ni asrash, jamoat yordami bilan ta'minlash, ko'pi bilan 150 ta so'z).

## ASOSIY XABAR

Nomzodning qolgan qismi bo'yicha ish boshlanishidan oldin BMQ bayonotini loyihasi aniq bo'lishi kerak.

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

2007 - yilgacha ro'yxatga olish uchun retrospektiv tarzda tayyorlangan bayonotlar uchun biroz boshqacha ko'rsatmalar mos keladi. Butunlik va asllik komponentlari, agar bunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ro'yxatga olish paytidagi vaziyatni aks ettirishi kerak.

Butunjahon mislsiz qiymati Bayonoti nomzodlikka vakil ko'rsatishdagi eng murakkab va muhim vazifalardan biri hisoblanadi va u puxta ishlab chiqilishni talab qiladi.

Ushbu bayonot quyidagicha bo'lishi kerak:

- Kelajakda muhofaza qilish, saqlash, boshqarish va monitoring qilish uchun potensial Butunjahon mislsiz qiymatining kuchli izohi Bayonot qaror qabul qiluvchilar, siyosatchilar va keng jamoatchilikka obyektning qiymati va xususiyatlarini tushuntira olishi kerak;
- Obyekt uchun tayyorlangan qiymatning eng kuchli bayonoti va ushbu qiymatni ifodalovchi atributlarning tasviri;
- Tanlangan mezonlarning kuchli asoslanishi;
- Ixcham bo'lishi, ya'ni obyektning eng muhim xususiyatlari haqida ma'lumot berish uchun yetarlicha qisqa bo'lishi;
- Iloji boricha, jargon va texnik iboralardan voz kechgan holda keng doiradagi odamlarni jalb qilish uchun yozilgan.

Butunjahon mislsiz qiymati bayonotini ishlab chiqish nomzodlik jarayonida ishtirok etgan barcha ishtirokchilar orasida obyekt potensial qiymati to'g'risidagi umumiy tushunishni o'rnatishi mumkin.

Ushbu bayonot, shuningdek, nomzodlik dosyesining barcha — tasvirlash, asoslash, saqlash, muhofaza qilish, boshqarish va monitoring qismlarini dalillar bilan quvvatlaydi.

Bayonot loyihalangach, manfaatdor tomonlar va tegishli ekspertlar maslahatlashishi va Bayonot haqida ularning izohlari so'ralishi kerak. Bundan maqsad, Bayonotga barcha tomonlar roziligini olish. Buning uchun bir qator rasmiy uchrashuvlar talab qilinishi mumkin.

Muhofaza qilish va boshqaruv qismlaridan tashqari, Bayonot ushbu bosqichda yakuniy bo'lishi mumkin bo'lsa-da, nomzodlikka taklif ustida ishlash va boshqa rasmiy maslahatlashuvlar foydali o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu odatiy holat bo'lib, u mukammal bayonotni tayyorlash jarayonining bir qismi sifatida qabul qilinishi zarur.

Yangi obyekt turkum nomzodlardan iborat bo'lsa, Bayonotda yuqorida keltirilgan standart talablar aks etishi kerak. Turkumning har bir tarkibiy qismi uchun bir xil ma'lumotlardan ko'ra, joiz bo'lganda, butun obyektga tegishli umumiy ma'lumotlar taqdim etilishi kerak. Shunga qaramay, mustasno holatlarni yoki alohida bir yoki bir nechta komponentlarga tegishli maxsus asosiy ma'lumotlarni ta'kidlab o'tish uchun sabablar yuzaga kelishi mumkin.

Agar mavjud ro'yxatdan o'tgan seriyali elementga komponent qo'shilishi taklif qilinsa, hech qanday o'zgarish kiritmasdan, mavjud Butunjahon mislsiz qiymat bayonoti yetarli bo'lishi mumkin, yoki qo'shimcha komponentni aks ettirish uchun kichik o'zgarishlar talab qilinishi mumkin. Agar ozgina o'zgarish talab qilinganda yoki Bayonot mavjud bo'lmasa, Butunjahon merosi qo'mitasi talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilishi/tayyorlanishi zarur. Umumjahon merosi markazi va maslahat organlari tomonidan ushbu jarayonga rahbarlik qilish uchun ajoyib umuminsoniy qiymatga ega retrospektiv bayonotlarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar ham tayyorlangan. Ikkala holatda ham bayonot yangi qiymatni emas, alohida yangi atributlarni aks ettirishi kerak. Qiymatlar Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan oldindan kelishilgan bo'lishi kerak. Taklif etilgan qo'shimcha yoki



farqli qiymat bo'lgan holatda, yangi nomzod tayyorlanishi kerak (Operatsion qo'llanmalar, 166-paragraf).

Mavjud obyekt kengaytirilgan taqdirda, yangi qiymatlarni emas, balki yangi atributlarni aks ettirish va asl obyekt uchun Butunjahon mislsiz qiymat to'g'risidagi bayonot qayta ko'rib chiqiladi, yoki butun obyekt uchun yangi bayonot tayyorlanadi.

### **Butunjahon mislsiz qiymati Bayonoti**

#### **Qabila boshi Roi Mata domeni (Vanuatu)**

Vanuatuda joylashgan Bosh Roi Mata domenining saqlanib qolgan madaniy landshafti Tinch okeani asosiy tizimlarining landshaft vakili sifatida Butunjahon mislsiz qiymatiga ega. Bu vaqt o'tishi bilan insonlarning atrof-muhit bilan munosabatida, Roi Mata bilan bog'liq bo'lgan moddiy qoldiqlarini qadrlash va uning ijtimoiy islohotlarning ma'naviy va axloqiy merosiga amal qilish o'z aksini topadi.



© Vanuatu National Cultural Council / Chris Ballard

Peyzaj 400 yildan ortiq vaqt davomida o'z kuchini yo'qotmagan va mahalliy landshaft va ijtimoiy amaliyotni tuzadigan Roi Mataning yashash joyi va dafn etilgan joyidan foydalanishga taqiqlar tufayli saqlanib qolgan Tinch okeanining davomli tizimlarini va hokimiyatga hurmatni aks ettiradi. Landshaft Roi Mata ishlarini abadiylashtirib, haligacha Vanuatuda yashayotgan ko'plab odamlar uchun kuch va ilhom manbai sifatida xizmat qiladi.

Mezon (iii): Qabila boshi Roi Mata domeni — bu doimiy madaniy landshaft bo'lib, Qabila boshi vakolatlarini avvalgi unvon egalari qanday meros qilib olishlari, va xususan, Roi Mataning yashash joyi va dafn etilgan joyidan foydalanishga nisbatan tabu taqiqlari 400 yil davomida qanday amalga oshirilganligi va davom etayotganini aks ettiradi.

Mezon (v): Bosh Roi Mata domeni Tinch okeani orollarining asosiy tizimlarining landshaft tasviri va Tinch okeani xalqlari va ularning atrof-muhit o'rtasidagi vaqt o'rtasidagi bog'liqlikning ajoyib namunasi bo'lib, Roi Mata bilan bog'liq, ijtimoiy islohotlarining ma'naviy-axloqiy merosi bilan boshqariladigan uchta asosiy saytning moddiy qoldiqlariga hurmatda aks ettirilgan.

Mezon (vi): Bosh Roi Mataning mulki domeni zamonaviy Vanuatudagi ko'plab odamlar uchun hanuz landshaft orqali namoyon bo'luvchi yaqqol kuch manbai va o'z hayotlarini tahlil qiluvchi insonlar uchun ilhom manbai sifatida mavjud.

Bosh Roi Mata domeni aslligi landshaftning Roi Mataning og'zaki an'analari bilan uzluksiz bog'lanishi, hokimiyatning meros bo'lib o'tishi va uning hayotining moddiy qoldiqlariga an'anaviy ehtirom bilan bog'liq bo'lib, shular hammasi bu joylardan foydalanishga saglanib qolgan taqiqlarda namoyon bo'ladi.

Nomzod hududlar va ularning bufer hududlarining (nomzodi ko'rsatilgan obyektning o'rab turuvchi hudud) huquqiy muhofazasi yetarli darajada ta'minlangan. Asosiy tizim orqali an'anaviy boshqaruv bo'yicha har ikki — tabu taqiqlarini va obyektning himoya qilish bo'yicha davlat qonunchiligini taqozo etgan holda, obyektning boshqarishning umumiy tizimi talabga javob beradi. Boshqaruv tizimi mahalliy va davlat ma'muriy vakillarining taqozo qiladi. Bunda obyekt yaxlitligi ta'minlanadi.



### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

#### ● ● Jeju vulqon oroli va lava quvurlari (Koreya Respublikasi)

Jeju vulqon oroli va lava quvurlari uchta komponentdan iborat izchil turkum obyektdir. Geomunoreum lava quvurlari tizimining beqiyos sifati va qolgan ikki komponentda turli xil va mavjud vulqon xususiyatlarini namoyish etish global vulqonizmni tushunishga o'ziga xos va muhim hissa qo'shmoqda.

Mezon (vii): DUNYO bo'yicha eng go'zal g'or tizimi hisoblangan Geomunoreum lava quvurlari tizimi hatto bunday tajribani boshdan kechirganlar uchun ham ajoyib vizual taassurot qoldiradi.



© IUCN / Paul Dingwall

U ship va pollarni bezatgan ko'p rangli karbonat bezaklarining o'ziga xos ko'rinishini va qisman karbonat konlari bilan qoplangan quyug rangli lava devorlarini namoyon etadi. Devorlari okeandan ko'tarilib turgan qal'aga o'xshash Seongsan Ilchulbong tuf konusi landshaftning dramatik xususiyatini o'zida aks ettiradi. Halla tog'i esa fasllarning o'zgarishi, sharsharalar, ko'plab qoya tuzilmalari va ustunli qoyalar va ko'l bilan to'ldirilgan kraterli baland cho'qqilar tufayli o'zining xilma-xilligi va ranglari bilan manzarali va estetik joziba bag'ishlaydi.

Mezon (viii): O'zgarimas kontinental qobiq qatlamda qaynoq nuqta ustida bunyod etilgan Jeju dunyodagi bir necha yirik qalqon vulqonlaridan biri sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Dunyodagi eng ta'sirli va qo'riqlanadigan lava quvurli g'orlar turkumi bo'lgan Geomunoreum lava quvurlari tizimiga ko'ra farqlanadi va lava g'orining boshqa joylarida noma'lum bo'lgan va xilma-xilligi bilan ikkilamchi karbonat speleotemalarining (stalaktitlar va boshqa bezaklar) g'aroyib to'plamini o'z ichiga oladi. Seongsan Ilchulbong tuf konusi o'zining strukturaviy va sedimentologik xususiyatlariga ega bo'lib, uni Sursey tipidagi vulqon otilishlarini o'rganish uchun jahon darajasidagi obyektga aylantirishgan.

Mulk mukammal boshqariladi va resurslar bilan ta'minlanadi, 2006—2010-yillar uchun boshqaruv rejasi va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjud.

Boshqaruvning asosiy masalalari qishloq xo'jaligining yer osti muhitida yuz berishi mumkin bo'lgan ta'sirini oldini olish va obyektga ko'p miqdordagi tashrif buyuruvchilarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Boshqa muhim lava quvurlari tizimlari va Jejuning vulqon xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda obyektning yanada kengaytirish imkoniyati mavjud.

#### Turkum nomzodlar

Turkum nomzodlar birgalikda potentsial Butunjahon mislsiz qiymatiga kiruvchi ikki yoki undan ortiq alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi (mazkur qo'llanmaning 1.3-bo'limiga qarang).

Nomzodlar bir necha qismdan iborat bo'lsa, bir qator komponentlarning potentsial Butunjahon mislsiz qiymati asosiy hisoblanadi va ular asoslab berilishi lozim. Shuningdek, komponentlarni tanlash uchun juda aniq mantiqiy asos bo'lishi kerak va bu mantiqiy asos potentsial Butunjahon mislsiz qiymatiga va shu komponentlar namoyon qiladigan atributlar funksiyalariga asoslanishi kerak.

Qiyosiy tahlil tarkibiy qisimli komponentlar tanlovini asoslab berishi, shuningdek, barcha qismlar potentsial Butunjahon mislsiz qiymatga ega ekanligini ko'rsatishi kerak.

Nomzodi ko'rsatilgan obyektning mislsiz qiymat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan komponentlar qiyosiy tahlilga kiritilmasligi lozim.

Aslida, potensial seriya nominatsiyasining barcha komponentlari nomzodlik faylida ko'rsatilishi kerak, hozirda faqat birinchi komponent(lar) nomzodi ko'rsatilgan bo'lsa ham. Operatsion qo'llanma seriyaning bir qismini dastlab tavsiflashga yo'l qo'yadi, boshqa qismlar esa keyinroq qo'shiladi (137-39-paragraflar). Seriyaning boshqa mo'ljallangan komponentlari aniq ko'rsatilishi va tavsiflanishi kerak.

Obyektning alohida komponentlari funksional jihatdan bog'liq yoki bog'liq emasligi hamda barcha komponentlar uchun umumiy boshqaruv tizimi mavjudligi haqida ma'lumot berilishi kerak.

Turkum nomzod bilan bog'liq muhim tamoyil shundaki, ular boshqa barcha nomzodlar kabi bir xil mezonlar, yaxlitlik, asllik va boshqaruvga qo'yiladigan talablar bo'yicha baholanadi. Ular, shuningdek, ro'yxatga kiritish uchun asos yaratishda geomadaniy hudud/ global qiyosiy tahlil uchun bir xil talablarga ega.

Keyingi muhim tamoyil har turkum nomzodlik Butunjahon merosi ro'yxatiga bitta nomzod sifatida ko'rsatilishidir. Bunda turkum obyektlar yagona obyekt sifatida ro'yxatga kiritiladi va shunga mos ravishda ko'rib chiqiladi.

Turkum obyektning biror qismining qiymati xavf ostida bo'lsa, u Butunjahon merosi ro'yxatiga Xavf ostida bo'lgan obyekt sifatida kiritilishi taklif qilinsa, butun obyekt xuddi shunday maqomdagi ro'yxatga olinadi. Bu faqat bitta mamlakatda joylashgan yoki millatlararo obyektlarni o'z ichiga olgan barcha turkum obyektlarga nisbatan qo'llaniladi.

Turkumli obyektlar bo'yicha foydali manba – «Turkumli Butunjahon Meros Obyektlari bo'yicha nomzodlik taklif qilish va ularni boshqarish — hozirgi vaziyat, muammolar va imkoniyatlar» (Engels et al., 2009)

#### **Seriyali obeykt - Melaka va Jorjtaun, Malakka bo'g'ozidagi tarixiy shaharlar (Malayziya)**

*Malakka bo'g'ozidagi tarixiy shaharlar bo'lgan Melaka va Jorjtaun 500 yildan ortiq davomida Malakka bo'g'ozlarida Sharq va G'arb o'rtasida savdo va madaniy xalqaro almashinuvini rivojlantirib kelgan. Osiyo va Yevropaning ta'siri shaharlarga moddiy hamda nomoddiy o'ziga xos madaniy merosni ulashdi.*

*Hukumat binolari, cherkovlari, maydonlari va istehkomlari bilan Melaka ushbu tarixning XV asrda Malay sultonligi va XVI asr*


*boshlarida boshlangan Portugal va Gollandiya davrlarida boshlangan dastlabki bosqichlarini namoyish etadi. Turar-joy va tijorat binolariga ega Jorjtaun XVIII asr oxiridagi Britaniya davrini ifodalaydi. Ikki shahar Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda tengi yo'q noyob me'moriy va madaniy landshaftni tashkil etadi. U (ii), (iii) va (iv) mezonlarga muvofiq ravishda ro'yxatga kiritilgan.*



©BIZNING MANZILIMIZ – Butunjahon merosi

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

**Malakka bo'g'ozidagi tarixiy shaharlar**



*	Xarita 1.7	
Masshtab: 1sm:470m	<b>Tarixiy Malakka shahrining asosiy bufer zonalari</b>	
Manba: Shahar va mahalliy rivojlanish bo'limi, Malakka	Tarixi: <ul style="list-style-type: none"> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: orange; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Asosiy zona 38,62 gektar</li> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: yellow; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Bufer zona 134,03 gektar</li> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: lightgrey; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Jami 172,65 gektar</li> </ul>	

**Malakka bo'g'ozidagi tarixiy shaharlar**



*	Xarita 1.13:	
Masshtab: 1sm:160m	<b>Jorjtaun tarixiy shahrining asosiy bufer zonalari</b>	
Manba: Shahar va mahalliy rivojlanish bo'limi, Penang	Tarixi: <ul style="list-style-type: none"> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: orange; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Asosiy zona 108,38 gektar</li> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: yellow; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Bufer zona 150,04 gektar</li> <li><span style="display: inline-block; width: 10px; height: 10px; background-color: lightgrey; border: 1px solid black; margin-right: 5px;"></span> Jami 258,42 gektar</li> </ul>	


Manba: Nomzodlik dosyesi

#### **S Turkum obyektlar – Berlin Modernizm turar-joy majmualari (Germaniya)**

Obyekt 1910-yildan 1933-yilgacha, ayniqsa Veymar Respublikasi davrida, Berlin shahri ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan jadal rivojlangan davrdagi yangicha uy-joy siyosatiga guvohlik beruvchi oltita turar-joy majmuasidan iborat. Obyekt qurilish islohoti harakatining yorqin namunasi bo'lib, shaharsozlik, arxitektura va bog' loyihasiga innovatsion yondashuvlar orqali kam ta'minlangan aholining uy-joy va turmush sharoitlarini yaxshilashga hissa qo'shgan. Ushbu massiv yangicha dizayn yechimlari, texnik va estetik yangiliklarni o'z ichiga olgan holda yangi shaharsozlik me'morchiligi kelib chiqishining istisno holatiga ham namuna bo'la oladi. Bruno Taut, Martin Vagner va Uolter Gropius butun dunyo bo'ylab uy-joy qurilishini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatgan ushbu loyihalarning yetakchi arxitektorlari qatorida edi. (ii) va (iv) mezonlariga muvofiq ro'yxatga kiritilgan.



© Winfried Brenne Architekten, Berlin



Manba: Nomzodlik dosyesi

**Turkum obyektlar – Janubiy Xitoy Karsti (Xitoy)**

Janubiy Xitoy Karst hududi asosan Yunnan, Guychjou va Guansi provinsiyalarida yarim million km<sup>2</sup> dan ortiq maydonni egallaydi. Bu nam tropik va subtropik karst landshaftlarining dunyodagi eng ajoyib namunalaridan birini ifodalaydi.

Shilinning tosh o'rmonlari eng yuqori tabiat hodisalari va boshqa cho'qqilari bo'lgan karst landshaftlariga qaraganda kengroq cho'qqi shakllariga, shakllarning xilma-xilligi va o'zgaruvchan ranglariga ega bo'lgan jahonning eng nodir namunasi hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab ushbu turdagi karstlar uchun namuna sifatida tavsiya qilinuvchi obyekt bo'lgan Liboning konus va minora karstlari o'ziga xos go'zal manzara hosil qiladi.


Vulong Karst o'zining ulkan dolinlari (cho'kmalar), tabiiy ko'priklar va g'orlari bilan Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

(vii) va (viii) mezonlari bo'yicha ro'yxatga kiritilgan.

© YUNESKO / Jim Thorsell



Manba: Nomzodlik dosyesi



### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

## ASOSIY XABAR

*Chegara Butunjahon mislsiz qiymatini o'z ichiga olishi kerak.*

#### Potensial Butunjahon mislsiz qiymatini o'z ichiga oluvchi chegaralarni belgilash

Obyekt uchun taklif qilingan chegaralar potensial Butunjahon mislsiz qiymatini ifodalovchi barcha atribut va xususiyatlarni qamrab olishi kerak. Potensial Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lmagan hududlarni o'z ichiga olgan chegara hisobga olinmaydi. Boshqa tarafdin, potensial Butunjahon mislsiz qiymatni ifodalovchi atribut va xususiyatlarga ega hududlarning istisno qilinishi muammoga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni yodda saqlash kerakki, nomzod obyektlar bir necha bosqichli sinovdan o'tishlari lozim. Obyekt:

- Butunjahon mislsiz qiymatiga ega bo'lishi;
- Asllik va yaxlitlik talablariga javob berishi; va
- Muhofaza qilingan va oqilona boshqarilishi kerak.
- Barcha omillar obyekt chegaralariga ta'sir o'tkazadi.

59-60- sahifalarda tavsiya etilgani kabi atribut-xususiyatlar xaritasi tegishli chegaralarni aniqlash uchun foydali boshlang'ich nuqtadir.

Madaniy obyektlar uchun, agar nomzodlik tarixiy shahar binolari kabi bir qator muhim elementlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, ba'zan bir qator alohida qismlarni emas, balki ushbu komponentlarning barchasini o'z ichiga olgan bitta hudud yoki zonani ro'yxatga olish uchun nomzod ko'rsatish yaxshiroqdir.

Har doimgidek, tanlangan chegarani asoslash muhim ahamiyat kasb etadi va bunday vaziyatlarda yagona nomzodi ko'rsatilgan hudud ro'yxatga kiritish uchun munosib ekanligini isbotlash anchagina oson kechadi.

Ba'zi hollarda tabiatni muhofaza qilish uchun muhim bo'lgan elementlar yoki hududlar geografik jihatdan bog'lanmagan va bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lishi mumkin. Bu turkum nomzodlik uchun ko'proq mos keladigan vaziyat bo'lishi mumkin.

Boshqa holatda esa, obyektning bir qismi himoyalangan yoki yomon boshqariladigan bo'lishi mumkin. Agar obyektning bir qismi obyektning zaruriy yoki muhim elementi bo'lsa, unda nomzodlik muvaffaqiyati uchun tegishli himoya va boshqaruv ta'minlanishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, himoya va boshqaruv masalalari muhokama qilinayotganda yoki boshqa yo'l bilan ishlab chiqilayotganda nomzodliklarni taklif qilish jarayonini to'xtatib turishni talab qilishi mumkin.

Chegaralarni aniqlash nizolarni boshqarish va oldini olishning bir qismi bo'lib, manfaatdor tomonlarning ishtirokini talab qiladi. Bu obyektning muhofaza qilish, saqlash va boshqarishga aloqador yerdan foydalanish qaroridir va bunda manfaatdorlarning ishtiroki va muloqoti juda muhim hisoblanadi.

Tanlangan chegara uchun aniq asos yoki izoh bo'lishi kerak va bu nomzodlik faylining yaxlitlik bo'limiga kiritilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda:

- Obyekt chegaralari yaxlitlik shartini ta'minlash uchun zarur bo'lgan potensial Butunjahon mislsiz qiymatini aks ettiruvchi atributlarning to'liq va yaxlit to'plamini qamrab olishi kerak;
- Obyekt qiymatini ifodalovchi atributlarni aniqlashga nisbatan chegaralar mantiqiy va himoyalangan bo'lishi kerak;
- Obyektning huquqiy muhofaza qilish va boshqarishga nisbatan chegaralar aniq belgilanishi kerak;
- Chegaralar boshqaruv uchun foydali bo'lishi uchun ularni osongina aniqlash mumkin

bo'lishi kerak. Ular ko'pincha jismoniy xususiyatlarga, ba'zan esa tabiiy xususiyatlarga asoslanadi.

- Samarali chegaralar, boshqaruv nuqtayi nazaridan muhim bo'lishi mumkin bo'lgan yo'llar kabi inson tomonidan yaratilgan (antropogen) xususiyatlarga ham asoslanishi mumkin.
- Biroq, yopiq hududning yaxlitlik shartiga javob berishni ta'minlash uchun bunday xususiyatlardan foydalanishga ehtiyotkorona yondashish kerak;
- chegaralarni sifatli xaritalash zarur; va
- belgilangan obyekt doirasida chegaralarni (jumladan, rayonlashtirish sxemalarini) belgilash, boshqaruvning ustuvor yo'nalishlari va mulkka qo'yiladigan talablarni belgilash hamda manfaatdor tomonlarning samarali ishtiroki bilan birgalikda amalga oshirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bu ushbu jarayon va himoya qilish, saqlash va boshqarish o'rtasida mustahkam aloqani yaratishdir.


### **Chegaralar**

#### **Ubeda va Bayeza Uyg'onish davri ansambli (Ispaniya)**

Obyekt ikki tarixiy shaharning qismi sifatida ro'yxatga kiritilgan. Keyinchalik, ushbu obyekt Uyg'onish davriga oid saroylar bilan chegaralangan. Ushbu asos uyg'onish davri shaharsozlik arxitekturasi va g'oyalari Ispaniyaga kiritilganligi va u yerdan Lotin Amerikasiga me'moriy risolalar orqali yetkazilganligini ta'kidlash uchun o'zgartirilgan.

#### **Makao tarixiy markazi (Xitoy)**

«Misollar ko'p bo'lmagani ma'qul» degan fikrga asoslanib, dastlabki nominatsiya ba'zi muhim obyektlarni chetlagan holda, faqatgina 12 ta binodan tashkil topgan. Xayriyat, asosiy ko'cha o'zining yaxlitligini qoniqarli darajada saqlab qoldi. Bu esa ko'cha va taalluqli binolar joylashgan asosiy shahar maydonlarini o'z ichiga olgan mol mulkni qayta aniqlashga imkon berdi.



© Serge Dos Santos

#### **Bam va uning madaniy landshafti (Eron Islom Respublikasi)**

Dastlabki turkum nomzod asosan qal'a va ba'zi ro'yxatga olingan bino vayronalarini taqdim etar edi. Maslahatlashuvlarga ko'ra, nomzodning xususiyati turkum nomzoddan madaniy landshaftga o'zgartirildi. Bunga sabab, suv xo'jaligi tizimi va vohaning turmush tarzi katta ahamiyatga ega ekanligi ayon bo'lganligidir.



© YUNESKO / Alain Brunet

#### **Vroslav shahridagi yuz yillik zal (Polsha)**

Asosiy nominatsiya «Yuz yillik zal» binosidan boshqa hech narsani ifoda etmas edi. Biroq, ICOMOS missiyasi natijasida «Yuz yillik zal» bilan bir vaqtda rejalashtirilgan ko'rgazma hududi ham asosiy nominatsiyaga kiritilishi kerakligi haqida kelishildi. To'liq hududni ko'proq muhofaza qilish maqsadida bufer hududi ham kengaytirildi.

#### **Sultoniy (Eron Islom Respublikasi)**

Dastlabki taklif maqbara, uning o'rab turgan mahalliy qishloq va kam sonli diniy yoki dafn yodgorliklaridan iborat edi. Baholash natijasida chegaralar maqbara va kichik qal'aning arxeologik qoldiqlari chegarasigacha qisqartirilgan holda qayta ishlab chiqildi. Qishloqning qolgan qismi yodgorliklari bilan bufer hududga kiritildi. Shuningdek, uning atrofida Ilxoniy mo'g'ullarining bir vaqtlar bu joyda o'z poytaxtlarini qurishi sabablaridan biri bo'lgan, yaylov bilan qoplangan landshaftni muhofaza qilish hududi ham mavjud.



● ● **Reyunion orolining o'tkir uchli cho'qqilari, tog' muzliklari va qal'a devorlari (Fransiya)**

Dastlabki nominatsiya turli xildagi aholi yashash joylarini o'z ichiga olgan va bu orol muhitining endemik o'simliklarining barcha muhim hududlaridan iborat bo'lmagan. Qayta ko'rib chiqilgan nominatsiya yonma-yon joylashgan aholi yashash joyini o'z ichiga olgan samarali bufer hududlar ketma-ketligini tashkil etish orqali, yangi barpo etilgan Milliy xiyobon bilan tutashtirib, chegarani oqilona tashkil etishga imkon berdi. Natijada, oroldagi tabiiy landshaftning eng muhim hududlarini o'z ichiga olgan hamda to'g'ridan to'g'ri muhofaza qilish va boshqaruv tizimlari bilan bog'langan hudud yaratildi, samarali himoya ta'minlandi.



© Hervé Douris

**Dolomitlar (Italiya)**

Dolomitlar ilk marta 27 qismdan iborat turkum sifatida nomzodlikka taklif qilingan. Nomzodlik kechiktirilib va Ishtirokchi-davlatga hududning landshaft va estetik qadriyatlarini landshaft miqyosida yetkazish uchun kamaytirilgan sonli komponentlar bilan qayta nomzodlikka chiqish tavsiya qilingan. Qayta ko'rib chiqilgan 9 ta tarkibiy qismlardan tarkib topgan turkum aniq qiyosiy tahlil asosida tayyorlandi va 2009-yilda Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi.



© Dell'Agnola – Provincia di Belluno

#### Bufar hududlar

Har bir Butunjahon merosi obyekti, obyektidan tashqarida, shu jumladan uning yaqin atrofida olib borilayotgan ishlardan himoya va boshqaruv choralarini amalga oshirishni talab etadi. Bufar hududlari shunaqa himoya, muhofaza va boshqaruvni amalga oshirish uchun keng qo'llaniladigan vositalardan biridir. Biroq, agar Operatsion qo'llanmalarda obyektni keng ko'lamdagi tahdidlardan himoya qilishning huquqiy, me'yoriy va boshqa usullari mavjud bo'lsa, bufer hududi har doim ham talab qilinmaydi (104-paragraf). Amaliy qo'llanmalar hududdan foydalanish rejalarida yoki hududni rivojlantirish tartib-qoidalarida aks etishi, yoki muhofaza ostiga olingan hududlar o'rtasida landshaftlar bog'lanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Mamlakatlar bu borada turli choralarini amalga oshirishlari mumkin.

Bufar hududi Butunjahon merosi obyektining bir qismini tashkil qilmasdan, balki uni himoylash, muhofaza qilish va boshqarishga yordam berish uchun qo'llanilishini aniq tushunish kerak. Shu tariqa bufer hududlari obyektlarning yaqin atrof-muhitini himoya qilib, obyektning asllik va yaxlitligini himoya qilishga ham hissa qo'shishi mumkin. Misol uchun, ibodatxona uzoqdagi tog' bilan bir qatorda joylashgan bo'lib, ushbu joylashuv qisman bufer hududga kirishi mumkin.

Bufar hududlar Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lmasa-da, nomzod obyektni himoyalash, muhofaza qilish va boshqarish bilan jiddiy bog'liqdir. Potensial Butunjahon mislsiz qiymatni ta'riflovchi sifatlar yoki xususiyatlar nomzodlikka qo'yilgan obyekt chegarasiga kiritilishi, shuningdek bufer hududining bir qismi sifatida talqin qilinmasligi kerak.



Garchi bufer hududi Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektning tarkibiga kirmasada, bufer hududining chegaralari obyektning ro'yxatga kiritish vaqtida yoki Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan o'zgartirishlar rasman tasdiqlangan vaqtida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bufer hududi ishtirokchi-davlatlarni obyektning himoyalash, muhofaza qilish va boshqarishga oid mas'uliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun har qanday bufer hudud obyektini umumiy boshqaruv tizimining tarkibiga kiritilishi, obyektning boshqarish uchun mas'ullar har qanday bufer hududida olib borilayotgan ishlarda qanday qilib ishtirok etishi va ularni boshqaruviga ta'sir ko'rsata olishi aniq bo'lishi kerak.

Bufer hududini belgilash jarayoni, manfaatdor tomonlarni obyektning yaxshi tushunib olish hamda uning uzoq muddatli himoyasi, muhofazasi va boshqaruvida birgalikda ishlashga jalb qilish uchun muhim imkoniyat bo'lishi mumkin.

Bufer hududlari nomzod obyekt bilan bog'liq sifatlarni o'z ichiga olmaydigan betaraf hududlar bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, ular nomzod obyektning qo'llab-quvvatlaydigan moddiy va boshqa sifatlarni (masalan: iqtisodiy, huquqiy, funksional, vizual yoki atrof-muhitga oid) o'z ichiga olgan hududlar bo'lishi mumkin. Ular obyektga nisbatan moddiy yondashuvni o'z ichiga olishi va nomzod bo'lgan hududning ichki va tashqi ko'rinishlarini aniqlashda muhim vazifani bajarishi mumkin. Ularning vazifasi obyektning qo'llab-quvvatlaydigan kengroq tabiiy tizimni himoya qilishni o'z ichiga olishi mumkin (masalan: daryoni toshqinlardan saqlash tizimi), yoki tashrif buyuruvchilarning ta'sirini tartibga solish yoki sanoatda foydalanish bilan bog'liq bo'lishi (masalan: obyektga olib keladigan qo'shni yo'llar va avtoturargohlarni qo'shish) mumkin.

Shuning uchun bufer hududining xususiyatlari va ahamiyati Butunjahon mislsiz qiymatni baholashga kiritilmasdan, balki nomzod obyektning yaxlitligi, asilligi, himoya va boshqaruv talablariga javob berish yoki bermasligini baholashga tegishli bo'lishi mumkin.

Obyektning yaqin atrof-muhitini tushunish va osonlik bilan aniqlash mumkinmi yoki uni aniqlash uchun yanada ko'proq ish zarurmi, degan masala ko'rib chiqilishi kerak.

Bufer hudud chegarasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan masalalar quyidagilardan iborat:

- potensial Butunjahon mislsiz qiymat xususiyatlari;
- obyektning boshqaruvida bo'lgan talablar;
- ma'lum bo'lgan yoki oldindan bilish mumkin bo'lgan tahdidlar yoki ta'sirlar turi;
- obyekt tomonga qaraganda yoki undan turib ko'rinadigan muhim manzaralar;
- potensial bufer hududining mavjud holati;
- potensial bufer hududida egalik qilish, resurslardan foydalanish, boshqarish va uni himoya qilish (shu jumladan, qonunchilik).

Bufer hududlar obyekt hududida bajarilishi mumkin bo'lgan amallar, undan foydalanish yo'llari yoki faoliyat turlaridan farq qiluvchi bir qator xizmatlar bilan ta'minlanishi mumkin.

Madaniy obyektlar uchun bufer hududlar aksariyat hollarda vizual ta'sirdan kelib chiqib belgilansa-da, bufer hududni tanlashga boshqa sabablar yoki omillar ham (masalan, akustik ta'sir va gidrologiya) asos bo'lishi mumkin.

Mulkiy chegaralarning qat'iy belgilanishi bilan birga, obyekt qiymatini muhofaza qilish, saqlash va boshqarish kabi bufer hududini tanlash mezonlari ham aniq va asoslangan bo'lishi lozim. Ushbu asos nomzodlik dosyesining himoya bo'limida ko'rsatilishi kerak. Bufer hududining kattaligi, himoya imkoniyatlari, boshqarilishi va obyekt o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rsatilishi lozim. Bufer hududi va obyekt himoyasi, saqlanishi va

## ASOSIY XABAR

*Himoyasiz yoki rasmiy tan olinmagan bufer zonalari samarali bo'lmaydi.*

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

boshqarilishi uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Obyektni va uning bufer hududini himoya qilish, saqlash va boshqarish uchun javobgarlik turli tashkilotlar o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, ushbu tashkilotlar javobgarligi aniq belgilangan va faoliyati muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim.

Bufer hududlarning birlamchi vazifasi taqiqlar asosida Butunjahon merosi obyektini himoya qilish bo'lsa-da, yaxshi ishlab chiqilgan bufer hududlari mahalliy hamjamiyat va boshqalarga obyekt himoyasi, uni saqlash va boshqarish hamda undan barqaror foydalanishni ta'minlashda katta imtiyozlarni berishi mumkin. Bufer hududi o'z ichiga qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlarni yoki mahalliy aholi tomonidan boshqariladigan turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kafe, restoranlar va turar-joy obyektlari kabi muassasalarni ham qamrab olishi mumkin. Nomimatsiyada ushbu jihatga alohida urg'u berilishi kerak.

Bundan tashqari, bufer hududlari mulk va uning qadriyatlarini saqlab qolish uchun muhim bo'lgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy almashinuvlarda muhim rol o'ynashi mumkin. Obyektni himoya qilish, saqlash va boshqarish ushbu yordamchi jarayonlarni o'z ichiga qamrab olib, ulardan samarali foydalanish uchun aniq ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bufer hududlari obyektни uzoq yillik ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muhitdan asossiz ravishda ajratib olib, uni «muzey» yoki turistik hududga aylantirib qo'ymasligi kerak.

Bajarish tartibi har xil bo'lsa-da, quyidagi bosqichlar bufer hududni yaratishda inobatga olinishi kerak:

- tashqi muammolar va munosabatlarni aniqlash uchun potensial Butunjahon mislsiz qiymatni, obyektning yaxlitligi va xususiyatlarini tahlil qilish;
- shuningdek, bufer hududi chegarasida obyektни samaraliroq himoyalash, saqlash, boshqarish va undan oqilona foydalanish uchun ijobiy imkoniyatlarini tahlil qilish;
- milliy qonunchilik va mahalliy qonun-qoidalar kabi bufer hududni tadbiiq qilish bilan bog'liq huquqiy me'yorlarni ko'rib chiqish;
- bufer hududlarining vazifalaridan kelib chiqib, ularni samarali tadbiiq etish va mexanizmlarini ta'minlash; va
- ushbu tahlillar va mulohazalar asosida bufer hududni belgilash va obyektning Butunjahon mislsiz qiymatini tashqi tahdidlardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratish (turkum obyektlarda obyektning har xil tarkibiy qismlari uchun alohida bufer hududlar talab qilinishi mumkin).

Agar bufer hududining himoya choralari hali o'rnatilmagan bo'lsa, ularni qabul qilish vaqti nomzodlarni tavsiya qilish jarayoniga va ariza berish jadvaliga ta'sir qilishi mumkin. Himoya choralari nomzodlik hujjatlari taqdim etilguniga qadar operativ faoliyatda bo'lishi lozim.

Obyekt joylashgan hududning amaldagi qonun hujjatlarida bufer hududi konsepsiyasining kiritilishi, bufer hududi samaradorligining garovidir. Shunga ko'ra, agar bu hali amalga oshirilmagan bo'lsa, ishtirokchi-davlatlar o'z qonunchilik hujjatlariga bufer hududlari konsepsiyasini kiritishlari maqsadga muvofiqdir.

Bufer hududlari ko'rsatilgan obyektning yaqin atrofini himoyaga olishning muhim usullaridan biri bo'lsa-da, kattaroq maydonni himoya qilish uchun boshqa mexanizmlarga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, merosni muqobil va qo'shimcha himoya qilinishini ta'minlash maqsadida konvensiyalar, dasturlar va tashabbuslar kabi himoya vositalarining uyg'unligidan foydalanish mumkin.

Yer ostida joylashgan potensial Butunjahon mislsiz qiymat obyektlari uchun bufer

hududlarining alohida turlari qo'llaniladi. Bunday hollarda bufer hududi zarur bo'lmisligi ham mumkin.

**Bufer hududlar**

**“Universidad Nacional Autónoma de México” (UNAM) universitetining markaziy shahar kampusi (Meksika)**

Universidad Nacional Autónoma de México (UNAM) universiteti shaharchasining markaziy kampusi (Meksika) binolari, sport inshootlari va ochiq maydonlari majmuasi 1949-yildan 1952-yilgacha davom etgan loyihada ishtirok etgan oltmishdan ortiq arxitektorlar, muhandislar va rassomlar tomonidan qurilgan. Natijada, kampus mahalliy an'analarga, xususan, Meksikaning Kolumb davrigacha bo'lgan o'tmishini eslatuvchi elementlarni va XX asr modernizmini o'zida mujassam etgan urbanizm, arxitektura, muhandislik, ko'kalamzorlashtirish va tasviriy san'atni noyob namunasi bo'lib qoldi. Ansambli umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, Lotin Amerikasidagi zamonaviylikning eng yorqin timsollaridan biridir.

Mazkur obyektning bufer hududi uning atrof-muhitini yaxshiroq himoya qilish uchun o'zgartirilgan.

**Hamberstoun va Santa Laura selitrasi (Chili)**


Bufer hududning dastlabki chegaralanish juda tizimli deb hisoblangan va bufer hudud obyekt landshaftiga mos ravishda qayta ishlab chiqildi.

**Huangshan tog'i (Xitoy)**

Huangshan tog'i bufer hududi obyektning muhofaza qilish va turli usullar bilan obyekt tashqaridagi ta'sirlarni sekinlashtirish yoki oldini olish, jumladan: yovvoyi tabiat uchun migratsiya yo'lagini ta'minlash, ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ba'zi yerlardan foydalanishni cheklash, turizm infratuzilmasini ta'minlash va Butunjahon merosidan tashqarida qo'shimcha manzarali joylarni boshqarishni qo'llab-quvvatlash va obyektning o'ziga bosimni kamaytirishga xizmat qiladi.



© YUNESKO / A. Sandoval-Ruiz



Manba: Nomzodlik hujjati



© YUNESKO / Giovanni Boccardi

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

#### ● ● **Krak des Chevaliers va Qal'at Salah al-Din** (Suriya Arab Respublikasi)


Salah al-Din qal'asida esa bufer hudud ushbu hududga nisbatan istiqbolli arxeologik qiziqishlarini va kayutadan foydalanish qarorini hisobga olgan holda vodiy bo'ylab kengaytirildi.

#### **Sent Kilda** (Buyuk Britaniya)

Orolning tabiiy madaniy merosi bo'lgan, orol atrofidagi hududlarga dengizning o'zi himoya hududi bo'lib xizmat qiladi va shuning uchun rasmiy ravishda belgilangan qo'shimcha bufer hududi zarur deb topilmadi.

#### **Kuk ilk me'morchilik obidasi** (Papua-Yangi Gvineya)

Bufer hudud obyektning faqatgina ikki tomonida mavjud. Obyektning yuqori oqimidagi gidrologiyasini va uning arxeologik qoldiqlarini himoya qilish belgilangan.



Manba: Nomzodlik hujati

### Manzarani kengaytirish

Obyekt va uning bufer hududiga qo'shimcha tarzda boshqa hududni — obyekt uchun kengroq manzarani ko'rib chiqish juda muhim bo'lishi mumkin. Ba'zi obyektlar uchun kengaytirilgan manzara hududi, uning sifatlari yoki ko'rgazmali xususiyatlari muhim bo'lgan hudud bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, manzarani kengaytirish obyektning aslligi va yaxlitligini himoya qilishda ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymatiga yomon ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan manzarani kengaytirish bilan bog'liq rivojlanish yoki o'zgarishlar namunalari baland binolar yoki shamol stansiyalari kabi ko'zga ko'ringan elementlarni o'z ichiga oladi. Bular obyektidan ma'lum darajada uzoqlikda joylashgan bo'lishi mumkin va shu bilan birga, obyektning joylashuviga bo'lgan munosabati orqali tushunish usulini buzishi mumkin.

Ba'zi holatlarda kengaytirilgan manzara va bufer hudud bir xil; boshqa holatlarda esa, kengaytirilgan manzara birmuncha kattaroq bo'lishi mumkin. Kengaytirilgan manzara bo'yicha asos Operatsion qo'llanma tomonidan rasman talab qilinmaganligi qayd etilgan holda taqdim etilish kerak.

Ushbu masalada foydali manba Butunjahon merosi tuzilishi, obidalari va hududlarining joylashuvini muhofaza qilish to'g'risida XI deklaratsiyani o'z ichiga oladi (ICOMOS, 2005b).

Manzarani kengaytirish ko'lami nomzodlik hujatlari to'plamining bir qismi sifatida xarita(lar)da ko'rsatilishi kerak va ushbu hudud nomzodlikni tasvirlash bo'limida muhokama qilinishi lozim.

**Obyekt joylashuvi bilan bog'liq masalalar****Edinburgning eski va yangi shaharlariga YUNESKO—  
ICOMOS ning reaktiv nazorat vazifasi** (Buyuk Britaniya)

Butunjahon merosi Markazi va ICOMOS mutaxassislari 1995-yilda Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Edinburgning (Buyuk Britaniya) eski va yangi shaharlariga ta'sir ko'rsatadigan rivojlanish loyihalarini o'rganish uchun 2008-yilda reaktiv nazorat vazifasini o'z zimmasiga oldi.

Butunjahon Merosi Qo'mitasi talabiga binoan amalga oshirilgan vazifa asosan Kaltongeyt rivojlanishiga qaratilgan.



© YUNESKO / F. Bandarin

Mutaxassislar Edinburgning (Buyuk Britaniya) eski va yangi shaharlarining keng shahar holatida saqlanishi, yaxlitligi va haqiqiyli bilan bog'liq bo'lgan umumiy holatini ko'rib chiqdi. Ular, shuningdek, obyektning Butunjahon mislsiz qiymatiga ta'sir etuvchi, Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishiga sabab bo'lgan qo'shimcha sifatlari, ko'pqavatli binolarni o'z ichiga oluvchi ayni paytdagi qurilish loyihalari qay darajada ekanligiga ham e'tibor qaratdi.

Mahalliy va milliy boshqaruv organlari, institutlar, tashkilot vakillari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan birgalikda mutaxassislar tarixiy shaharsozlik landshaftini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rib chiqdi. Kaltongeytdan tashqari mutaxassislar Leys Dok, Avliyo Jeyms markazi, Haymarket va boshqa obyektlar loyihasi bo'yicha ham kontur takliflarning ta'sirini ko'rib chiqdi. Ushbu vazifa, shuningdek, kengaytirilgan muhofaza qilish va boshqaruv bo'yicha imkoniyatlarni ham tahlil qildi.

Butunjahon merosi yodgorliklari Edinburgning XV-asrdan buyon Shotlandiya poytaxti sifatidagi mavqeini tan olish uchun yaratilgan.

Butunjahon merosi Qo'mitasi 2 ta alohida hududlarni tan oldi: O'rta asr qal'asining eng ustuvor jihati bo'lgan Eski Shahar va XVIII-asrdan boshlab Yevropa shaharsozligi bo'yicha rivojlanishiga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatgan neoklassik Yangi shahar. Har ikkisi muhim inshootlarga ega bo'lgan ushbu ikki bir-biriga zid tarixiy hududlarning uyg'un birikmasi shaharga o'ziga xos xususiyat va Butunjahon mislsiz qiymatini berdi.

**Obyektlar muhofazasining hozirgi holati — tahdidlar yoki bosimlar**

Nomzodi ko'rsatilgan obyektning Butunjahon mislsiz qiymatiga bo'lgan tahdidlar yoki bosimlar baholash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Operatsion qo'llanmada— rivojlanish, ekologik, tabiiy ofatlar va tashrif buyuruvchilar/turizm kabi to'rt omil ta'kidlanadi. Mos ravishda, ko'rsatilgan obyektning saqlanish holati to'g'risidagi ma'lumotlar real bo'lishi, dalillar bilan tasdiqlangan bo'lishi va bo'rttirib yoki kamaytirib ko'rsatilmaligi kerak. Masalan, obyektning yaxshi holatda ekanligi haqidagi qaydlar haqiqatni aks ettirishi kerak hamda jiddiy tahdidlarni e'tiborsiz yoki ahamiyatsiz qoldirilmasligi kerak. Bundan tashqari, vaziyatni tushunish uchun ko'rsatkichlar zarur: "yaxshi va rivojlanmoqda" ko'rsatkichi "yaxshi va keskin yomonlashmoqda" ko'rsatkichga nisbatan tubdan farq qiladi. Nomzodi ko'rsatilgan obyektga tashrif buyurgan baholash harakatining asosiy vazifasi tahdidlarni tekshirish va hisobot berish, shu jumladan, xabar qilinmagan tahdidlar haqida dalillarni izlashdan iborat.

Tahdidlar haqida xabarlar faqatgina taxmin qilish yoki umid qilish mumkin bo'lgan obyekt yoki dastlab taqdim etilgan obyektidan iborat bo'lishi kerak. Misol uchun, sodir bo'lish ehtimoli katta bo'lmagan tahdidlarni ko'rsatish o'rinli emas.

Shunga qaramay, bunday tahdidlar to'g'risida aniq va ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi zarur. So'nggi vaqtlarda nomzodlik ro'yxatiga kiritilganidan ko'p o'tmay nomzodlik hujjatida ko'rsatilmagan tahdidlar yuzaga kelgani haqida xabar berishlar muammo tug'dirmoqda. Shunga ko'ra, Butunjahon merosi qo'mitasini har qanday yangi rivojlanish loyihalari yoki baholash jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zgarishlar haqida xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

#### Obyektlar muhofazasi

Nomzod obyektlar puxta huquqiy va/yoki an'anaviy muhofazaga ega bo'lishi lozim. Obyekt belgilangan qonunchilik doirasida va holatda mavjud bo'lgan eng mukammal muhofazaga ega bo'lishi va ba'zida qonun chiqaruvchi va boshqa muhofaza qatlamini o'z ichiga olishi kerak.

Qonuniy va an'anaviy himoya bir-biriga uzviy bog'liq bo'lmagan o'ziga xos mexanizmlar hisoblanadi va ular ko'pincha muhofaza qilishning qatlamli yondashuviga erishish uchun birgalikda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Qonuniy himoya ko'p holatlarda, ayniqsa tahdidlar mavjud bo'lganda, an'anaviy himoya uchun mos va qo'llab-quvvatlanadigan kontekstni ta'minlash uchun zarurdir.

Yetarli darajada muhofazaga olinmagan obyekt bo'yicha nomzodlik Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Butunjahon mislsiz qiymatini saqlab turish maqsadida himoya qilinishi kerak bo'lganligi uchun Butunjahon mislsiz qiymatini o'z ichiga olgan moddiy va nomoddiy xususiyatlarining aniq ta'rifi obyektning puxta himoyasi, saqlanishi va boshqaruviga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi savollardan iborat:

- Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymati himoya orqali saqlanib qolinadimi yoki yanada rivojlanadimi?
- Himoya uzoq muddatlimi?
- An'anaviy usulda muhofaza qilinganda, jamiyat mexanizmlari mustahkam himoyaga asoslanadimi?
- Himoya barcha kerakli darajalarni (an'anaviy, mahalliy, hududiy, milliy) ta'minlaydimi?
- Obyekt qiymatlar, yaxlitlik yoki asllikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan rivojlanish yoki o'zgarishlardan himoyalanganmi?
- Himoya samarali amalga oshirilganmi?
- Samaradorlikni baholash uchun himoya vaqti-vaqti bilan tekshiriladimi?
- Himoyaga yondashuv umumiy tabiatni muhofaza qilish va boshqarish bilan to'liq birlashganmi?

Turli hududlar uchun turlicha chora-tadbirlar qo'llanilishiga qaramay, himoya ham obyekt, ham bufer hudud uchun qo'llanilishi kerak. Obyektning muhofaza qiymati bufer hududdagi birorta meros hisobiga amalga oshirilmasligi zarur.

Kengaygan manzaraning yaqqol namoyon bo'luvchi sifatleri ham himoya qilinishi va boshqarilishi kerak.

Yetarli himoyaning mavjud yoki mavjud emasligi nomzodni ko'rsatish jarayonining ilk bosqichida tekshirilishi kerak. Buning sababi shundaki, bunday himoyani ishlab chiqish ancha vaqt talab qilishi (masalan, yangi qonun hujjatlarini tayyorlash) va bu muddat umumiy nominatsiya jarayonining jadvaliga ta'sir qilishi mumkin.

ASOSIY  
XABAR

Muhofaza samarali  
bo'lishi kerak.

**An'anaviy muhofaza — Madaniy obyekt — Askiya maqbarasi (Mali)**

*Dramatik 17 metrli piramida shaklidagi Askiya maqbarasi Songhay imperatori Askiya Muhammad tomonidan 1495-yilda o'z poytaxti Gaoda bunyod etilgan.*

*Bu XV-XVI asrlarda Saxara bo'ylab savdoni, xususan, tuz va oltin savdosini nazorat qilish orqali gullab-yashnagan imperiyaning qudrati va boyligidan dalolat beradi. Bu shuningdek, G'arbiy Afrika Sahelining ulug'vor loy qurilishi an'alarining ajoyib namunasidir.*

*Majmua, shu jumladan piramidasimon qabr, ikkita tekis tomli masjid binosi, masjid qabristoni va ochiq havoda yig'ilish maydoni Gao Songhay imperiyasining poytaxti bo'lganida va Askiya Muhammad Makkadan qaytib, islomni imperiyaning rasmiy diniga aylantirgandan keyin qurilgan.*




© Direction Nationale du Patrimoine Culturel du Mali / Thierry Joffroy

*Obida samarali an'anaviy muhofazaga olingan. Boshqaruv 2002-yilda Gao prefekti tomonidan tashkil etilgan uyushma nazorati ostida. Bu barcha asosiy manfaatdor tomonlarning vakillari, jumladan imom, muazzin va Gao shahridagi San'at va madaniyat mintaqaviy agentligi hamda Madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy va mahalliy nazorat vakillaridan iborat. Uyushma hech qanday qonuniy asosga ega emas, lekin Imom va Songhay boshlig'ining ishtiroki tufayli kuchli axloqiy hokimiyatga ega.*

**An'anaviy muhofaza — tabiiy obyekt — Sharqiy Rennell (Solomon orollari)**

*Sharqiy Rennell Tinch okeanining g'arbiy qismidagi Solomon orollari guruhidagi eng janubiy orol bo'lgan Rennell orolining janubiy hududlarining uchdan bir qismini tashkil qiladi. Uzunligi 86 km, kengligi 15 km bo'lgan Rennell dunyodagi eng katta ko'tarilgan marjon oroli hisoblanadi.*

*Ushbu obyekt taxminan 37.000 gektar va dengizgacha 3 dengiz miliga cho'zilgan maydonni o'z ichiga oladi. Orolning asosiy xususiyati bu marjon oroldagi ilk qo'ltiq bo'lgan Tegano ko'li hisoblanadi. Ushbu ko'l Tinch okeanining orollaridan eng kattasi (15.500 gektar), sho'r va ko'plab qo'pol ohaktosh orollarni va endemik turlarni o'z ichiga oladi. Rennell balandligi o'rtacha 20 m bo'lgan soyabonli qalin o'rmon bilan qoplangan. Tez-tez sodir bo'ladigan siklonlarning kuchli iqlimiy ta'siri bilan birlashganda, obyekt ilmiy tadqiqotlar uchun haqiqiy tabiiy laboratoriya hisoblanadi. U oddiy yer egaligi va boshqaruvi ostida.*



© YUNESKO / S. A. Tebassum

**Muhofazaga olingan obyektlar boshqaruvi**

Butunjahon merosi obyektlari boshqaruvining asosiy maqsadi obyektning Butunjahon mislsiz qiymatini kelajakka yetkazishga aloqador bo'lgan xususiyat va sifatleri hisoblanadi. Maqsadi o'sha obyektning qiymati, aslligi va yaxliligi xususiyatlarni boshqarish orqali kelajak uchun saqlanib qolishiga erishishdan iborat. Shunga ko'ra, Butunjahon mislsiz qiymati Bayonoti boshqaruvning bosh manbasi hisoblanadi.

Butunjahon mislsiz qiymati boshqaruvi, shuningdek, butun obyektning saqlash ehtiyojlariga ham mos bo'lishi va uning barcha qiymatlarini hisobga olgan holda yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak.

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

## ASOSIY XABAR

*Boshqaruv rejasi/  
tizimi samarali  
bo'lishi kerak.*

Nomzod obyektlar boshqaruv tuzilmalarini aniqlash uchun tegishli boshqaruv rejasi yoki hujjatlashtirilgan boshqaruv tizimi mavjud ekanligini namoyon etishi kerak. Agar ushbu obyektlarning hech biri bo'lmasa, ularni ishlab chiqish uchun real muddatlarni belgilash muhim va bu nominatsiya jadvaliga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, bufer hududi va obyekt joylashuvi uchun ham tegishli boshqaruv tartiblari mavjud bo'lishi kerak.

Nomzodlik vaqtida qoniqarli boshqaruvga ega bo'lmagan obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishida qiyinchilikka uchrashi mumkin.

Operatsion qo'llanmada nomzodlik boshqaruv rejasi yoki hujjatlashtirish to'liq amalga oshirilmagan taqdirda ham qabul qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan qoida mavjud (115-band). Biroq, bu qoidaga asoslanish tavsiya etilmaydi. Samarali boshqaruv rejasi yoki hujjatlashtirilgan tizimga ega bo'lish nominatsiyaning muvaffaqiyatining amalga oshishi imkoniyatini oshiradi.

Boshqaruv rejasi yoki boshqaruv tizimida ma'lum bir afzallik yo'q va ba'zi hollarda har ikkisi ham mavjud bo'lishi mumkin. Bunda boshqaruv rejasi yoki tizimi samarali yoki samarali emasligi asosiy masala hisoblanadi. Ba'zi millatlarda, masalan, boshqaruv rejasi umuman noma'lum bo'lishi, ular bilan hech qanday amaliyotlar bajarilmagan va ularning samaraliligiga ishonch yo'q bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, qoniqarli boshqaruv tizimi mavjud bo'lishi va belgilangan obyekt boshqarish uchun mos bo'lishi mumkin. Boshqa madaniyatlarda boshqaruv rejasi juda yaxshi tashkilashtirilgan bo'lib, ularni qo'llash maqsadga muvofiq.

Obyekt boshqaruv obyektning o'rta va uzoq muddatli istiqboli, jumladan, Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va muammolar haqida real tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bunday o'zgarishlar va muammolar sezilarli bo'lishi mumkin.

Boshqaruv rejalar va hujjatlashtirilgan tizimlar kelajakda amalga oshiriladigan "qog'oz"dagi rejalar emas, balki sinab ko'rilgan va sinovdan o'tgan kelishuvlar sifatida ilgari surilishi kerak. Nominatsiyaning asosiy bo'limlari (masalan, saqlash va monitoring holati) va obyekt boshqarish bo'yicha har qanday rejada belgilangan ma'lumotlar va dasturlar o'rtasida yaqin aloqa bo'lishi kerak.

Taklif qilinayotgan o'zgarishlar, rivojlanishlar yoki aralashuvlar uchun ta'sirni baholash mexanizmini yo'lga qo'yish boshqaruv rejasi yoki tizimining bir qismi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ba'zan obyekt boshqaruv faqatgina boshqaruv rejalar yoki hujjatlashtirilgan tizimlar miqdoriga tayanadi. Bunda ushbu turli reja va tizimlar Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymatiga nisbatan integratsiyalashgan yoki qo'shimcha va samarali boshqaruv natijasini ta'minlashini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Bu holat ko'pincha obyekt, uning bufer hududi va kengroq muhiti turli idoralar tomonidan boshqarilganida yoki bir nechta mahalliy hokimiyat organlari jalb qilinganida yuzaga keladi.

Turizm boshqaruv sayyohlarning obyektlarga tashrif buyurishga bo'lgan katta qiziqishini, tashrifning buyuruvchilarning keng ko'lamini va obyekt haqida, shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun boshqa obyektlar haqida ma'lumot berish zarurligini hisobga olgan holda.

Butunjahon merosi obyektlari uchun asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Butunjahon merosini tashrif buyuruvchilar soniga nisbatan ro'yxatga olishning alohida ta'siri turlicha bo'ladi va u alohida ko'zda tutilishi kerak.



Turizm boshqaruvi Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymatining muhofazasi, saqlanishi va boshqaruviga muvofiq va u bilan mos keluvchi nominatsiyaning bir qismi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ko'p hollarda obyektlar uchun alohida turizm boshqaruvi rejasi umumiy boshqaruv rejalarini yoki tizimlari bilan uyg'un holda tayyorlanadi. Bunday boshqaruv tizimlari samarali bo'lib, amalga oshirilishi lozim.

Tabiiy obyektlar uchun Butunjahon merosi obyektlari to'g'risida alohida IUCN boshqaruv rejalarini bo'yicha resurs qo'llanma ishlab chiqilgan (IUCN, 2008a). Madaniy obyektlar bo'yicha resurs qo'llanma Butunjahon merosi resurs manbalari turkumi sifatida YUNESKO Butunjahon merosi Markazi va Maslahat Kengashlari tomonidan tayyorlanishi rejalashtirilgan.

Nominatsiya taqdim etilishidan avval, tegishli rejalar yoki hujjatlarni ishlab chiqish va ularning ishlashini ko'rsatish uchun vaqt talab qilinadi. Buni amalga oshirish nominatsiyalar jadvaliga sezilarli ta'sir etishi mumkin. Nomzod taqdim etilishidan oldin boshqaruv tartib-qoidalarini ta'minlash obyektni saqlashda uzoq muddatli foyda keltiradi hamda barcha mulkdorlar va manfaatdor tomonlarga xizmat qiladi.

Savollarga quyidagilar kiradi:

- Boshqaruv rejasi/ tizimi istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymati muhofaza qilish va saqlash orqali qanday qilib ta'minlanishini belgilab beradimi?
- Yer usti muhofazasi natijalariga erishishda boshqaruv rejasi/tizimi amaliy jihatdan samaralimi?
- Ko'psonli reja va tizimlar bo'lganda samarali natijalarga erishish uchun ular birlashtiriladi yoki bir-birini to'ldiradimi?
- Boshqaruv rejasi/ tizimining boshqa turdagi reja yoki tizimlardan (turizm, rivojlantirish va hududiy iqtisodiy rejalar) ustun jihatlari bormi?
- Obyektdan manfaatdorlar obyekt haqida umumiy tushunchaga egami?
- Boshqaruv rejasi/ tizimi rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring, baholash va fikr-mulohazalar izchilligini o'z ichiga oladimi?
- Ko'rsatkichlar, o'zgarishlar va taklif etilayotgan tadbirlarning ta'siri nazorat qilinadimi va baholanadimi?
- Barqaror rivojlanish tamoyillari boshqaruvga kiritilganmi?
- Boshqaruv rejasi/ tizimi manfaatdor tomonlarni, ayniqsa, obyekt egalari va boshqaruvchilarini taqozo etadimi hamda reja va tizimni kuchli qo'llab-quvvatlash imkoniyati bormi?
- Boshqaruv rejasi/ tizimi hozirgi davr va kelajak uchun yetarli darajada manbalar bilan ta'minlanganmi?
- Nomzod obyektning hozirgi davr va kelajakdagi ehtiyojlari uchun yetarlicha moliya va biznes reja bormi?
- Boshqaruv rejasi/ tizimi yetarlicha salohiyatni oshirishni o'z ichiga oladimi?
- Boshqaruv rejasi/ tizimi tizim aslida qanday ishlashining shaffof tavsifini beradimi?
- Boshqaruv rejasi xavfga tayyorlikni o'z ichiga oladimi?
- Boshqaruv tizimi obyektni muhofaza qilish bilan to'liq birlashganmi?

Ushbu holatda manfaatdor tomonlar mahalliy aholi, mahalliy xalqlar, yer egalari va boshqaruvchilari, barcha darajadagi hukumatlar, turizm va nodavlat tashkilotlari kabi tijoriy qiziqishlarni o'z ichiga oladi.

Turkum chegaralararo/millatlararo nominatsiyalarda, barcha taraflar uchun tegishli himoya va boshqaruvning mavjudligi va samarali ishlashini ta'minlash ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Shuningdek, butun obyektning yo'nalishlarida barcha tarkibiy qismlar o'rtasida aloqa va muvofiqlashtirishni ta'minlovchi boshqaruv tizimi bo'lishi kerak va hech bo'lmaganda:

- Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymatini saqlash bo'yicha umumiy maqsadlarga erishish uchun barcha tarkibiy qismlarni boshqarishni uyg'unlashtirish

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

- obyektga bo'layotgan tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish; va
- Istiqbolli Butunjahon mislsiz qiymati talablariga aloqador bo'lgan nazorat va hisobotlarni muvofiqlashtirish.

Chegaralararo/millatlararo turkum obyektlar boshqaruvi tizimi doimiy ravishda uning Butunjahon merosi obyekt sifatidagi boshqaruvi uyg'unligi va samaradorligini oshirish uchun muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarini ko'rib chiqishi va mumkin bo'lgan hollarda mustahkamlab borishi hamda uning tarkibiy qismlariga ta'sir etuvchi o'zgarishlarga javob berib borishi kerak.

Alohida tarkibiy qismlar uchun, ayniqsa, turli boshqaruvlar va boshqaruv tizimlari qo'llanilishi mumkin bo'lgan hollarda muvofiqlashtirilgan boshqaruvga qanday erishish kerakligi aniq bo'lishi kerak. Muvofiqlashtirilgan boshqaruv samarali bo'lishi kerak.

Agar mavjud boshqaruv rejasi yoki tizimlari yaxshi ishlab turgan bo'lsa, alohida boshqaruv rejasi ishlab chiqish shart emas. Biroq, agar mavjud mexanizmlar qoniqarli bo'lmasa, amaliyotga yangi maxsus mexanizmlarni tatbiq etish talab etilishi mumkin, biroq ular samarali bo'lishi lozim.

#### **Sully-sur-Luara va Chalons o'rtasidagi Luara vodiysi** (Fransiya)

Luara vodiysi tarixiy shaharlar va qishloqlardan, buyuk me'morchilik yodgorliklaridan (châteaux) hamda shundoqqina Luara daryosi bo'yida aholi va tabiat o'rtasidagi ko'p asrlik o'zaro ta'sir natijasida shakllangan, serhosil yerlardan tashkil topgan buyuk go'zallikning o'ziga xos madaniy landshafti hisoblanadi.



© YUNESKO/Alexis N. Veronizoff

Fransuz hukumati 1994-yilda Luara vodiysini izchil rejalashtirish va boshqarishning o'n yillik bosh rejasini amalga oshirish (Loire Grandeur — Tabiat rejasiga) qaror qildi.

Bu atrof-muhitni muhofaza qilish va hududning iqtisodiy rivojlanishini o'z ichiga oladi. Tegishli tashkilot va muassasalar – hududiy jamoalar, xo'jalik idoralari va birlashmalar bilan yaqin hamkorlikda boshqariladi. Bundan tashqari, obyektning baholash jarayonida berilgan tavsiyaga javoban, hududni boshqarishni nazorat qilish uchun Boshqaruv Qo'mitasi tuzildi, unga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va tashkilotlari jalb qilindi.

#### **Nomzodlik hujjatlari to'plamining obyekt boshqaruviga hissasi**

Nomzodlik ma'lumotlarining Butunjahon merosi ro'yxatiga olish ishini hujjatlashtirishdagi rolga qo'shimcha ravishda, nomzod sifatida ko'rsatilgan obyektning doimiy boshqarishga ham hissa qo'shishi mumkin. Bu hissa quyidagilarga ko'ra kelib chiqadi:

- Nomzod obyektning holati va kelajakda amalga oshiriladigan himoya uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar turkumi, boshqaruv va nazorat qilish haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;
- Butunjahon merosi maqomi obyektning o'zgartirish va undan foyda olish ehtimoliga ega, masalan, bu tashrifning ortishi yoki ro'yxatga kiritilgandan so'ng ortib boradigan turizm bosimi bilan bog'liq bo'lganligi bois, maqomning oqibatlari sinchiklab ko'rib chiqilishi kerak;
- Nomzod taklif qilingan boshqaruv kelishuvlari bilan birga baholash bosqichida yaqindan tahlil qilinadi. Ishtirokchi - davlat va turli sarmoyadorlar tomonidan

*kelishuvlarni va tushunishni talab qiladigan obyektidagi o'zgarishlar va uning boshqaruvi taklif etilishi mumkin;*

- *Agar istiqbolli foydalar ishtirok etish uchun sabab sifatida yetkazilsa, Butunjahon merosi maqomiga ega bo'lish ehtimoli manfaatdor tomonlarni obyektning boshqarish va himoya qilishga jalb qilishning kuchli vositasi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ba'zi manfaatdor tomonlar Butunjahon merosi maqomini tahdid sifatida qabul qilishlari mumkin va ularning fikrlari va xavotirlari nomzodni taqdim etishda muvofiq tarzda hisobga olinishi kerak; va*
- *Nomzod kelgusi yillarda obyektning saqlanish holatini o'lchash mumkin bo'lgan asosiy dastlabki ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.*

### Obyektlar monitoringi

Mukammal boshqaruvning ajralmas qismi obyektning hozirgi holati, uning saqlanish holati va ehtimoliy kelajagi haqida ko'rsatma beradigan bir qator asosiy omillarni nazorat qilishdan iborat. Monitoring obyekt boshqaruvchisini qimmatbaho ma'lumotlar bilan ta'minlaydi — u muhofaza qilish, saqlash va boshqarish o'z natijasini berayotganligini yoki o'zgartirishlar kiritish kerakligini ko'rsatadi. Butunjahon merosi monitoringi yaxlitlik, himoya qilish va boshqarish, shuningdek, madaniy boyliklarning haqiqiylikini o'z ichiga olgan holda Butunjahon mislsiz qiymatiga ahamiyat berishi lozim. Shuningdek, Butunjahon mislsiz qiymati Bayonoti ham monitoring uchun asosiy manba hisoblanadi.

Monitoring, odatda, nomzodlar bo'yicha yetarlicha ko'rib chiqilmaydi.

Butunjahon merosi tizimi rasmiy davriy hisobotlarni ham o'z ichiga oladi, bunda ro'yxatdan o'tgan obyektlar bo'yicha har olti yilda bir marta monitoring hisobotlari o'tkaziladi (Operatsion qo'llanma, V). Obyekt uchun yaxshi ishlab chiqilgan monitoring tizimi Davriy hisobot o'tkazishda yordam beradi.

Nomzod hujjatlari to'plami bir qator omillarni, shu jumladan obyektning saqlanish holatini o'lchash va baholash uchun foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi kerak. Butunjahon mislsiz qiymatini saqlab qolish uchun ushbu xususiyatlarning himoyalanganligi, saqlanishi va boshqarilishini ta'minlash maqsadida bu ko'rsatkichlar Butunjahon mislsiz qiymatini ifodalovchi xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Monitoring obyektning xususiyatiga mos keladigan muddatga muvofiq doimiy ravishda olib borilishi kerak. Monitoringning doimiylik xususiyatlarning mustahkamligi yoki mo'rtligi va ularning o'zgarishiga moyilligiga bog'liq.

Monitoringni kim o'z zimmasiga olishi muhim masala hisoblanadi, chunki bu monitoring natijalarining haqiqiylik yoki ishonchlilikiga ta'sir qilishi mumkin. Umuman olganda, monitoring mustaqil va ushbu sohaga tegishli mutaxassislar tomonidan shaffof tarzda amalga oshirilsa, kattaroq ishonchga ega.

Mazkur sohada foydali bo'lgan umumiy manba — bu «*Butunjahon merosi monitoringi, Butunjahon merosi hujjatlari 10*» (YUNESKO Butunjahon merosi Markazi/ IKKROM, 2004).

Tabiiy obyektlar uchun monitoring jarayoniga yordam beradigan bir qator boshqaruv samaradorligi vositalari ishlab chiqilgan. Bular «*Enhancing Our Heritage Toolkit*», «*Butunjahon tabiiy meros obyektlarini boshqarish samaradorligini baholash*» (Hockings et al., 2008) dan iborat. Shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirishning oddiy

### 3 Obyektni aniqlash va o'rganish

## ASOSIY XABAR

*Boshqa nomzodlik hujjatlari va jarayonlaridan misollar ham foydali bo'lishi mumkin.*

vositalari ham mavjud. Agar talab qilinsa, IUCN ushbu masalada qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin.

### 3.2. Qo'shimcha tavsiyalar

#### Muvaffaqiyatli nomzodlik hujjatlari to'plamlari va jarayonlarini ko'rib chiqish

Muvaffaqiyatli obyektlar uchun nomzodlik hujjatlari to'plami namunalarini ko'zdan kechirish nomzodni taqdim etishga tayyorgarlik jarayonining ilk bosqichida foydali bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan standartlar va maqsadlar o'zgarganligi sababli, so'nngi hujjatlar to'plami eski namunalarga qaraganda yaxshiroq hisoblanadi. Shuningdek, taqdim etilayotgan obyektga o'xshash namunalardan foydali bo'lishi mumkin.

To'g'ridan to'g'ri taqqoslash mumkin bo'lgan obyektlarning hujjatlar to'plami qiyosiy tahlilning bir qismi sifatida o'ta ehtiyotkorlik bilan tekshirilishi kerak (67-73-betlarga qarang).

1998 - yildan beri ro'yxatga olingan obyektlar dosyellarini quyidagi havolalar orqali topish mumkin:

- <http://whc.unesco.org/en/list/> (ingliz tilidagi web-sahifa)
- <http://whc.unesco.org/fr/list/> (fransuz tilidagi web-sahifa)

Dosyellarni ko'rib chiqqach, ma'lumotlarning sifati, uning kuchli va ehtimolli zaif tomonlari haqida muhim maslahatlar uchun Maslahat Kengashi baholariga ham qarang. Bu baholar ham yuqoridagi havolalarda mavjud.

Ushbu hujjatlarga qo'shimcha ravishda, boshqa ishtirokchi-davlatlardan nomzodlarni tayyorlash jarayoni haqida foydali ma'lumotlarni olish mumkin. Yoki yaqinda muvaffaqiyatli nomzodlikni amalga oshirgan ishtirokchi-davlatlar bilan muhokamalar o'tkazish foydali bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, muvaffaqiyatli deb topilgan nomzodlar yoki nomzodlik jarayonlari namunalari taklif qilinayotgan nomzodlar to'g'ridan to'g'ri, o'rganishlarsiz qabul qilinmasligi kerak. Har bir nomzod va har bir Ishtirokchi-davlat boshqa joydan shunchaki ko'chirib olish mumkin bo'lmagan, o'ziga xos nomzodlik va jarayonni keltirib chiqaruvchi muayyan sharoitlarga ega.

# 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Butunjahon mislsiz qiymati bayonoti ishlab chiqilib, ishonchli va mustahkam chegaralar aniqlab olinib, muhofaza, saqlash va boshqaruv ta'minlanganda hamda asosiy manfaatdor tomonlar nomzodlikka taklif tayyorlanishini qo'llab-quvvatlaganda, ikkinchi bosqichga, ya'ni nomzodlikka taklif tayyorlashga o'tiladi.

## 4.1. Umumiy tavsiyalar

### Nomzodlikka taklifni kim yozishi kerak?

Nomzodlik maqsadi, ma'lumotlari, dalillari va xulosalari nuqtayi nazaridan aniq hamda puxta ishlab chiqilgan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nomzodlikka taklif yozishda ekspert-maslahatchini jalb qilish Butunjahon merosi ro'yxatiga kirishning eng tezkor va oddiy usuli bo'lib tuyulishi mumkin. Ekspert Butunjahon merosi va obyektlarni yaxshi bilgan taqdirda bunday yondashuv ish berishi mumkin, ammo bu yaxshi nomzodlikka taklif tayyorlash uchun shart emas.

Bir nechta obyektlar ko'rsatilganda, mahalliy xodimlarning nomzodlikka taklif ustida birgalikda ishlashi, ehtimol xorijiy ekspertlar rahbarligida uzoq muddatli istiqbolda foydali bo'lishi mumkin. Buning foydali tomonlari – obyekt qadriyatlarini, ehtiyojlari, cheklovlari va imkoniyatlarini yaxshi tushunishni ta'minlash, shuningdek, uni Jahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun ko'rib chiqilgandan so'ng uni muhofaza qilish, saqlash va boshqarishning izchilligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlar uchun qadriyatlarini va kelajakdagi saqlash, himoya qilish va boshqarish talablarini yaxshi biladigan mahalliy jamoaga ega bo'lish aniq afzalliklarga ega.

Taklif ingliz yoki fransuz tilida tushunarli va ravon yozilishi lozim. Agar ushbu tillardan biri nomzodlik taklifini yozayotgan jamoa yoki muallif mukammal biladigan til bo'lmasa, nomzodlikka taklifni jamoa ona tilida yozishi, so'ngra yakuniy ishni ravon tarzda ingliz yoki fransuz tiliga tarjima qildirish kerak bo'ladi. Puxta tarjima qilinmagan nomzodlikka takliflar ularni baholashda chalkashliklar va muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun mahalliy tilda atamalar lug'atini ishlab chiqish juda foydali bo'lishi mumkin.

### Nomzodlikka taklif maqsadi

Butunjahon merosiga kirish uchun nomzodlik taklifini berish – aslida, Butunjahon merosi obyekti maqomini olish uchun beriladigan rasmiy ariza. Bu tegishli ishtirokchi-davlat yoki transmilliy takliflar qilinganda ikki yoki undan ortiq ishtirokchi-davlat YUNESKOga topshiradigan rasmiy hujjat.

Nomzodlikka taklifning maqsadi quyidagilarni imkon qadar aniq qilib ifodalash:

- Obyekt nimalardan iborat va u qanday hujjatlashtirilgan;
- Mislsiz qiymatga ega bo'lishi mumkinligi sababi;
- Saqlanganlik holati va obyektga ta'sir etuvchi omillar;
- Obyektni Butunjahon mislsiz qiymati nuqtayi nazaridan qanday qilib muhofaza qilish, saqlash, boshqarish, taqdim etish va nazorat qilish kerak.

Nomzodlikka taklif obyektni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun uni baholash va bu merosga kiritishi yoki kiritmasligi yuzasidan Butunjahon merosi qo'mitasi tomonidan tegishli qaror chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

### ASOSIY XABAR

Nomzodlikka taklif ishining barcha bo'limlari BMQga taalluqli bo'lishi shart.

#### Nomzodlikka taklif tayyorlash tartibi

Nomzodlikka taklif tayyorlash mantiqiyliги yoki tartibi muhim o'rin tutadi. Bu manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqa va hamkorlikni olib borishni talab qiladigan uzluksiz jarayon ekanligini tushungan holda izchillikka amal qilish muhim:

- tegishli ma'lumotlarni to'plash maqsadida dastlabki tadqiqotlarni o'tkazish;
- qiyosiy tahlillar olib borish;
- mezonlar, asllik va yaxlitlikni o'z ichiga olgan Butunjahob mislsiz qiymat bo'yicha Bayonot tayyorlash;
- tegishli atributlarni belgilab olish;
- tegishli chegaralarni belgilab olish;
- tavsif ishlab chiqish;
- tarixni tayyorlash;
- nomzodlikka taklif formati kamchiliklarini to'ldirish.

Nomzodlik ma'lumotlari uchun Operatsion yo'riqnomada talab qilinadigan format tartibini har doim ham eng mantiqli deb hisoblash noto'g'ri. Aks holda u haddan tashqari uzundan uzun nomzodlik dosyalariga olib kelishi mumkin va unda potensial Butunjahon mislsiz qiymatni asoslash va mezonlarni namoyish qilish qismlari talabga yetarlicha javob bermagan qismlar bo'lib qoladi.

Nomzodlikka taklif ishining ayrim qismlarini to'ldirish boshqa qismlarga qaraganda osonroq va ko'pincha ularga ko'proq e'tibor qaratiladi. Masalan, tavsif va tarix bo'limlari kengroq yoritiladi, chunki mazkur bo'limlar uchun ma'lumot topish qiyin emas, matnini esa ishlab chiqish oson.

#### Nomzodlikka taklif tayyorlashda tavsiya etilgan tartibning asosiy sxemasi



Ammo, ko'pincha ushbu bo'limlar mislsiz qiymatlar bilan yetarlicha bog'liq bo'lmaydi, bunga sabab, ushbu qiymatlar aniqlanishidan oldin tayyorlangan bo'lishi mumkin. Iterativ yondashuvdan foydalanish zarur. Masalan, tarixiy tadqiqotlar qadriyatlar aniqlab olingunga qadar o'tkazilishi, ammo tarixning qadriyatlarga muvofiqligini yaxshilash uchun uni qayta ko'rib chiqish talab etilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, dastlab Butunjahon mislsiz qiymatlarni aniqlab olish va so'ngra aynan muayyan qadriyatlarga tegishli qolgan bo'limlarni yozish tavsiya etiladi. Tavsif mislsiz qiymatlarni ifodalaydigan fizik atributlarni, tarix esa obyekt qay tarzda o'zining atributlari va qadriyatlarini rivojlantirganini izohlab berishi lozim.

### Qisqacha umumiy ma'lumot

Har bir nomzodlik dosyesining birinchi qismida qisqacha umumiy ma'lumot beriladi. Mazkur qism nomzodlikka taklifning mohiyatini ochib beruvchi asosiy elementdir.

Ushbu qo'llanmaning 3-qismida berilgan vazifalarni, hech bo'lmaganda, loyihani maqbul darajasigacha bajarib, qisqacha umumiy ma'lumot yozish uchun bu ma'lumotlardan foydalaning. Nomzodlik yetkazmoqchi bo'lgan asosiy xabarlarini aniq bo'lishi uchun umumiy ma'lumotni nomzodlik faylini yozish jarayonining boshida ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu ishda asosiy e'tiborni eng muhim narsaga qaratishdan chalg'imaslikka yordam beradi.

Nomzodlikka taklif ishlab chiqish davomida qisqacha umumiy ma'lumot yangi ma'lumotlar yoki xulosalar bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bu jarayon diqqatni jamlashga yordam beradi.

Qisqacha umumiy ma'lumotda berilgan axborotlar nomzodlikka taklifning asosiy matnida taqdim etilgan ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

### Nomzodlik doyesining taqdimoti

Nomzodlikka taklifda quyidagilar bajarilishi kerak:

- obyektning taklif qilayotgan chegaralarini aniq belgilab olish;
- obyektning tasvirlash;
- uning tarixini bayon qilish;
- obyektning ahamiyati va uning Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lishi mumkinligi sababini ko'rsatib berish;
- bir yoki bir nechta mezonlarga javob berishini ko'rsatish;
- saqlanganlik holati va hujjatlashtirish hamda nazorat qilinish usulini izohlab berish;
- uzoq muddatli istiqbolda obyektning mislsiz qiymatlari qonuniy himoya va uning qiymatini ifodalovchi atributlar boshqaruvi orqali qanday qo'llab-quvvatlanishini va bu jarayonga kimlar jalb qilinishini aniqlash;
- obyekt mislsiz qiymati mehmonlar va boshqalarga taqdim etish yoki talqin qilish usuli.

Nomzodlik dosyesining hajmi va murakkabligi uning qanchalik maqsadga muvofiqligi ko'rsatkichi emas. Nomzodlik dosyeleri ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim, ammo bu ularning hajmi haddan ortiq katta bo'lishi kerak, degani emas, ba'zan uzundan uzun nomzodlik ishlari aks samara beradi, chunki ularda obyekt taqdimotiga yetarlicha diqqat qaratilmaydi. Shuningdek, ularni dizayn, rasmlar va bosma jihatdan ham ortiqcha bezash shart emas. Murakkab jildlashga ham zaruriyat yo'q.

Nomzodlik dosyesida asosiy e'tibor uning sarftalab yoki bejamdor taqdimoti emas, balki uning mazmuni bo'lish kerak. Biroq, taqdimotga biroz e'tibor nomzodlik faylini

## ASOSIY XABAR

*Boshqa nomzodlik hujjatlari va jarayonlariga misollar ham foydali bo'lishi mumkin.*

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

o'qiydiganlarga uni tezroq tushunishiga va bo'limlarni ajratgan holda ko'rib chiqishiga yordam berishi mumkin.

Nomzodlik dosyesi bilan tanishish imkon qadar qulayroq bo'lishi uchun, batafsil materiallarni ilovalarda joylashtirish, bunda asosiy xabarlar asosiy matnda berilishi va ular ortiqcha tafsilotlar bilan yuklanmasligi tavsiya etiladi. Asosiy matnda ilovadagi qo'shimcha ma'lumotlarga havola qilinadi. Biroq, qisqa va mazmunli javoblar nomzodlik dosyesining asosiy matnida bayon qilinishi kerak, chunki faqat ilovaga havola berib ketaverish ham maqsadga muvofiq emas. Ilovalar ham sinchiklab tanlanishi va ular nomzodlikka aloqador bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Ilovalarga ko'plab keraksiz ma'lumotlarni kiritib tashlash foydali emas, aksincha nomzodlikda umumlashtirilgan ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan muhim ma'lumotlarni tanlab olish lozim. Keraksiz ilovalarning ko'pligi nomzodlikni baholashni yanada qiyinlashtirishi va Butunjahon mislsiz qiymat bo'yicha aniq dalillarni taqdim etishga xalal berishi mumkin.

Nomzodlik dosyesini yozayotganlar obyekt turi, uning Butunjahon mislsiz qiymatga ega bo'lish sababi va bu qiymat qay tarzda muhofaza qilinishi, boshqarilishi va saqlanishi haqida asosiy fikrlarni doim nazarda tutishi lozim. Bu asosiy fikrlar batafsil ma'lumot ko'pligidan chetda qolib ketmasligini ta'minlash uchun tavsiya etiladi.

Operatsion qo'llanma, obyekt turiga qarab, nomzodlikka taklifning bir nechta nusxada bo'lishini talab qiladi (132.10-paragrafqa qarang). Har qanday holatda bosma va elektron nusxalar, ulardan biri asli sanalsa ham, bir xil bo'lishi kerak. Bitta nusxa Butunjahon merosi markazida qoladi, boshqa nusxalar baholash uchun maslahat organlariga taqdim etiladi. Har bir nusxada ma'lumotlar aynan bir xil bo'lishi muhimdir. Operatsion qo'llanmada nomzodlik dosyesining formati haqidagi talablarga ham e'tibor qarating (132-paragraf).

Nomzodlikka taklifni yakunlash va rasmiy tasdiqlash ommaviy nishonlanishi kerak, bunga shunchaki rasmiyatchilik sifatida qarash noto'g'ri.

Qo'shimcha ko'rsatmalar quyida keltirilgan.

### **Chop etiladigan hujjatlar**

- Hujjatlar standart formatda, ravshan chop etilgan va yaxshi tashkillashtirilgan bo'lishi kerak. Ikkilansangiz, oddiy va tushunarli ko'rinishni saqlang va shriftlarning kamroq sonidan foydalaning.
- Kerakli joyda obyekt va unga aloqador mavzularni tasvirlab berish uchun rasmlar va diagrammalardan foydalaning – obyekt va uning qadriyatlarini, yaxlitligi yoki uni boshqarish masalalarini aniq ko'rsatib beradigan illyustratsiyalar va rasmlarni tanlang.
- Obyektning to'liq tasvirini ko'rsatadigan bir nechta suratni tanlang va imkoni bo'lsa takroriylikdan saqlaning.
- Hujjatlar ingliz yoki fransuz tilida yozilishi shart. Nomzodlik fayli aniq va tushunarli qilib yozilganligiga amin bo'lish uchun uning so'nggi versiyasini shu ikkala tilni yuqori darajada biladigan mutaxassis tomonidan ko'rib chiqilishi tavsiya etiladi.
- Butunjahon merosi obyektlari nomzodlik formati ko'proq texnik tilda yozilganligi uchun keng ko'lamlil va ommaviy e'tiborga molik nashlar chiqarishga imkon bermaydi. Shu boisdan, obyekt Butunjahon merosiga kiritilganidan so'ng, yanada ommabop hujjatlarni tayyorlash bilan to'ldirish tavsiya etiladi.
- Nomzodlikda ish sifati va dalillar aniqligi birinchi o'rinda turishi, taqdimot esa ikkinchi darajali ekanligini yodda tuting. Chiroyli bezalgan kitobdagi sifatsiz ish ro'yxatga kiritilish uchun sabab bo'la olmaydi.
- Nomzodlikka ayrim takliflar puxta o'ylab ishlangan va maxsus qutida beriladi. Qutiga ma'lumotlarni joylash amaliy jihatdan qulay bo'lsa ham, bu yerda muhimi qutiga joylash sifati emas, balki ma'lumot sifatidir.



- Tegishli manfaatdor tomonlarning talablariga javob berish uchun nomzodlikka taklif hujjatlarini yetarlicha miqdorda chop eting.
- Nomzodlikka taklif hujjatlari yaxshi tarqatilishi va mahalliy manfaatdor tomonlarga ko'rinadigan va hammabop bo'lishi kerak. Mahalliy manfaatdor tomonlarga bepul nusxalarni tarqatish maqsadga muvofiq. Agarda nashr to'lovi undirilsa, ko'rsatilgan narx hammabop bo'lishi kerak.
- Nomzodlikka taklifning bepul nusxasini taqdim etish — hissa qo'shganlarga minnatdorchilik bildirishning yaxshi usulidir.
- Odatda, nomzodlik hujjatlarining tirajlari yuzdan kam bir necha minggacha bo'ladi. Manfaatdor tomonlar va boshqalar ehtiyojlariga qarab, hujjatlarni keng ommaga tarqatish uchun katta hajmda chop qilishdan avval Butunjahon merosi qo'mitasi qarorini kutish o'rinni bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa ham, nomzodlikka taklif ishi yakunlangach, uning kamida bir nechta nusxasi kerak bo'ladi.

### **Elektron hujjatlar**

- Har bir nomzodlikka taklif, jumladan ilovalar uchun taklif hujjatining elektron nusxasi talab etiladi.
- Format va sahifalarni raqamlash bir xil chiqishi uchun elektron nusxa bosma hujjatni hosil qiladigan fayldan yaratilishi kerak. Bosma va elektron nusxalardagi ma'lumotlar bir xil bo'lishi lozim.
- Ishni Microsoft Word va Adobe PDF fayllarda taqdim etish tavsiya etiladi.
- Nomzodlikka taklif ishini odatda maslahat organlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy jarayonining bir qismi sifatida bir nechta ekspertlar tomonidan ko'rib chiqadi. Bu ushbu ekspertlarga ko'pincha elektron shakldagi nusxa taqdim etilishini anglatadi. Shundan kelib chiqib, ekspertlar fotosurat yoki xaritalar kabi tasvirlarni sinchiklab ko'rib chiqishga imkon berish uchun elektron hujjatlarning rezolutsiyasi/aniqligi yetarli bo'lishi kerak. Sifati past tasvirlar foydasiz. Xaritalar va tarixiy suratlardan foydalanganda ularning rezolutsiyasi/aniqligi eng yuqori darajada bo'lishini ta'minlang.
- Aks holda, hujjat faylining o'lchami haqida o'ylab ko'rish kerak bo'ladi, ayniqsa, zarur bo'lmagan katta hajmdagi rasm fayllardan foydalanmang. Hujjat rezolutsiyasiga/aniqligiga mos keladigan tasvirlarni masshtablang — juda katta / yuqori sifatli tasvirlarga, odatda, A4 formatli hujjatlarda zaruriyat yo'q. PDF versiyani yaratishda mavjud parametrlardan foydalanib, umumiy fayl hajmini ham kamaytiring. Katta hajmdagi fayllar yuqori sifatini saqlab qolishi lozim bo'lgan tasvirlar fayl sifatida birlashtirilishi va taqdim etilishi mumkin. Katta hajmdagi fayllar uchun faqat matnli versiyani, shuningdek, matn va tasvir versiyasini taqdim etish tavsiya etiladi. Agar faqat matnli versiya taqdim etilgan bo'lsa, rasmlarni (shu jumladan, xaritalarni) alohida fayllar sifatida qo'shing.
- Noodatiy shriftlarni ishlatmang, ayniqsa, agar ularni hujjatga joylashtirish mumkin bo'lmasa. Bunday shriftlar boshqa kompyuterlarda ochilmasligi mumkin.
- Butunjahon merosiga kirish uchun nomzodlik taklifini elektron nusxasidan foydalanish imkoniyatini taqdim etish uchun veb-sayt yaratish yaxshi g'oya.
- Boshqa har qanday qo'shimcha ma'lumot CD-diskka nusxalanishi kerak.

### **Ilovalar**

- Asosiy nomzodlikka taklif hujjati merosga kirish uchun dalillar, shuningdek yaxlitlik, asllik, muhofaza va boshqaruvga aloqador barcha asosiy talablarni mustaqil tarzda ifodalay olishi kerak. Ilovalarda qo'shimcha ma'lumot kiritish foydali bo'lishi mumkin. Biroq ilovalardan foydalanganda ehtiyot bo'lish kerak va asosiy e'tibor nomzodlikka taklif hujjati aniq va yuqori sifatdagi barcha muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Muhim ma'lumotlar ilovalarga emas, balki asosiy hujjatga kiritilishi zarur.
- Qo'shimcha ma'lumotni o'z ichiga olgan juda katta hajmli ilovalardan imkon qadar foydalanmang. Nomzodlik taklifida umumlashtirilgan ma'lumotlarning ahamiyatini

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

haqiqatdan ham oshiradigan axborotlarnigina ilovalarga kiritish tavsiya etiladi. Shunchaki material to'liq bo'lishi uchun hujjatga ilova qilmang.

- Nomzodlik ilovalarga kiritilgan materialning aloqadorligini alohida eslatib o'tish kerak. Maslahat organlari katta hajmdagi ilova qilingan materiallarni baholovchilar va taqrizchilarga tarqatishi, odatda, maqsadga muvofiq emas. Shu boisdan asosiy ma'lumot doimo to'g'ridan to'g'ri nomzodlikka taklif hujjatida berilishi lozim. Asosiy ma'lumotlar katta hajmli ilovalarda joylangan bo'lsa, maslahat organlari ularni topishlari dargumon.
- Ilovalar ham elektron versiyada topshirilishi lozim.

### **Xaritalar**

- Nomzodlik taklifning bir qismi sifatida taqdim etilgan xaritalarning sifati va aniqligi ko'pincha obyektning tushunishda foydaliligi nuqtayi nazaridan ko'riladigan masaladir. Xaritalarga talablar 4.2-bo'limda ko'rib chiqilgan.
- Bundan tashqari, quyidagi ikki misol xaritalarni madaniy va tabiiy obyektlar bo'lishi uchun nima talab qilinishini ko'rsatishga yordam beradi.

To'liq bo'lmagan nominatsiyalarning eng keng tarqalgan sababi obyektning identifikatsiya qilish bilan bog'liq muammolar bo'lib, ular asosan taqdim etilgan xaritalarga tegishli. Shu boisdan tegishli xaritalar yaratish uchun quyidagi oltita asosiy talabni qayd etish foydadan xoli bo'lmaydi:


- Taqdim etilayotgan obyekt toifasiga qarab mos xarita turini tanlang, masalan, katta obyektlar uchun topografik xaritalar va kichik obyektlar uchun kadastr rejalarini.
- Taxminiy chegara chiziqlari imkon qadar ingichka bo'lishi, ammo aniq ko'rinadigan bo'lishi kerak. Ranglar topografik elementlarni yopib qo'ymasligi kerak va chegaralarni aniq belgilash uchun ingichka bo'lsa ham ko'rinadigan chiziqlar ma'qulroq. Asosiy identifikatsion xarita(lar) taklif qilinayotgan taxminiy obyekt va uning bufer (neytral) hududini (agar mavjud bo'lsa) belgilab beruvchi chiziqlarnigina o'z ichiga olishi lozim.
- Xaritada koordinatalar to'ri bo'lishi yoki bir qator aniqlangan nuqtalar turkumining koordinatalari ko'rsatilishi kerak.
- Mos masshtabni tanlash muhim sanaladi. Tabiiy obyektlar va madaniy landshaftlarni odatda 1:50000 masshtabdagi tipografik xaritalar bilan yaxshiroq aniqlanadi va butun obyektning ko'rsatish uchun birdan ortiq xarita talab qilinadimi yoki yo'qmi, muhim emas. Boshqa madaniy obyektlar uchun kadastr rejalarini odatda eng mos variant hisoblanadi. Alohida yodgorliklar uchun masshtab kamida 1:2000 bo'lishi kerak. Bundan tashqari, grafik va raqamli masshtab barcha xaritalarda ko'rsatilishi kerak.
- Xaritada taklif etilayotgan taxminiy obyektning chegara chiziqlari va uning bufer hududining (agarda mavjud bo'lsa) ifodalovchi aniq surat osti yozuvi bo'lishi kerak (yuqoridagi ikkinchi bandga qarang). Asosiy identifikatsiya xaritasi chalkashliklar bo'lmasligi uchun boshqa himoya qilinayotgan hududlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi kerak. Surat osti yozuvida Operatsion qo'llanmadagi atamalardan foydalanish talab etiladi – "himoyaviy hudud", "tabiiy muhofaza hududi", "tarixiy tuman" kabi atamalardan foydalanmang.
- Topshirilgan xaritalar va rejalar, jumladan surat osti yozuvi ingliz yoki fransuz tilida bo'lishi talab etiladi.

### **XARITALARGA MISOLLAR**

#### ***Madaniy obyekt xaritasi***

Ushbu xayoliy misol chegaralari shahar hududidan o'tuvchi madaniy obyektning eng keng tarqalgan turlaridan biri ko'rsatilgan. Xaritada taklif etilayotgan taxminiy obyekt va uning

bufer hududi aniq ajratilgan. Boshqa himoya hududlarini ko'rsatuvchi chiziqlar yo'q, bu chalkashlikka olib kelishi mumkin. Xaritalarning (kadastr) mashtabi chegaralarini (chiziq juda ingichka bo'lsa, aniqlik yo'qoladi) ko'rsatuvchi chiziqlarning tegishli bo'lgan qalinligi bilan birga berilgan nuqta (bino, mavze, ko'cha) taxminiy chegaralar ichida yoki tashqarisida joylashganligini aniqlash uchun talab etilgan darajadagi tafsilotlarni beradi. Shuningdek, tegishli izohlar («taklif etilgan obyekt» va «bufer hududi») va tildan (xaritalardagi til nomzodlikka taklif matnidagi bilan bir xil bo'lishi kerak) foydalaniladigan masshtab chizig'i va aniq surat osti yozuvining mavjudligi taxminiy chegaralarning aniqligini ta'minlaydi. Va nihoyat, kadastr xaritalarida koordinatalar to'ri kerak bo'lmasa-da, boshqa barcha turdagi topografik xaritalarda kerak.




Manba: YUNESKO Butunjahon merosi markazi

### Tabiiy obyekt xaritasi

Ushbu misol Chedju vulqon oroli va Lava quvurlariga (Koreya Respublikasi) tegishli va tabiiy obyektlar turkumini ko'rsatadi. Topografik xaritada koordinata to'ri, masshtab chizig'i, aniq surat osti yozuvi va juda qalin bo'lmagan, shu bilan birga yaxshi ko'rinadigan taxminiy chegaralarni ko'rsatadigan chiziqlar mavjud. Xaritada topografik elementlarning (yo'llar, daryolar, tog'lar, qishloqlar va h.k.) barchasi ko'rinishi va ularni aniqlash imkoni bo'lishi juda muhim. Chegaralar doimo chiziqlar bilan belgilanishi kerak va taklif etilayotgan hududlar xaritada mavjud topografik elementlarning tafsilotlarini berkitib qo'yuvchi bir xil ranglar bilan yopilib qolmasligi lozim.

**Eslatma:** Ushbu qo'llanma uchun mazkur namunalar hajmi kichraytirilgan. Nomzodlik faylida xaritalar shunday hajmda taqdim etilishi kerak-ki, undagi barcha tafsilotlar tushunarli bo'lishi lozim.



Manba: Madaniy meros ma'muriyati, Koreya Respublikasi

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

### Nomzodlikka taklif tayyorlash va topshirish jadvali

Nomzodlikka takliflarni yozish kutilganidan-da ko'proq vaqt oladi. Nomzodlikka taklif berish bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng barcha jalb etilganlar ishni imkon qadar tezroq yakunlashni istashlari tushunarli bo'lsa-da, muddatlar baribir haqiqatga yaqinroq bo'lishi kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, ishni yozishni boshlashdan oldin dastlabki jarayonlarga yetarlicha vaqt ajratish kerak bo'ladi. Yozish jarayonida tegishli maslahatlashuvlarni o'tkazish va tekshirish ishlari, shuningdek mos xaritalar va rasmlarni yig'ish uchun ham vaqt ajratish kerak.

#### ASOSIY XABAR

*Nomzodlik hujjatini tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqtni to'g'ri baholang.*

Ko'pincha keraklicha muhofaza, saqlash va boshqaruvni ta'minlash uchun qo'shimcha vaqt talab qilinishini hisobga oling. Bundan tashqari, qiyosiy tahlillar uchun, ayniqsa, boshqa mamlakatlardagi qiyoslanadigan obyektlar haqida tayyor ma'lumotlar ko'pincha yetishmaydi. Bunday ma'lumotlarni yig'ish qo'shimcha vaqtni talab qiladi.

Nimadir rejadagidek ketmaydigan favqulodda holatlar uchun ham vaqt ajratib qo'yish kerak bo'ladi.

Maslahat organlari ko'pincha nomzodlikka taklif ishlari topshirishdan oldin shoshilib qilinganligi, barcha elementlar to'liq ko'rib chiqilmaganligini qayd etishadi. Bu ICOMOS va IUCNning nomzodlarni kechiktirish yoki qo'shimcha ish uchun ishtirokchi davlatga qaytarish bo'yicha tavsiyalarining umumiy sababidir. Bunday holatlarda, nomzodlik taklifini berishga shoshilish meros ro'yxatiga kirish uchun ketadigan vaqtni aslida uzaytiradi.

Maqsad hamma ishni bosqichma-bosqich emas, balki bir vaqtda taqdim etishdir. Qo'shimcha materiallar asosiy ish qabul qilinganidan so'ng topshirilishi mumkin bo'lsa-da, bu maslahat organlarining har qanday so'rovlariga yoki kutilmagan yoki ba'zan rejalashtirilgan vaziyatlarga javoban amalga oshirilishi lozim.

Shuningdek, nomzodlikka takliflarni topshirish muddati tugay deb qolganda berish ham maqsadga muvofiq emas. Ariza topshirishning yakuniy muddati mutlaq. Nomzodlikka takliflar muddatdan oldin har qanday vaqtda berilishi mumkin.

Operatsion qo'llanmada Ishtirokchi-davlat har yili 30-sentabrga qadar nomzodlik hujjatlarining to'liqligi yuzasidan izoh uchun nomzodlikka taklif loyahasini Butunjahon merosi markaziga ixtiyoriy ravishda topshirishlari mumkinligi keltirilgan (127-paragraf). Bu ishtirokchi-davlatlar uchun yakuniy taqdimotdan oldin nomzodlik taklifini tekshirtirib olishlari mumkin bo'lgan juda qulay imkoniyatdir. Yaxshi rejalashtirilgan nomzodlik taklifini ishlab chiqish jarayoni ushbu bosqichni o'z ichiga oladi. Ammo, shuni qayd etish joizki, Butunjahon merosi markazining ushbu baholashi tavsiyaviy xarakterga ega va nomzodlik taklifining faqatgina to'liqligini baholab beradi. Bu yakunlangan nomzodlik taklifi qabul qilingach, faqat IUCN va/yoki ICOMOS baholanadigan potensial Butunjahon mislsiz qiymat foydasiga argumentlarning ehtimoliy kuchi haqida izoh emas.

#### ASOSIY XABAR

*Nomzodlik hujjatini tayyor bo'lmaguncha uni topshirishga shoshilmang*

### 4.2. Nomzodlikka taklif formati

Butunjahon merosi qo'mitasi Butunjahon merosiga kirishga nomzodlik takliflari uchun rasmiy formatni tasdiqlagan va nomzodlarni taqdim etishda ushbu ma'lumotning eng so'ngi versiyasini qo'llash kerak (Operatsion qo'llanmaning 5-ilovasiga qarang). Format

belgilangan standartlarga muvofiq taklif etilayotgan obyektlar haqidagi tegishli ma'lumotlarni *Butunjahon merosi* qo'mitasiga taqdim etish uchun mo'ljallangan. Rasmiy format har bo'limda nimalar talab etilishi bo'yicha izohlarni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, *Butunjahon merosi* qo'mitasi faqat topshirish muddati tugagunga qadar to'liq deb hisoblangan nomzodlikka takliflarinigina ko'rib chiqadi. Shu boisdan, faqat to'liq ishlangan nomzodlik takliflari baholash uchun IUCN va/ yoki ICOMOS'ga yuboriladi. To'liq bo'lmagan nomzodlik takliflari ko'rib chiqilmasdan ishtirokchi-davlatga qaytariladi. Ishtirokchi-davlat ularni to'ldirishi va qayta taqdim etishi kerak. Ishbu nomzodliklar keyin kamida bir yildan so'ng qayta ko'rib chiqiladi. Operatsion qo'llanmaning 132-paragrafi va 5-ilovasi to'liq nomzodlik nima ekanligini belgilaydi.

Qo'llanmaning ushbu bo'limida asosiy bo'limlar yuzasidan qo'shimcha tavsiyalar yoki maslahatlar bilan birga *Butunjahon merosiga* kirish uchun nomzodlikka taklif formatining nusxasi taqdim etilgan.

Nomzodlikka taklifning rasmiy formatining so'nggi versiyasini *Butunjahon merosi* veb-saytiga kirib toping ([whc.unesco.org](http://whc.unesco.org)) yoki *Butunjahon merosi* markaziga murojaat qiling.

**Qisqacha umumiy ma'lumot**

Ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etiladigan ushbu ma'lumotlar *Butunjahon merosi* qo'mitasi qaroridan so'ng Kotibiyat orqali yangilanadi. So'ngra, obyekt *Butunjahon merosi* ro'yxatiga kiritilgan asosini tasdiqlagan holda ishtirokchi-davlatga qaytariladi.

**ASOSIY XABAR**

*Qo'shimcha izoh va tavsiyalarni diqqat bilan o'qing.*

**ASOSIY XABAR**

*Nomzodlikka taklif hujjatining barcha bo'limlari to'ldirilgan bo'lishi muhim*

Joriy nomzodlik formasi MA'LUMOT SARLAVHASI	Joriy nomzodlik formasi TUSHUNTIRUVCHI IZOHLAR	Qo'shimcha tavsiyalar
		<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qisqacha umumiy ma'lumotdagi axborotlar nomzodlikka taklifning asosiy qismida berilganlar ma'lumot bilan bir xil bo'lishi kerak.</li> <li>• Qisqacha umumiy ma'lumot qaysi obyekt va nima uchun nomzodlikka tavsiya etilayotgani to'g'risida aniq va ishonchli tavsif ko'rsatilishi lozim.</li> <li>• U bir betdan uch betgacha aniq va lo'nda qilib yozilishi kerak va uzun tasviriy matn talab etilmaydi.</li> <li>• Qisqacha umumiy ma'lumot uchun yangi matn talab etilmaydi.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Joriy nomzodlik formasi MA'LUMOT SARLAVHASI	Joriy nomzodlik formasi TUSHUNTIRUVCHI IZOHLAR	Qo'shimcha tavsiyalar
		<p>Masalan, mislsiz qiymatlar bayonoti nomzodlikka taklifning 3-bo'limida ma'lumotlar bilan bir xil bo'lishi kerak. Agar ushbu bo'limlar nomzodlikka taklifda to'liq ko'rsatilgan bo'lsa, ular qisqacha umumiy ma'lumot uchun qisqartirishlarni talab qilmaydi.</p>
Ishtirokchi- davlat		
Davlat, viloyat yoki hudud		
Obyekt nomi		
Soniyaqacha aniqlikdagi geografik koordinatalar		
Taklif etilayotgan obyekt chegarasining matnii tavsifi		<p>Nomzodlik formasi va matnii tavsif bilan ko'rsatilgan xarita belgilangan obyekt hamda bufer hududlarning aniq joylashuv chegarasi ko'rsatishi kerak. Butun boshli chegarani tasvirlash har doim ham zarur emas, u qanday aniqlanishini umumiy tavsifini o'zi yetarli. Masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Taklif etilayotgan obyektning chegaralari — &lt;obyekt nomi&gt;ning chegaralaridir.</li> </ul> <p>Milliy bog' / madaniy obyekt. Taklif etilayotgan obyektning 1–5 km uzunlikdagi bufer zonasi quyidagi tabiiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi: xususan, janub va janubi-sharqdan &lt;nom&gt; daryosi, shimoldan &lt;nom&gt; o'rmon qo'riqxonasi chegarasi va g'arb va janubdan qirg'oq qaytishigacha qirg'oq chizig'i.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Transchegaraviy taklif etilayotgan obyektning chegaralari — &lt;nomi&gt; milliy bog' (A davlat), &lt;nomi&gt; tabiiy muhofaza qilinadigan hudud (A davlat) va &lt;nomi&gt; davlat qo'riqxonasi (B davlat) chegaralaridir.</li> <li>• Taklif etilayotgan obyekt &lt;joy nomi&gt; arxipelagining to'rt orolini va har bir orolning qirg'og'idan 12 dengiz mili uzunlikdagi suv hududlarni o'z ichiga oladi.</li> </ul>

Joriy nomzodlik formasi MA'LUMOT SARLAVHASI	Joriy nomzodlik formasi TUSHUNTIRUVCHI IZOHLAR	Qo'shimcha tavsiyalar
<p>Chegaralar va bufer hududni (mavjud bo'lsa) ko'rsatuvchi taklif etilayotgan obyektning A4 o'lchamdagi (yoki "xat") xaritasi</p>	<p>A4 o'lchamli xarita (yoki "xat") biriktirish</p>	<p>Xarita Maslahat kengashining baholash hisobotida, Butunjahon merosi qo'mitasiga taqdimotida foydalaniladi. Shuning uchun, u to'g'ri va tushunishga oson bo'lishi kerak. Xarita yuzasidan yodda saqlashingiz lozim bo'lgan ayrim asosiy jihatlar quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yuqorida ta'kidlanganidek, xaritadan foydalanish oson bo'lishi uchun A4 (yoki "xat") o'lchamda bo'lishi;</li> <li>• topografik xaritadan ko'chirma bo'lishi;</li> <li>• taklif etilayotgan obyekt va bufer hudud(lar) uchun rangli, aniq ko'rinadigan chiziqlardan foydalangan holda, butun obyekt va uning bufer hududini aniq ko'rsatishi;</li> <li>• «taklif etilayotgan obyekt»ga alohida havola qiluvchi va obyektlar turkumi bo'lganda ularning tarkibi keltiriluvchi ingliz yoki fransuz (nomzodlik formasi tiliga qarab) tilida aniq tarzda surat osti yozuvi bo'lishi;</li> <li>• o'lcham va masofani ko'rsatuvchi aniq belgilangan masshtabga ega bo'lishi.</li> </ul> <p>Tegishli mamlakat(lar) doirasida umumiy joylashuvni ko'rsatuvchi asosiy xarita burchagida kichik hoshiyaning bo'lishi (umumiy joylashuv xaritasi) foydadan xoli emas. A4 formatda mos ravishda joylashmaydigan turkumli obyektlar uchun A4 o'lchamdagi bir nechta xaritani taqdim etish kerak bo'ladi, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• butun obyekt, joylashuv va har bir element o'rtasidagi masofani ko'rsatuvchi xarita;</li> <li>• har bir alohida element va uning bufer hududini ko'rsatuvchi bitta yoki undan ortiq xarita.</li> <li>• Xarita(lar) qisqacha umumiy ma'lumotga kiritilishi va keyinroq hujjatga biriktirilmasligi yoki ilova sifatida havola qilinmasligi kerak.</li> <li>• Batafsil ma'lumotli topografik va boshqa xaritalar nomzodlikka taklif hujjatining boshqa bo'limlarida kiritiladi.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Joriy nomzodlik formasi MA'LUMOT SARLAVHASI	Joriy nomzodlik formasi IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha tavsiyalar
<p>Obyekt nomzodlikka taklif etish mezonlari (mezonlarni keltirish) (77-paragrafqa qarang: Operatsion qo'llanma)</p>		<ul style="list-style-type: none"> <li>Obyekt taklif etilganda amal qilinadigan mezon har biri 100 so'zdan ko'p bo'lmagan qisqa bayonot bilan birga keltirilishi kerak.</li> </ul>
<p>Mislsiz qiymatlarning loyiha bayonoti (matn taklif etilayotgan obyektga aksini topgan mislsiz qiymat nima ekanligini taxminan 1-2 betda ochib berilishi kerak)</p>	<p>155-paragrafqa ko'ra, mislsiz qiymatlar bayonoti quyidagilardan tarkib topishi lozim:</p> <p>a. Qisqacha sintez b. Mezonlar uchun asoslar c. Yaxlitlik to'g'risida bayonot (barcha obyektlar uchun) d. (i) dan (vi) gacha mezonlarga mos tarzda taklif etilayotgan obyektlarning haqiqiyliigi to'g'risida bayonot e. Muhofaza qilish va boshqaruv talablari</p> <p>10-ilovadagi formatga qarang</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ushbu bayonot nomzodlikka taklif hujjatining 3.3-bo'limidagi bayonot bilan bir xil bo'lishi lozim.</li> <li>Bayonot obyektning eng muhim xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni qisqa va yetarli tarzda ko'rsatishi lozim. Tafsilotlar 3.1.a - 3.1.e bo'limlarda keltirilishi mumkin.</li> </ul>
<p>Rasmiy mahalliy tashkilot/ agentlik nomi va murojaat qilish uchun ma'lumotlar</p>	<p>Tashkilot: Manzil: Faks: E-mail: Veb-manzil:</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>So'ralgan ma'lumotlarda a'zo davlatning nomzodlikka taklif bo'yicha yetakchi agentligining murojaat qilish uchun ma'lumotlari ko'rsatilishi lozim .</li> <li>A'zo davlatlarning boshqa darajalardagi yetakchi agentliklarning murojaat qilish uchun ma'lumotlari ham taqdim etilishi lozim (masalan, hududiy yoki mahalliy hokimiyat organlari).</li> <li>Turkumli milliy obyektlar uchun bir asosiy kontakt agentlikni ko'rsatish talab etiladi. Transmilliy obyektlar uchun har bir asosiy kontakt agentligini ko'rsatish talab etiladi.</li> </ul>



## Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritiladigan obyektlar

*Eslatma: Nomzodlikka taklif tayyorlashda ishtirokchi-davlatlar ushbu formatdan foydalanib, izoh uchun eslatmalarni o'chirishlari kerak bo'ladi.*

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
1. Obyektni identifikatsiya qilish	2-bo'lim bilan birga, bu nomzodlikka taklifdagi eng muhim bo'lim. Unda obyekt qayerda joylashganligi va geografik jihatdan qanday aniqlanishi Qo'mitaga aniq tushuntirilishi kerak. Nomzodlikka bir nechta takliflar berilganda tarkibiy qism nomi, mintaq (turli elementlar uchun farq qilsa), koordinatalar, hudud va bufer hududni ko'rsatadigan jadval kiriting. Bir nechta tarkibiy qismni farqlash imkonini beruvchi boshqa maydonlar (sahifaga havola yoki xarita raqami) ham qo'shilishi mumkin.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Nomzodlikka taklif hujjatining bu bo'limida taklif etilayotgan obyektning joylashuvi va o'lchami haqida aniq ma'lumotlar keltiriladi. U qisqa va aniq bo'lishi kerak. Taqdim etilayotgan xaritalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.</li> </ul>
1.a Mamlakat (va farq qilsa a'zo davlat)		<ul style="list-style-type: none"> <li>Obyekt taklif qiluvchi davlatning (yoki transchegaraviy yoki transmilliy obyektlar holatida davlatlar) nomini ko'rsatish lozim. Davlat haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar shart emas.</li> </ul>
1.b Davlat, viloyat yoki hudud		<ul style="list-style-type: none"> <li>Taklif etilayotgan mulk joylashgan chegarada davlat(lar), viloyat(lar) yoki hudud(lar) nomi yoki ro'yxati keltirilishi lozim. Transchegaraviy yoki transmilliy obyektlar holatida har bir davlat, viloyat yoki mintaqadan tashqari mamlakatni ham ko'rsating.</li> </ul>
1.c Obyekt nomi	<p>Bu Butunjahon merosi haqida chop etiladigan materiallarda chiquvchi obyektning rasmiy nomi. U qisqa bo'lishi lozim. Bo'sh joy va tinish belgilari bilan birga 200 ta belgidan oshmasligi kerak.</p> <p>Bir nechta nomzodlikka taklif ishlari ko'rilganda (Operatsion qo'llanmalarning 137-140-paragraflariga qarang) majmuaga nom bering (masalan, Filippin Barokko cherkovi).</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Obyekt nomi uning har qanday mavjud mahalliy yoki milliy nomi va xususiyatlari/qadriyatlarini nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lishi kerak. O'ylab topilganidan ko'ra taniqli nomdan foydalangan yaxshiroq.</li> <li>Nom kelajakda obyektning targ'ibot qilishda ishlatilishini yodda tuting.</li> <li>Obyekt nomi qisqa bo'lishi va bosh oraliqlar va tinish belgilari bilan birga 200 ta belgidan oshmasligi lozim.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>1.d va 1.f qism sifatida jadvalga kiritilishi lozim bo‘lgan turkumli nomzodlikka taklifning tarkibiy qismlari nomini kiritmang.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mahalliy til, madaniyat va an’analarni inobatga olish maqsadida milliy va mahalliy darajalarda maslahatlashuvlarni tashkil etish talab etilishi mumkin.</li> <li>• Ayrim holatlarda ikkita qo‘shma nom tanlanadi (masalan, Te Wahipounamu – Janubi-G‘arbiy Yangi Zelandiya va uKhahlamba / Drakensberg parki).</li> <li>• Turkumli obyektlar uchun bitta umumiy nomni tanlash tavsiya etiladi (masalan, Uch parallel daryo qo‘riqxonasi hududlari, Tropik yomg‘ir – Sumatra o‘rmon mulki, Kanada qoya tog‘lari xiyobonlari).</li> <li>• Transchegaraviy yoki davlatlararo obyektlar uchun, obyekt nomi ikki davlat uchun ham muvofiqlashtirilishi kerak, masalan, Uvs Nuur Basin (Mo‘g‘uliston va Rossiya Federatsiyasi) va Yuqori Qirg‘oq / Kvarken arxipelagi (Finlandiya va Shvetsiya).</li> <li>• Bir nechta alohida tarkibiy qismlarni nomlaridan ko‘ra butun boshli obyekt qiymatini aks ettiruvchi bitta nomdan foydalangan ma’qulroq.</li> </ul>
<p>1.d Soniyagacha aniqlikdagi geografik koordinatalar</p>	<p>Taklif etilayotgan obyektning taxminiy markazidagi nuqtaning kenglik va uzunlik koordinatalarini (soniyagacha aniqlikdagi) yoki UTM koordinatalarini (10 metrgacha aniqlikda) ko‘rsating. Boshqa koordinata tizimlaridan foydalanmang. Ikkilansangiz, Kotibiyat bilan maslahatlashing.</p> <p>Turkumli nomzodlik takliflari ko‘rilganda, har bir tarkibiy qism nomi, uning mintaqasi (yoki vaziyatga qarab eng yaqin shaharcha) va uning markaziy nuqtasi koordinatalarini ko‘rsatuvchi jadval taqdim eting. Koordinata formatiga misollar:</p> <p>N 45° 06’ 05” W 15° 37’ 56” yoki UTM hududi 18 Sharqiy kenglik: 545670 Shimoliy kenglik: 4586750</p>	

ID raq.	Tarkibiy qism nomi	Viloyat(lar) / Tu-man(lar)	Markaziy koord-natalar	Obyektning taklif etilayotgan tarkibiy qismi maydoni (ga)	Bufer hudud maydoni (ga)	Xarita N°
001						
002						
003						
V.b.						
<b>Jami maydoni (gektarda)</b>				ga	ga	

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
1.e Taklif etilayotgan obyekt va bufer hududi chegarasini ko'rsatuvchi xaritalar va rejalar	<p>Nomzodlik taklifiga ilovani hajmi va sanasi qarab quyidagi tartibda ko'rsatin:</p> <p>(i) Butun obyektning eng katta masshtabda aks ettiruvchi, taklif qilinayotgan obyektning ko'rsatuvchi topografik xaritaning asl nusxasi. Taklif etilayotgan obyekt va bufer hududi chegaralari aniq belgilanishi kerak. Ushbu xaritada yoki u bilan ta'minlanadigan boshqa birida maxsus tarzda qonun bilan muhofaza qilinadigan hududlarning chegaralari qayd qilinishi lozim. Turkumli nomzodlikka takliflar uchun bir nechta xarita kerak bo'lishi mumkin (1.d dagi jadvalga qarang). Taqdim etiladigan xaritalar chegara chizig'idagi yoki unga yondosh doirada har qanday rivojlanishning ta'sirini baholash imkoni bo'lishi uchun tutash aholi punktlari, binolar va yo'llar kabi topografik elementlarni aniqlash maqsadida mavjud bo'lgan eng katta va amaliy masshtabda bo'lishi lozim.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Madaniy meros obyektlari uchun talab etiladigan xaritalar va rejalar (chizmalar) obyekt turi va uning tarixiga bog'liq. Ular ma'lum ma'noda mislsiz qiymatlarning jihatlarini aks ettirishi kerak.</li> <li>• Xaritalar va rejalarining masshtabi, tafsilotlari va aniqligi obyektlar bilan chegaralar nisbatlarini aniqlash va obyekt kontekstini tushunish uchun yetarlicha bo'lishi kerak.</li> <li>• Minimal sxemali ma'lumotga ega uslublashtirilgan xaritalar talabga javob bermaydi. Yuzaki ma'lumot olish uchun asos sifatida foydalanilsa ham, katta masshtabli xaritalar yoki kadastr rejalar (madaniy obyektlar uchun) odatda juda qo'l keladi.</li> <li>• Obyekt parametrlari xaritalar/rejalar yoki yozma matnda ko'rsatilganda ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni osonlashtirish uchun havolalarni taqdim etishda muvofiq nomlash yoki kodlash tizimidan foydalanish lozim. Ya'ni, xaritada qo'llanilgan obyekt nomi matndagi bilan bir xil bo'lishi kerak. Xarita yoki rejalarda ingliz yoki fransuz tilidan foydalanilishi lozim.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>Xaritalardagi chegara chiziqlari qalinligiga alohida e‘tibor berish talab etiladi, chunki qalin chegara chiziqlari obyektning haqiqiy chegarasini noaniq qilib qo‘yishi mumkin.</p> <p>Xaritalarni quyidagi veb-sahifada ko‘rsatilgan manzillardan olish mumkin: <a href="http://whc.unesco.org/en/mapagencies">http://whc.unesco.org/en/mapagencies</a></p> <p>Kerakli masshtabdagi topografik xaritalarni topib bo‘lmasa, o‘rniga boshqa xaritalardan foydalanish mumkin. Barcha xaritalarni koordinatalarning to‘liq to‘plamiga ega xaritalarning qarama-qarshi tomonida kamida uchta nuqta bilan joylashuvga bog‘lash imkoni bo‘lishi lozim. Kesimsiz xaritalarda masshtab, mo‘ljal, proyeksiya, nuqta hisobi, obyekt nomi va sanasi ko‘rsatilishi lozim.</p> <p>Imkoni bo‘lsa, xaritalar buklangan holda emas, balki o‘ralgan holda yuborilsin.</p> <p>Geografik ma‘lumotlarni GIS (Geografik ma‘lumotlar tizimi) ga qo‘shish uchun mos keladigan raqamli shaklda taqdim etish lozim. Ushbu holatda chegaralarning (taklif etilayotgan obyekt va bufer hududi) ko‘rinishi imkon qadar eng katta masshtabda ishlangan vektor shaklda taqdim etilishi lozim. Ishtirokchi-davlat tegishli tafsilotlarni olish yuzasidan Kotibiyat bilan bog‘lanishi tavsiya etiladi.</p> <p>(ii) Ishtirokchi-davlat hududidagi obyekt joylashuvini ko‘rsatuvchi joylashuv xaritasi,</p> <p>(iii) Obyektning alohida xususiyatlarini ko‘rsatuvchi rejalar va maxsus ishlangan xaritalari foydali va ilova qilinishi mumkin.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mamlakat joylashuvini aniqlab beruvchi xarita taqdim etish tavsiya etiladi (maksimum A4 format yoki standart format).</li> <li>• Mamlakat doirasida obyektning joylashuv xaritasi maksimum A4 formatda yoki standart formatda bo‘lishi tavsiya etiladi.</li> <li>• Bundan tashqari, tavsiya etilayotgan butun obyekt, uning chegaralari va bufer hududi ko‘rsatilgan topografik xarita yoki kadastr rejasi (madaniy obyektlar uchun) taqdim etish tavsiya etiladi (maksimum A4 format yoki standart format). Qisqacha umumiy ma‘lumotda ham xuddi shu xaritadan foydalaniladi.</li> <li>• Tavsiya etilayotgan obyekt, uning chegaralari va bufer hududi ko‘rsatilgan topografik xarita yoki kadastr rejasi (madaniy obyektlar uchun) taqdim etilishi muhimdir.</li> <li>• Matnda eslatib o‘tilgan muhim xususiyatlar taxminiy chegaralarni ko‘rsatuvchi asosiy xaritada emas, balki mos hajmda xarita yoki rejalarda alohida ajratib ko‘rsatilishi lozim.</li> <li>• Asos qilib olingan xarita/rejalar rangli bo‘lsa, unda rangli versiyalari ham taqdim etilishi lozim.</li> <li>• Chegaralarni ko‘rsatuvchi yaxshi sifatdagi surat osti yozuvini ishlash juda muhim sanaladi.</li> </ul> <p>Surat osti yozuvi Operatsion qo‘llanmadagi atamalardan foydalangan holda taklif etilayotgan obyekt va uning bufer hududi (mavjud bo‘lsa) aniqlab berishi lozim. Ushbu chegaralar aniq va xaritada boshqa chiziqlardan ajralib turishi lozim</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Nomzodlikka turkumli takliflar berilganda, joylashuv rejasi uning barcha tarkibiy qismlarini ko‘rsatishi, shuningdek, ularni o‘rab turuvchi mintaqa bilan o‘zaro nisbatini aniqlash</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
	<p>Nusxalashda va Maslahat kengashlari hamda Butunjahon merosi qo'mitasiga taqdimot qilishda qulaylik uchun imkoni bo'lsa, asosiy xaritalarning kichraytirilgan A4 formati (standart format) va raqamli tasvirli fayl nomzodlikka taklif fayliga kiritilishi kerak.</p> <p>Bufar hududi ko'rsatilmasa, nomzodlik formasi taklif etilayotgan obyektning tegishli muhofazasi uchun bufer hududi talab etilmasligini asoslovchi bayonotni o'z ichiga olishi kerak.</p>	<p>imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. A4 formatda mos ravishda joylashmaydigan turkumli obyektlar uchun A4 o'lchamdagi bir nechta xaritani taqdim etish kerak bo'ladi, jumladan:</p> <p>(i) butun obyekt, joylashuvi va har bir element o'rtasidagi masofani ko'rsatuvchi yaxlit xarita; va (ii) har bir alohida tarkibiy qism va uning bufer hududini ko'rsatuvchi bir yoki bir nechta xarita.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Turkumli milliy va transmilliy obyektlarda obyektning har bir tarkibiy qismi uchun chegaralarni aniq belgilab beruvchi asl topografik xarita taqdim etilishi kerak.</li> <li>• Nomzodlik obyekt hududini kengaytirishni taklif etgan taqdirda, birlamchi obyektning joylashuvini va kengaytirilgan joylashuvni qiyosiy ko'rsatuvchi xaritaning bo'lishi zarurdir.</li> <li>• O'ziga xos qiymat, xususiyatlar yoki boshqa jihatlarni ko'rsatuvchi qo'shimcha xaritalar identifikatsiya bo'limida emas, balki boshqa bo'limlarda keltirilishi mumkin, jumladan:             <ul style="list-style-type: none"> <li>- Geologik xarita — (viii) mezon bo'yicha taklif etilayotgan obyektlar uchun;</li> <li>- O'simliklar xaritasi — (ix) va (x) mezon bo'yicha taklif etilayotgan obyektlar uchun;</li> <li>- Turlar taqsimoti xaritasi — (ix) va (x) mezon bo'yicha taklif etilayotgan obyektlar uchun;</li> <li>- Infratuzilma yoki infratuzilma bo'yicha takliflar (masalan, yo'l va yo'l qurilishi, to'g'onlar, kelajakdagi rivojlanish v.b.);</li> <li>- Kirish xaritasi — obyekt doirasida va unga yondosh hududlarda asosiy kirish yo'llarini ko'rsatish uchun.</li> </ul> </li> <li>• Asosiy hujjatga obyektning joylashuvi va chegaralarini aniqlab beruvchi A4 formatdagi xarita kiritilishi kerak.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
		<p>Qo‘shimcha xaritalar odatda ilovalarga kiritilishi, aniq belgilanishi va matnda havola qilinishi lozim. Xaritalar ro‘yxati va ularni qayerdan topilishi 1.e bo‘limda berilishi kerak.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xaritalarni taqdim etishning yaxshi usuli – A4 formatdagi hujjatga joylashishi uchun o‘ralgan A3 format.</li> <li>• Xaritalar biriktirilgan CD diskda elektron shaklda ham taqdim etilishi kerak.</li> <li>• Topografik xaritalar shahar tegishli bo‘lmagan obyektlarni to‘laqonli bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu tariqa, kadastr rejalari shahar obyektlari uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Faqat chizmalar, jumladan kompyuterda ishlangan xaritalarni o‘z ichiga oluvchi nomzodlikka takliflar noto‘liq deb hisoblanadi.</li> <li>• Obyektni (bufer hududidan tashqarida) o‘rab turgan har qanday joy tegishli xaritada ko‘rsatilishi kerak. Qo‘llanmaning 85–86 - betlariga qarang.</li> </ul>
<p>1.f Taklif etilayotgan obyekt (ga) va bufer hudud (ga) maydoni</p> <p>Taklif etilayotgan obyekt maydoni: _____ga</p> <p>Bufer hududi _____ga</p> <p>Jami _____ga</p>	<p>Turkumli nomzodlikka taklif ishlari ko‘rilganda (Operatsion qo‘llanmaning 137-140-paragraflariga qarang) tarkibiy qism nomi, mintaqa (turli tarkibiy qismlar uchun farq qilsa), koordinatalar, maydon va bufer hududi ko‘rsatilagn jadval kiriting.</p> <p>Turkumli nomzodlikka takliflar jadvalidan alohida taklif etilayotgan maydonlar va bufer hudud(lar)ning o‘lchamini ko‘rsatishda ham foydalanish lozim.</p>	
<p>2. Tavsifi</p>		<ul style="list-style-type: none"> <li>• Nominatsiyaning ushbu bo‘limi 3-bo‘lim – yozish uchun asos bo‘limi tugatilgandan keyin to‘ldirish tavsiya etiladi.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
		<p>Tavsif merosga kirish uchun asoslarni batafsil izohlab berishi va asoslarda umumlashtirilishi lozim bo'lgan xulosalarni tasdiqlaydigan ma'lumotlar va dalillar, shuningdek, taklif etilayotgan obyekt haqida to'liq tasavvur hosil qiladigan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Ammo, tavsifda mavzudan chetlashmasligi va qisqa bo'lishi lozim.</p>
<p>2.a Obyekt tavsifi</p>	<p>Ushbu bo'lim nomzodlikka taklif sanasida taklif etilayotgan obyekt tavsifi bilan boshlanishi kerak. Unda obyektning barcha ahamiyatli xususiyatlari ko'rsatilishi lozim.</p> <p>Madaniy obyektga nisbatan esa, ushbu bo'lim obyektning madaniy ahamiyatga ega bo'lgan elementlarning tavsifini o'z ichiga oladi.</p> <p>Unda bino yoki inshootlarning hamda ularning me'morchilik uslubi tavsifi, barpo etilgan davr, materiallari ko'rsatilishi mumkin. Mazkur bo'limda bog'lar, xiyobonlar kabi obyektning muhim tomonlari ham tasvirlanishi lozim. Masalan, qoya tasvirlari uchun tavsif qoya tasvirlariga hamda uni o'rab turgan landshaftga aloqador bo'lishi kerak.</p> <p>Tarixiy shahar yoki tuman holatida, har bir binoni emas, balki muhim ahamiyatga ega jamoat inshootlarini alohida tasvirlanishi lozim, shuningdek hudud rejasi yoki joylashuvi, uning ko'chalarini namunasi va boshqalar bo'yicha tavsif berish kerak bo'ladi.</p> <p>Tabiiy obyektga nisbatan esa, tavsifda obyektning jismoniy tuzilishi va geologik xususiyatlari, atrof muhiti, turlar va populyatsiya soni, boshqa ahamiyatli ekologik xususiyatlari va jarayonlar ko'rsatilishi kerak. Kerakli o'rinda turlar ro'yxatini ko'rsatish lozim va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yoki endemik taksonlar mavjudligiga alohida urg'u berilishi kerak.</p> <p>Tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va usullarini tasvirlash talab etiladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tavsifda obyektning mislsiz qiymati bilan bog'liq jihatlarga, shu bilan birga u haqida umumiy qisqacha ma'lumotlarni berishga e'tibor qaratish lozim.</li> <li>• Tavsif obyektning qanday mislsiz qiymatlarga va muhim xususiyatlarga egaligi to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim.</li> <li>• Obyekt haqida har tomonlama yoritilgan, uzun tavsif shart emas.</li> <li>• Agar tavsif murakkab va juda uzun bo'lsa, qisqacha tavsif keltirish, batafsil tavsifni esa ilovaga qo'shish maqsadga muvofiq.</li> <li>• Tavsif oldingi bo'limda chegaralari ko'rsatilgan obyektga qaratilgan bo'lishi kerak.</li> <li>• Obyekt tashqarisidagi tegishli elementlar tavsifi taklif etilishi mumkin, ammo bunday elementlar tavsifini alohida bergan ma'qulroq (masalan, "Obyekt tashqarisidagi tegishli elementlar tavsifi" kabi sarlavha bilan).</li> <li>• Obyektning (bufer hududidan tashqarida) o'rab turgan har qanday joy ushbu bo'limda ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu qo'llanmaning 85-86-betlariga qarang.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>Madaniy landshaftlar yoritilganda, yuqorida eslatib o‘tilgan barcha masalalar bo‘yicha tavsif yaratish zarur. Tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga alohida e‘tibor qaratish kerak.</p> <p>1-Bo‘limda (Obyekt identifikatsiyasi) aniqlik kiritilgan taklif etilayotgan butun obyekt tavsirlanishi zarur. Turkumli nomzodlikka takliflar holatida (Operatsion qo‘llanmadagi 137-140 - paragraflarga qarang) tarkibiy qismlarning har biri alohida tasvirlanishi lozim.</p>	
<p>2.b Tarix va rivojlanish</p>	<p>Obyekt hozirgi shakli va holatiga qanday yetib kelganligi va unda sodir bo‘lgan muhim o‘zgarishlar, jumladan tabiatni muhofaza qilish yuzasidan qilingan so‘nggi ishlar tarixi.</p> <p>Bu yodgorliklar, obyektlar, binolar inshootlarning bunyod etilishi bosqichlari tavsifini o‘z ichiga olishi kerak. Asosiy o‘zgarishlar, obyektlarning buzilishi yoki qayta qurilish ishlari amalga oshirilgan joylar ham tasvirlanishi kerak.</p> <p>Tabiiy obyektga nisbatan tavsif obyektning evolyutsiyasiga ta’sir qilgan tarix yoki tarixdan oldingi davrdagi muhim voqealarni qamrab olishi va uning insoniyat bilan o‘zaro ta’siri haqida hisobot berishi kerak. Bu obyekt va uning tabiiy resurslaridan ovchilik, baliqchilik yoki qishloq xo‘jaligi uchun foydalanishdagi o‘zgarishlar yoki iqlim o‘zgarishlari, suv toshqinlari, zilzila yoki boshqa tabiiy sabablar sabab bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.</p> <p>Bunday ma’lumot hududdagi inson faoliyati tarixining barcha jihatlarini qamrab olinishi lozim bo‘lgan madaniy landshaftlar ko‘rilganda ham talab etilishi mumkin.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tavsifdagi kabi, mazkur bo‘lim obyektning mislsiz qiymatlariga tegishli tarixiy voqealar, shuningdek obyektning umumiy tarixiy kontekstni yoritib berishi kerak.</li> <li>• Obyekt haqidagi har tomonlama va to‘liq yoritilgan tavsif shart emas. Bunday ma’lumotlar zarur bo‘lsa ilovaga kiritilishi yoki shunchaki ularga havola qilinishi mumkin.</li> <li>• Obyekt jahon tarixi kontekstida muhim o‘ringa ega bo‘lsa, tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi lozim. Bunda batafsil ma’lumotlarni ko‘rsatishdan ko‘ra umumiy ma’lumotni taqdim etish kifoya.</li> <li>• Odatda, tarixga havola qilish o‘ta muhim, chunki tasdiqlovlar to‘g‘ri havola qilinishi va tasdiqlanishi lozim bo‘lgan boshqa ma’lumot manbalariga tayanishi mumkin.</li> <li>• Obyektning rivojlanish tarixi keltirilganda rivojlanish bosqichlari ko‘rsatiladigan diagrammalarni taqdim etish foydalidir. Masalan, turli davrlarda barpo etilgan binolardan iborat shaharchaga tasvif berilganda, binolarning qaysi tarixiy davrga taalluqli ekanligini ko‘rsatuvchi rasmlarning bo‘lishi foydalidir.</li> <li>• Xaritalar, gravyuralar yoki tarixiy fotosuratlar kabi boshqa tasvirlar matnda qo‘llanilishi mumkin. Nazariy jihatdan, bu tasvirlar Butunjahon mislsiz qiymatlarga tegishli tarixning ayrim jihatlarini izohlash uchun yordam berishi kerak.</li> </ul>



Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
<p>3. 1. Merosga kirish asos keltirish</p>	<p>Asoslar quyidagi bo'limlarda ifodalanishi lozim.</p> <p>Bu bo'lim obyekt Butunjahon mislsiz qiymat ekanligi sababini aniq asoslab berishi kerak.</p> <p>Nomzodlikka taklifning ushbu bo'limi Amaliy qo'llanmalardagi talablarga jiddiy amal qilgan holda yozilishi kerak. Unda boshqa bo'limlarda ko'rib chiqiladigan obyekt yoki uning boshqaruvi haqidagi batafsil tasviriy materiallarni keltirish talab etilmaydi, ammo ob'yecktning Butunjahon mislsiz qiymatlari ta'rifiga aloqador asosiy jihatlarni bayon qilishi lozim.</p>	<p>3.1.a - 3.1.e bo'limlardagi matn Butunjahon mislsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.</p>
<p>3.1.a Qisqacha xulosa</p>	<p>Qisqacha xulosa faktik ma'lumotlarning qisqacha bayoni (i) va sifat haqida qisqacha bayondan (ii) iborat bo'ladi. Faktik ma'lumotlarning qisqacha bayonida geografik va tarixiy kontekst va asosiy xususiyatlar beriladi. Sifat haqida qisqacha bayon qaror chiqaruvchilar va ommaga tasdiqlov uchun Butunjahon mislsiz qiymatlarni taqdim etishi lozim va Butunjahon mislsiz qiymatlarni ifodalaydigan va himoyalaniishi, boshqarilishi va nazorat qilinishi zarur bo'lgan xos xususiyatlarning qisqacha bayonini ham o'z ichiga olishi kerak. Nomzodlikka taklif asoslanishi uchun qisqacha bayon belgilangan barcha mezonlarga mos kelishi lozim. Shu tariqa, qisqacha xulosaga nomzodlikka taklif va merosga kirish uchun barcha asoslar kiritiladi.</p>	<p>Bu matn Butunjahon mislsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.</p>

3. 132- va 133-paragraflarga ham qarang.

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
<p>3.1.b Obyekt merosga kiritilishi uchun mezonlar (va ushbu mezon bo‘yicha merosga kirish uchun asoslar)</p>	<p>Obyekt merosga kiritilishi uchun mezonlar (va ushbu mezon bo‘yicha merosga kirish uchun asoslar)</p> <p>Obyekt taklif etilishda qo‘yiladigan mezonlarga qanday javob berishini qisqacha ko‘rsatib o‘ting (zarur bo‘lsa, nomzodlikka taklifning “tavsif” va “qiyosiy tahlil” bo‘limlariga havola qiling, ammo bu bo‘limlarning matnini takrorlamang) va har bir mezon uchun tegishli xususiyatlarni tasvirlang.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo‘llanmaning 60-61-betlariga qarang.</li> <li>• Har bir mezon bo‘yicha ishlangan asoslar quyida Butunjahon misilsiz qiymatlar bayonotini tayyorlashda foydali matn bo‘lib xizmat qilishi kerak.</li> <li>• Asos – ma‘lum mezonga nima sababdan mos ekanligi dalilidir.</li> <li>• Bu matn Misilsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.</li> </ul>
<p>3.1.c Yaxlitlik bayonoti</p>	<p>Yaxlitlik bayonoti obyekt Operatsion qo‘llanmaning II.D bo‘limida berilgan yaxlitlik shartlariga javob berishini ko‘rsatishi kerak, II.D bo‘limida ushbu shartlar batafsil tasvirlangan.</p> <p>Operatsion qo‘llanma obyektini qaysi darajada baholash zarurligini belgilaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Uning mislsiz qiymatlarni ifodalashi uchun zarur barcha elementlarni o‘z ichiga oladi;</li> <li>• Obyektning ahamiyatini ifodalaydigan xususiyatlar va jarayonlarni to‘liq taqdim eta oladigan mos o‘lchamda;</li> <li>• Obyekt rivojlanish va/yoki e‘tiborsizlikning salbiy ta‘siridan zarar ko‘rishi (88-paragraf).</li> </ul> <p>Operatsion qo‘llanmada bilib olish muhim sanalgan Butunjahon merosining turli mezonlariga aloqador aniq ko‘rsatmalar berilgan (89–95-paragraflar).</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo‘llanmaning 61-67-betlariga qarang.</li> <li>• Ushbu bo‘limda obyekt chegarasi uchun asoslar keltirilishi kerak.</li> <li>• Bu matn Misilsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.</li> </ul>
<p>3.1.d Asllik bayonoti ((i) dan (vi) gacha bo‘lgan mezonlar bo‘yicha nomzodlikka takliflar uchun)</p>	<p>Asllik bayonotida obyekt Operatsion qo‘llanmaning II.D bo‘limida berilgan asllik shartlariga javob berishi ko‘rsatilishi kerak, II.D bo‘limida ushbu shartlar batafsil tasvirlangan.</p> <p>Ushbu bo‘limda nomzodlikka taklifning 4-bo‘limiga batafsilroq kiritilishi mumkin bo‘lgan (boshqa bo‘limlarga ham qo‘shish mumkin)</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo‘llanmaning 61-67 - betlariga qarang.</li> <li>• Bu matn Misilsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
	<p>ma'lumotlar umumlashtirilishi va mazkur bo'limlarda kiritilgan tafsilot darajasini ko'rsatmasligi kerak.</p> <p>Asllik faqat madaniy obyektlarga va «aralash» turdagi madaniy jihatlarga qo'llanadi.</p> <p>Operatsion qo'llanma «obyektlar ularning madaniy qadriyatlari (nomzodlikka taklif mezonida tan olingani kabi) turli xususiyatlar orqali haqqoniy va ishonchli ifodalangan taqdirda asllik shartlariga mos, deb tushunilishi mumkin» ekanligini tasdiqlaydi (82-paragraf).</p> <p>Operatsion qo'llanmada xususiyatlarning quyidagi turlari Milsiz qiymatni ifodalovchi yoki aks ettiruvchi deb hisoblanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• shakl va dizayn;</li> <li>• materiallar va tarkib;</li> <li>• foydalanilishi va vazifasi;</li> <li>• an'analar, metodlar va boshqaruv tizimlari;</li> <li>• joylashuv va muhit;</li> <li>• til va nomoddiy merosning boshqa shakllari;</li> <li>• ruhiyat va hissiyot;</li> <li>• boshqa ichki/tashqi omillar.</li> </ul>	
<p>3.1.e Muhofaza qilish va boshqaruv talablari</p>	<p>Bu bo'limda milsiz qiymatlar yillar davomida saqlanishini ta'minlash maqsadida muhofaza va boshqaruv talablariga qanday amal qilinishi bayon etilishi kerak. Bu bo'lim muhofaza va boshqaruvning umumiy tuzilmasi tafsilotlarini hamda obyektning muhofaza qilishga nisbatan uzoq muddatli muayyan maqsadlarni aniq belgilab olishni o'z ichiga olishi lozim.</p> <p>Ushbu bo'limda nomzodlikka taklif hujjatining 5-bo'limiga batafsilroq kiritilishi mumkin bo'lgan (4- va 6-bo'limlarga ham qo'shish mumkin) ma'lumotlar umumlashtirilishi va mazkur bo'limlarda kiritilgan tafsilot darajasini ko'rsatmasligi kerak.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bu matn Milsiz qiymatlarning loyiha bayonotida keltirilgan matnni tasdiqlovchi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>Ushbu bo‘lim matni birinchi navbatda muhofaza va boshqaruv dasturini belgilab berishi kerak. Unga mislsiz qiymat xususiyatlarni himoya qilish va saqlash hamda obyekt daxlsizligiga xavf soluvchi omillarni bartaraf qilishga qaratilgan zaruriy himoya mexanizmlari, boshqaruv tizimlari va/yoki boshqaruv rejalari (ayni paytda mavjud yoki joriy qilish talab etiladigan) kiritilishi lozim. Bular kuchli va samarali qonuniy himoyaning mavjudligi, aniq hujjatlashtirilgan boshqaruv tizimi, jumladan asosiy manfaatdor tomonlar yoki foydalanuvchilar guruhi bilan o‘zaro munosabatlar, yetarli xodimlar va moliyaviy manbalar, taqdimot uchun asosiy talablar (tegishli bo‘lsa) va samarali hamda puxta nazoratni o‘z ichiga olishi mumkin.</p> <p>Ikkinchidan, bu bo‘limda obyektning muhofazasi va boshqaruvidagi uzoq muddatli masalalarni ko‘rib chiqish va ularni uzoq muddatli strategiya bilan hal qilish usulini ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Obyekt uchun eng katta xavflar, shuningdek ajratib ko‘rsatilgan asllik/yaxlitlikdagi zaiflik va salbiy o‘zgarishlar haqida eslatib o‘tish va muhofaza hamda boshqaruv tizimi bu zaiflik va xavflarni qanday bartaraf qilishi va har qanday salbiy o‘zgarishni yumshatishi mumkinligini bayon qilish kerak bo‘ladi.</p> <p>Butunjahon merosi qo‘mitasi tan olgan rasmiy bayonot sifatida, Mislsiz qiymatlar bayonotining ushbu bo‘limida a‘zo davlat obyektning uzoq muddatli muhofazasi va boshqaruvi yuzasidan o‘z zimmasiga oladigan eng muhim majburiyatlar bayon qilinishi kerak.</p>	
3.2. Qiyosiy tahlillar	Obyekt Butunjahon merosi ro‘yxati va boshqa o‘xshash obyektlar bilan taqqoslanishi lozim.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo‘llanmaning 67-73-betlariga qarang.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
	<p>Qiyoslashda taklif etilayotgan obyektning boshqa obyektlar bilan o'xshashliklari va farqli jihatlarini ko'rsatishi kerak. Qiyosiy tahlil taklif etilayotgan obyektning ham milliy, ham xalqaro darajada ahamiyatini izohlashga qaratilishi kerak (Operatsion qo'llanmaning 132-paragrafiga qarang).</p> <p>Qiyosiy tahlildan maqsad – ro'yxatni mavjud tematik tadqiqotlarda o'rganilishi zarur bo'lgan bo'shliqlarni va turkumli obyektlar holatida tanlagan qismlar uchun asosni ko'rsatishdir.</p>	
<p>3.3. Milsiz qiymatlar haqida taklif qilinuvchi bayonot</p>	<p>Milsiz qiymatlar bayonoti – obyekt Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganda Butunjahon merosi qo'mitasi qabul qiladigan rasmiy bayonot. Butunjahon merosi qo'mitasi Butunjahon merosi ro'yxatiga obyektning kiritishga rozilik berganda, u milsiz qiymat bayonotini ham tasdiqlaydi, ushbu bayonotda obyektning milsiz qiymat sanalishi sababi, yaxlitlik va (madaniy obyektlar uchun) asllik bo'yicha tegishli mezonlar, talablarga qanday javob berishi, milsiz qiymatni uzoq muddatli istiqbolda saqlash uchun muhofaza va boshqaruv talablariga qanchalik javob berishi keltiriladi.</p> <p>Milsiz qiymatlar bayonoti qisqa va standart formatda bo'lishi kerak. Ular obyektning qiymatidan xabardorlikni oshirishga yordam berishi, uning saqlanganlik holatini baholashga yo'naltirishi va muhofaza hamda boshqaruv uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Qo'mita tomonidan qabul qilingach, Milsiz qiymatlar bayonoti obyektida va YUNESKO Butunjahon merosi markazi veb-saytida ko'rsatiladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo'llanmaning 73-76-betlariga qarang.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>Butunjahon misilsiz qiymati bayonotining asosiy bo‘limlari quyidagilar:</p> <p>a. Qisqacha xulosa                      b. Mezonlar uchun asoslar                      c. Yaxlitlik bayonoti (barcha obyektlar uchun)                      d. Asllik bayonoti (i) dan (vi) gacha mezonlar bo‘yicha taklif etilayotgan obyektlar uchun)                      e. Muhofaza va boshqaruv talablari.</p>	
<p>4. Saqlanganlik holati va obyektga ta‘sir etuvchi omillar</p>		
<p>4.a Mavjud saqlanganlik holati</p>	<p>Ushbu bo‘limda taklif etilayotgan obyektning saqlanish holati va uni kelgusida nazorat qilish uchun zarur bazaviy ma‘lumotlarni taqdim etadi. Ma‘lumotlar obyektning jismoniy holati, uning butunjahon misilsiz qiymati jihatlariga har qanday tahdidlar va obyektga saqlash choralarini taqdim etiladi (Operatsion qo‘llanmalarining 132-paragrafiga qarang).</p> <p>Masalan, katta yoki kichik hajmda ta‘mirlash ishlari talab etiladigan tarixiy shaharcha yoki maydon, binolar, yodgorliklar yoki boshqa tuzilmalarda har qanday so‘nggi yoki istiqboldagi katta ta‘mirlash loyihalarining qamrovi va davomiyligi ko‘rsatilishi kerak.</p> <p>Tabiiy obyekt misolida olinganda, turlarni rivojlanish yo‘nalishlari yoki ekotizimlarning yaxlitligi haqidagi ma‘lumotlar keltirilishi kerak. Nomzodlik taklifi keyingi yillarda obyekt holatidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun qiyoslash maqsadlarida ishlatilishi sababli muhim ahamiyatga ega.</p> <p>Obyektning saqlanganlik holatini kuzatish uchun ishlatiladigan indikatorlar va statistik ko‘rsatkichlar uchun quyidagi 6-bo‘limga qarang.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Saqlanganlik holati haqidagi ma‘lumotlar real bo‘lishi kerak, ularni oshirib yoki kamaytirib ko‘rsatish tavsiya etilmaydi. Yodda tuting – baholash hay‘ati obyektga borib, ushbu jihatlarni tekshiradi.</li> <li>• Obyekt holatini saqlash bo‘yicha choralar nafaqat uning xususiyatlariga, balki barcha tegishli xususiyatlar yaxlitligini saqlashda obyektning evolutsiyasiga hissa qo‘shuvchi dinamik jarayonlarga ham tegishlidir.</li> <li>• Saqlanganlik holati murakkab bo‘lsa, ma‘lumot berish uchun diagrammalar yoki annotatsiya yozilgan xaritalar / rejalar foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, shaharchada binolarning holati bir-birini kidan anchagina farq qiladi. Shundan kelib chiqib, tahdidlar darajasi yoki himoya choralarini annotatsiya yozilgan xaritalar / rejalar bilan yaxshiroq ifodalash mumkin.</li> <li>• Ushbu bo‘lim obyektning joriy holatiga qaratilishi kerak. Potensial yoki kelajakdagi tahdidlar 4.b. bo‘limda ko‘rib chiqilishi kerak.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
4.b Obyektga ta'sir qiluvchi omillar	Ushbu bo'limda obyektning BMQ jihatlariga ta'sir qilishi yoki xavf solishi mumkin bo'lgan barcha omillar haqidagi ma'lumotlar berilishi kerak. Shuningdek, unda bunday muammolarni hal qilishda duch kelinishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchiliklar ko'rsatilishi lozim. Bu bo'limda taklif etilgan hamma omillar ham barcha obektlar uchun mos kelavermaydi. Ular faqat ko'rsatma uchun berilgan va ishtirokchi-davlatga har bir obyektga aloqador omillarni aniqlashda yordam uchun mo'ljallangan.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Barcha omillar ham obyektlarning hammasi tegishli emasligi ko'rsatilgan izoh uchun eslatmaga alohida e'tibor bering. Omillar tegishli bo'lmasa, bu ularning tafsilotlariga batafsil to'xtalmasdan, shunchaki izohlanishi kerak.</li> <li>• Ushbu bo'limda obyektning Butunjahon mislsiz qiymatlariga nisbatan ehtimoliy yoki kelajakdagi xavflar ko'rib chiqilishi lozim. Joriy xavflar 4.a bo'limda ko'rib chiqiladi.</li> <li>• Xavflar oldindan asosli tarzda taxmin qilinadigan yoki ma'lum bir obyekt uchun kutiladigan yoki oldin ko'tarilgan bo'lishi lozim.</li> <li>• Shunga qaramay, bunday xavflar haqida aniq va ochiq ma'lumotlarni taqdim etish zarur.</li> </ul>
(i) Rivojlanish bosimlari (masalan, tajovuz, moslashuv, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalarni qazib olish)	Obyektga ta'sir qiluvchi rivojlanish bosimlarni sanab o'ting, masalan, buzish, qayta qurish yoki yangi qurilish bilan bog'liq bosimlar; asllik yoki yaxlitlikka zarar keltiradigan yangicha foydalanishga mavjud binolarni moslash; qishloq, o'rmon xo'jaligi va chorvachilik, boshqaruv tizimi yaxshi bo'lmagan turizm yoki boshqa foydalanish holatlari natijasida yashash muhitining o'zgarishi yoki buzilishi; tabiiy resurslardan noto'g'ri yoki beqaror tarzda foydalanish; tog'-kon ishlari natijasida zarar; tabiiy ekologik jarayonlarni buzishi mumkin bo'lgan ekzotik turlarni tabiatga kiritilishi; obyektga yoki unga yaqin hududda unga yoki unga tutash joylarga zarar keltiradigan yangi aholi punktlarini yaratish.	
(ii) Ekologik bosim (masalan, ifloslanish, iqlim o'zgarishlari, cho'llanish)	Obyektning tuzilish, flora va faunasiga ta'sir qiluvchi atrof-muhit holati yomonlashishining asosiy manbalarini sanab o'ting va umumlashtiring.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Haqiqatdan mavjud bo'lsa va katta ta'sir ko'rsatsagina muhitni yomonlashtirish manbalarini ko'rsatilishi kerak.</li> </ul>
(iii) Tabiiy ofatlar va xavf-xatarlarga tayyorlik (zilzila, toshqin, yong'in va b.)	Obyektga xavf tug'dirish ehtimoli bo'lgan tabiiy ofatlarni va uni himoya qilish choralari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bunday tabiiy ofatlarning ehtimoliy hisoblangan chastotasi va ta'sir qamrovi ko'rsatilishi lozim.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
	<p>yoki xodimlar tayyorgarligi rejalarini sanab o‘ting.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ta‘sir chastotasi va ko‘lamini hisobga olgan holda, xatarga tayyorgarlik ishlab chiqilishi va resurslar bilan ta‘minlanishi kerak.</li> <li>• Xatarga tayyorlik tabiiy ofatdan oldingi tayyorgarlik jarayonlari, shuningdek tabiiy ofat vaqtida va undan keyingi javob choralariga ham tegishli bo‘lishi lozim.</li> <li>• So‘ralgan ma‘lumot boshqa hujjatlarga havolalar bilan umumlashtirilishi kerak (masalan, favqulodda holat/tabiiy ofatlar rejaları).</li> </ul>
<p>(iv) Butunjahon merosi obyektlariga tashrif buyurish</p>	<p>Obyektga tashrif buyurish holati haqida ma‘lumot taqdim eting (ko‘pincha manba ma‘lumotlari; foydalanish modellari, jumladan obyektning alohida qismlarida oshadigan faollik; va kelajakda rejalashtirilgan faoliyatlar).</p> <p>Merosga kirish yoki boshqa omillarga ko‘ra tashriflarning taxminiy ko‘rsatkichlarini tasvirlang.</p> <p>Obyektning qabul imkoniyatlarini va uning boshqaruvini joriy yoki kutilgan tashrif buyuruvchilar soni va tegishli rivojlanish bosimiga salbiy tas‘irlarsiz mos kelishi uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirish mumkinligini izohlab bering.</p> <p>Tashrifchilar yuklamasi yoki o‘zini tutishi bois obyekt holatiga, jumladan uning nomoddiy xususiyatlariga ta‘siri bois yomonlashishning ehtimoliy shakllarini ko‘rib chiqing.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Obyektning qabul imkoniyatlarini aniqlash usuli qisqacha tasvirlanishi kerak.</li> <li>• Kelgusidagi tashrif buyuruvchilar sonini taxmin qilish uchun asoslab berish lozim.</li> <li>• Obyektning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kirishining ta‘siriga alohida e‘tibor bergan holda, kelgusi tashrif buyuruvchilar sonini real hisoblash talab etiladi. Obyektning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kirishi ko‘pincha tashrif buyuruvchilar soni sezilarli ravishda oshishiga olib kelishi mumkin.</li> <li>• Kelgusi tashrif buyuruvchilarning joriy yoki taxminiy sonini salbiy oqibatlarsiz qabul qila olish sig‘imi haqidagi xulosalarni tasdiqlash uchun dalillar taqdim etilishi yoki havola qilinishi kerak. Shunchaki tasdiqni o‘zi yetarli emas. Joriy sonda dalil qilib ko‘rsatish mumkin bo‘lgan ta‘sirlarning biror-bir tahlili bormi?</li> <li>• Obyektga tashrif buyuruvchi/turizm boshqaruvi rejasi bormi? U o‘rinli va samaralimi?</li> <li>• mehmonlar/sayyohlar uchun mavjud qulayliklar xususan, aloqa qilish imkoniyatlari mavjudligi, metodlar, sifat tajribasi va mavjud sharoitlarni tasvirlab berishi kerak. Ushbu ma‘lumotlar odatda mehmon/turizmni boshqarish rejasiga kiritilishi mumkin. Ushbu rejaning asosiy mazmuni nomzodlikka taklif ishiga va ishga ilova qilingan rejaga kiritilishi mumkin.</li> </ul>



Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
		<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mehmon/sayyohlar soni so'nggi yillik ko'rsatkichlarda bo'lishi kerak.</li> <li>• Obyektning turli maydonlar yoki hududlariga tashrif buyuruvchilar soni emas, balki butun obyekt uchun sayyohlar soni ko'rsatilishi lozim.</li> </ul>
<p>(v) Obyekt va bufer hududi doirasida yashovchilar soni</p> <p>Hududda yashovchi aholining taxminiy soni:</p> <p>Taklif etilayotgan obyekt maydoni _____</p> <p>Bufer hududi _____</p> <p>Jami _____</p> <p>Yil _____</p>	<p>Taklif etilayotgan obyekt va bufer hudud doirasida yashovchilarning soni bo'yicha mavjud eng yuqori ko'rsatkichlarni bering. Bu baholash yoki hisoblash amalga oshirilgan yilni ko'rsating.</p>	
<p>5. Obyektning muhofaza qilish va boshqarish</p>	<p>Nomzodlikka taklifning bu bo'limi normativ-huquqiy, shartnomaviy, rejalashtirishga oid, tashkiliy va/yoki an'anaviy choralar (Operatsion qo'llanmalarning 132-paragrafiga qarang) va Butunjahon merosi konvensiyasida talab etilgan kabi obyektning muhofaza qilish va boshqarishda qo'llaniladigan boshqaruv rejalarini yoki boshqa boshqaruv tizimlari (Operatsion qo'llanmalarning 108-18-paragraflariga qarang) haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun mo'ljallangan. Bu bo'limda siyosiy jihatlar, huquqiy holat va muhofaza choralari hamda kunlik ma'muriy boshqaruvning amaliy tomonlari ko'rib chiqilishi lozim.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo'llanmaning 87-91-betlariga qarang.</li> <li>• Samarali muhofaza tizimi Butunjahon merosi uchun muhim sanaladi va nomzodlikka taklifda joylarda ushbu tizimlar qanday ta'minlanishi va amalda qo'llanilishi ko'rsatib berilishi shart.</li> <li>• Nomzodlikka taklif berilganda samarali boshqaruv rejasi yoki hujjatlashtirilgan tizim bo'lishi kerak.</li> <li>• Turizmni barqaror boshqarish tamoyillarini Butunjahon merosi obyektlarida turizmni boshqarish: Butunjahon merosi obyektlari boshqaruvchilari uchun amaliy qo'llanma, Butunjahon merosi qo'llanmasi 1 (Pedersen, 2002) manbasida topish mumkin.</li> </ul>
<p>5.a Egalik</p>	<p>Yerga egalikning asosiy toifalarini ko'rsating (jumladan, davlat, viloyat, shaxsiy, jamoaviy, an'anaviy, umumiy va nodavlat egalik).</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Masalan, murakkab obyektlarda ushbu ma'lumotni annotatsiya yozilgan xarita/rejada tasvirlash va jadval shaklida berish samaralidir.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
5.b Muhofaza qilish belgisi	<p>Obyektning tegishli me‘yoriy-huquqiy, shartnomaviy, rejalashtirishga oid, tashkiliy va/yoki an’anaviy maqomlarini sanab o‘ting: Masalan, milliy yoki viloyat xiyoboni; qonun himoyasi ostidagi tarixiy yodgorlik, muhofaza hududi; yoki boshqa joylar.</p> <p>Huquqiy maqom berilgan yil va maqom berilishiga asos bo‘lgan qonun hujjat(lar)ini ko‘rsating.</p> <p>Agar hujjat ingliz yoki fransuz tilida taqdim etilmasa, asosiy qoidalar yoritilgan inglizcha yoki fransuzcha qisqacha umumiy ma‘lumot berilishi kerak.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ro‘yxatga qo‘shimcha ravishda, ushbu ma‘lumotni murakkab obyektlar uchun annotatsiya yozilgan xarita/rejada tasvirlash foydali bo‘lishi mumkin.</li> <li>• Ushbu bo‘limda bufer hudud chegarasi uchun asoslar keltirilishi kerak.</li> </ul>
5.c Himoya choralarini amalga oshirish vositalari	5.b bo‘limda ko‘rsatilgan me‘yoriy-huquqiy, shartnomaviy, rejalashtirishga oid, tashkiliy va/yoki an’anaviy maqom bilan ta‘minlanadigan himoya aslida qanday amalga oshirilishini tasvirlang.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavjud nazariy muhofaza va amalda qo‘llanilayotgan muhofaza o‘rtasida farq katta bo‘lishi mumkin. Joriy holat haqida ma‘lumot juda muhim va u taqdim etilishi kerak.</li> <li>• Har qanday tasdiqni isbotlovchi dalillar ham ko‘rsatilishi kerak.</li> </ul>
5.d Taklif etilgan obyekt joylashgan munitsipalitet va viloyatga aloqador mavjud rejalar (masalan, mintaqaviy yoki mahalliy reja, saqlash rejasi, turizmni rivojlantirish rejasi)	<p>Muvofiqlashtirilgan rejalarni qabul qilingan sanasi va tayyorlash uchun mas‘ul agentlik ko‘rsatilgan holda, sanab o‘ting. Bu bo‘limda tegishli qoidalar umumlashtirilishi kerak. 7.b bo‘limda ko‘rsatilgani kabi reja nusxasi biriktirilgan hujjat sifatida kiritilishi lozim.</p> <p>Agar rejalar ingliz yoki fransuz tilidan boshqa tillarda bo‘lsa, asosiy qoidalar yoritilgan inglizcha yoki fransuzcha qisqacha umumiy ma‘lumot berilishi kerak.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Shuningdek, rejalarning holati ko‘rsatilishi hamda ularning samaradorligi baholanishi lozim.</li> <li>• Bundan tashqari, bunday rejalar obyekt muhofazasi, uni saqlash va boshqarish tizimi bilan muvofiqligi haqida ham ma‘lumot berilishi kerak.</li> <li>• Rejalarning geografik yoki boshqa qamrovi kiritilishi lozim (masalan, reja butun obyektga tegishlimi yoki uning bir qismigami?).</li> </ul>
5.e Obyektning boshqarish rejasi yoki boshqa boshqaruv tizimi	Operatsion qo‘llanmaning 132-paragrafidan aytib o‘tilganidek, mos boshqaruv rejasi yoki boshqa boshqaruv tizimi muhim va nomzodlikka taklifda ko‘rsatilishi kerak.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu qo‘llanmaning 89-91-betlariga qarang.</li> <li>• Boshqaruv rejasi/tizimi samaradorligi shunchaki kafolatlanmaydi, balki buning uchun dalillar keltiriladi.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
	<p>Boshqaruv rejasi yoki boshqa boshqaruv tizimini samarali amalga oshirishga kafolat berish ham kutiladi. Barqaror rivojlanish tamoyillari boshqaruv tizimiga birlashtirilishi lozim.</p> <p>Boshqaruv rejasi yoki boshqaruv tizimi hujjatining nusxasi 7.b bo'limda ko'rsatilgani kabi ingliz yoki fransuz tilida nomzodlikka taklifga ilova qilinadi.</p> <p>Agar boshqaruv rejasi ingliz yoki fransuz tilidan boshqa tilda mavjud bo'lsa, qoidalarning inglizcha yoki fransuzcha batafsil tavsifi ilova qilinadi. Ushbu nomzodlikka taklifga ilova qilingan boshqaruv rejalarining sarlavhasi, sanasi va muallifini ko'rsating.</p> <p>Boshqaruv rejasi yoki hujjatlashtirilgan boshqaruv tizimining batafsil tahlili yoki izohi berilishi shart.</p> <p>Boshqaruv rejasini amalga oshirish jadvalini tuzish tavsiya etiladi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Boshqaruv rejasi/tizimi birinchi navbatda mislsiz qiymat himoyasi va saqlanishini ta'minlashi kerak.</li> <li>• Boshqaruv rejasi/tizimi obyektning joriy holati, asosan muammolari bilan shug'ullanishi lozim.</li> <li>• Bir nechta reja/tizimlarga ega turkumli yoki transmilliy obyektlarda reja/tizimlarning muvofiqligini ko'rsatish kerak. Alohida tarkibiy qismlarning muvofiqlashtirilgan boshqaruv hujjatlashtirilishi lozim.</li> </ul>
<p>5.f Moliya manbalari va darajalari</p>	<p>Yillik asosda obyekt uchun mavjud moliyalashtirish manbalari va darajasini ko'rsating. Bundan tashqari, mavjud manbalarning yetarliligi yoki yetishmasligini baholash, asosan esa har qanday bo'shliq yoki tanqisliklar, yoki yordam talab etiladigan joylarni aniqlash ham mumkin.</p>	
<p>5.g Obyektni saqlash va boshqarish usullari sohasida tajriba va tayyorgarlik manbalari</p>	<p>Ushbu obyekt uchun milliy hokimiyat organlari yoki boshqa tashkilotlar taqdim etadigan bilim va tajribalarni ko'rsating.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavjudlariga qo'shimcha tarzda, obyektida qo'llaniladigan joriy bilim va tayyorgarlikni ko'rsatib o'ting.</li> <li>• Tajriba va tayyorgarlik obyektini boshqarish bo'yicha maxsus agentliklarda hamda boshqa tashkilotlarda orttirilishi mumkin.</li> <li>• Tajriba va tayyorgarlikning obyektning xos talablariga mosligi va ish berishini baholash kerak bo'ladi.</li> </ul>

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
5.h Sayyohlar uchun sharoitlar va infratuzilma	Ushbu bo‘limda sayyohlar uchun obyektida mavjud sharoitlarni tasvirlash va ular obyektning muhofaza va boshqaruv talablariga mosligini ko‘rsatib berish kerak bo‘ladi. Unda mavjud imkoniyatlar va xizmatlar, obyektidan xavfsiz va muvofiq foydalanishning ta‘minlanishi nuqtayi nazaridan, sayyohlarning talablariga javob berish uchun obyektini samarali va munosib tarzda taqdim etilishi ko‘rsatilishi lozim. Mazkur bo‘limda interpretatsiya/ izoh berish (ko‘rsatkichlar, yo‘lakchalar, eslatmalar yoki e‘lonlar, yo‘riqnomalar); muzey/ obyektga bag‘ishlangan ko‘rgazma, sayyoh yoki tarjima markazi; va/yoki raqamli texnologiyalar va xizmatlardan foydalanishni (mehmonxona; restoran; avtoturargoh; hojatxonalar; qidirish va qutqarish va b.) o‘z ichiga oladigan sayyohlar uchun imkoniyatlar ko‘rib chiqilishi lozim.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Obyektning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun uning yaroqliligi va imkoniyatlarini baholash kerak.</li> <li>Ushbu imkoniyatlar va obyektning muhofazasi hamda saqlanishi o‘rtasidagi tafovutlar qayd etilishi kerak.</li> </ul>
5.i Obyekt taqdimoti va targ‘ibotiga tegishli siyosatlar va dasturlar	Ushbu bo‘lim madaniy va tabiiy merosni kelajak avlodga taqdim etish va topshirish yuzasidan Butunjahon merosi konvensiyasining 4- va 5-moddalariga taalluqli. Ishtirokchi-davlatlar taklif etilayotgan obyektning taqdimoti va targ‘iboti uchun siyosatlar va dasturlar haqida ma‘lumot berishlari qo‘llab-quvvatlanadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Faqat qisqacha ma‘lumot kerak.</li> <li>Bunday siyosat va dasturlar interpretatsiya rejasiga kiritilishi mumkin.</li> <li>Dasturlar uchun manbalar, siyosat hamda dasturlarning samaradorligi haqidagi ma‘lumotlar taqdim etilishi kerak.</li> <li>Dasturlar mislsiz qiymatni haqiqatdan ham taqdim etib, targ‘ibot qila oladimi?</li> <li>Taqdimot/targ‘ibot va muhofaza/saqlash o‘rtasida qarama-qarshiliklar bormi?</li> </ul>
5.j Xodimlar darajasi va tajribasi (professional, texnik, xizmat ko‘rsatish)	Obyektini yaxshi boshqarish uchun, jumladan tashriflar va kelgusida tayyorgarlik zaruriyati yuzasidan mavjud ko‘nikmalar va malakalarni ko‘rsating.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xodimlarning darajalari mosmi?</li> <li>Ushbu ko‘nikmalar va tayyorgarlik obyekt qadriyatlariga mos keladimi?</li> </ul>
6. Monitoring	Nomzodlikka taklifning bu bo‘limi ma‘lum vaqt o‘tishi bilan yo‘nalishlar haqida tasavvur hosil bo‘lishi uchun doimiy tahlil qilish va hisobotlar berish mumkin bo‘lgan obyektning saqlanganlik holati haqidagi ma‘lumotlarni taqdim etishga mo‘ljallangan.	

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
6.a Saqlanganlik holatini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar	<p>Butun obyektning saqlanganlik holati o'lchovi sifatida tanlangan ushbu asosiy ko'rsatkichlarni jadval shaklida sanab o'ting (yuqoridagi 4.a bo'limga qarang). Ushbu ko'rsatkichlar sharhi davriyligi va qaydlar qilingan joyni ko'rsating. Ular ob'jektning muhim jihatini taqdim etishi va mislsiz qiymatlar bayonotiga imkon qadar yaqinroq o'zaro munosabatda bo'lishi mumkin (yuqoridagi 2.b bo'limga qarang). Imkon qadar ularni raqamlarda ifodalash mumkin va imkoni bo'lmasa, ular takrorlanadigan turda bo'ladi, masalan, bitta nuqtadan suratga olish. Yaxshi ko'rsatkichlarga misollar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) turlar soni yoki tabiiy obyektga asosiy tur populyatsiyasi;</li> <li>(ii) tarixiy shahar yoki tumanda to'liq ta'mirga muhtoj binolar foizi;</li> <li>(iii) Obyektning saqlash bo'yicha asosiy dasturni amalga oshirish uchun ketadigan muddat;</li> <li>(iv) ma'lum bir bino yoki binoning elementida barqarorlik yoki harakat darajasi ;</li> <li>(v) Obyektga har qanday tajovuzning ortishi yoki kamayishi darajasi.</li> </ul>	Ko'rsatkichlar mislsiz qiymatlar-ga tegishli bo'lishi va shunchaki o'lchash mumkin bo'lgan nimadir sanalmasligi kerak.

Nomzodlikka taklifning joriy shakli			Qo'shimcha maslahat
Ko'rsatkich	Davriylilik	Qaydlar joyi	

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo‘shimcha maslahat
6.b Obyekt monitoringi bo‘yicha ma‘muriy choralar	6.a bandda eslatib o‘tilgan monitoring uchun mas‘ul agentlik(lar) nomi va kontakt ma‘lumotlarini bering.	
6.c Oldingi hisobot mashqlari natijalari	Qisqacha umumiy ma‘lumot orqali obyektning saqlash holati to‘g‘risidagi oldingi hisobotlar va nashr etilgan manbalarga ko‘chirmalar havolalarni taqdim eting, masalan, xalqaro shartnomalar va dasturlarga muvofiq ravishda taqdim etilgan hisobotlar, misol uchun Ramsar konvensiyasi, Inson va Biosfera dasturi (MAB)).	<ul style="list-style-type: none"> <li>• muammolar qayd etilsa yoki saqlanganlik holati yaxshi bo‘lmasa, joriy holat yoki amalga oshirilgan choralarini qisqacha keltirilishi kerak.</li> <li>• Muammolar hanuzgacha mavjud bo‘lsa yoki saqlanganlik holati yaxshi bo‘lmasa, bu haqida 4-bo‘limda ma‘lum qilinishi lozim.</li> </ul>
7. Hujjatlashtirish	Nomzodlikka taklifning ushbu bo‘limida taklif to‘liq bo‘lishi uchun taqdim etiladigan hujjatlarning nazorat ro‘yxati ko‘rib chiqiladi.	
7.a Fotosuratlar va audiovizual tasvirlar ro‘yxati va avtorizatsiya shakli	<p>A‘zo - davlatlar obyekt haqida umumiy ijobiy tasavvur berish uchun yetarli miqdordagi so‘nggi rasmlarni (nashrlar, slaydlar, iloji bo‘lsa elektron formatlar, videolar va fazodan olingan tasvirlar) taqdim etadilar.</p> <p>Slaydlar 35 mm formatda, elektron suratlar jpg formatda kamida 300 dpi (nuqta/dyuym) aniqlikda bo‘lishi kerak. Tasmali materiallar berilsa, sifat kafolati uchun Beta SP format tavsiya etiladi.</p> <p>Ushbu material, yuqorida ta‘kidlanganidek, tasvirlar ro‘yxati, fotosurat va audiovizual avtorizatsiya shakli bilan berilishi kerak.</p> <p>Obyektning ko‘rsatuvchi ochiq veb-sahifada foydalanilishi mumkin bo‘lgan kamida bitta fotosurat qo‘shilishi kerak.</p> <p>A‘zo - davlatlar YUNESKOga taqdim etilgan raqamli tasvirlarning barchasini yoki bir qismini har qanday shaklda va har qanday vositada tarqatish,</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tasvirlar obyektning Butunjahon mislsiz qiymatlarini, shuningdek uning kontekstini aks ettirishi kerak.</li> </ul>

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
	<p>jamoatchilikka yetkazish, nashr etish, qayta ishlash, foydalanishni o'z ichiga oluvchi mutloq bo'lmagan huquqni yozma va bepul tarzda berishlari tavsiya etiladi, ko'rsatmaydi (video tasvirchisi/rejissyori yoki mualliflik huquqi egasi) va YUNESKO tasvirlarni tarqatganda video tasvirchisi/rejissyori haqida ma'lumot aniq berilgan taqdirda ular to'g'risida ma'lumotlarni doim ko'rsatadi.</p> <p>Bunday huquqlardan olinadigan barcha ehtimoliy daromadlar Butunjahon merosi fondiga beriladi.</p>	

Nomzodlikka taklifning joriy shakli								Qo'shimcha maslahat
ID raq	Format (slayd / bosma / video)	Tasvir	Suratga olish sanasi (oo/yy)	Tasvirchi / video rejissyori	Mual.huquqi egasi (farq qilsa tasvirchi (ismi, / rejissyor video)	Mual.huquq. egasi kontakt ma'lumotlari (ismi, manzil, tel / faks, va e-mail)	Mutloq Bo'lmagan huquqlar	

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
7.b Himoya qilinadigan joylarga tegishli matnlar, obyektning boshqarish rejalarini yoki hujjatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, obyektga tegishli boshqa rejalaridan ko'chirmalar	Yuqoridagi 5.b, 5.d va 5.e bo'limlarda ko'rsatilgani kabi matn biriktiring.	
7.c Eng so'nggi qaydlar shakli va sanasi yoki obyekt ro'yxati	So'nggi qaydlar shakli va sanasi yoki obyekt ro'yxati ko'rsatilgan bevosita bayonotni keltiring. Hali ham mavjud qaydlariga tasvirlang.	

## 4 Nomzodlik faylini yozish va tayyorlash

Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
7.d Ro'yxat, qaydlar va arxivlar saqlanadigan manzil	Ro'yxat qaydlari olib boradigan agentlik nomi va manzilini ko'rsating (binolar, yodgorliklar, flora va fauna turlari).	
7.e Adabiyotlar ro'yxati	Standart bibliografik formatdan foydalanib, e'lon qilingan asosiy manbalar ro'yxatini keltiring.	
8. Mas'ul organlarning kontakt ma'lumotlari	Nomzodlikka taklifning ushbu bo'limi Kotibiyatga obyektning Butunjahon merosi yangiliklari va boshqa masalalar haqidagi muhim ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.	
8.a Tayyorlovchi  Ismi: Sarlavha: Manzil: Shahar, viloyat/davlat, mamlakat: Tel.: Faks: E-mail:	Nomzodlikka taklif tayyorlash uchun mas'ul shaxs ismi, manzili va boshqa kontakt ma'lumotlarini keltiring. Agar e-mail manzil berish imkon bo'lmasa, ma'lumotga faks raqami kiritilishi kerak.	
8.b Rasmiy mahalliy tashkilot / agentlik	Obyekt boshqaruvi uchun mahalliy darajada mas'ul shaxs, agentlik, muzey, tashkilot, jamoatchilik nomini ko'rsating. Agar hisobot beruvchi tashkilot milliy agentlik bo'lsa, uning kontakt ma'lumotlarini keltiring.	
8.c Boshqa mahalliy tashkilotlar	Butunjahon merosiga aloqador tadbirlar va masalalar haqida "World Heritage Newsletter" gazetasini qabul qilishi lozim bo'lgan barcha muzeylar, tashrif markazlari va rasmiy turizm idoralarning to'liq nomi, manzili, telefon raqami, faks va e-mail manzillarini keltiring.	
8.d Rasmiy veb-manzil  http:// Kontakt nomi: E-mail:	Taklif etilayotgan obyektning mavjud veb-manzillarini keltiring va kontakt nomi va e-mail manzilini taqdim etgan holda kelajakda shunday veb-manzillar yaratish rejalashtirilgani haqida ma'lumot bering.	



Nomzodlikka taklifning joriy shakli NOMZODLIKKA TAKLIF FORMATI	Nomzodlikka taklifning joriy shakli IZOH UCHUN ESLATMALAR	Qo'shimcha maslahat
9. Ishtirokchi- davlat nomidan imzo	Nomzodlikka taklif Ishtirokchi-davlat nomidan uni imzolash vakolatiga ega rasmiy shaxs imzosi bilan yakunlanishi kerak.	

### 4.3. Qo'shimcha tavsiyalar

#### Qayta ko'rib chiqish va takrorlash

Nomzodlikka taklif ishi yakunlangach, natija yaxshi chiqishi uchun foydali bo'lgan bir nechta qadamlar bor:

- qisqacha umumiy ma'lumotni, u nomzodlikka taklifning asosiy matni bilan muvofiqligiga amin bo'lish uchun ko'rib chiqing, agarda kerak bo'lsa takroran ko'rib chiqing;
- asosiy xabarlar to'g'ri yetkazilganligi va aniq ifodalanganligiga amin bo'lish uchun butun nomzodlik taklifni to'liq tekshiring;
- nominatsiyani izchillik va uslubni ta'minlash uchun tahrir qiling, ayniqsa nominatsiyaning turli qismlari turli mualliflar tomonidan tayyorlangan bo'lsa. Ammo, asosiy mazmuni yo'qolmasin va buzilmasin.
- Obyektga bevosita aloqador bo'lmagan va mamlakat yoki uning merosi haqida hech narsa bilmaydigan shaxs nomzodlik loyihangizni ko'rib chiqsin. Ushbu taqrizchilarda tug'ilgan savollarni barchasiga javob toping; va
- *Operatsion qo'llanmaning* 132-paragrafiga muvofiq nomzodlikka taklifning to'liqligini tekshiring.

## ASOSIY XABAR

Nomzodlikka taklifni tekshiruvdan o'tkazing.

#### Turkumli nomzodlikka takliflar

Turkumli nomzodlikka takliflar holatida, tabiiyki, kiritilgan ma'lumotlar ham ancha ko'p bo'ladi, chunki bu ma'lumotlar turkumdagi tarkibiy qismlar soniga ko'payadi (masalan, har bir komponentning tavsifi). Juda ko'p ma'lumot kiritilishi nomzodlikka taklifni tushunish yoki o'qilishni qiyinlashtiradi.

Har bir komponent bo'yicha asosiy ma'lumotlarning to'g'ri muvozanatiga erishish – qiyin vazifadir.

Varietlardan biri – nomzodlikning asosiy qismida faqat qisqacha ma'lumotlarni taqdim etish va batafsil ma'lumotni asosiy matnda havola qilingan ilovalarda taqdim etishdir.

# 5 Baholash jarayoni

## 5.1. Baholash jarayoni

Barcha talab qilingan nusxalardan iborat nomzodlik hujjatlari taqdim etilgandan so'ng baholash jarayoni boshlanadi.

Birinci bosqich – Butunjahon merosi Markazi tomonidan hujjatlar to'liqligini tekshirish. Agar nomzodlik hujjatlari fayli to'liq bo'lmagan deb hisoblansa, u Maslahat kengashlariga baholash uchun yuborilmaydi va keyingi yil yoki undan kechroq taqdim etish uchun to'ldirilib bitkazilishi kerak.

Agar nomzodlik hujjatlari to'liq bo'lsa, ular Maslahat kengash(lar)iga yuboriladi. Jarayon davomida, agar u yaxlitlik va/yoki asllik shartlariga, shuningdek, himoya qilish va boshqarish talablariga mos kelsa, Maslahat kengashlari nomzodi ko'rsatilgan obyekt potensial Butunjahon mislsiz qiymatiga ega yoki ega emasligini baholaydi. ICOMOS (Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Kengash) va IUCN (tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro ittifoqi) baholash bosqichlari tafsilotlari Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risida Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanmaning 6-ilovasida taqdim etilgan va, shuningdek, ular quyida berilgan: Nomzodlik Maslahat kengashlari tomonidan baholangandan so'ng, ammo Butunjahon merosi Qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishidan oldin, Maslahat kengashlari Qo'mita tomonidan nomzodlik ko'rib chiqiladigan yilning 31-yanvarigacha Ishtirokchi-davlatga savol yo'llashi yoki qo'shimcha ma'lumot so'rashi mumkin (Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risida Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanma, 149-paragraf).

Ushbu ma'lumot Maslahat kengashlari tomonidan ko'rib chiqilishi uchun 28-fevralga qadar yuborilishi shart. Operatsion qo'llanma ushbu sanadan so'ng yuborilgan har qanday ma'lumotni Maslahat kengashlari tomonidan ko'rib chiqishini rasman taqiqlaydi.

Ishtirokchi-davlatlar ham Qo'mita yig'ilishidan avval Maslahat kengashlari tomonidan berilgan baholardagi daliliy xatoliklarni ko'rib, Qo'mita raisiga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin (Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risida Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Operatsion qo'llanma, 150).

Baholash jarayonida Ishtirokchi-davlatlar tomonidan nomzodi ko'rsatilgan obyektga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday o'zgarishlar haqida Butunjahon merosi Markaziga xabar berilishi muhim.

Butunjahon merosi qo'mitasi obyektini ro'yxatga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiladi. Bu qarorni qabul qilishda qo'mitaga tegishli Maslahat kengash(lar)ining tavsiyalari yordam beradi.

## 5.2. IUCN tomonidan baholash jarayoni

Nomzodlarni texnik jihatdan baholashni amalga oshirishda IUCN Konvensiyaning Operatsion qo'llanmalariga amal qiladi. Baholash jarayoni aprel oyida IUCN tomonidan nomzodlarning qabul qilinishi va keyingi yilning may oyida IUCN baholash hisobotining Butunjahon merosi Markaziga qilgan hisobotigacha bo'lgan bir yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

1. Ma'lumot to'plash. Standartlashtirilgan ma'lumotlar varag'i nomzodlik hujjati, muhofaza qilinadigan hududlar bo'yicha Butunjahon ma'lumotlar bazasi va boshqa mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda tuziladi.

2. Boshqa tashkilotlardan olingan tahlil (tashqi tahlil). Nomzodlik obyektini yoki uning tabiiy qadriyatlarini yaxshi biladigan mustaqil ekspertlarga, shu jumladan WCPA a'zolari, IUCN boshqa ixtisoslashgan komissiyalari va ilmiy tarmoqlar yoki mintaqada ishlaydigan NNTlarga yuboriladi (Odatda, har yili 100–150 tagacha tashqi taqrizchilar o'z hissalarini qo'shadilar).

3. Obyektini joyida o'rganish. Bir yoki bir nechta IUCN va tashqi ekspertlarni o'z ichiga olgan ishchi guruhi nomzodlikka tavsiya qilingan obyektini joyda baholaydi va tegishli milliy va mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy hamjamiyatlar, NNTlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muhokama qiladi. Ushbu safarlar odatda may va noyabr oylari orasida amalga oshiriladi. Aralash obyektlar va muayyan madaniy landshaftlarning aralash holatlarida ushbu safarlar ICOMOS bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

4. IUCN Butunjahon merosi hay'ati tahlili. Har bir nomzodni o'rganib chiqish uchun IUCN Butunjahon merosi hay'ati odatda dekabr oyida Shveysariyada joylashgan IUCN bosh qarorgohida kamida bir yilda bir marotaba yig'iladi. Lozim bo'lganda ikkinchi yig'ilish yoki telefon konferensiyasi, odatda, keyingi yilning mart oyida tashkil etiladi. Ushbu hay'at nomzodlik hujjatlarini, ishchi guruhlarining obyektlarni joylarda o'rganish bo'yicha hisobotlarini, boshqa tashkilot vakillari tahlillarini, obyekt ma'lumotlari varaqalarini va boshqa tegishli ma'lumotnoma materiallarini chuqur o'rganadi va o'zining texnik maslahatini va har bir nomzodlik bo'yicha tavsiyalarini IUCNga taqdim etadi. May oyida so'nggi hisobot tayyorlanadi va Butunjahon merosi Qo'mitasi a'zolariga tarqatish uchun Butunjahon merosi markaziga yuboriladi.

5. Yakuniy tavsiyalar. Iyun yoki Iyul oylarida Butunjahon merosining yillik sessiyasida IUCN surat va xaritalardan foydalanilgan holdagi baholash jarayoni natijalari va tavsiyanomalarini Qo'mitaga taqdim etadi va har qanday qo'shimcha savollarga javob beradi. Butunjahon merosi Qo'mitasi nomzodi ko'rsatilgan obyektini Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish yoki kiritmaslik haqidagi yakuniy qarorni qabul qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, IUCN baholash jarayonida Ishtirokchi-davlatga barcha kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday savol yoki muammoga oydinlik kiritish uchun imkoniyat yaratib berish maqsadida Ishtirokchi-davlat bilan muloqotni rivojlantirish va davom ettirishga intiladi. Shu sababli IUCN Ishtirokchi-davlatdan qo'shimcha ma'lumot so'rashi mumkin bo'lgan uchta holat mavjud. Ular quyidagilar:

- Obyektlarni joylarda o'rganish bo'yicha safardan oldin – IUCN ishtirokchi-davlatga, odatda, bevosita qabul qiluvchi mamlakatda safarni tashkil etuvchi shaxsga missiya haqida brifing yuboradi. Ushbu brifingda ko'p hollarda safar davomida muhokama qilinishi kerak bo'lgan aniq savollar va masalalar ko'tariladi. Bu Ishtirokchi-davlatga oldindan yetarlicha tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.
- Obyektlarni joylarda o'rganish bo'yicha safardan so'ng – Missiya davomida yuzaga kelgan muhokamalar asosida, Hay'at tavsiyanoma berish uchun nomzod haqida barcha kerakli ma'lumotlarga egaligiga ishonch hosil qilish maqsadida IUCN Butunjahon merosi hay'atining dekabrda yig'ilishidan oldin qo'shimcha ma'lumotlar so'rab rasmiy xat yuborishi mumkin.
- IUCN Butunjahon merosi Hay'ati yig'ilishidan so'ng – agar Hay'at javobsiz qolgan savollar yoki aniqlik kiritilishi kerak bo'lgan masalalar bor deb hisoblasa, Ishtirokchi-davlatga ma'lum bir muddatgacha taqdim etilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilingan yakuniy xat yuboriladi. IUCNga baholashni yakunlab olishi uchun imkoniyat yaratib berish maqsadida ko'rsatilgan muhlatga qat'iy amal qilinishi shart.

**Eslatma:** Agar nomzodlarni ko'rsatish vaqtida va safar davomida Ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar talabga javob bersa, IUCN tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinmaydi. Qo'shimcha ma'lumotlar maxsus savol yoki masalaga javob sifatida

## 5 Baholash jarayoni

taqdim etilishi va butunlay qaytalab ko'rib chiqilgan nomzodlardan yoki katta hajmdagi yangi ma'lumotlardan iborat bo'lmashligi so'raladi.


Nomzodi ko'rsatilgan obyektning texnik jihatdan baholashda bir-biriga o'xshash obyektlar nomzodini taqqoslash uchun Udvardin biogeografik provintsiya konsepsiyasidan foydalanilgan. Ushbu metod tabiiy obyektlarni xolis taqqoslaydi va global miqyosda o'xshashlikni baholashning amaliy vositalari bilan ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda Butunjahon merosi obyektlari biolarning kengroq asoslarida solishtirilishi mumkin. O'ziga xos xususiyatlarni, yashash joylarini va fauna yoki o'simlik xususiyatlarini o'z ichiga olishi talab qiladi.

Biogeografik provintsiya tushunchasi faqat taqqoslash uchun asos sifatida qo'llaniladi va Butunjahon merosi obyektlarini aynan shu mezon bo'yicha baholashni nazarda tutmaydi. Bundan tashqari, Xalqaro bio xilma-xillikni muhofaza qilish punktlari, Butunjahon tabiatni muhofaza qilish fondi (WWF), eko-mintaqalar, BirdLife xalqaro Endemik qushlar hududlari, O'simliklar xilma-xilligi bo'yicha IUCN/WWF markazlari va IUCN/SSC (turlarni saqlab qolish qo'mitasi) yashash joylari tasnifi, shuningdek, Butunjahon merosi tarmog'ining 2004-yilgi IUCN/UNEP-WCMC tahlili kabi global ustuvorlikni belgilash tizimlari global ahamiyatga ega obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Va nihoyat, baholash jarayoniga IUCN, UNEP-WCMC va boshqa bir nechta nashriyotlar tomonidan chop etilgan dunyoning muhofaza qilinadigan hududlari bo'yicha 20ga yaqin ma'lumotnoma jildlarini ko'mak ko'rsatadi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Afrika, Osiyo va Okeaniya davlatlarida muhofaza etiladigan hududlar tizimi tahlili;
- Dunyoning muhofaza qilinadigan hududlari haqida to'rt jildlik katalog;
- Olti jildlik Global bioxilma-xillik Atlas turkumlari;
- O'simliklar xilma-xilligini o'rganish markazining 3 jildlik katalogi;
- Dunyoning marjon qoyalarning 3 jildlik katalogi;
- Dengiz muhofaza qilinadigan hududlarining global vakillik tizimi haqida 4 jildlik to'plami.

Ushbu hujjatlar birgalikda butun dunyo bo'ylab himoyaga olingan hududlarning konservativ qiymatini taqqoslash imkonini beruvchi tizimlararo tahlillarni o'zida aks ettiradi.



### 5.3. ICOMOS tomonidan baholash jarayoni

Madaniy obyektlar nomzodlarini baholashni amalga oshirishda ICOMOS (yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro kengash) Konvensiyani amalga oshirishda Operatsion qo'llanma qoidalariga amal qiladi (148-paragrafni ko'ring).

Baholash jarayoni (125-betdagi ma'lumotlarni ko'ring) o'z ichiga ICOMOS a'zolari va uning milliy va xalqaro Qo'mitalari a'zolari, shuningdek u bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'plab ixtisoslashgan tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan keng doiradagi ekspertlar bilan maslahatlashuvlarni o'z ichiga oladi.

A'zolar, shuningdek, joylarda maxfiy baholashni amalga oshirish maqsadida yuboriladi. Ushbu keng qamrovli maslahatlashuvlar natijalari asosida Butunjahon merosi Qo'mitasining yillik yig'ilishlarida taqdim etiladigan batafsil tavsiyalar tayyorlanadi.

#### Ekspertlarni tanlash

Butunjahon merosi ro'yxatiga obyektlarning kiritilishi uchun aniq belgilangan yillik jarayon mavjud. YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxati tomonidan yangi nomzodlar to'liqligi tekshirilgani zahoti, nomzodlik fayllari ICOMOSga yuboriladi va u yerda ular ICOMOS Butunjahon merosi Kotibiyati tomonidan ko'rib chiqiladi. Ilk talab qilinuvchi harakat bu maslahat uchun ekspertlar jamoasini tanlab olishdir. U ikkita alohida guruhdan tarkib topadi. Bunda birinchi guruh a'zolari, nomzodi ko'rsatilgan obyektning Butunjahon mislsiz qiymati bo'yicha maslahat beradigan ekspertlar. Bu mutaxassis akademiklar uchun «kutubxona» mashg'uloti bo'lib, va ba'zida ICOMOS a'zosi bo'lmaganlar ICOMOS a'zolari ma'lum bir mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan hollarda ishtirok etishlari mumkin: masalan, paleontologlarning xizmatlari talab qilinadigan ibtidoiy odam tosh qoldiqlari topilgan yerlar bo'yicha nomzodlik holatlarida.

Ikkinchi guruh obektlarni joyda o'rganish bo'yicha zarur bo'lgan, alohida obyektlarning boshqaruv, muhofaza qilish va asllik xususiyatlari bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lgan ekspertlardan iborat. Ushbu mutaxassislarni saralab olish jarayonida ICOMOS tarmog'idan to'liq foydalaniladi. Sanoat merosini saqlash xalqaro qo'mitasi (TICCIH), Xalqaro landshaft arxitektorlari federatsiyasi (IFLA) va Zamonaviy Harakat yodgorliklari va obidalarini hujjatlashtirish va muhofaza qilish xalqaro qo'mitasi (Dokomomo) kabi ICOMOS bilan hamkorlik shartnomalari bor Xalqaro ilmiy qo'mitalar, ixtisoslashgan organlarning a'zolaridan maslahat so'raladi.

#### Obyektning joyda o'rganish


Obyektlarni o'rganuvchi ekspertlarni tanlashda ICOMOS siyosatiga ko'ra imkoni boricha nomzodi ko'rsatilgan obyekt joylashgan hududdan mahalliy mutaxassislarni jalb qilish kerak. Bunda ekspertlardan madaniy meros boshqaruvi va muhofazasi bo'yicha tajribaga ega bo'lishlari talab etiladi; shu bilan birga ular bu kabi obyektlar bo'yicha oliy toifali ekspert bo'lishlari shart emas. Ulardan obyekt ish boshqaruvchilari bilan kasbiy tenglik asosida muloqot olib bora olishi va boshqaruv rejaları, saqlash amaliyoti, tashrif buyuruvchilar bilan muomala qilish kabi jarayonlarni asosli baholay olishlari talab qilinadi. Buning uchun ularga nomzodlik faylidan tegishli ma'lumotlar nusxalarini o'z ichiga oluvchi batafsil brifinglar taqdim etiladi. Ular tashrif kunlari va dasturlari Ishtirokchi-davlatlar bilan maslahatlashgan holda kelishib olinadi, bunda ulardan ICOMOS baholash missiyalariga ommaviy axborot vositalari e'tiborini kamroq qaratish so'raladi. ICOMOS ekspertlari Ijro etuvchi Qo'mitaga tegishli obyektlarning amaliy jihatlari bo'yicha yashirin tarzda o'z hisobotlarini taqdim etishadi va muddatidan avval e'lon qilish har ikkala tomon - ICOMOS, Ishtirokchi-davlatni, hamda Butunjahon merosi Qo'mitasini noqulay vaziyatga solib qo'yishi mumkin.

**Butunjahon merosi Hay’ati**

Parijda joylashgan ICOMOS Kotibiyati tomonidan ushbu rasmiy uchrashuvlardan olingan ikki turdagi hisobotlari (madaniy baholash va obyektlarni o’rganish hisoboti) qabul qilinadi va ulardan baholash loyihasi tayyorlanadi. Bu obyektning qisqacha tarixi va tavsifi, uni qonuniy muhofaza qilish, boshqarish va saqlash holatining qisqacha xulosalari, ushbu aspektlar bo’yicha sharhlar va Butunjahon merosi Qo’mitasining tavsiyalari loyihasini o’z ichiga oladi. Baholash loyihasi ICOMOS Butunjahon merosi Hay’atining ikki yoki uch kunlik kengashlarda taqdim etiladi. Hay’at dunyoning barcha joylaridan tashrif buyurgan va keng ko’lamli bilim va tajribaga ega ijro etuvchi Qo’mita a’zolaridan iborat.

Ijroiya qo’mitasi a’zolari yillik nominatsiyalar ro’yxatida ko’rsatilgan, lekin Qo’mita tarkibiga kirmaydigan merosning ayrim toifalari bo’yicha ekspertlar bilan to’ldiriladi. Qabul qilib olingan nomzodlarning xususiyatlariga qarab ICOMOS TICCIH va DOCOMOMO vakillarini ham Hay’at a’zoliciga taklif qilinishi mumkin.

Hay’at ICOMOS siyosati hujjatidagi ko’rsatmalarga amal qilib (ICOMOS sayti orqali tanishishingiz mumkin), maxfiylik shartlari asosida faoliyat yuritadi. Har bir nomzodi ko’rsatilgan obyekt bo’yicha ICOMOS vakili tomonidan 10-15 daqiqalik ko’rgazmali taqdimot bo’lib o’tadi va undan so’ng mavzu yuzasidan muhokamalar bo’lib o’tadi. Nomzodlar xolisona va keng ko’lamli o’rganilib chiqilganidan keyin ICOMOS tomonidan umumiy tavsiyanomalari tayyorlanadi, baholar qayta ko’rib chiqilib, Butunjahon merosi Qo’mitasiga taqdim etish uchun chop etiladi.



# ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## Umumiy ma’lumot

Badman, T., Bomhard, B. and Dingwall, P. 2008. World Heritage Nominations for Natural Properties: A Resource Manual for Practitioners. Gland, Switzerland, IUCN.

Cameron, C. 2005. Background Paper for the Special Expert Meeting of the World Heritage Convention: The Concept of Outstanding Universal Value. Kazan, Republic of Tatarstan, Russian Federation.  
[cmsdata.iucn.org/downloads/kazan\\_abs\\_english.pdf](http://cmsdata.iucn.org/downloads/kazan_abs_english.pdf)

de Merode, E., Smeets, R. and Westrik, C. 2004. Linking Universal and Local Values: Managing a Sustainable Future for World Heritage. Paris, UNESCO World Heritage Centre. (World Heritage Papers 13.)  
<http://whc.unesco.org/en/series/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/series/> (French web page)

Dingwall, P., Weighell, T. and Badman, T. 2005. Geological World Heritage: A Global Framework. Gland, Switzerland, IUCN.

Engels, B., Ohnesorge, B. and Burmester, A. (eds). 2009. Nominations and Management of Serial Natural World Heritage Properties – Present Situation, Challenges and Opportunities. Proceedings of a workshop organized by the German Federal Agency for Nature Conservation (BfN) in cooperation with the UNESCO World Heritage Centre and IUCN, November 26–30 2008.

Hockings, M., James, R., Stolton, S., Dudley, N., Mathur, V., Makombo, J., Courrau, J. and Parrish, J. 2008. Enhancing Our Heritage Toolkit, Assessing Management Effectiveness of Natural World Heritage Sites. Paris, UNESCO World Heritage Centre. (World Heritage Papers 23.)  
<http://whc.unesco.org/en/series/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/series/> (French web page)

ICOMOS. 1965. International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites (The Venice Charter 1964). Paris, ICOMOS. [http://www.icomos.org/venice\\_charter.html](http://www.icomos.org/venice_charter.html)

ICOMOS. 2005a. The World Heritage List: Filling the Gaps – An Action Plan for the Future. Paris, ICOMOS.  
[http://www.international.icomos.org/world\\_heritage/gaps.pdf](http://www.international.icomos.org/world_heritage/gaps.pdf) (English web page) [http://www.international.icomos.org/world\\_heritage\\_fre/whlgaps.htm](http://www.international.icomos.org/world_heritage_fre/whlgaps.htm) (French web page)

ICOMOS. 2005b. Xi’an Declaration on the Conservation of the Setting of Heritage Structures, Sites and Areas.  
<http://www.international.icomos.org/charters/xian-declaration.pdf>

ICOMOS. 2008. Compendium on Standards for the Inscription of Cultural Properties to the World Heritage List.  
[whc.unesco.org/en/sessions/32COM/documents/](http://whc.unesco.org/en/sessions/32COM/documents/)

# ADABIYOTLAR RO'YXATI

IUCN. 2000. World Heritage and Mining.

<http://unesdoc.unesco.org/images/0012/001231/123112e.pdf>

IUCN. 2003. World Heritage in the Boreal Zone. IUCN web-sahifasida mavjud.

IUCN. 2004. Review of the World Heritage Network: Biogeography, Habitats and Biodiversity: A Contribution to the Global Strategy for World Heritage Natural Sites. IUCN web-sahifasida mavjud.

IUCN. 2005a. Enhancing the IUCN Evaluation Process of World Heritage Nominations: A Contribution to Achieving a Credible and Balanced World Heritage List. IUCN web-sahifasida mavjud.

IUCN. 2005b. World Heritage Thematic Study for Central Asia: A Regional Overview. IUCN web-sahifasida mavjud.

IUCN. 2006. The World Heritage List: Guidance and Future Priorities for Identifying Natural Heritage of Potential Outstanding Universal Value. IUCN web-sahifasida mavjud

IUCN. 2007. Harmonisation of Tentative Lists in Central, Eastern and South-Eastern Europe. IUCN web-sahifasida mavjud

IUCN. 2008a. Management Planning for Natural World Heritage Properties, A Resource Manual for Practitioners, interim version. IUCN Programme on Protected Areas. (IUCN World Heritage Studies 5.) IUCN web-sahifasida mavjud

IUCN. 2008b. Outstanding Universal Value – Standards for Natural World Heritage, A Compendium on Standards for Inscriptions of Natural Properties on the World Heritage List. IUCN web-sahifasida mavjud.

IUCN. 2008c. World Heritage and Protected Areas. IUCN web-sahifasida mavjud

IUCN. 2008d. World Heritage Caves and Karst. IUCN web-sahifasida mavjud

IUCN. 2009. Serial Natural World Heritage Properties. IUCN web-sahifasida mavjud.

Jokilehto, J. 2008. The World Heritage List. What is OUV? Defining the Outstanding Universal Value of Cultural World Heritage Properties. Paris, ICOMOS. (Monuments and Sites XVI.) <http://www.international.icomos.org/publications/index.html>

Magin, C. and Chape, S. 2004. Review of the World Heritage Network: Biogeography, Habitats and Biodiversity. IUCN/UNEP-WCMC.

Martin, O. and Piatti, G. (eds). 2009. World Heritage and Buffer Zones, International Expert Meeting on World Heritage and Buffer Zones, Davos, Switzerland, 11–14 March 2008.

Paris, UNESCO World Heritage Centre. (World Heritage Papers 25.) <http://whc.unesco.org/en/series/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/series/> (French web page)



# ADABIYOTLAR RO'YXATI

Pedersen, A. 2002. Managing Tourism at World Heritage Sites: a Practical Manual for World Heritage Site Managers. Paris, UNESCO World Heritage Centre. (World Heritage Manuals 1.)

<http://whc.unesco.org/en/series/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/series/> (French web page)

UNESCO. 1972. Convention concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. (World Heritage Convention).

<http://whc.unesco.org/en/conventiontext/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/conventiontexte/> (French web page)

UNESCO. 2003. Convention for the Safeguarding of Intangible Cultural Heritage. <http://www.unesco.org/culture/ich/index.php?lg=en&pg=00022> (English web page) <http://www.unesco.org/culture/ich/index.php?lg=fr&pg=00022> (French web page)

UNESCO World Heritage Centre. Tentative Lists. <http://whc.unesco.org/en/tentativelists/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/listesindicatives/> (French web page)

UNESCO World Heritage Centre. World Heritage List. <http://whc.unesco.org/en/list/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/list/> (French web page)

UNESCO World Heritage Centre. 1994. Nara Document on Authenticity. [http://www.international.icomos.org/charters/nara\\_e.htm](http://www.international.icomos.org/charters/nara_e.htm) (Shuningdek, Operatsion q'llanmalarining 4-ilovasi sifatida ko'rsatilgan.)

UNESCO World Heritage Centre. 2005. Vienna Memorandum on World Heritage and Contemporary Architecture – Managing the Historic Urban Landscape. [whc.unesco.org/archive/2005/whc05-15ga-inf7e.doc](http://whc.unesco.org/archive/2005/whc05-15ga-inf7e.doc)

UNESCO World Heritage Centre. 2011. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention.

<http://whc.unesco.org/en/guidelines/> (English web page) <http://whc.unesco.org/fr/> (French web page)

UNESCO World Heritage Centre / Government of the Netherlands. 1998. Report of the World Heritage Global Strategy Natural and Cultural Heritage Expert Meeting, 25 to 29 March 1998, Amsterdam, the Netherlands.

UNESCO World Heritage Centre / ICCROM. 2004. Monitoring World Heritage. (World Heritage Papers 10.)

[http://www.international.icomos.org/world\\_heritage/gaps.pdf](http://www.international.icomos.org/world_heritage/gaps.pdf) (English web page) [http://www.international.icomos.org/world\\_heritage\\_fre/whlgaps.htm](http://www.international.icomos.org/world_heritage_fre/whlgaps.htm) (French web page)

Tabiiy ob'yektlarni global qiyosiy tahlil qilish, hamda Dastlabki ro'yxatlarni ko'rib chiqish va yangilash bo'yicha qo'shimcha ma'lumot manbalari.

IUCN texnik va tematik izlanishlar

- The World's Greatest Natural Areas: an indicative inventory of natural sites of World Heritage Quality (1982).
- Earth's Geological History: a contextual framework for assessment of World Heritage fossil site nominations (1994).

# ADABIYOTLAR RO'YXATI

A Global Overview of Wetland and Marine Protected Areas on the World Heritage List (1997).

- A Global Overview of Forest Protected Areas on the World Heritage List (1997).
- A Global Overview of Human Use of World Heritage Natural Sites (1997).
- A Global Overview of Protected Areas on the World Heritage List of Particular Importance for Biodiversity (2000).
- Which Oceanic Islands Merit World Heritage Status? (1991).
- Report of the Working Group on Application of the World Heritage Convention to Islands of the Southern Ocean (1992).
- Future Directions for Natural World Heritage Sites in East and Southeast Asia. Filling the Biome Gaps: a thematic approach to achieving biodiversity conservation through World Heritage, Les Molloy (2000).
- Potential Natural World Heritage Sites in Europe, Lars-Erik Esping (1998).
- A Global Representative System of Marine Protected Areas, World Bank / IUCN, 4 vols (1995).

Potensial tabiiy jahon merosi obyektlarini aniqlash bo'yicha YUNESKOning Butunjanjon merosi sohasida tanlangan mintaqaviy uchrashuvlari va tashabbuslari hisobotlari

- Task force to select a global inventory of fossil sites (1991).
- Nordic World Heritage – proposals for new areas for the UNESCO World Heritage List (1996).
- Identification of potential World Heritage sites in Arab countries (1999).
- Tropical forests (Berastagi meeting report, 1998).
- Identification of World Heritage properties in the Pacific (1999).
- Regional workshop on the nomination of World Heritage sites, Mozambique (2000).
- Seminar on natural heritage in the Caribbean, Suriname (2000).
- Central Asian meeting (2000).
- Karst sites in East and South East Asia (2001).
- Alpine Arc meetings (2000–2001).
- Tropical marine and coastal sites (Viet Nam workshop, 2002).
- Boreal forest protected areas (Russian Federation, October 2003).

## Foydalanilgan adabiyotlar

BirdLife International. 1998. Endemic Bird Areas of the World: Priorities for Biodiversity Conservation. Cambridge, UK, BirdLife International.

BirdLife International. 2000. Threatened Birds of the World. Barcelona/Cambridge, Lynx Edicions/BirdLife International.

Hillary, A., Kokkonen, M. and Max, L. (eds). 2003. Proceedings of the World Heritage Marine Biodiversity Workshop. Paris, UNESCO World Heritage Centre. (World Heritage Papers 4.)

ICOMOS. 2004. ICOMOS Analysis of the World Heritage List and Tentative Lists and Follow-Up Action Plan. Paris, ICOMOS.

IUCN. 1997. World Heritage Special Issue. PARKS, Vol. 7, No. 2.

IUCN. 2004. The World Heritage List: Future Priorities for a Credible and Complete List

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI

of Natural and Mixed Sites. Gland, Switzerland, IUCN Protected Areas Programme.

Miklos, D. F. and Udvardy, M. 1975. A Classification of the Biogeographical Provinces of the World – Prepared as a contribution to UNESCO’s Man and the Biosphere Programme. Morges, Switzerland, IUCN. (Occasional Paper No. 18.)

Smith, G. and Jakubowska, J. 2000. A Global Overview of Protected Areas on the World Heritage List of Particular Importance for Biodiversity. Cambridge, UK, UNEP World Conservation Monitoring Centre.

Thorsell, J., Ferster Levy, R. and Sigaty, T. 1997. A Global Overview of Wetland and Marine Protected Areas on the World Heritage List. Gland, Switzerland, IUCN Natural Heritage Programme.

Thorsell, J. and Hamilton, L. 2002. A Global Overview of Mountain Protected Areas on the World Heritage List. Gland, Switzerland, IUCN Protected Areas Programme.

Thorsell, J. and Sigaty, T. 1997a. A Global Overview of Forest Protected Areas on the World Heritage List. Gland, Switzerland, IUCN Natural Heritage Programme.

Thorsell, J. and Sigaty, T. 1997b. Human Use of World Heritage Natural Sites: A Global Overview. Gland, Switzerland, IUCN Natural Heritage Programme.

UNEP-WCMC. 1992. Global Biodiversity: Status of the Earth’s Living Resources. London, Chapman & Hall/World Conservation Monitoring Centre.

UNEP-WCMC. 2004. Review of the World Heritage Network: Biogeography, Habitats and Biodiversity. Cambridge, UK, UNEP World Conservation Monitoring Centre

Wells, R. T. 1996. Earth’s Geological History: A Contextual Framework for Assessment of World Heritage Fossil Site Nominations. Gland, Switzerland, IUCN Natural Heritage Programme.

YTMF / IUCN. 1994. Centres of Plant Diversity: A Guide and Strategy for their Conservation – Volume 1. 3 vols. Cambridge, UK, IUCN Publications Unit.

# Bog'lanish uchun ma'lumotlar

Tashkilot nomi va manzili	Qisqacha ma'lumot	Konvensiya doirasidagi majburiyati
<p>ICCROM Via di S. Mishel, 13 I-00153 Rim, Italiya</p> <p>Tel: +39 06 585-531 Faks: +39 06 5855-3349 E-mail: <a href="mailto:iccrom@iccrom.org">iccrom@iccrom.org</a> <a href="http://www.iccrom.org">http://www.iccrom.org</a></p>	<p>ICCROM (Madaniy obyektlarni saqlash va tiklashni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz) shtab-kvartirasi Rimda, Italiyada joylashgan hukumatlararo tashkilotdir. 1956-yilda YUNESKO tomonidan tashkil etilgan ICCROMning nizomiy vazifalari ko'chmas va ko'char madaniy merosni saqlashni kuchaytirish uchun tadqiqot, hujjatlashtirish, texnik yordam, o'qitish va jamoatchilikni xabardor qilish dasturlarini amalga oshirishdan iborat.</p>	<p>Konvensiyaga nisbatan IKKROMning o'ziga xos roli quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• madaniy meros uchun kadrlar tayyorlashda ustuvor hamkor bo'lish</li> <li>• Butunjahon merosi obyektlarining saqlanish holatini monitoring qilish;</li> <li>• Ishtirokchi-davlatlar tomonidan yuborilgan xalqaro yordam olish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish; va</li> <li>• salohiyatni oshirish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>
<p>ICOMOS 49-51, Rue de la Federation 75015, Parij Fransiya</p> <p>Tel: +33 (0)1 45 67 67 70 Faks: +33 (0)1 45 66 06 22 E-mail: <a href="mailto:secretariat@icomos.org">secretariat@icomos.org</a> <a href="http://www.icomos.org">http://www.icomos.org</a></p>	<p>ICOMOS (Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar Xalqaro kengashi) nodavlat tashkilot bo'lib, bosh qarorgohi Parijda (Fransiya) joylashgan. U 1965-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning roli arxitektura va arxeologik merosni saqlashda nazariya, metodologiyasi va ilmiy usullarni qo'llashga ko'maklashishdan iborat. Uning ishi 1964-yilda qabul qilingan yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni saqlash va tiklash bo'yicha xalqaro Xartiya (Venetsiya Xartiyasi) tamoyillariga asoslanadi.</p>	<p>Konvensiyaga nisbatan ICOMOSning o'ziga xos roli quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etilgan obyektlarni baholash;</li> <li>• Butunjahon merosi ob'ektlarining saqlanish holatini monitoring qilish;</li> <li>• Ishtirokchi-davlatlar tomonidan yuborilgan xalqaro yordam olish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish; va</li> <li>• salohiyatni oshirish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>
<p>IUCN Rue Mauverney 28 CH-1196, Gland Shveysariya</p> <p>Tel: +41 (22) 999-0000 Faks: +41 (22) 999-0002 E-mail: <a href="mailto:worldheritage@iucn.org">worldheritage@iucn.org</a> <a href="http://www.iucn.org">http://www.iucn.org</a></p>	<p>IUCN (Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi) 1948 -yilda tashkil etilgan bo'lib, milliy hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va olimlarni jahon miqyosidagi hamkorlik maqsadida birlashtiradi. Uning vazifasi butun dunyo bo'ylab jamiyatlarga tabiatning yaxlitligi va xilma-xilligini saqlash hamda tabiiy resurslardan har qanday foydalanish oqilona va ekologik jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlashga ta'sir ko'rsatish, rag'batlantirish va yordam berishdan iborat. IUCN shtab-kvartirasi Shveysariyaning Gland shahrida joylashgan.</p>	<p>Konvensiyaga nisbatan IUCNning o'ziga xos roli quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etilgan obyektlarni baholash;</li> <li>• Butunjahon merosi obyektlarining saqlanish holatini monitoring qilish;</li> <li>• Ishtirokchi-davlatlar tomonidan yuborilgan xalqaro yordam olish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish; va</li> <li>• salohiyatni oshirish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>

# Bog'lanish uchun ma'lumotlar

Tashkilot nomi va manzili	Qisqacha ma'lumot
<p>YUNESKO Butunjahon merosi markazi 7, joy de Fontenoy, 75352 Parij, 07 SP Fransiya</p> <p>Tel: +33 (0)1 45 68 18 76 Faks: +33 (0)1 45 68 55 70 E-mail: wh-info@unesco.org <a href="http://whc.unesco.org">http://whc.unesco.org</a></p>	<p>1992-yilda tashkil etilgan Butunjahon merosi markazi YUNESKO doirasida Butunjahon merosiga oid barcha masalalar bo'yicha mas'ul va muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Konvensiyaning kundalik boshqaruvini ta'minlab, Markaz Butunjahon merosi Qo'mitasining yillik sessiyalarini tashkil qiladi, Ishtirokchi-davlatlarga obyektlar nomzodligini tayyorlashda maslahat beradi, murojaat bo'yicha Butunjahon merosi jamg'armasidan xalqaro yordamni tashkil qiladi, obyektlarning holati to'g'risidagi hisobotlarni hamda obyektga nisbatan xavf tug'ilgan paytda favqulodda holatda ko'rilgan chora-tadbirlar bo'yicha hisobotlarni muvofiqlashtiradi. Markaz, shuningdek, texnik seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi, Butunjahon merosi ro'yxati va ma'lumotlar bazasini yangilaydi, merosni asrab-avaylash zarurligi to'g'risida yoshlar o'rtasida xabardorlikni oshirish uchun o'quv materiallarini ishlab chiqadi, jamoatchilikni Butunjahon merosi muammolari bilan tanishtiradi.</p>



ISBN 978-92-3-000188-9

